

ADABIYOT 329

XRESTOMATIYASI

O' B (toj)
S-35

Sa'diy
**GULISTON
BO'STON**

8 jild

ADABIYOT

XRESTOMATIYASI

0, B (10j)
S-35

Sa'diy

GULISTON

BO'STON



8 - jild

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2018


UO•K 821.512.133-1

KBK 84(5 Toj)

S-35

Nashrga tayorlovchi

Hamidjon Homidiy



ISBN 978-9943-4799-8-2

© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy
uyi, 2018



GULISTON

Forschadan

*G'afur G'ulom,
Shoislom Shomuhamedov,
Rustam Komilov* tarjimasi

DEBOCHA

KITOBNING YOZILISH SABABI

Bir kun kechasi o'tgan kunlarimni eslab, behuda ketgan umrimga afsus-nadomatlar chekar, ko'nglim uyi toshini olmos yanglig' ko'z yoshlarim bilan teshar va o'z holatimga munosib tushadigan ushbu baytlarni o'qir edim:

Har damda umrdan nafas o'tadi,
Bir qiyo boqquncha yitib ketadi!
Uyquda o'tganday o'tdi ellik yil,
Qolgan besh kun umr qayg'usin qilgil.
Ishni bitirmagan uyatda qolur,
Karvon nog'orasidan ortda qolur.
Yo'lovchining tonggi shirin uyqusi
Manzilga yetishga to'siq bo'lg'usi.
Kim bu yerga keldi, bir bino soldi,
O'zi jo'nab ketdi, o'zgaga qoldi.
Birovlar qilsa ham shuningdek havas,
Imorat bitmadi, bitmadi nafas.
Vafosiz dunyoga dil berma zinhor,
Hech kimga do'st bo'lmas charxi kajraftor.
O'ladi shubhasiz yaxshi ham yomon,
Baxtlidur yaxshi nom qoldirgan inson.
Tiriksan go'ringga gullar ekib qol,
Keyin qo'zg'almoqqa qolmagay majol.
Davron oftob-u, umr xuddi qor,
Tiriksan, mag'rurlik qilmagil zinhor.
Puling yo'q, bozorda nima qilasan,
Qo'rqaman sallangdan ajrab kelasan.

Kimki o'z hosilin xom yeb tugatar,
Kuz kuni xirmondan mashoqlar terar.¹

Shunday xayollarga borib, o'ylab ko'rganimdan so'ng,
oxirida pushaymon qilmaslik va kelgusida o'z sha'nimga
quyidagi baytni ep bilmaslik uchun xilvatga chekinishim,
do'stlar suhbatini tark qilishim, siyna daftaridagi behuda
so'zlardan qutulishim kerak, degan qarorga keldim.

Biror burchakda tilsiz, gung-u lol o'tirguvchi odam
Tilin tiymoqni bilmovchi kishidan afzal-u ko'rkam.

Shu vaqt bir mahallar g'am kajavasida hamrohim,
hujramda dilxohim bo'lgan do'stlarimdan biri, eski odati
bo'yicha, eshigimdan kirib keldi. U qanchalar hazil-mutoyi-
balar qilmasin va xandon tashlab kulmasin, men unga ja-
vob bermadim, ibodatdan bosh ko'tarmadim. Shunda uning
ko'ngli o'ksidi, menga qarab dedi:

Bukun so'zlamogga senda imkon bor,
Har qancha yaxshi so'z topsang, aytib qol.
Ertaga ajalning elchisi kelgach,
Tiling qimirlashga topmagay majol.

Yaqin do'stlarimdan biri unga voqeani tushuntirib,
dediki: «Sa'diy qolgan umrini toat-ibodatda, xomushlik,
sukunatda kechirmogga azm va jazm etdi. Agar qurbing
yetsa, sen ham shunday qilmog'ing maslahatdir».

¹ «Guliston»ning ko'pgina qo'lyozma nusxalari va toshbosma nashrlarida har bir she'riy parchaning ustiga «misra», yo «bayt», yo «masnaviy», yo «qit'a» deb yozilgan. Lekin «Guliston»ning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlagan Ozarbayjon olimi Rustam Aliyevning aniqlashicha, she'riy parchalar ustidagi bu nomlar keyingi asrlarda noshirlar tomonidan qo'yilgan ekan (*R. Komilov*).

Do'stim javobida dedi:

«Xudoning azimligi va oramizdagi do'stlikning qadimiyligiga qasamki, agar u men bilan avvaldagi yanglig' muomalada bo'lmasa, uni tashlab ketolmayman, nafas olmayman, tashqariga yo'l solmayman. Chunki do'stni ranjitgan nodon, ammo qasamni buzmoq osondir. Ichgan qasamining gunohini osongina bartaraf eta oladi, biroq uning tanlagan yo'li nodurustdir. Oqillar nazdida Alining qilichig' ilofida va Sa'diyning tili komida, harakatsiz turmog'i mantiqdan xorijdir».

Og'iz ichida til nedur, ey oqil

Hunar xazinasin kalididur u.

Eshik yopiq ekan bilib bo'lmagay

U yerda nima bor, munchoqmi, inju.

Agarchi bilimdonlar huzurida jim turish

Odobdur. Ammo payti kelganida so'zlab qol.

Ikki hol aqlsizlik: gap kelganda gapirmay,

Zarur chog'da jim turmay, bo'lib ketish so'zamol.

Xulosai kalom, u bilan so'zlashmaslikning ilojini topa olmadim, shunday odam suhbatidan yuz o'girishni muruvvatdan deb bilmadim, zeroiki, u mening samimiy o'rtog'im, sadoqatli do'stim edi.

Biror kishi bilan qilur bo'lsang jang,

Boplab tushirginki holi bo'lsin tang.

Zarurat yuzasidan gaplashmoqqa boshladik-da, shavq-u zavqqa to'lgan holda sayr etgali shahar tashqarisiga chiqdik. Fasli navbahor, qahraton sovuqning kuchi ketgan, gul-u chechaklar davroni yetgan edi.

Daraxtlar ustida yashil ko'ylagi
Bayramda baxtlilar kiyganday yangi.

Jaloliy oy-Urd-bihisht avvali –
Bulbullar sayraydi gul butog'ida:
Qizil gul bargida injuday shabnam
Ter kabi g'azabli yor yonog'ida.

Do'stlarimizdan birining bog'ida tunab qolishga to'g'ri keldi. Bu juda ajoyib bir joy bo'lib, g'oyatda safobaxsh, dilrabo, daraxtlari bir-biriga ayqashib ketgan, yeriga rangorang shisha parchalari to'shalganga o'xshar, tepadan osilib turgan uzum boshlari esa, Surayyo yulduzlar turkumini eslatardi:

Irmoqlar shildiroq, jannatday bog'lar,
Qushlarning sayrash mukammal, mavzun.
O'r-u qir lolalar bilan rangorang,
Mevali daraxtlar ajib gunogun.

Daraxtdan quyiga tushgan ko'lanka
Yerlarni gilamday bezar bus-butun.

Erta tongda, shaharga qaytmoq fikri bog'da qolmoq orzusidan g'olib kelgan mahalda, do'stim etagini atirgul, rayhon, sunbul, nozbo' va boshqa gullar bilan to'ldirib, yo'lga chiqmoq taraddudida ekanini ko'rdim. Unga dedim: «O'zingdan maxfiy emaski, gulning baqosi va gulistonning vafosi yo'qdir. Donishmandlar: «Har nimarsaki, bevafo – muhabbat qo'yishga noravodur!» deb juda to'g'ri aytganlar. Do'stim dedi: «Xo'sh, u holda tadbir nimadir?» Men unga javob berib dedimki: «Mutolaa qilganlarga safo, tinglaganlarga shifo baxsh etadigan «Guliston» nomli kitob yozishim mumkin,

uning yaproqlariga kuz faslining shafqatsiz qo'li yetmaydi va zamona o'zgarishlari uning xurram bahorini hazin kuzga aylantira olmaydi».

Har nechuk gul dilingni qilmas chog',

«Guliston»imdan ol biror yaprog'.

Gul zamoni besh, olti kundur bas,

Bu «Guliston» hamisha pok nafas.

Shu so'zlar og'zimdanda chiqar-chiqmas do'stim etagidagi gullarni yerga to'kib, mening etagimga yopishdi-da, xitob qildi: «Karam sohibi bo'lgan odam va'da berdimi – va'dasiga vafo qilmog'i lozim!» O'sha kunning o'zidayoq kitobning notiqlarga fasohat, adiblarga mahorat baxsh etadigan «Muomala va suhbat qoidalari» deb atalmish dastlabki ikki fasli bitdi. Qisqasi, gulistonda gullar tugamay hamon, bitib tayyor bo'ldi «Guliston»...

* * *

...To shoh saltanatining tiragi, hukumat ishlarining kengashchisi, faqirlarning panohi, musofirlarning takyagohi, ulamolarning murabbiysi, taqvodorlarning do'sti, fors xalqining iftixori, saltanatning quvvati, saralangan arkoni davlatning raisi, din-u dunyoning sha'n-u shavkati, sultonlar-u podshohlarning tayanchi, olamdagi eng buyuk odamlarning tillarida doston bo'lgan, barcha fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan olim, odil va g'olib Abu Bakr ibn Abu Nasr (olloh uning umrini uzun, martabasini baland, qalbini keng, ezgu ishlariga beradigan mukofotini farovon aylasin) ning tabarruk iltifoti ziynati bilan bezanmagunicha fikrimning kelinchagi ko'rsizlikdan xalos bo'lib, kasbi husn yetmaydi, xijolatdan bosh ko'tarib, umidsizlik nazarini yerdan olmaydi va donishmandlar davrasida porlamaydi...

Tangri iltifoti menga bo'lsa yor,
Kitobni bezasa naqshi arjangiy.
Umidim shudurki, tortmayin malol
«Guliston» o'qigan chekmas diltangiy.
Xususan kitobim tojin bezatsa
Muborak zot ismi – Sa'd bin Zangi.
Kimga ko'lka solsa, qilsa inoyat,
Dushmani do'st bo'lur, gunohi toat.

Uning barcha qullari va mulozimlariga ma'lum bir vazifa topshirilgandir. Ulardan qay biridir zimmasidagi mazkur vazifani ado etishda beparvolikka yo'l qo'ysa yoxud kamhafsallalik qilsa javobgar bo'ladi, koyish eshitadi...

Darveshlar toifasi esa, buyuklarning ne'matlariga shukur qilib, ularni duoda yod etadilar. Bu ishni oshkora qilishdan ko'ra yashirincha qilmoq yanada muvofiqroqdir, zeroki, birinchisi, ya'ni oshkora shukur etib, duoda bo'lmoq xushomadga yaqindir, ikkinchisi, ya'ni yashirincha hamd-u sano o'qib, duoda bo'lmoq takallufdan yiroq-u ijobatga yaqin bo'ladi:

Zamonaning onasi senday o'g'il ko'rarkan,
Quvonchidan tiklandi ko'kning bukri qomati.
Kuyning egiligi chun bir bandani ilg'amang,
Jahonlar yaratguchi tangrining chin hikmati.
Kimki ezgu nom bilan abadiy davlat topar
O'lsa ham yaxshilik-la esga olingay oti.
Fazilat egalari maqtasin, maqtamasin,
Go'zal qizga kerakmas pardozchining xizmati.

Saroy xizmatini tark etib, go'shanishin bo'lmog'imning sababi quyidagichadir: hind faylasuflaridan bir guruhi bir joyga yig'ilib, Buzurjmehrning fazilatlaridan bahs etadilar, oxirida uning shoshilmay, salmoqlanib gapirib, tinglovchilarni mahtal qilib qo'yishidan

bo'lak nuqsonini topa olmaydilar. Buzurjmehr bu gapni eshitib, shunday javob beradi: «Nima desam ekan?» deb o'ylash, «Nega shunday deb qo'ydim?» deb pushaymon bo'lishdan yaxshiroqdir».

Dunyoni xo'p ko'rgan, so'z ustasi chol,
So'zlashdan ilgari aniqlar ahvol.
Og'zingga kelganni valaqlay berma,
Keyinroq so'zlaysan, bundan g'am yema.
O'ylab ko'r og'zingdan chiqarkan nafas,
Toki demasinlar: «Qil gapingni bas!»
So'z bilan hayvondan ajralur inson,
Bema'ni gapirgan hayvondan yomon.

Xususan ulug' hukmdorning donishmand vazir-u vuzarolari oldida so'zlashga og'iz ochmoqqa jur'at etsam, huzuri muborakka hech qanday qimmatga ega bo'lmagan, arzimas narsani keltirganday bo'laman. Gavhar bozorida munchoqning narxi bir arpa donacha ham bo'lmaydi-ku axir! Quyosh oldida chiroq nursizlanadi, Alvand tog'i yonida yuksak minoralar pastakkina ko'rinib qoladi.

Kimiki maqtanib desa «manman»
Unga hujum aylar atrofdan dushman.
Sa'diy tushkundur-u ko'ngli ozoda,
Tushkun-la jang etmas hech kim dunyoda.
So'zlashdan ilgari o'ylab ol bir bor,
Avval tamal bosib, so'ngra qo'y devor.
Gulchilik qilaman, bo'stondan uzoq,
Go'zal insonman-u Kan'ondan uzoq.

Men sun'iy gul yasay olaman, lekin gulzorda emas, gavharfurushlik qila olaman, ammo Kan'on shahrida emas. Luqmoni hakimdan: «Hikmatni kimdan o'rgangansan?»

deb so'radilar. Luqmoni hakim shunday javob berdi: «Ko'rlardan, ular oyoqlari ostini yaxshilab tekshirmay turib, qadam bosmaydilar». Arablarda: «Bir joyga kirishdan avval u yerdan chiqish tadbirini ko'r!» degan gap bor.

Xo'roz urisharkan juda pahlavon,
Burgut changalida g'oyatda nimjon.
Sichqon qarshisida mushuk arslon-u,
Arslon qarshisida misoli sichqon.

Lekin ulug'larning qo'l ostilaridagi kishilarning ayrim nuqsonlaridan ko'z yumish va kichiklarning qusurlarini oshkor qilmaslikdek olijanob xususiyatlariga amin bo'lganimdan, muxtasar qilib, bir turkum nodir hikoyalar, masallar, hikmatlar, she'rlar, shuningdek, o'tmish podshohlarning hayot va odatlari haqida bahs etadigan rivoyatlarni ushbu kitobimga to'pladim, aziz umrimning bir qismini shu ishga sarfladim. Kitob yozishimning sababi shu edi.

Bu nazm-u bu tartib yillar qolajak,
Biz esa zarradek to'zg'ib ketamiz.
Bizdan qolajagi naqshlardur, xolos
Va bu borliq esa yo'qolur izsiz.
Endigi yaxshilar bizni eslarkan,
Ezgu so'zlar bilan rahmat kutamiz.

Kitobni bitirib, boblarga ajratar ekanman, maqsadni muxtasar ravishda ifodalamoqqa alohida e'tibor berishni lozim ko'rdim va kitobxonlar zerikib qolmasinlar uchun jannat bog'lariga o'xshab ketadigan ushbu «Guliston»ni sakkiz bobga taqsim qildim:

Birinchi bob – Podshohlar odati bayoni.

Ikkinchi bob – Darveshlar axloqi bayoni.

Uchinchi bob – Qanoatning fazilati bayoni.

To'rtinchi bob – Sukut saqlashning foydalari bayoni.

Beshinchi bob – Ishq va yoshlik bayoni.

Oltinchi bob – Zaiflik va keksalik bayoni.

Yettinchi bob – Tarbiyaning ta'siri bayoni.

Sakkizinchi bob – Suhbat qoidalarini bayoni.

Bu muddat juda ham xushvaqt edik, bil,

Olti yuz-u ellik olti hijriy yil.

Ishimiz to'g'ri yo'l ko'rsatmoq edi,

Tangriga topshirib, jo'namiz endi.



BIRINCHI BOB

PODSHOHLAR ODATI BAYONI

HIKOYAT

Eshitdimki, bir podshoh bir asirni o'ldirishga farmon berdi. Sho'rlik asir hayotdan umidi uzilib, podshohni hoplab so'kishga boshladi. Zeroki: «Kishi jondan umid uzgani zamon, ko'nglida borini etadi bayon» degan xalq maqoli bor.

Qochishning iloji bo'lmasa agar,
Qo'l bilan xanjarning damidan tutar.

Nochor qolgan kishi zo'r berar tilga,
Mag'lub bo'lgan mushuk tashlanur itga.

Podshoh: «U nima deyapti?» deb so'radi. Sofdil vazirlardan biri: «Ey podshohi olam: «Har kimki g'azabin ichiga yutar, u gunoh qilganning gunohin o'tar», deyapti», deb javob berdi. Podshohning rahmi kelib, asirni afv etdi. Sofdil vazirning payini qirqib yuradigan ikkinchi vazir gapga aralashib dedi: «Bizning mavqeimizda bo'lgan odamlar podshoh huzurida faqat rost so'zlashlari lozim. Bu asir podshohni haqorat qildi va sha'niga yomon gaplar aytdi». Podshoh bu so'zni eshitib, qosh-qovog'ini solib dedi: «Sen aytgan rost gapdan ko'ra uning yolg'oni menga ko'proq ma'qul tushdi, chunki uning yolg'oni xayrixohlik yuzasidan aytilgan edi, seniki esa, jinoyatga boshlash uchun aytil-di, donishmandlar: «Fitna qo'zg'atuvchi rostdan maslahatli yolg'on yaxshi», deganlar.

Shohlarga o'z gapin o'tkazgan kishi
Lozimdir yaxshi gap topib aytishi.

Faridun qasrining peshtoqiga shu so'zlar yozilgan edi:

Bu jahon hech kimga qolmas, birodar,
Dilingni tangriga topshirsang yetar.
Tayanch deb bilmagil bu dunyo molin,
Ko'plarni o'stirib, berdi zavolin.
Jon berar ekansan, farqi yo'q sira,
Taxtda o'lasanmi yo tuproq uzra.

HIKOYAT

Xuroson podshohlaridan biri tushida sulton Mahmud Sabuktaginni ko'rdi, uning butun vujudi chirib, tuproqqa aylanib ketgan edi, lekin faqat ko'zlarigina xuddi tirik vaqtidagi singari hali ham ko'z kosasida aylanar va atrofga boqar edi. Bir darveshdan bo'lak barcha ulamolar bu tushning ta'biridan ojiz qoldilar. Tushning ma'nosiga tushungan darvesh dedi: «Ko'rmoqdaki o'zgalar bo'lmish uning mulkiga hukmron, shu boisdan u beqarordir hamon».

Yer ostiga ko'mildilar talay nom chiqarganlar
Va ularning borligidan yerda nishon qolmadi.
O'laksani tuproqlarga topshirib ketgandan so'ng,
Tuproq uni yeb bitirdi-yu, bir ustuxon qolmadi.
No'shirvonning qutluq nomi haligacha tirikdir,
Ammo qancha o'tib ketib No'shirvon qolmadi.
Ey falonchi, yaxshilik qil, umringni bil g'animat,
To kishilar aygunicha, «falon, falon» qolmadi.

HIKOYAT

Eshitdimki, bir shahzoda pakana-yu ko'rksiz, birodarlari esa, baland bo'yli va ko'rkam edilar. Bir kuni otasi

unga mensimasdan tahqir nazari bilan qaradi. Shahzoda bu holatni farosat bilan payqab dedi: «Ey ota, pakana donishmand nodon novchadan yaxshiroqdir. Har nimaning ham baland bo'lgan bilan qomati, baland bo'lavermas ammo qiymati. Qo'y kichik bo'lishiga qaramay, halol, fil katta bo'lsa-da, murdordir».

Tur tog'i ko'p tog'dan tuban, aslida,
Hurmati yuksakdur tangri nazdida.
Shuni eshitdingmi, bir oriq dono
Semiz bir ablahga aytganday bir kun:
– Arab to'pichog'i xipcha bo'lsa ham,
Bir og'il eshakdan qimmatda ustun.

Otasi kuldi, uning so'zi arkoni davlatga ma'qul keldi,
birodarlari esa, o'lguday xafa bo'ldilar.

Churq etib og'zini ochmasa kishi
Bilinmas undagi fazilat, nuqson.
Bu o'rmon xoli deb gumon qilmagil,
Balki uxlab yotar shu yerda qoplon.

Eshitdimki, xuddi shu kunlarda podshohning yurtiga qattol dushman hujum qildi. Har ikki lashkar bir-biriga ro'baro' kelgan mahalda, dastlab urush maydoniga kirgan kishi mazkur shahzoda bo'ldi, u na'ra tortib dedi:

Jang kunidir, ort ko'rsatib qochuvchidan emasman,
Urushaman son tuproqqa belanib og'iz, burun.
Sen men bilan urisharkan joning-la o'ynashasan,
Qochar bo'lsang, sendan oldin qochar qo'shining butun.

Shu so'zlarni degach, yov safiga o'zini urdi va dushmaning janglarda toblangan bir qancha bahodirlarini

o'ldirdi. Shundan so'ng otasi qoshiga qaytib, huzurida yer o'pdi-da, dedi:

Sen-ku meni haqir, ozg'in sanading,
Bahodirlik qo'pol savlatda emas.
Bu o'rtada oriq otlar ish berar,
Semiz ho'kiz bu maydonga yaramas.

Deydilarki, dushman lashkari nihoyatda ko'p, bular esa, oz edilar, shu sababdan bularning bir qism jangchilari urush maydonini tashlab qochmoqqa tutindi. Shunda haligi shahzoda na'ra tortib xitob qildi: «Hoy azamatlar, ayollar libosin kiymaylik desanglar, g'ayrat-shijoat ko'rsatinglar». Uning bu so'zlari suvoriylarga jasorat baxsh etdi, ular jang maydoniga yana yuzlanib, hammalari birgalikda dushman qo'shiniga hamla qildilar. Eshitdimki, o'sha kuni podshoh lashkari dushman ustidan g'alaba qozondi. Podshoh o'g'lini bag'riga bosib, bosh-u ko'zidan o'pdi. Shundan so'ng kundan-kun unga ishonchi orta borib, oxirida toj-u taxt vorisi qilib tayinladi. Birodarlari unga g'ayirlik qilib ovqatiga zahar soldilar. Shahzodaning singlisi bu holni ko'shkidan ko'rib, darichani qattiq qoqdi. Shahzoda daricha taqirloyotganini eshitib, voqeaga tushundi, ovqatdan qo'lini tortib dedi: «Hunarmandlarning o'lmog'i, behunarlar esa ularning o'rnini olmog'i insofdan emasdir!»

Jahondan humoy qush yitib ketsa ham,
Boyqush soyasini istamas odam.

Bu xabar podshoh qulog'iga yetib, o'g'illarini o'z huzuriga chaqirtirdi, qattiq koyib, ularga tanbeh berdi, shundan keyin ularning har qaysisiga mamlakatning bir viloyatini ajratib berdi. Bular orasidagi fitna va nizo barham topdi.

Deydilarki: «O'nta darvesh bir gilamda uxlaydi, ammo ikki podshoh bir o'lkaga sig'maydi».

Yarim noni bo'lgan ochiqqo'l kishi
Yarmini gadoylar yesin, deb bo'lar.
Bir iqlim egallab to'ymas podshoh,
Yana bir iqlimni olmoqchi bo'lar.

HIKOYAT

Arab qaroqchilaridan bir guruhi tog' cho'qqisini o'zlariga makon qilib, karvon yo'lini to'sgan edilar. Ular tog' cho'qqisidagi baland, mustahkam joylarni egallab olganlari sababli, u yerlarning aholisi qaroqchilar chopqini-dan vahimada, sulton lashkarlari esa, ular bilan jang qilganda mag'lub bo'lardi.

O'sha atrofning tadbirkor kishilari bu falokatni daf' etish fikriga tushdilar, chunki ish shunday davom etaversa, keyinchalik ularni yengish mushkullashib ketgan bo'lardi.

Ko'chat endigina tomir qo'ygan on
Bir odam sug'urib olishi oson.
Vaqt o'tib ildizin otganida-chi,
Qo'pora olmaydi bo'ronlar kuchi.

Buloqni to'ssa bo'lar bel bilan,
To'lsa kechib bo'lmas hatto fil bilan.

Tadbirkor kishilar qaroqchilar siridan xabardor bo'lib turish uchun odam yuborib, qulay fursat kelishini kutishga jazm qildilar.

Kunlardan bir kun qaroqchilar ov ovlagani ketib, makonlari xoli qolgan vaqtda u yerga janglarda chiniqqan, ko'pni ko'rgan bir necha azamatlarni yubordilar. Bular qa-

roqchilar qarorgohiga yaqin joyda pistirma qurib yotdilar. Qaroqchilar kechasi el-yurt molini talon-taroj qilib, topgan g'animatlarini orqalab keldilar. Ular qurol-aslaha-yu o'ljalarini yerga qo'ydilar. Shunda qaroqchilarga dastavval hujum qilgan dushman – g'aflat uyqu bo'ldi. Bir tovuq o'tgan mahalda:

Quyoshning gardishi zulmatda yitdi,
Misoli Yunusni zo'r nahang yutdi.¹

Dovyurak bahodirlar pistirmalaridan chiqib, barcha qaroqchilarning qo'llarini birma-bir orqalariga bog'lab, tong saharda podshoh saroyiga haydab keldilar. Podshoh qaroqchilarning hammasini o'limga buyurdi. Ittifoqo, bandilar orasida o'n gulidan bir guli ochilmagan, mo'ylovi hali sabza urmagan o'spirin bir bola bor edi. Vazirlardan biri uning holiga achindi, podshoh taxti oyog'ini o'pib, ehtirom bilan ta'zim bajo keltirib dedi: «Bu bola hali hayot bog'i mevasini totib ko'rmagan va yoshlik lazzatini surmagan ekan. Shu boisdan shohona lutf-u karamingizga sig'inaman va umid qilamanki, shahanshohim men kaminai kamtarin qullariga iltifot etib, shu bolaning gunohidan kechgaylar». Podshoh bu so'zlarni eshitib, royiga xilof o'laroq yuzini teskari burib, dedi:

Yaxshilardan ibrat olmas, tegi yaramas inson,
Yum-yumaloq gumbaz usti yong'oq turmagansimon.

Bularning nasl-nasabini qirib tashlamoq, tuxumini toshloqqa yoymoq lozim. Olovni o'chirib, uchqunini qoldirmoq, ilonni o'ldirib, bolasini asramoq donishmandlar ishi emasdir.

¹ Yunus – Qur'onda zikr etilgan payg'ambarlardan biri, qirq kun baliq qornida yashagan ekan (*G'afur G'ulom izohi*).

Bulutdan chin hayot yomg'iri yog'sa,
Tol daraxt shoxida meva pishmaydi.
Urinma yomonni yaxshi qilishga,
Bo'yrabop qamishdan shakar chiqmaydi.

Vazir podshoh aytgan gaplarni tilar-tilamas qabul etdi va uning zakovatiga tahsin-ofarinlar o'qib, dedi: «Shahanshohim har nimani degan bo'lsalar, ayni haqiqatdir. Basharti, shu bola manavi muttaham nobakorlar orasida uzoq qolganda edi, ularning hamma yomon qiliqlari bunga singib ketgan bo'lardi. Ammo kamina qulingiz umidvorki, agar u yaxshilar tarbiyasida bo'lsa, donishmandlar odatini o'rganadi, chunki hali go'dak, qaroqchilarning qabih odatlari bunga unchalik ta'sir etmagan chiqar...»

Yomonlarga qo'shilgandan so'ng Lutning xotini,
Yo'qotdi payg'ambarlik xonadoni otini.
It esa as'hobi kahfga ergashib har doim,
Odam deb ataldi, o'zgartirdi zotini.

Podshohning yaqin odamlaridan bir nechalari ham bolani himoya qilishdi, vazirga ko'maklashdilar. Podshoh yigitchaning gunohini bag'ishlab dedi: «Shunday qilishga rag'batim bo'lmasa-da, gunohini kechdim».

Bir kuni Zol dedi o'g'li Rustamga:
«Dushmanni o'ylama kuchsiz-u kamtar.
Birtalay suv kelib kichik buloqdan
Yukli tuyani ham oqizib ketar».

Xulosai kalom, vazir bolani noz-u ne'matlar bilan parvarishlashga kirishdi va podshoh saroyida xizmat qilishga tayyorlash maqsadida uni notiqlik, hozirjavoblik hamda boshqa odob qoidalarini o'rgansin, deb nihoyatda bilimdon

bir muallimga topshirdi. Bola olgan odob-u tarbiya barcha darbor ahli nazdida maqbul bo'ldi.

Kunlardan bir kun podshoh huzurida vazir bolaning ilm-u odobda qozongan muvaffaqiyatlari xususida so'z-larkan, dedi: «Oqil donolar tarbiyasini ko'rish bolaga yax-shi ta'sir ko'rsatdi, tabiatidagi yaramas qiliqlardan hech qanday asar ham qolgani yo'q». Podshoh vazirning bu so'zlarini eshitgach, tabassum qilib dedi:

Odamlar nechog'lik qilsa tarbiyat:

Bo'rining bolasi – bo'ri oqibat.

Oradan bir-ikki yil o'tgach, shu mahallada istiqomat qiladigan o'g'rilar boyagi bola bilan topishib, apoq-chapoq bo'lib ketdilar. Bola qulay fursat topib, vazirni hamda uning ikki o'g'lini o'ldirdi-da, son-sanoqsiz mol-u mulkini olib, saroschilar g'origa borib joylashdi va otasining o'rmini egallab, isyonchilik bilan shug'ullana boshladi. Podshoh bu voqeadan xabar topgach, hayrat barmog'ini tishlab, dedi:

Keskir xanjar bo'lmas yomon temirdan,

Odam bilib bo'lmas kim esa nokas.

Go'zal tabiatli yomg'ir ming yog'sin:

Bog'dan lola unar, sho'rxok yerdan xas.

Sho'ra tuproq yerdan gul unib chiqmas,

Don sochmoq – ovora bo'lmoq demakdir.

Yaxshiga yomonlik qilmoq misoli

Yomonga yaxshilik qilmoq demakdir.

HIKOYAT

Sulton saroyida aql-zakovat va fahm-farosatda yago-na bir amirzodani ko'rdim. Hali go'daklik vaqtlaridayoq peshanasida buyuklik alomatlari namoyon edi.

Aqlli manglayi ustida so'zsiz
Porlab turgan kabi bir yorug' yulduz.

Xulosai kalom, sultonning nazdida manzur bo'ldi, chunki suratda sohibjamol, aql-idroki barkamol edi. Donishmandlar haq gapni aytganlar: «Boylik molda emas, kamolda, aql yoshda emas, boshdadir». Kunlardan bir kun amirzodaning hamqatori bo'lgan bir guruh mansabdorlar amaliga hasad qilib, uni xoinlikda aybladilar va o'ldirtirib yuborishga behuda urindilar.

Dushman na qilur, do'sting agar bo'lsa mehribon.

Sulton amirzodani o'z huzuriga chorlab, undan: «Ular-ning senga bunchalik xusumat qilishlarining boisi nima deb so'radi. Amirzoda shunday javob berdi: «Shahanshohim-ning soyai davlatlarida – ilohim, davlatlari barqaror bo'lsin – hammani o'zimdan rozi va mamnun qila oldim, ammo hasadchilarni rozi va mamnun qilish uchun men ne'matu davlatimdan mahrum bo'lmog'im kerak».

Hech kishining ich hissiga ozor berish qasdim yo'q,
Nima qildi, hasadchining ichini o't o'rtasa.
Hasad degan qiynalishdan o'lib qutulganing xo'b,
Mashaqqatdan qutqaradi o'lim degan zo'r narsa.

Qora baxt kishilar baxtiyorlarning
Hamisha zavolin orzu qiladi.
Shabparak kunduzi ko'ra olmaydi,
Xo'sh, bunda quyoshning aybi nimadi?
Minglarcha shabparak ko'r bo'lsa bo'lsin,
Quyosh porlay bersin ko'kda abadiy.

HIKOYAT

Deydilarki, Ajam podshohlaridan biri fuqarolari-ning bor-u yo'g'ini tortib oldi va zulmini haddan oshirib yubordi. Bu jabr-zulmga bardosh bera olmagan xalq mamlakatdan bosh olib chiqib ketishga majbur bo'ldi. Fuqaro kamaygandan keyin farovonlik yo'qoldi, xazina bo'shab qoldi. Bundan xabar topgan dushmanlar chekka-chekkadan hujum qilishga boshladilar.

Dodimga yetsinlar desang qiyin kun,
Salomat kunlaring juvonmardlik qil.
Qochar silamasang, halqali quling,
Lutf qilar bo'lsang, yot ham bo'lar qul.

Bir kun podshoh huzurida «Shohnoma» kitobidan Zahok hokimiyatining inqirozga yuz tutishi va Faridunning zafari haqidagi qissani o'qidilar. Shunda vazir podshohdan so'radi: «Faridunda mulk ham, zar ham, zo'r ham yo'q edi, bas, shunday ekan, qay yo'sinda u butun mamlakatni o'z tasarrufiga kirita oldi?» Podshoh dedi: «O'z qulog'ing bilan eshitdingki, xalq uni qo'llab-quvvatlaganligi sababli toj-u taxtga ega bo'ldi».

Vazir aytdi: «Ey shahanshohim, xalqning birligi va sadoqati shohlikning negizi bo'lsa, nima sababdan sen xalqni to'zg'itib yuboryapsan? Demak, podshohlik qilishga rag'bating yo'q ekan-da?»

Qo'shinni hurmatlab boqqil har zamon,
Qo'shinga suyanar har qanday sulton.

Podshoh so'radi: «Lashkar va xaloyiqni atrofimizga to'plash uchun nima qilmoq kerak?»

Vazir javob berdi: «Xaloyiqni atrofga to‘plamoq uchun podshoh lutf-u karamli va soyai davlatida osoyishta yashamoqlari uchun adolatli bo‘lishi kerak, senda na lutf-u karam bor va na adolat».

Jabriga teng turib solmas sulton
Bo‘la olmaganday bo‘ridek cho‘pon.
Qaysi bir podshoh zulm etsa pesha
O‘z mulki tagiga uradi tesha.

Dono vazirning oqilona maslahati podshohga yoqmadi. U darg‘azab bo‘lib, vazirni zindonga tashladi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, amakivachchalari podshohga qarshi bosh ko‘tardilar va otalarining mulkini qaytarib olmoq uchun lashkar tortdilar. Jabr-zulm ko‘rib jonidan bezgan va har tarafga tarqab ketgan xaloyiq podshohning isyon ko‘targan amakivachchalari atrofiga to‘planib, ularga sidqidildan xizmat qildilar, natijada mamlakat podshohning qo‘lidan ketib, amakivachchalari tasarrufiga o‘tdi.

O‘z xalqiga jabr-u zulm ravo ko‘rgan podshohning
O‘z do‘stlari yov bo‘ladi qiyin dam kelgan kuni.
Fuqaroga shafqat qilsang, dushmandan omondasan,
Adolatli shahanshohning xalqi – bu o‘z qo‘shini.

HIKOYAT

Bir podshoh ajamlik quli bilan birga kemaga mindi. Qul umrida dengizni ko‘rmagan va kemada safar qilish mashaqqatini chekmagan edi. U kemaga minishi bilanoq vahimaga tushdi, butun vujudiga qaltiroq turib, faryod urib yig‘lay boshladi. Kemadagilar qanchalik iltifot ko‘rsatib, tasalli bermasinlar, baribir uni ovutishdan ojiz qoldilar. Qulning bu ahvolini ko‘rib podshohning kayfi buzildi. Bi-

roq uni tinchitish uchun hech qanday chora topib bo'lmadi. Ittifoqo, kemada bir donishmand bor edi. U podshohga dedi: «Agar ijozat etsangiz, men uni tinchitishning chora-sini qilaman». «Basharti shunday qilsang, bizga nihoyatda zo'r lutf-u marhamat etgan bo'lasan», dedi podshoh.

Donishmand qulni dengizga tashlab yuborishni buyurdi. Qul bir necha bor cho'kib, qalqdi. Shundan keyin uning so-chidan tutib, kemaga yaqin keltirdilar. Qul ikki qo'li bilan kema sukoniga (ruliga) yopishib, jonholatda kemaga chiq-di-yu, miq etmay kemanding bir burchida o'tirdi. Podshoh bu holdan taajjubda qolib, donishmanddan: «Bunda qanday hikmat bor?» deb so'radi.

Donishmand javob berdi: «Bu odam dengizda g'arq bo'lish mashaqqatini boshidan kechirmagani sababli kemadagi tinchlik va salomatlikning qadrini bilmadi. Musibatga giriftor bo'lmagan odam tinchlik-salomatlikning qad-riga yetmaydi».

Ey to'q kishi, sening uchun arpa noni yoqimsiz,
Senga xunuk ko'ringanlar menga xurshid tal'atdir.
Jannatdagi hurlar uchun a'rof bo'lsa jahannam.
Do'zaxdagi kishilarga a'rof o'rni jannatdir.
Farqi shuki, bittasining quchog'ida go'zal yor,
Bittasining ikki ko'zi yor yo'lida intizor.

HIKOYAT

Hurmuzdan: «Otangning vazirlaridan qanday xatolik o'tganini ko'rdingki, ularni zanjirband qilishga buyur-ding?» deb so'radilar. Hurmuz javob berdi: «Hech qanday xatolik o'tganini ko'rganim yo'q. Lekin ular mening haybat va salobatimdan nihoyat darajada qo'rqayotganlari hamda bergan va'dalarimga ishonmayotganlarini payqadam. Ular

o'z hayotlarini saqlamoq uchun mening jonimga qasd qilmasinlar, deb xavfsiradim. Shu sababdan donishmandlarning so'zlariga amal qildim».

Sendan qo'rqqanlardan qo'rqqil, ey dono,
Agar yuztasini jangda yengsang ham.
Mushukni ko'rgil-a, yengilib qolsa,
Yo'lbarsning ko'ziga chang solur shul dam.
Ilon nechun cho'pon tobonin chaqar? –
«Boshim yanchilmasin», debon chekar g'am.

HIKOYAT

Arab podshohlaridan biri keksaygan chog'ida qattiq kasal bo'lib, hayotidan umidini uzgan edi. Qo'qqisdan bir otliq xushxabar keltirib qoldi. U dedi: «Siz a'lo hazratimning soyai davlatingizda falon qal'ani zabt etdik, dushmanlaringiz asir olindi va u mamlakatning lashkarlari-yu fuqarolari sizga itoat qildilar». Podshoh bir sovuq oh tortib dedi: «Bu men uchun emas, balki dushmanlarim – ya'ni mamlakatimning vorislari uchun xushxabardir».

Bir umidda butun aziz umr ham o'tib ketdi,
Dilimdagi orzular eshikdan kirgaymu deb.
Umid qilgan narsalarim qo'lga kirdi, ne foyda,
Umidim yo'q o'tgan umr qaytib kelgaymu deb,

Ajal chaldi jo'namoq nog'orasin,
Ey ko'zlarim, boshga ayting, xayr endi.
Ey qo'llarim, oyoqlarim, qomatim,
Kipriklarim, qoshga ayting, xayr endi.
Menga yovuz dushmanim qildi hujum,
Siz axir yo'ldoshga ayting, xayr endi.
Umrinni nodonlik ila tugatdim,
Men borgan bu yo'ldan qayting, xayr endi.

HIKOYAT

Bir yili Damashq shahrining Jome' masjidida hazrati Yahyo payg'ambar alayhissalomning maqbarai shariflari yonida ibodat qilmoqda edim, ittifoqo, o'zining adolatsizligi bilan dong chiqargan arab podshohlaridan biri o'sha yerga ziyoratga kelib qoldi. U namoz o'qib bo'lganidan keyin fotihaga qo'l ochib, xudodan madad tiladi:

Boy ham, kambag'al ham xudoga quldur,
Va lekin boylari yana yo'qsuldur.

Keyin u men tomonga boqib dedi: «Darveshlarga xos bo'lgan himmat va sadoqat yuzasidan meni duoda yod aylang, zero ki, zo'r dushmandan xavfim bor». Unga shunday javob berdim: «Zaif fuqaroga shafqat etsang, kuchli dushmandan zahmat ko'rmaysan».

Zo'rmen-u kuchliman, quvvatim bor deb
Kuchsizning panjasin sindirmoq xato.
Birov yiqilganda suyamaganning
Qo'ltig'in tutmaslar, yiqilsa hatto.
Yomon urug' sohib, yaxshi don kutish,
Bo'lmag'ur xayoldur, botildur – bejo.
Xalqning arzi dodin tinglamas bo'lsang,
Has-hisob kunlari kelar mutlaqo.
Bir-birin muchasi bor barcha kishi,
Bitta gavhardandir yaratilishi.
Biror mucha bo'lsa og'riqqa duchor,
Boshqa a'zolarida qolmagay qaror.
O'zgalar haqida chekmaguchi g'am,
Nechuk sanaladi qatori odam.

HIKOYAT

Bag'dod shahrida duosi maqbul bo'ladigan bir darvesh paydo bo'ldi. Bu to'g'rida Hajjoji Yusufga xabar berdilar. Hajjoj darveshni o'z huzuriga chorlab, dedi: «Mening haqqimga duo qil!»

«Ey xudo, Hajjojning jonini ol!» dedi darvesh. Hajjoj so'radi: «Xudo haqqi, tushuntirib ber, bu qanday duo bo'ldi?» Darvesh dedi: «Bu duo senga ham va barcha musulmonlarga ham foydali».

Hoy zo'ravon, qachongacha berasan elga ozor,
Tokaygacha qizg'in qolar, deb o'ylaysan bu bozor.
Jahondorlik bir umrga sening uchun qo'l bermas,
Xalqqa ozor berganingdan o'lganing yaxshidir – bas.

HIKOYAT

Zolim podshohlardan biri bir namozxondan so'radi:

«Ibodatlarning eng yaxshisi qaysisi?» Namozxon javob berdi: «Sen uchun peshindagi uyqu yaxshi, chunki hech bo'lmaganda, ana shu vaqt ichida xalq sening zulmingdan omonda bo'ladi».

Bir zolimning kun o'rtada uxlab yotganin ko'rdim,
Bu fitnaning uyg'og'idan uyqusi yaxshi – dedim.
Birovning kim bedorlikdan uxlagani xo'b bo'lsa,
Shu yaramas tiriklikdan o'lganin ma'qul bildim.

HIKOYAT

Eshitdimki, podshohlardan biri tuni bilan ishrat qilib, tongotar chog'da sarxushlik bilan shunday dedi:

Bizning uchun bu dunyoda bundan afzal dam yo'qdir,
Yaxshi, yomon o'ylamoqqa o'zgalardan g'am yo'qdir.

Tashqarida, qattiq sovuqda yalang'och yotgan bir
darvesh podshohning so'zini eshitib aytdi:

Bu olamda iqbolim bor debon, ey chiranguchi,
Sening qayg'ung bo'lsa bo'lmas, xo'sh, bizlarning
qayg'uchi?

Darveshning gapi podshohga juda xush keldi. Podshoh
ming tilla solingan hamyonni unga hadya qilmoqchi bo'lib,
derazadan uzatib dedi: «Etagingni och, darvesh!» «Egnim-
da libosim bo'lmagach, etakni qayoqdan olaman?» dedi
darvesh.

Darveshning nochor ahvoliga podshohning yanada
ko'proq rahmi keldi, haligi ming tilla yoniga bir libos ham
qo'shib hadya qildi.

Qo'li ochiq kishilarning kaftida mol-ku turmas,
Sevgan dilda chidam turmas va g'alvirda suv turmas.

Darvesh qisqa muddat ichida tillalarni xarajat qilib,
yana podshoh saroyiga keldi.

Podshohning arz tinglashga hech qanday fursati
bo'lmagan bir mahalda darveshning kelganini xabar qil-
dilar. Podshoh darg'azab bo'lib yuzini teskari o'girdi.
Shu sababdan ham ahli donishlar deyдилar: «Podshohning
qahr-u g'azabidan hazar qilmoq lozim, zero ki, aksar vaqt
ular muhim davlat ishlari bilan mashg'ul bo'lganligidan
avom xalq olomonini yoqtirmaydilar».

Foydalana olmasang qulay fursatdan,
Ko'z tutma podshoh berar ne'matdan.

Har bitta gapning ham vaqti yetadi,
Behuda gapirsang qadring ketadi.

Podshoh shunday farmon berdi: «Shuncha mablag'ni qisqa muddatda ko'kka sovurgan bunday isrofgar gadoni quvib yuboringlar, chunki xazina moli shayton lashkarining luqmasi emas, faqir fuqaroning non-nasibasidir».

Ahmoq kishi kunduz kuni kofuri sham yondirsa,
Tez orada yog' topolmas oqshom qora chiroqqa.

Podshohning nasihatgo'y vazirlaridan biri dedi: «Ey shahanshohim, bunday odamlarga tirikchilik xarjini oz-ozdan berib turmoq maslahatdir, zeroqi, birdaniga isrof qilib yubora olmasinlar. Uni jazolash va saroyga yaqin yo'latmaslik haqida bergan farmoningiz masalasiga kelganda, shuni aytishim kerakki, avvalda lutf-u karam bilan kishini umidlantirib, keyin esa noumid qilib, ko'nglini vayron etmak – himmat ahli sha'niga munosib ish emasdir.

Ochko'z kishilarga eshiging ochma,
Ochdingmi, haydama, qahringni sochma:
Hech kishi ko'rmadi hijozli tashna
Sho'r daryo labida kezib yurganin.
Qayerda totli suv bir buloq bo'lsa,
Ko'rasiz qush, odam maskan qurganin.

HIKOYAT

Avvalgi podshohlardan biri davlatni idora qilishda no'noqlik ko'rsatar va lashkarning ahvoliga yaxshi e'tibor bermasdi. Shu sababdan mamlakatga kuchli dushman hujum qilgan mahalda barcha lashkarlari jang maydonidan tumtaraqay bo'lib qochdi.

Agar jangchilardan pul-mol ayalsa,
Jangchi qilich tutmas, bu turgan narsa.

Ko'namaklik qilgan o'sha lashkarning bir nafari mening do'stim edi. Men uni malomat qilib dedim: «Valine'matning ahvoli sal o'zgargan vaqtda shuncha yilgi lutfu karamini unutib, undan yuz o'girmak – muttahamlik, ko'namaklik, qabihlik va razillikdir».

Do'stim menga bunday javob berdi: «So'zlarimni eshitgach, meni ma'zur tutarsan, degan umiddaman, o'sha jang chog'ida otim yemsiz, egar-jabdug'i garovda edi. Lashkarga maosh to'lashga baxillik qilgan podshoh uchun lashkari hech mahal jonbozlik qilmagan».

Jangchiga zar bersang, boshni tikadi,
Pulsiz, boshi oqqan yoqqa ketadi.
Qorni to'q askarlar urushar chandon,
Qorni och qolsa-chi, to'zg'ir har tomon.

HIKOYAT

Bir podshohning vaziri amaldan olinib, saroydan quvildi. U borib darveshlar davrasiga qo'shildi. Darveshlar suhbatining fayzu barakati unga ta'sir etdi, qalbida huzur paydo bo'ldi, xotiri jam bo'ldi. Podshoh yana unga iltifotlar ko'rsatib, avvalgi amalini qaytarib berishga jazm qildi, lekin vazir bu taklifni qabul etmadi. «Xizmatdan ko'ra iste'foda yurgan yaxshiroq», deb javob berdi.

Qanoat burchida tinch olgan kishi,
Itu g'iybatchining sindirar tishin.
Qalamin sindirib, qog'ozin yirtib
Bekorga chiqarar ig'vogar ishin.

Podshoh dedi: «Davlatni idora qilmoq uchun bizga tad-birli, donishmand vazir lozim». Vazir dedi: «Shunday ish bilan shug'ullanishga rozilik bildirmaslikning o'zi donish-mandlik alomatidir».

Shuning-chun ham humoy qushi qushlar ichra sharafdor,
Ustuxonlar chaynaydi-ku, jonvorga bermas ozor.

HIKOYAT

Bir tulkidan: «Nima uchun arslon bilan ulfat bo'lishni ixtiyor etding?» deb so'radilar. Tulki javob berdi: «Ovi-ning ortgani bilan tamaddi qilaman va himoyasi soyasida o'zimni yovlardan saqlayman».

«Himoyasida yurib, bergan ne'matlaridan minnatdor esang nima sababdan arslonga yaqinroq bormaysan, toki u seni sadoqatli mahramlari qatoriga kiritsin?»

«Uning qahr-u g'azabidan ham amin emasman».

Garchi yuz yil o'tparast o'tga xizmat etadi,
O'zi yoqqan oloviga tushsa kuyib ketadi.

Podshoh huzurida bo'lgan odamlar, goho oltin olsalar, ba'zan boshlari tanlaridan judo bo'ladi. Hukamolar bun-day deganlar: «Podshohlarning kayfiyatida bo'lib turadigan o'zgarishlardan hazar qilmoq kerak. Zeroki, podshohlar goho oddiy salomdan ozor topadilar, goho esa, o'zlarini haqorat etgan odamlarga sarupo hadya qiladilar. Ortiqcha hazilmandlik qilmoq mahramlar uchun hunar, ammo oqil-lar uchun nuqsondir».

Sen o'z qadru qimmatingga, viqoringga hurmat et,
Hazil-mazax ishlarini nadimlarga tashlab ket.

HIKOYAT

Bir kun do'stlarimdan biri yonimga kelib, tirikchiligi-ning og'irligidan shikoyat-shikvalar qilib dedi: «Daromadim ro'zg'orimga kifoya qilmaydi, ahli ayolim esa ko'p, faqiro-na hayot kechirishga tob-u toqatim qolmadi. Ko'p vaqtlar-dan buyon boshqa yurtlarga bosh olib ketsam, mening yax-shimi yoxud yomonmi, tirikchilik o'tkazayotganimni hech kimsa bilmaydi-ku, degan xayollarga boraman.

Ko'p och kishi bordirki, hech kim holini bilmas,
Jon bergani vaqtida kimsa unga yig'lamas.

Lekin dushmanlarim shod bo'lib, ta'na-malomatlar bilan ustimdan kulishlaridan andisha qilaman, ular bola-chaqamni tashlab ketganim uchun meni nomard sanab, deydilar:

Manov behamiyat kishiga qara,
Unga qanday qilib baxt kulib boqsin.
O'zining tinchligin ko'zlaydi, xolos.
Mayli bola-chaqa qiynalib qolsin.

Ma'lumdirki, men hisobchilik ilmidan xabardorman. Basharti sizning nufuzingiz soyasida biror vazifaga tayin-lansam, xotirim jam bo'lib, qolgan umrim sizga minnatdor-chilik izhor etishga kifoya qilmaydi.

Men dedim: «Aziz do'stim, podshohga xizmat qilish-ning ikki jihati bor: biri– non topish umidi, ikkinchisi – jon-dan judo bo'lish qo'rquvi. Non umidida jonni xavf-xatarga solmoq ahli donishga munosib emasdir.

Hech kim darveshlarning eshigin qoqmas,
«Yering va bog'ingga to'la, deb, o'lpon».

Yo shu g'am, tashvishga rozi bo'lgil-u,
Yo jigar-bag'ringni itga qil talon».

Do'stim dedi: «Bu so'zingni mening holimga muvofiq aytmanding va savolimga javob bermading. Eshitmaganmisan, xiyonatkorlarninggina hisob chog'ida qo'li qaltiraydi, deyдилar.

Xudoning rizosi to'g'rilik ishi,
Adashmas to'g'ri yo'ldan borgan kishi».

Donishmandlar bunday deganlar: «To'rt odam to'rt odamdan o'lguday qo'rqadi: qaroqchi – sultondan, o'g'ri – posbondan, qallob – chaqimchidan va fohisha – mirshabdan. O'ziga to'g'ri odamning hech nimadan xavotiri bo'lmaydi.

Amalda vaqtingda qaltis ish qilma,
Bo'shasang, dushmaning aybing topolmas.
O'zing toza bo'lgach kimdan qo'rqasan,
Iflos kiyimni kirchi ishqalar, bas».

Men dedim: «Sening bu so'zing o'takasi yorilgan holda goh yiqilib, goh turib qochayotgan tulkinining hikoyasiga o'xshaydi. Bir odam o'sha tulkini ko'rib: «Qanday falokatga duchor bo'ldingki, bunchalik vahimaga tushib qolibsan?» deb so'raganida, tulki javob berdi: «Og'ir ishlarda ishlatish uchun barcha tuyalarni tutib ketayotgan emishlar deb eshitdim». U odam dedi: «Ey ahmoq, tuyaning senga nima aloqasi va qanaqangi o'xshashligi bor?» Tulki dedi: «Ovozingni o'chir, agar hasadchilar g'alamislik qilib «bu – tuya» deb ko'rsatishsa bormi, meni tutib ketsalar, so'ngra kim meni xalos etishga urinadi-yu, kim haqiqiy holni isbotlashga harakat qiladi? Iroqdan taryok keltirilguncha, ilon chaqqan kishi o'lib qoladi».

Sen fozil, pokiza, halol va sadoqatli bo'lsang-da, lekin hasadchilar pistirmalarda va dushmanlar esa orqavoratda poylab turadilar. Ular sening yaxshi sifatlaringni podshoh huzurida nuqson qilib ko'rsatmoq uchun qulay fursat ko'zlaydilar. Basharti ular niyatlariga yeta olsalar, sen podshoh oldida badnom bo'lasan, podshoh senga g'azab qiladi. Shunday hol yuz berguday bo'lsa, podshoh oldida seni yoqlab gapirishga kim jur'at eta oladi? Ana shu sababdan men ozga qanoat etib, mansabdor bo'lish fikridan qaytishingni maslahat ko'raman».

Daryoning ichida foydalar-ku ko'p,
Tinchlikni istasang, qirg'oq o'zi xo'b.

Bu so'zlarimni eshitib, do'stim qattiq o'ksindi va mendan yuzini o'girib, ta'na toshlari irg'itmoqqa boshladi, u dedi: «Bu qanday fahmu farosatu, aqlu zakovat bo'ldi?» Hukamolar to'g'ri aytganlar: «Zindonga tushganingda do'stlaring ish beradi, dasturxon ustida barcha dushman do'stday ko'rinadi».

Qo'ling ochiq, dasturxoning mo'l kuni,
Do'stu yoring mana, menman deganmas.
Do'st o'shaki, qiyin kunga tushganda,
Qo'ltig'ingdan dast ko'tarib qo'yan kas.

Do'stimning qattiq xafa bo'lgani va nasihatimga g'azab bilan quloq solayotganini ko'rib, sohibdevonning yoniga jo'nadim. U zot bilan eskidan tanish ekanimizdan foydalanib, do'stimning hol-ahvolini unga gapirib berdim, iste'dod va sadoqatli odam ekanini aytdim. Do'stimni kichik bir vazifaga tayin etdilar. Oradan bir necha vaqt o'tgach, muloyim tabiatli, fozil odam ekanini ko'rib, do'stimni yoqirib qoldilar va uni yuqoriroq vazifaga ko'tardilar. Shu

yo'sinda do'stimning tole yulduzi porlab yuksala bordi,
nihoyat yuqori martabaga erishdi. Sultonning eng yaqin
kishilaridan biriga aylandi, uning kengashchisi va e'timodli
kishisi bo'ldi. Uning bunchalik mo'tabar odam bo'lib
ketganini ko'rib quvonib dedim:

Ishing chappa ketganida diling og'rib, chekma g'am,
Chunki zulmat ichidadir obi hayot suvi ham.

Yomon kunga qolganingda, tutma dilingni hazin,
Tangri berar marhamat ko'p, lekin ko'zdan yashirin.
Zamonaga o'pka qilib yuzingni burushtirma,
Chidam-achchiq keladi-yu, mevasi g'oyat shirin.

Shu orada bir necha do'stlarim bilan safarga jo'naydigan
bo'lib qoldim. Makka ziyoratidan qaytarkanman, ikki man-
zillik yo'l qolganda boyagi do'stim meni kutib olgali chiq-
di. U parishonhol va libosi ham darveshona edi.

Men undan: «Ahvollar qalay?» deb so'radim. «Xuddi
aytganingday bo'ldi», deb javob berdi u. «Ba'zilar hasad
qilib meni xiyonatkorlikda aybladilar. Sulton ishning haqi-
qatini surishtirmadi, eski oshnalarim va yaqin do'stlarim
haq so'zni aytishni istamadilar va eski do'stlikni tamoman
unutib qo'ydilar:

Ko'rmadingmi, biror kishi ulug' martaba topsa,
Xushomadga keladilar ta'zim bilan qoshiga.
Toyrilsa-yu, ishi chappa ketar bo'lsa, qarabsiz,
Hech tap tortmay oyoq qo'yib chiqadilar boshiga.

Xulosai kalom, bandi zindon qilib, turli-tuman azob-uqu-
batlarga muhtalo etdilar. Shu haftada hojilarning sog'-salomat
qaytib kelayotganlari to'g'risida xushxabar kelgach, barcha
mol-u mulkimni tortib olib, meni hibsdan ozod qildilar».

Men dedim: «O'sha vaqtlarda senga: «Podshoh saroyida xizmat qilmoq – dengiz safari singaridir: ham nafi bor, ham xavfi bor, yo davlatga yetasan, yo dengizga botasan», deganimda, gapimga quloq solmading».

Yo daryodan dur yig'asan siqqanicha quchoqqa,
Yo to'liqlar o'laksangni uloqtirar qirg'oqqa.

Men ortiq uning yarali ko'ngliga tuz sepmoqni, dardini yangilamoqni o'zinga ep bilmay, shu so'zlarni aytish bilan kifoyalandim:

«Odamlarning nasihatini qulog'ingga olmading,
Bilmadingki, oyog'ingga kishan solinur – qiynoq.
Og'u to'la nishlariga toqating yetmas ekan,
Nega chayon uyasiga tiqib ko'rasan barmoq?»

HIKOYAT

Bir necha darveshlar bilan suhbatdosh edim. Ular ko'rinishda pokiza odamlar edilar. Katta mansabdorlardan biri ularga nihoyatda ixlosmand bo'lib, ma'lum miqdorda maosh tayinlagandi. Bir kun shulardan biri darveshlar sha'niga yarashmaydigan bir ish qilib qo'ydi. Shundan keyin mansabdorning bu odamlar haqidagi fikri o'zgardi va ularning bozori kasod bo'lib qoldi.

Men bir iloj qilib, do'stlarimning nafaqai ahli ayollarini saqlab qolish maqsadida haligi mansabdorning qasriga yo'l oldim. Darvozabon meni kiritmadi, qattiq tahqirladi, lekin men uni ma'zur tutdim, chunki shunday bir masal bor:

Amiru, vaziru podshohlarning,
Yoniga besabab bormaslik kerak.

It bilan eshikchi gʻaribni tutar,
Birisi yoqadan, birisi etak.

Mansabdorning yaqin kishilari mening ahvolimdan xabar topib, eʼzoz-ikrom bilan uning huzuriga olib kirdilar va toʻrga oʻtkazmoqchi boʻldilar, lekin men tavoze bilan quyiroqqa oʻtirib, dedim:

Qoʻya qol holimga, men kamtar banda,
Bandalar oʻrni albatta tubanda.

Mansabdor hayratga tushib: «Xudo saqlasin, xudo saqlasin, bu nima deganing?» – dedi.

Boshimiz, koʻzimiz ustiga oʻltir,
Har qancha noz qilsang, maloli yoʻqdir.

Xulosai kalom, oʻtirib har borada suhbatlashdim. Nihoyat soʻz doʻstlarimdan biri tomonidan sodir boʻlgan nojoʻya qiliq ustiga yetganda, dedim:

Avval saxovatli boʻlgan xoʻjamiz,
Ne gunoh oʻtdiki, kamsitib boqar.
Xudoga yarashar ulugʻvorlikkim,
Gunohkor bandasin non berib boqar.

Bu soʻzlar mansabdorga nihoyatda maqbul boʻldi, u qaytadan doʻstlarimga avvalgiday maosh toʻlab turishni va shu orada olinmay qolgan mablagʻlarini ham berishni buyurdi. Men mansabdorga lutf-u karami uchun minnatdorchilik izhor etdim, huzurida yer oʻpdim-da, qimmatli vaqtini olishga jurʼat etganim uchun uzr aytib, chiqib ketarkanman, dedim:

Kaʼba qadimlardan hojat qiblasi,
Yiroq-yiroqlardan xalq kelar qator.

Sen chidam ko'rsatib bizni qabul et,
Mevasiz daraxtga kim ham tosh otar?

HIKOYAT

Bir shahzodaning otasidan behadu hisob molu mulk meros qoldi. Shahzoda saxovat qo'lini ochib, mislsiz in'om-ehsonlar bilan lashkar va fuqarolariga sovg'a-salomlar berishga boshladi.

Qutida turganda burkimaydi ud,
Sen olov ustiga uni tashlagil.
Ulug'lik niyating bo'lsa saxiy bo'l,
Urug' sochilmasa, unmaydi hosil.

Kunlardan bir kun shahzodaning tadbirsiz, nodon osh-nalaridan biri unga nasihatga kirishib, dedi: «O'tgan podshohlar bu mol-dunyoni zo'r urinish va harakatlar bilan qo'lga kiritib, yomon kunda yarar, deb to'plaganlar. Bunday saxiyligingni bas qil, chunki ko'plab hodisalar oldindayu, dushmanlar esa ortdadirlar. Muhtojlikka tushgan mahalingda nochor qolish durust emasdir».

Hamma omboringni xalqqa ulashsang,
Har bir oilaga bir guruch tegar.
Hammaga guruch, kumush o'lpon sol,
Xazinang kundan-kun boy bo'lib ketar.

Bu so'z shahzodaga yoqmadi, u yuzini teskari o'girib, nasihatgo'yni tanbehlashga buyurib dedi: «Oллоhi taolo bu mollarni menga saqlab qo'yish uchun emas, balki o'zim yeyishim va boshqalarga berishim uchun baxsh etgandir».

Qirq xazina davlati bor Qorun o'lib yo'qoldi,
No'shirvonning yaxshi nomi dunyoda mangu qoldi.

HIKOYAT

Deydilarki, bir kuni ovda No'shiravoni odilga kabob qilib bermoqchi bo'ldilar, lekin tuz yo'q edi. Qullaridan birini qishloqdan tuz olib kelgani jo'natdilar. No'shiravon u qulga dedi: «Tuzni bahosini to'lab ol, toki tekinga olish odat qatoriga kirib, qishloq xarobalikka yuz tutmasin». Undan so'radilar: «Shu zig'irday narsadan qishloqqa qanday zarar yetadi?» No'shiravon javob berdi: «Avvalda olamda zulm oz edi, keyinchalik har bir kelgan odam biroz-biroz qo'shdi, natijada zulm hozirgi darajasiga kelib yetdi».

Fuqaroning bog'chasidan sulton uzsa bir olma,
Navkarlari qo'poradi daraxtlarning ildizin.
Zo'rlik bilan beshta tuxum ola qolsa podshoh,
Askarlari sixga tortar tovuqlardan besh yuzin.

HIKOYAT

Eshitdimki, bir johil vazir sulton xazinasini to'ldirishga urinib, fuqarolarni xonavayron qildi. U donishmandlarning: «Har kimiki, biror maxluqning ko'nglini ovlamoq uchun Ollohi taoloni ranjitsa, Ollohi taolo darhol o'sha maxluqni boyagi dilozorga qarshi qo'zg'atib, kulini ko'kka sovurib yuboradi», deganlarini unutdi.

O'tda isiriqdan ham zo'rroqdir butun
Sho'rliklar qalbidan o'rlagan tutun.

Deydilarki, hayvonot olamining eng ulug'i – sherdir, eng pasti – eshakdir. Odamxo'r sherdan ko'ra yukkash eshak yaxshiroq ekanini hamma bir og'izdan tasdiq etadi.

Eshak bechora garchand betamizdir,
Og'ir yuklar ko'targan-chun azizdir.

Eshaklar, ho'kizlar yuk ko'taradi,
Dilozor shaxslardan baland turadi.

Yana nodon vazir hikoyatiga qaytaylik. Sulton ittifoqo vazirining xalqqa zulmu sitam etganidan xabar topib, uni qattiq azoblab o'ldirdi.

Sultonning rizosin topa olmasan,
Toki fuqaroning ko'nglin topmasang.
Xudo bandasiga yaxshilik qilgil,
Xudo gunohimni kechirsin desang.

Deydilarki, mazkur vazirdan zulm ko'rganlardan biri uning qanday jazolayotganlarini mushohada qilib, dedi:

Har kimning mansabi, quvvati bordir,
Xalq molin yemoqqa qudrati bordir.
Kattakon so'ngaklar halqumdan o'tar,
Lekin pastga tushib qorinni yirtar.
Xalqqa zulm etsa har bir sitamkor,
Unga qarg'ish-la'nat qolur poydor.

HIKOYAT

Deydilarki, bir dilozor askar bir mo'min darveshning boshiga tosh bilan urdi. Darvesh undan o'ch olishga qodir emasdi, shu sababdan toshni saqlab qo'ydi. Bir kuni podshoh dilozor askardan darg'azab bo'lib, uni zindonga buyurdi. Shunda darvesh haligi toshni keltirib, zolimning boshiga urdi. Zolim dedi: «Sen kimdiansan va ne sababdan bu toshni mening boshimga otding?» Darvesh dedi: «Men o'sha darveshman, bu esa falon mahalda boshimga otgan toshing». Askar dedi: «Shuncha vaqtdan beri qayerda eding?» Darvesh dedi: «Shu mahalgacha sening yuksak

mansabingdan qo'rqardim, hozir seni chohda ko'rib, fursatni g'animat bildim».

Yaramas kishini ko'rgach baxtiyor,
Oqillar taslimni qilur ixtiyor.
Barmoqda bo'lmasa yirtar tirmog'ing,
Ma'quldir olishmay jimib turmog'ing,
Har kim po'lat tig'ga panja soladi,
Qo'li yaralanib, majruh qoladi.
Zamona qo'lini bog'laguncha tur,
Keyin do'stlar bilan boshiga tushur.

HIKOYAT

O'tmish podshohlardan biri bir yomon dardga muhtalo ediki, kasalining nomini atamaslik yaxshiroqdir. Bir guruh yunon tabiblari, bu dardga falon sifat va falon xosiyatga molik bo'lgan odamning o'tidan bo'lak davo yo'qdir, degan qarorga keldilar. Podshoh shunday odamni topib kelishga farmon berdi. Bir dehqon o'g'lini topdilar, unda tabiblar aytgan barcha sifatlar mavjud edi. Podshoh bolaning ota-onasini chaqirtirib, ularga talay mol-dunyo berib rozi qildi. Qozi: «Podshohning salomatligini saqlamoq uchun fuqarolaridan birining qonini to'kmak ravodir», deb fatvo berdi. Jallod bolaning boshini kesishga hozirlandi. Bola osmonga boqib tabassum qildi. Podshoh undan so'radi: «Shunday holatda tabassum qilishingning boisi nima?» Bola javob berdi: «Farzandning nozini ota-ona ko'taradi, da'vo bilan qozining huzuriga boradilar, podshohdan adolat tilaydilar. Hozir ota-onam dunyo moli uchun o'limimga rozi bo'ldilar, qozi fatvo berdi, podshoh bo'lsa, meni jondan judo qilib, o'zi shifo topmoqchi. Oллоhi taolodan bo'lak panohim yo'q ekan, shu jihatdan kuldim».

Kimga ham qilardim dastingdan faryod,
O'zingga kelibman, o'zginangdan dod.

Bu so'zni eshitgan podshohning ko'ngli pora-pora bo'lib ketdi, ko'zlaridan shashqator yosh oqib, dedi: «Begunohning qonini to'kib, shifo topganimdan ko'ra o'lganim yaxshiroq».

Keyin bolani bag'riga bosib, yuz-ko'zidan o'pdi-da, behisob sovg'alar berib, ozod qilib yubordi. Deydilar-ki, o'sha haftada podshohning dardi shifo topdi:

Hali ham esimdan bir bayt chiqmaydi,
Bir filbon aytgandi Nil qirg'og'ida:
Oyog'ing ostida qumursqa holi
O'zing bosilganday fil oyog'ida.

HIKOYAT

Amir ibn Laysning qullaridan biri qochdi. Bir necha odamlar qulni axtarib topib, tutib keldilar. Vazir bu qulga qarshi adovat saqlardi, u boshqalarga ibrat bo'lsin uchun qulni o'ldirishni buyurdi. Qul Amir ibn Laysning oyog'iga yiqilib, dedi:

«Boshimga nima kelsa, senga yoqibdir, bajo,
Bandaning da'vosi yo'q, xo'janing hukmi ravo.

Lekin men shu xonadonning noz-ne'matini yeb, nash'-u namo topganim sababli tong-la qiyomatda mening qonim gardaningizda qolishini istamayman. Ruxsat eting, men avval bu vaziringizni o'ldiray, so'ngra uning qasosini olmoq uchun siz meni o'ldirasiz. Shunda mening qonimni nohaq to'kmagan bo'lasiz».

Podshoh bu so'zni eshitib, kulib yubordi-da, vazirga boqib: «Xo'sh, sen bu so'zga nima deysan?» deb so'radi.

Vazir dedi: «Ey podshohi olam, otangizning qabri hurmati, bu haromzodani ozod eting, aks holda u meni baloga giriftor qiladi. Mening o'zim gunohkormanki, hukamolarning quyidagi so'zlarini inobatga olmadim:

Tosh otar kishi-la o'ynashgan o'zing,
Nodonlik qilding boshing yorildi.
Dushmaning tomonga o'q otaman deb,
O'zing nishon bo'lib qolmagil endi».

HIKOYAT

Zavzan hukmdorining olijanob va xushfe'l bir amaldori bor edi. U har kimni izzat-ikrom etardi va ortidan esa yaxshi so'zlar aytardi. Ittifoqo, uning bir harakati podshohga manzur bo'lmay qoldi, molini musodara qilib, o'zini jazolashga buyurdi. Podshohning lashkarboshilari amaldorning avvalgi qilgan yaxshiliklari uchun minnatdor bo'lishlari lozimligini unutmagan edilar, shu sababdan hibsda yotgan mahalda unga yomonlik qilmadilar, iloji boricha yaxshi muomalada bo'ldilar.

Agarda totuv bo'lib yashay desang yov bilan,
Orqangdan so'ksa-so'kar, ko'rganda sen ayt tahsin.
Bilasan-ku, so'z degan og'izdan chiqadi-da,
Achchiq so'z istamasang yov og'zini qil shirin.

Amaldor podshoh tomonidan qo'yilgan ayrim ayblarni rad eta oldi, qolganlari uchun zindonda qoldi. Qo'shni podshohlardan biri maxfiy ravishda unga quyidagi mazmunda maktub yubordi: «Mamlakatingiz podshohi sizday bir oliy zotning qadriga yetmadi, sizni behurmat qildi. Agar janoblari (Oллоh yaqin fursatda sizni zindondan xalos aylasin) lutf etib, bizning tarafimizga o'tishga mayl ko'rsatsalar, har ni-

maiki ixtiyor etsalar muhayyo qilinur. Yurtimizning barcha a'yonlari sizni ko'rmoqqa va javobingizga mushtoqdirlar».

Bu maktub mazmunidan xabardor bo'lgan amaldor xavf-xatarni o'ylab, darhol maktubning orqasiga, basharti birovning qo'liga tushsa, o'ziga ziyon-zahmat yetkazmaydigan qilib, qisqagina javob yozdi-da, jo'natib yubordi.

Podshohning yaqinlaridan biri bundan xabar topib, unga yetkazdi: «Sen zindonga tashlatganing falon odam qo'shni mamlakatlarning podshohlari bilan xat yozishib turar ekan», dedi.

Podshoh darg'azab bo'lib, bu xabarni tekshirishni buyurdi. Choparni tutib, maktubni o'qidilar. Maktubda shunday deb yozilgan edi:

«Hazratlarining biz kaminai kamtarin qullari haqida xayollari bizdagi fazilatdan necha bor ziyodadir, taklifingizni qabul etish masalasiga kelganda, uni qabulidan o'jizman, zero, shu xonadonning ne'matidan bahramand bo'lib, tarbiya topganman, valine'matning sal mayli o'zgargani uchun ko'rnamaklik qilmoq inson sha'niga yarashmas!»

Bir kishi umr bo'yi senga karam etibdi,
Bir galgina gunohini sen kechirsang netibdi!

Amaldorning olijanoblighi podshohga manzur bo'ldi, unga qimmatbaho kiyim-bosh va noz-u ne'matlar ehson qildi va uzr so'radi: «Xato qildim, seni nohaq xafa qildim!»

Amaldor dedi: «Ey podshohi olam, men bu ishda siz tomondan sodir bo'lgan hech qanday xatoni ko'rmayman. Aftidan, taqdiri ilohiy bilan boshimga shu ishlar kelmog'i lozim ekan, xayriyatki, bu ish sizning qo'lingiz bilan bo'ldi, chunki mening gardanimda qarzingiz bor, hukamolar shunday deganlar:

Oqil kishi alam o'tsa o'z xalqidan o'pkalamas,
Na aziyat, na rohatga xaloyiq sabab emas.
Birni birga do'st-u dushman qilmoq xudoning ishi
Va xudoning izmidadir hamma dilning yozmishi.
Agarchi o't otilganda kamondan otiladi,
Biror o'qchi otganini aqllilar biladi».

HIKOYAT

Deydilarki, bir zolim odam kambag'allarning o'tinlarini arzonga olib, boylarga qimmat bahoda sotar edi. Bir pok vijdon odam uni ko'rib dedi:

Nima balo, ilonmisan, ko'rganingni chaqasan,
Boyqushmisan, qaysi yerga qo'nsang, uni yiqasan?
Sen-ku zulmingni bizga qilasan,
Shunday qilolmaysan qodir xudoga.
Yerda-ku zulmingni elga qilasan,
Ularning qarg'ishi o'rlar samoga.

Zolim bu so'zga e'tibor bermadi, darg'azab bo'lib, qosh-qovog'ini uydi, quloq solmadi. Bir kuni kechasi osh-xonasidan bir uchqun chiqib, o'tinxonasiga tushdi. Zolimning butun bor-bisoti yonib ketdi. Uning rohat to'shagi o'rnida kultepa paydo bo'ldi. Ittifoqo, haligi pok vijdon odam zolimning uyi yonidan o'tib borardi. Zolimning o'z oshnalariga: «Bilmadim, bu o't mening saroyimga qayerdan tushdi ekan?» degan savolini eshitgan boyagi aziz kishi: «Faqirlar qalbidan chiqqan ohning o'tidan», dedi.

Dilni yaralama ohidan cho'chi,
Bu yara biror kun sirtga tepadi.
Birorta ko'ngilga bermagil ozor,
Jahonni o'rtashga bir oh yetadi.

Kayxisravning tojiga shu soʻzlar yozilgan edi:

Uzun-uzun yillar, uzoq umrlar
Xalqlar boshimizdan bosib oʻtadi.
Qoʻllardan qoʻllarga oʻtgan shuncha mulk
Bizdan navbatdagi qoʻlga oʻtadi.

HIKOYAT

Bir odam kurash sanʼatida zoʻr mahorat qozondi, u uch yuz oltmish hiylani bilar va har kuni bir hiylani ishlatib, kurashar edi. Shogirdlaridan biriga mayl koʻrsatgani sababli unga uch yuz ellik toʻqqiz hiylani oʻrgatdi. Ammo bir hiylani oʻrgatishni har turli bahonalar bilan paysalga solib yurdi.

Xulosai kalom, shogird qudrat va sanʼatda kamolotga erishdi, u bilan bel olishishga hech kimsada qudrat va jurʼat yoʻq edi. Ish shu darajaga borib yetdiki, bir kuni u podshoh huzurida dedi: «Ustozimning faqat birgina afzalligi bor, u ham boʻlsa, uning yoshi ulugʻligi va menga tarbiya berganligidir. Yoʻqsa, kuchda ham, mahoratda ham men undan qolishmayman!»

Bu soʻz podshohga yoqmadi. Ustoz-u shogirdning kurash tushmoqlarini buyurdi. Katta maydonni hozirladilar. Podshoh boshliq arkoni davlat, aʼyoni mamlakat hamda oʻsha yurtning barcha pahlavonlari hozir boʻldilar. Shogird bamisoli mast fildek joʻshib maydonga kirdi, goʻyo qarshisida temir togʻ boʻlsa uni yemirib tashlagudek edi. Ustoz shogirdi kuchda ortiq ekanini angladi. U pinhon tutib yurgan mazkur nodir hiylasini ishga solib kurashmoqqa boshladi. Shogird ustozning hamlasini dafʼ etishdan ojiz keldi. Ustoz harifini ikki qoʻli bilan boshi uzra koʻtarib, yerga urdi. Xaloyiqning hoy-huv sadolari koʻkka oʻrladi.

Podshoh ustozga sarpo bermoqni buyurdi, shogirdni esa, ta'na-malomatlar qilib, dedi: «O'z ustozingga bevafoqlik qilib, uni mag'lub etaman, deb maqtanding, lekin aytgan so'zingning uddasidan chiqa olmading!» Shogird dedi: «Ey podshohi olam, ustozim kuch bilan mendan ustun kelgani yo'q, balki ko'p vaqtdan beri menga o'rgatmay, yashirib yurgan bir hiylasi tufayli meni mag'lub eta oldi».

Ustoz dedi: «Mazkur hiylani ana shunday bir kun uchun saqlab qo'yib edim, chunki ulamolar: «Do'stga, bir kuni agar u dushmanchilik qilsa, o'zingni mag'lub eta olajak kuch bermagil», deganlar. Shogirdidan jaf o'rgan ustoz nima deganini eshitmaganmisan?

Yoki vaf o'zi yo'qdir olamda,
Yo kishi qo'llamas uni bu zamon.
O'zimdan o'q otish o'rgangan kishi
Bu kun ko'kragimni qilmoqchi nishon».

HIKOYAT

Bir darvesh sahraning xilvat bir yerida o'tirgan edi. Shu mahal podshoh o'sha yerdan o'tib qoldi. Qanoat mulki ichra farog'atda bo'lgan darvesh podshohga qayrilib ham qaramadi. Podshoh darveshning bu ishini saltanat sha'niga tahqir bilib, dedi: «Bu xirqa (janda) kiyganlar bamisoli qoramolga o'xshaydilar, ular tavozeni ham, odamgar-chilikni ham bilmaydilar». Shunda vazir darveshga yaqin borib, dedi: «Ey darvesh, podshohi olam sening yoningga keldilar, nima sababdan izzat-ikrom qilmading, odob qoidalarini bajo keltirmading?» Darvesh aytdi: «Podshohga degilkim, ne'mat va iltifotidan umidvor odamdan izzat va xizmat kutsin. Yana shuni ham aytib qo'ygilki, fuqarolar podshohlarga itoat etmoq uchun emas, balki podshohlar fuqaroga xizmat etish uchun yashaydilar».

Garchi ne'mat bilan davlat uniki,
Lekin darveshlarga shohdir posbon.
Qo'ylar cho'pon uchun xizmat qilmaydi,
Balki qo'ylar uchun kerakdir cho'pon.

Bittani to'qu tinch ko'rasan bukun,
Bittasi urinib bo'lmish dil yara.
Necha kun sabr etib, o'zga mag'rurning
Miyasin tuproqlar yeganin qara.

Taqdirning zo'r hukmi ijro bo'larkan,
Shohu gadoligin farqi yo'q zarra.
Birorta qabrni ochib qarasang,
Boy, faqir so'ngagin bilmaysan sira.

Darveshning so'zi podshohga qattiq ta'sir qilib, dedi:
«Tila tilagingni, beray murodingni». Darvesh dedi: «Bun-
dan buyon menga aziyat bermagil!» Podshoh: «Menga bir
maslahat bergin!» dedi. Darvesh bu baytni o'qidi:

Hozir-ku qo'lingda ne'mat, davlat bor,
Qo'ldan qo'lga ko'char, bergil e'tibor.

HIKOYAT

Bir podshoh bir begunoh odamni qatl etishni buyurdi.
U odam dedi: «Ey podshoh, menga qarshi ko'nglingdagi
kekni deb o'zingni falokatga duchor etma, chunki meni bir
nafasda o'ldirib yuborasan, lekin qonim bir umrga garda-
ningda qoladi».

Cho'lning shamolidek o'tajak davron,
O'tar achchiq-chuchuk, yaxshi-yu yomon.
Zolim, bizga sitam qildim, deb o'ylar,
Bilmaydi, gunohi o'zida hamon.

Uning nasihati podshohga ma'qul ko'rindi, qonidan kechib, ozod qilib yubordi.

HIKOYAT

Bir kun No'shiravonning vazirlari bir muhim davlat ishini muhokama qilishar va har kimsa o'z fikrini bayon etardi. Podshoh ham bir fikr aytdi. Buzurjmehr podshohning fikriga qo'shildi. Boshqa vazirlar yashirincha undan so'radilar: «Shohning fikrida qanday fazilat ko'rdingki, uni barcha ahli donolar fikridan yuqori qo'yding?» Buzurjmehr dedi: «Ishning oqibati ma'lum emas, kimning fikri to'g'ri, kimning fikri noto'g'ri chiqajagini hech kimsa bilmaydi, podshoh fikrini ma'qullaganimning sababi shuki, uning aytgani rost chiqmagan taqdirda ham g'azabidan omonda bo'laman».

Sultonning ra'yiga qarshi so'z aytmq,
O'z yurak qoningga qo'l yuvmoq, demak.
Kunduzni podshoh kecha deb aytsa,
Hay-hay, ana Hulkar demaklik kerak.

HIKOYAT

Bir firibgar, «men Ali naslidanman», deb sochlarini o'rib, «hajdan kelyapman», deb Hijoz karvoni bilan birga shaharga kirdi. U podshohga qasida topshirib, «o'zim yozganman», dedi! Podshoh unga katta in'om-ehsonlar berib, izzat-ikrom ko'rsatdi. Podshohga yaqin kishilardan biri shu yili dengiz safaridan qaytgan edi, firibgarni ko'rib: «Men qurbon hayitida uni Basrada ko'rgan edim, bu qanday qilib hoji bo'lib qoldi», dedi. Boshqa bir kishi aytdi: «Otasi malatiyalik xristianlardan-ku, qandaqasiga u sayidzodalar

qatoriga kira oladi?» Qasidasini esa Anvariyning devonidan topdilar. Shu qadar yolg'onchilik qilgani uchun podshoh uni urib haydashni buyurdi. Firibgar dedi: «Ey podshohi olam, yana bir so'zim bor, agar o'sha ham rost bo'lmasa, menga qanday jazoni loyiq ko'rsangiz, sazovorman». «Qanday so'z ekan u, ayt?» dedi podshoh. Firibgar dedi:

«Musofir oldingga keltirsa ayron,
Asli bir cho'mich suv, bir qoshiqcha sut.
Dunyoni ko'p kezgan ko'p yolg'on so'zlar,
Bizdan biror vahma eshitsang, unut».

Podshohning kulgisi qistab, dedi: «Umring umr bo'lib bundan ko'ra to'g'riroq gap gapirmagan bo'lsang kerak!» Keyin tilagan narsasini berib, rozi qilib yuborishni buyurdi.

HIKOYAT

Bir necha amaldorlar bilan birga kemada edim. O'rtimizda bir qayiq g'arq bo'lib, ikki og'a-ini girdobga tushib qoldi. Amaldorlardan biri kemachiga dedi: «Har ikkalasini qutqar, har biri uchun ellik dinordan beraman!» Kemachi darhol o'zini suvga tashlab, og'a-inilardan birini qutqardi, ikkinchisi g'arq bo'ldi. Men dedim: «Uning kuni bitgan edi, shu sababdan uni xalos etishga shoshilmading, buni qutqarishga shoshilding». Kemachi kulib deydi: «Aytgan gaping to'g'ri, lekin buni qutqarishga o'zimda istak bor edi, chunki bir mahal biyobonda qolganimga bu meni tuyasiga mingashtirib olgan edi, u birisidan esa, bolaligimda qamchi yegan edim».

Men dedim: «Oллоhi taoloning aytgani ayni haqiqatdir: «Har kimsa yaxshilik qilsa ham, yomonlik qilsa ham o'ziga qiladi».

Birovni ranjitma qo'lingdan kelsa,
Chunki yo'l ustida tikan-nishlar ko'p.
Darvesh kishilarning hojatin chiqar,
Hali o'z oldingda qilar ishlar ko'p.

HIKOYAT

Ikki aka-uka bor edi. Biri podshoh saroyida xizmat qilar, ikkinchisi esa, o'z qo'l kuchi bilan tirikchiligini o'tkazardi. Bir kun boy aka faqir ukaga dedi: «Nega podshoh saroyida xizmat qilmaysanki, mashaqqatli mehnatdan xalos bo'larding?»

Ukasi dedi: «Xo'sh, o'zing nega mehnat qilmaysanki, shoh oldida xo'rlanishdan qutularding? Axir hukamolar aytganlar-ku: «Oltin kamar taqib podshoh xizmatida turgandan ko'ra, o'z noningni yeb, tinch o'tirganing yaxshi!»

Qo'lda elab xamir qilmoq so'nmagan ohak toshni,
Oson ishdir, amirga egishdan aziz boshni.

Qimmatli umrimiz ko'p isrof bo'ldi,
Yoz-u qish nima yeb, ne kiyaman, deb.
Sen, qorin qurg'ur, ham bitta nonga ko'ngil,
Ikki bukilishni o'zingga ko'rma ep.

HIKOYAT

Bir necha olimlar No'shiravon huzurida bir muhim masalani muhokama qilmoqda edilar. Ular orasida eng mo'tabari bo'lgan Buzurjmehr sukut qilardi. Undan: «Nima uchun bu mubohasaga ishtirok etmayotibsan?» deb so'radilar. Buzurjmehr javob berdi: «Vazirlar bamisoli tabiblarga o'xshaydilar, tabib esa, bemorga doridan boshqa narsa bermaydi. Fikrlaringiz to'g'ri ekanini ko'rib turganim holda gapga aralashmog'im hikmatdan emasdir».

Biror ish mensiz ham bitajak ekan,
Nega shu to'g'rida men valaqlayman.
Ko'rdimki, bitta ko'r chuqur labida
Hay-haylab qo'ymasam, bu gunoh manda.

HIKOYAT

Horun ar-Rashid Misrni egallaganda, dedi: «Misr saltanatiga mag'rurlanib, xudolik da'vo qilgan nobakorning qasdiga o'laroq, bu mamlakatni o'zimning eng manfur qulimga topshiraman». Horun ar-Rashidning bir zanji quli bo'lib, nomi Husayb edi. Misr mamlakatini o'shanga topshirdi. U qulning fahm-farosati shu darajada ediki, bir qancha Misr dehqonlari uning yoniga shikoyatga kelib: «Paxta ekan edik, bevaqt yomg'ir yog'ib, paxtamiz nobud bo'ldi», deganlarida, u: «Jun ekish kerak edi, nobud bo'lmasdi»,— deb javob berdi.

Agar bilim to'q yashashga vaj bo'lsa,
Ajabmasdi nodonlar ochdan o'lsa.
Lekin nodon shuncha kelim oladi,
Ko'p donolar bunga hayron qoladi.
Baxtli va davlatli bo'lmas bilimdon,
Buning barchasiga sabab osmon.
Jahonda uchraydi takror-u takror,
Ahmoqlar hurmatda, aqllilar xor.
Kimyogar qiynalib o'lib ketadi,
Ablahga xazina nasib etadi.

HIKOYAT

Iskandari Rumiyan so'radilar: «G'arb-u Sharqda-gi mamlakatlarni nima bilan zabt etding? Avvalgi podshohlarning xazinasi, yoshi va lashkari senikidan ortiq bo'lsa-da, bunday fothlik ularga nasib bo'lmagandi». Is-

kandar dedi: «Zabt etgan mamlakatim fuqarolariga ozor bermadim va podshohlarining nomlarini faqat yaxshilik bilan yod etdim».

Aqllilar ulug'lamas shundaylar zotin,
Ulug'larning yomonlik-la yodlasa otin.
Taxt-u baxt, farmonlar, taqiq va zo'rlik,
Barchasi bekorchi: o'tib ketadi.
Siylasang o'tganlar aziz nomini,
Sening nomingga ham hurmat yetadi.

IKKINCHI BOB

DARVESHLAR AXLOQI BAYONI

HIKOYAT

Katta mansabdorlardan biri shayxdan so'radi: «Ba'zi odamlar falon shayxni ta'na-malomat bilan tilga oladilar, shu kishi haqida sen qanday fikrdasan?»

Shayx javob berdi: «Tashqi qiyofasida hech qanday ayb ko'rmayman, ko'nglidan esa xabardor emasman».

Ruhoniy libosida kimniki ko'rsang,
Yaxshi odam ekan, deyib bilaver.
Kishining ich sirin bilishing qiyin,
Uy ichini tekshirmas mirshablar hech bir.

HIKOYAT

Bir kuni bir shayxning uyiga o'g'ri tushdi, u qancha axtarsa ham hech narsa topa olmay xafa bo'ldi. Buni ko'rgan shayx o'g'rining ko'ngli o'ksimasin, deb o'z ostidagi ko'hna gilamni uning oyog'i ostiga eltib tashladi.

Eshitdimki, tangri yozgan to'g'ri yo'ldan toyganlar,
Dushman dilin ham xafa qilmas ekan hech qachon.
Senga qachon shu o'ktamlik muyassar bo'lar ekan?
Do'sting bilan kelishmaysan, urishasan har zamon.

Sadoqatli kishilarning samimiyati kishining oldida ham,
ortida ham bir xilda bo'ladi: ular oldingda senga jon fido
qilishga tayyor ekanlarini e'lon etib, orqangdan g'iybat
qilib yurmaydilar.

Yuzma-yuz kelganda qo'y kabi yuvosh,
Orqadan bo'riday odamxo'r, bebosh.

Kimki birovlar aybin kelib aytarkan senga,
Sening ayblaringni ham aytadi birovlariga.

HIKOYAT

Bir guruh sayyohlar hamroh bo'lishib, sayohatning laz-
zatini ham, mashaqqatini ham birga baham ko'rar edilar.
Men ham ularga yo'ldosh bo'lsam degan edim, qabul etma-
dilar. Men dedim: «Faqirlar suhbatidan yuz o'girib, ular-
ga yaxshilik qilishdan bo'yin tovlamoq saxovat ahllariga
munosib emasdir. Men o'zimda shunday qudrat va jur'at
sezamanki, safarda kishilar yuragini ezadigan tosh emas,
balki qulfi dilini ochadigan yo'ldosh bo'lishga qodirman».

Kishi tanilmaydi kiygan jomada,
Yozganga ma'lumdir, ne bor nomada.

Ulardan biri dedi: «Sen bizlarning so'zimizdan xafa
bo'lmagin, chunki bundan bir necha kun muqaddam
bir o'g'ri darvesh qiyofasida bizga qo'shilgan edi. Biz
darveshlar ko'ngli ochiq kishilar bo'lganligimizdan hech
narsadan shubhalanmay, uni hamrohlikka qabul etgan edik.

Eski kiyimda ham orifdir ayon,
Chunki uning yuzi doim xalq tomon.
Gap kiyim-boshdamas, ish bo'lsin ko'rkam,
Toj kiyib, yelkangga bayroq qo'ysang ham.
Yolg'iz kiyim emas, dunyo va shahvat,
Barchasin tark etgan orifdir faqat.
Mard olsun qurolni, ko'rsatsin kuchin,
Xunasa qo'rqqqa qurol nimaychun?

Kunlardan bir kun ertadan kechgacha yo'l yurdik, tunda
bir qal'a oldida yotadigan bo'ldik. Boyagi betovfiq o'g'ri
«tahorat qilaman», deb bir do'stimizning ko'zachasini
o'g'irlab qochdi.

Qara, shu eski to'nda ketib borguchi darvesh,
Ka'baning yopug'ini eshakka to'qim qilmish.

U bizlarning ko'zimizdan g'oyib bo'lgach, qal'aga
kiribdi-da, qimmatbaho gavharlar solingan qutichani
o'g'irlab ketibdi. Tong otguncha u ancha olis yerga ketib
qolibdi. Biz bo'lsak hech narsadan bexabar uxlayveribmiz.
Tong otgach, hammamizni tutib, qal'aga haydab kirib,
zindonga qamadilar. O'shandan buyon begonalar bilan osh-
nalikni tark etib, ulardan olisroq yuramiz, chunki salomat-
lik yolg'izlikdadir».

Elatdan bittasi ahmoqlik qilsa
Qishloqning obro'sin kulday to'zg'itar,
Ushbu maqolni ham eshitgandirsan,
Yaramas bir buzoq poda bulg'atar.

Darveshning bu gapini tinglagach, dedim: «Xu-
doga shukr-u sanolar bo'lg'aykim tashqi qiyofamdan
darveshlardan uzoqday ko'rinsam-da, ularning duolaridan

bexabarlardan emasman. Sizning bu hikoyangizdan juda katta manfaat oldim, men yanglig' odamlarga bu nasihat bir umrga kifoyadir».

Dilni og'ritar bir qo'pol kishi,
Bilimdon davrada nojo'ya ishi.
Kattakon quduqda limmo-lim gulob
Bitta o'laksa it qilganday xarob.

HIKOYAT

Bir shayx bir podshohning qasrida mehmon bo'ldi. Podshoh meni juda taqvodor odam ekan, deb o'ylasin degan muddaoda, odatdagi yeydigan ovqatidan kam yedi, namozni esa, odatdagidan ortiq o'qidi.

Ka'baga yetmaysan, deb qo'rqaman, ey a'robi,
Sen ketayotgan bu yo'l Turkistonga boradi.

Uyiga qaytib kelganidan keyin ovqat talab qildi. Uning farosatli bir o'g'li bor edi, u dedi: «Ota, nima uchun podshohning ziyofatida hech nima yemadingiz?» «Podshoh huzurida to'yib ovqatlana olmadim». O'g'li dedi: «Unday bo'lsa, namozingizni ham qayta boshdan o'qing, chunki xudoning dargohida qabul bo'ladigan namozni ham o'qiy olmagansiz».

Bor hunarin ko'z-ko'z qilib, qo'llarida ardoqlab,
Ayblarini elu yurtdan qo'ltig'iga yashirgan,
Hoy kekkayma, biror og'ir kunga qolsang, qani ayt,
Shu qalbaki, o'tmas pulga nima olmoq bo'lasan?

HIKOYAT

Bolalik kunlarimda juda ibodatga berilib ketib, kechalari tinmay namoz-niyoz bilan mashg'ul bo'lganligim yodimda. Bir kecha otam huzurida o'tirib qur'onni bag'rimga bosib, tilovat qilish bilan mashg'ul bo'ldim. Atrofimizda bir necha odam uxlab yotardi. Shunda men otamga dedim: «Bulardan birortasi loaqal ikki rakaat namoz o'qigali boshini ko'tarmaydi-ya, shu qadar g'aflat uyqusiga botibdilarki, uxlagandan ko'ra ko'proq o'lganga o'xshaydilar!»

Otam dedi: «Ey jonim o'g'lim, sen ham odamlarni malomat qilgandan ko'ra uxlab qo'ya qolsang yaxshiroq bo'lardi».

Ko'z oldini parda bosgan, manman degan kekkayma
Bu dunyoda o'zidan ham yetuk kishini ko'rmas.
Siz mabodo o'z-o'zini ko'rarlik oynak topib
Bersaydingiz, ko'rar edi o'zini hammadan past.

HIKOYAT

Bir majlisda bir mo'tabar odamni tavsif qilishar, olijanob sifatlarini ko'klarga ko'tarib maqtashardi. Nihoyat, mazkur odam boshini ko'tarib dedi: «Qanday odam ekanim faqat o'zimgagina ma'lum!»

Sirtimni maqtay berib meni uyaltirmagil,
Ichimda ne nuqson bor, uni o'zim bilaman.

Sirtidan qarasangiz yaxshi kishiman,
Ichki yomonlikdan boshimdir quyi.
Tovusni go'zal deb dunyo maqtaydi,
Oyog'idan uyalar u umr bo'yi.

HIKOYAT

Bir kuni kechasi Makka biyobonida uyqusizlikdan tin-ka-madorim qurib, yerga uzala tushib yotdim-u, tuyakashga dedim: «Meni o'z holimga tashlab ket!»

Sho'rlik yayov kishi yurolmas endi
Tuya ham bu yo'ldan toliqqan damda.
Oriqlar albatta o'lgan bo'ladi
Semiz kishilarki shuncha ozganda.

Tuyakash dedi: «Ey birodar, Makka-Haram oldingda-yu, qaroqchi-haromiy ortingda, olg'a yursang, bir narsalik bo'lasan, bunda qolsang shak-shubhasiz o'lasan».

Yo'lda biror ko'lkada uxlab olish yaxshi-ku,
Sensiz karvon jo'nasa, tiriklikdan qo'lni yuv.

HIKOYAT

Bir dengiz sohilida bir shayxni ko'rdim, uni yo'lbars yarador qilgan bo'lib, hech bir dori-darmon kor qilmasdi. Ko'p vaqtdan beri badanidagi jarohatlar uni azoblardi-yu, u bo'lsa xudoga shukur qilardi. Undan so'radilar: «Shukur qilishingning boisi nima?» U javob berdi: «Shukur etishimning boisi shuki, yaxshiyamki xasta bo'lib yotib-manu, ammo gunohga botganim yo'q».

Gar meni o'ldirmoqni chog'lasa sevgili yor,
Sen xayol qila ko'rma, chekar, deb jon g'amini,
«Men sho'rlikda ne gunoh?» so'rashga iymanaman,
Dilini og'ritmay, deb tortib jonon g'amini.

HIKOYAT

Bir darvesh qattiq muhtojlikka tushib qoldi. U qalin do'stining gilamini o'g'irladi. Hokim uning qo'lini kesishni buyurdi. Gilamning egasi darveshga rahmi kelib: «Men uning gunohini kechirdim», dedi. Hokim dedi: «Sen kechirganing bilan shariat qonuni kechirmaydi!» Gilam egasi dedi: «To'g'ri aytasiz, lekin vaqf molini o'g'irlagan odamning qo'lini kesmaydilar. Darveshlardagi hamma narsa muhtojlarning vaqfidir». Hokim o'g'rini afv etib, malomat qilishga boshladi: «Senga olam torlik qildimiki, borib-borib o'z yaqin do'stingning uyiga o'g'irlikka tushibsan?» Darvesh dedi: «Ey hokim, eshitmaganmisanki: «Dushman eshigini qoqqandan ko'ra do'st uyini qoqlagan yaxshi, deydilar».

Qiyin kunga qolgan chog'da ruhing bo'lmasin tushkun,
Dushmanlarning terisidan do'stingga bichgil po'stun.

HIKOYAT

Bosh yalang va oyoq yalang bir piyoda musofir Hijoz karvoni bilan Kufadan kelib bizga qo'shildi. Uning hech narsasi yo'q edi, lekin viqor bilan qadam tashlab derdi:

Xachir minib bormayman, na tuyada yukim bor,
Na sultonning quliman, na qullarga shahriyor.
Dunyoda hech qayg'um yo'q, dilim qo'rquvdan ozod,
Xotirjamman bus-butun, ko'nglim esa doim shod.

Tuya mingan boylardan biri unga dedi: «Ey darvesh, qayoqqa borasan, yo'l og'ir, yo'l mashaqqatiga bardosh bera olmay o'lib ketasan, qayt orqangga». Darvesh uning gapiga quloq solmay, yo'lida davom etaverdi. Karvonimiz Naxlai

Mahmudga yetganida boyagi tuya mingan boy olamdan o'tdi. Darvesh uning o'ligi tepasiga kelib dedi: «Men piyoda yurish mashaqqatidan o'lmadim-u, sen nortuyada yurish rohatidan o'lding!»

Bir kishi kasal uzra tun bo'yi yig'ladi zor,
Tongda yig'lagan o'ldi, sog'ayib turdi bemor.

Birtalay arg'umoq yo'llarda qoldi,
Manzilga oqsagan eshak yetoldi.
Yarali yigitlar sog'ayib ketdi,
Ne-ne sog'lomlarni qora yer yutdi.

HIKOYAT

Yunon tuprog'ida qaroqchilar karvonni taladilar va son-sanoqsiz o'ljani qo'lga kiritdilar. Savdogarlar zor-zor yig'lashib, xudo va payg'ambardan madad tiladilar, lekin foydasi bo'lmadi.

Gar bo'lsa bir g'addor o'g'ri komron,
G'am yemas yig'lasa butun karvon.

Luqmoni hakim ham ana shu karvonda edi. Savdogarlardan biri unga murojaat qildi: «Bularga nasihat qilib, hikmatli so'z ayt, zora talagan mollarimizdan biroz qismini qaytarib berishsa, axir, shuncha mol-dunyoning talon-taroj bo'lishi uvol-ku!» Luqmoni hakim dedi: «Bularga hikmatli so'z aytish hayfdir».

Zanglagan temirni ming ishqov berib,
Ko'zguday sayqallab, boqib bo'lmaydi.
Qora ko'ngullarga o'git foydasiz,
Toshga temir mixni qoqib bo'lmaydi.

Shod kunlaring g'amginlarning ko'nglin top,
Dil og'ritgan balolarga qoladi.
Bo'la turib tilanchiga bermasang,
Biror zolim sendan yulqib oladi.

HIKOYAT

Buyuk shayx, marhum Abulfaraj ibn Jo'vziy menga musiqa, qo'shiq tinglashni man' qilardi va tanholikda yashashga undardi. Lekin boshimda yoshlik, qalbmida ayshishrat havosi tug'yon urganidan, kekxa ustozimning gapiga quloq solmay, musiqa majlislarida ishtirok etishdan lazzatlanardim. Shayxning nasihatini eslaganimda o'z-o'zimga derdim:

Qozi bizning davrada o'ynab ketar bayakbor
O'zi may ichgan mirshab bizni qilmas gunohkor.

Bir oqshom bir kayf-safo majlisiga bordim, u yerda shunday bir xonandaga duch keldim:

Jon tomirin uzganday chaladi nosoz sozin,
Otasi o'lganlarning dodi, derding ovozin.

Majlisdagilar uning ovozini eshitmaslik uchun goh quloqlarini barmoqlari bilan bekitishar, goh «ovozingni o'chir», deb pichirlashardi.

Xushovoz xonandaning qo'shig'i istirohat,
Sen qanday xonandasan, jim tursang jonga rohat.

Sening qo'shig'ingdan ilimas ko'ngul,
Yo'qol, daming o'chib ketgani ma'qul.

U kuylay boshladi, chalib arg'unun,
Men dedim mezbonga: «Xudo haqqi-chun,

Quloqqa simob quy, shuni eshitmay,
Yoki eshikni och, nariroq ketay».

Do'stlarimning ro'y-xotirlarini qilib, o'sha kuni kechasi
azob-uqubatda tong ottirdim.

So'fi bemahalda bo'kirib qoldi,
Kechadan qancha vaqt o'tganin bilmay.
Kecha uzunligin kiprigimdan so'r,
Surunka tong otdi ko'zim ilinmay.

Ertalab barvaqt boshimdan sallani olib va yonim-
dan bir dinor chiqarib, har ikkalasini xonandaning oldi-
ga qo'ydim-da, uni bag'ringa bosib minnatdorchilik
bildirdim. Do'stlarim mening xonandaga ko'rsatgan ehtirom-
mimni g'ayritabiyy bilib, bu g'oyatda yengiltaklik, dedilar.
Do'stlarimdan biri esa, tilini bir qarich qilib meni koyimoq-
qa boshladi: «Sening qilgan bu ishing oqillarga yarashmay-
di. Egni durust kiyim, childirmasi bir tiyinni ko'rmagan
xonandaga darveshlik kiyimini berib yaxshi ish qilmading».

Buningdek sozandalar bu uydan ketsa, yaxshi,
Qaytadan ko'rinmasin qadamlarining naqshi.

O'z og'zini ochdi-yu, bo'kirib boshladi kuy,
Tikanday tikka bo'ldi badandagi har bir mo'y.

Qo'rqqanidan to'zg'idi hovlida tovus, xo'roz,
Miyamizni achitdi, kekirdak yirtgan ovoz.

Men dedim: «Yaxshisi shuki, menga e'tiroz bildirma-
gin, chunki bu odamning karomati menga ayon bo'ldi».
Do'stim dedi: «Unday bo'lsa, nega sen buning sababini
menga tushuntirmaysan, toki men ham xonandani ehtirom
etib, hazil-mutoyiba qilib aytgan gaplaringa uzr so'ray».

Men dedim: «Sababi shuki, muhtaram ustozim musiqa majlisiga bormagin, deb menga ko'p o'git-nasihat qilardi. Men bo'lsam uning gapiga kirmasdim. Bugun kechasi meni baxtli bir tasodif bu majlisga olib keldi. Bu xonanda tavba qilib, to umrimning oxirigacha bunday majlislarga qadam bosmaslikka ont ichishga majbur qildi».

Go'zal og'iz, shirin bo'g'iz va labdan chiqqan ovoz,
Kuy aytsa ham, aytnasa ham dil erkalar, juda soz,
Ammo no'noq qo'shiqchining kekirdagin bezolmas
Ko'p ajoyib maqomlar ham: «Ushshoq», «Xuroson»,
«Hijoz».

HIKOYAT

Luqmoni hakimdan: «Odobni kimdan o'rganding?» deb so'radilar. Luqmon javob berdi: «Odobni beodoblardan o'rgandim, ularning harakatlaridagi menga maqbul bo'lmagan narsalardan o'zimni saqladim!»

Biror esli kishiga hatto hazil so'z aytsang
U shundan ham o'ziga chiqaradi xulosa.
Ammo ahmoq kishiga yuzlab hikmat o'rgatsang
Barchasi uning uchun tuyular hazil narsa.

HIKOYAT

Shayxlardan biriga shikoyat qilib dedim: «Falon kishi meni buzuq odam deyapti». Shayx menga dedi: «Sen uni yaxshilik bilan uyaltir!»

O'zing yaxshi bo'lsang yurish-turishda,
Sendan ayb topolmas hech bir yaramas.
Tanburning o'z sozi joyida bo'lsa,
Sozanda qulog'in burab o'ltirmas.

HIKOYAT

Hijoz safariga chiqqan maholimda bir necha sofdil yoshlar menga hamroh bo'ldilar. Ular goho askiyabozlik qilishar va goho hikmatli she'rlar o'qishardi. Darveshlarning ichki dunyosidan voqif bo'lmagan va ularning dardi dillaridan bexabar bir obid to Bani Hilol rabotiga yetguncha bizga hamroh bo'lib bordi. Bani Hilol rabotida arablar qarorgohidan bug'doy rangli bir bola chiqib, shu qadar yoqimli ovoz bilan qo'shiq aytishga kirishdiki, samodagi qushlar yerga tushdilar. Obidning tuyasi uni ag'darib tashlab, sahroga qarab qochdi. Men dedim: «Ey shayx, bolaning qo'shig'i hatto hayvonga ta'sir etdi-yu, lekin senga ta'sir etmadi».

Bildingmi, tong chog'ida nima der menga bulbul:
«Nechuk odam sanalg'ay sevgidan bexabar dil?
Arab she'rin eshitgan tuya zavqidan o'ynar,
Senda zavqdan asar yo'q, hayvon ekansan butkul»

Bog'da tong yeli essa, majnuntol tebranadi,
Chaqirtosh tebranmaydi, qotib qolgan abadiy.

Diqqat bilan boqolsang, barcha narsa zikr etar,
Buni tinglay oladi, kim ma'nidan boxabar.
Gulga yolg'iz bulbulmas kuylovchi ko'ngil bilan,
Gul ham uni ulug'lar tikansimon til bilan.

HIKOYAT

Bir podshohning umri tugadi, uning o'rniga qoladigan valiahdi yo'q edi. Podshoh vasiyat qildiki, ertalab azonda shaharga birinchi bo'lib kirgan odamga toj kiygizing va mamlakatni uning ixtiyoriga topshiring. Ittifoqo o'sha kuni ertalab shaharga bir gadoy kirdi. Bu gadoyning umri burda

non yig'ish-u egnidagi juldur kiyimi yamog'i ustiga yamoq solish bilan o'tardi. Davlat a'yonlari va mamlakatning mo'tabar zotlari podshohning vasiyatini bajo keltirdilar. Saltanat va xazinalarning kalitlarini gadoyga topshirdilar va u bir qancha mahal hukmronlik qildi. Lekin oradan ko'p vaqt o'tmay davlat a'yonlaridan ba'zilar unga itoat etishdan bo'yin tovladilar. Qo'shni mamlakatlarning podshohlari har tomondan unga qarshi qo'shin torta boshladilar. Xullasi kalom, aholi bilan dushman qo'shini birlashib, mamlakatning ayrim shaharlari uning qo'l ostidan ajralib chiqdi.

Gadoy-podshoh bu voqealardan qattiq qayg'uga botib o'tirganida – gadoychilik qilib yurgan mahalida qadrdon bo'lgan bir do'sti uzoq safardan qaytdi. U do'stining bu qadar yuksak mansab egasi bo'lganini ko'rib dedi: «Xudoi taologa shukurlar bo'lg'aykim, gulingdan tikan ajrab chiqibdi, qashshoqlik tikani esa oyog'ingdan sug'urilibdi. Baxting yor, toleing madadkor bo'lib, shunday martabaga yetibsan. Haqiqatan ham mashaqqatning oxiri rohatdir».

Gullar ba'zan ochiladi, ba'zan bo'ladi xazon,
Daraxtlar ham goh yalang'och, goh kiyar yashil chopon.

Gadoy-podshoh dedi: «Ey aziz do'stim, sen meni qutlama, balki ta'ziya bildir, chunki sen ko'rgan mahalda non g'amini yegan bo'lsam, hozir jahon g'amini yemoqdaman!»

Mol, dunyo bo'lmasa-chi, qayg'umiz yurak dog'lar,
Agar bo'la qolsa-chi, mehri oyoqni bog'lar.

Jahon tashvishidir eng og'ir balo,
Bo'lsa ham, bo'lmasa ham qiyin mojaro.
Agar sen istasang boylik va davlat,
Eng katta boylikka tengdir qanoat.

Etaging to'ldirsa bir boy zar bilan,
Sen unga qarama shod nazar bilan.
Katta kishilardan eshitdim har gal,
Darveshlar chidami boylikdan afzal.

HIKOYAT

Bir odamning do'sti podshoh xizmatida edi. Ular uzoq muddat bir-birlari bilan ko'rishmadilar. Bir kishi undan so'radi: «Do'stingni ko'rganingga ko'p vaqt bo'ldimi?» U javob berdi: «Uni ko'rish orzuim ham yo'q». Tasodifan do'stining yaqinlaridan biri shu yerda edi, uning javobini eshitib, hayron bo'lib so'radi: «Senga qanday yomonlik qildiki, uni ko'rging kelmay qoldi?» U javob berdi: «U hech qanday yomonlik qilgani yo'q, lekin podshoh xizmatida bo'lgan odamni amaldan bo'shagandan keyin ko'rish kerak, men o'z rohatim uchun do'stimning falokatga duchor bo'lishini istamayman».

Mo'lu ko'l, kattakon amalga mingach,
Do'stini tanimas, ko'zin bosib yog'.

Oshnolar yoniga hasrat-la borur
Amaldan haydalib, ojiz qolgan chog'.

HIKOYAT

Bir sohibdilga dedilar: «Oftob g'oyatda go'zal bo'lganiga qaramay, hech kimsa uni sevgani va oshiqi shaydosi bo'lganini eshitmadik». Sohibdil javob berdi:

«Buning sababi shuki, u har kuni ko'rinadi, lekin qishda ko'zdan pinhon bo'lgani uchun hamma uni yaxshi ko'radi».

Do'stni-ku yo'qlamoq zarra ayb emas,
Ammo «Bas!» deguncha boravermagil.
Boshqalar tergashin yoqtirmas bo'lsang,
O'zingni avvalo o'zing tergagil.

HIKOYAT

Damashqdagi do'stlarimning suhbatini jonimga tegib, shahardan bosh olib Quddusi sharif biyoboniga jo'nadim-da, hayvonlar bilan ulfatlashib, to faranglar qo'liga asir tushgunimcha o'sha yerda yashadim. Meni yahudiylar bilan birga qo'shib Taroblis xandaqini qazishga olib borib ishlatdilar. Halablik sardorlardan biri men bilan oshna edi, yonimizdan o'ta turib, meni tanib qoldi-da, xitob qildi: «Iye, bu qanday hol!» Men unga: «Nima ham deyman?» deb javob berdim.

Odamlardan qochib tog'u tosh ketdim,
Xudo deb uzildim insonlar bilan.
Bu soat holimni o'zing qiyos et,
Hozir og'ildaman oh-fig'onlar bilan.

Yotlar bilan birgalashib kevgandan ko'ra gulshan,
Do'stlar ichra mayli edi bo'lsa oyoqda kishan.

Ahvolimga achinib, o'n dinor to'lab, asirlikdan xalos etdi va o'zi bilan Halabga olib ketdi. U yerda yuz dinorlik qalin puli bilan qizini menga nikohlab berdi. Oradan sal vaqt o'tgach bilsam, qizi badfe'l, shallaqa va o'jar ekan, tilini zahar qilib, jonimdan bezor eta boshladi:

Yaxshi erkak uyidagi yomon xotin, misoli –
Bu dunyoda erkak uchun jahannamning timsoli.
Yomon xotin suhbatidan sochib, qidir panohi,
Jahannamning olovidan o'zing saqla, ilohiy.

Oxiri bir kun basharamga tik boqib, ta'na-malomatlar bilan dedi: «Sen, otam o'n dinor barobariga faranglardan xalos etgan odam emasmisan?» Men javob berdim: «Ha, otang o'n dinor barobariga faranglardan ozod etib, yuz dinor barobariga changalingga topshirgan odam men bo'laman!»

Eshitdim bir sipoh kunlardan bir kun
Bo'ri changalidan qutqardi qo'yni.
Oqshom qo'y bo'g'ziga pichoq ishqadi,
Shunda qo'y yalinib unga yig'ladi:
«Avvali bo'ridan qutqargan sensan,
Bilsam, o'sha bo'ri o'zing ekansan».

HIKOYAT

Bir podshoh bola-chaqasi ko'p bir xudojo'ydan so'radi:
«Aziz vaqtingni qanday o'tkazasan?»

Xudojo'y javob berdi: «Kechasi sahargacha yaratgan-ga munojot qilaman, saharlarda ehtiyojdan chiqish uchun duo o'qiyman, kun bo'yi esa nafaqai ahli ayol uchun yelib-yuguraman».

Podshoh obidning muddaosini angladi, unga maosh tayinlab, uni tirikchilik tashvishidan qutqarishni buyurdi.

Bola-chaqa qayg'usida band bo'lg'an kishi
Juda qiyin tinch turmushni xayol qilishi.
Farzandlar qayg'usi: kiyimi, noni
Esingdan chiqarar sayri samoni.
Kunduzi ko'nglimda qilaman qaror,
Bu kecha tangrini topay, deb bir bor.
Qachonki xuftonning vaqti keladi –
Ro'zg'orim tashvishi kela turadi.

HIKOYAT

Shom (Suriya) obidlaridan biri o'rmonda istiqomat qilgan va ovqat o'rniga daraxtlarning yaproqlarini yerdirdi. Bir podshoh uni ziyorat qilgani kelib dedi: «Agar maslahat ko'rsangiz, shaharda siz uchun bir qasr qurdirib beray, to'kim o'zingiz osuda ibodat bilan shug'ullana oling, o'zgalar ham sizning muborak nafasingizdan bahramand bo'lsinlar va ular ham sizdan ezgu odatlarni o'rgansinlar». Obid podshohning taklifini rad etdi. Vazirlardan biri unga dedi: «Podshohning ko'ngli uchun bir necha kun shaharga borishingiz, u aytgan qasrda yashab turishingiz kerak edi. Basharti, begona odamlar qimmatli vaqtingizni olib, ko'nglingizni ozurda qilgudek bo'lsa, yana ixtiyor o'zingizda bo'lardi».

Obid taklifni qabul qilib, shaharga bordi. Podshohning dilkusho va ruhafzo bog'idan unga joy berdilar.

Qip-qizil gullari go'zallar yuzi,
Sunbuli jingalak sochining o'zi.

Podshoh darhol uning huzuriga go'zal bir kanizakni yubordi.

Bu malak surat, to'vus raftor,
Oyjamolni ko'rgach taqvodor
Oshiqi shaydo bo'lib qolar,
Qo'lidan ketar sabru qaror.

Keyin podshoh unga sohibjamol – husnda bemisol bir qulni ham bag'ishladi.

Ko'z har qancha boqsa ham to'ymasdi jamolidan,
Xuddi chanqoq kishiki Firotning zilolidan.

Obid lazzatli taomlar yemoqqa va bashang liboslar kiy-moqqa boshladi, totli mevalarning xush bo'yidan kayf qilib, qul va kanizakning husnu jamoli tomoshasi bilan band bo'ldi. Donishmandlar: «Go'zallar zulfi aql oyog'iga kishanu, ziyrak qushlarga tuzoqdir», deydilar.

Dunyoda bor bilganimni, ishonchimni boy berib,
Ziyrakkina qush edimu, tuzog'ingga ilindim.

Xullasi kalom, obidning taqvosisga zavol yetdi. Axir, deydilar-ku:

Mayli kim bo'lmasin: pirmi, muridmi,
Pok nafas yoki zo'r donishmand,
Bu dunyoga qadam qo'yishi bilanoq
Pashshadek oyog'i bo'lur bolga band.

Bir kun podshoh obidni ko'rgisi keldi. Qarasaki, shayxning qiyofasi tamoman o'zgaribdi; tani oqarib, rangi qizarib, o'zi semirib ketibdi. U shohi yostiqqa yastangan bo'lib, go'zal qul tovus patidan yasalgan yelpig'ich bilan uning bosh tomonida turardi... Podshoh uning sihat-salo-matligidan mamnun bo'lib, har borada suhbatlashib o'tirdi. Suhbat oxirida shoh dedi: «Olamda men ikki toifa odamni yaxshi ko'raman: olimlaru shayxlarni. Ularni mendek yax-shi ko'radigan odam yo'q!» Podshohning ko'pni ko'rgan faylasuf vaziri ham shu yerda edi, u dedi: «Ey hukmdor, do'stlikning sharti budirki, har ikkala toifaga ham yaxshi-lik qilmoq lozim: olimlarga oltin berginki, ular ilmlarini ta-komillashtirsinlar, shayxlarga hech narsa berma, ular obid-liklaricha qolsin».

Go'zal chiroy, toza yuzli xotinga
Upa-elik, zebu ziynat kerakmas.

Erkin-ozod, yetuk asl darveshlar
Non qidirib ko'cha-ko'yni izg'imas.

HIKOYAT

Bir podshohning boshiga mushkul ish tushdi. U: «Agarda shu ish ko'nglimdagiday anjom topsa, obidlarga buncha dirham (pul) beraman», deb ahd qildi. Orzusi ushali, ko'ngli xotirjam bo'lgach, ahdini amalga oshirmoqchi bo'ldi. O'zining yaqin qullaridan biriga bir hamyon pul berib, obidlarga ulashishni tayinladi.

Qul oqil va hushyor edi, kun bo'yi shaharni kezib, qosh qorayganda podshohning huzuriga qaytdi, hamyonni o'pib podshohning oldiga qo'yib dedi:

«Qancha axtarmayin birorta ham obidni topa olmadim». Podshoh dedi: «Bu qanday gap o'zi, bilishimcha, mamlakatda to'rt yuz nafar shayx-obid bor». Qul dedi: «Ey podshohi olam, obid bo'lgan odam pulni olmaydi, pulni olgan odam esa, obid bo'lolmaydi». Podshoh kulib yubordi-da, suhbatdoshlariga dedi: «Xudojo'ylarni qanchalik sevsam, ehtirom etsamu bu beorga qarshi qancha adovat saqlasam-da, e'tirof etishga majburmanki, uning (ya'ni qulning) gapi haq».

HIKOYAT

Mo'tabar olimlarning biridan so'radilar: «Siz qanday o'ylaysiz, vaqf noni halolmi yoki yo'qmi?»

Olim javob berdi: «Jamiyat uchun olinsa, halol, maishat uchun olinsa, haromdir».

Non yeyilar burchakda ibodat qilmoq uchun,
Mardlar ibodat qilmas tekin non yemoq uchun.

HIKOYAT

Bir darvesh bir xonadonda mehmon bo'ldi. Uy egasi nihoyatda qo'li ochiq – saxiy edi. Bir necha fozil va aqli rasolar shu xonadonga yig'ilishgan bo'lib, fazl ahllarining odaticha hazil-mutoyiba qilib, yoqimli latifalar aytishib o'tirishardi. Darvesh sahro kezib, tinkasi qurigan va nihoyatda och edi. Majlis ahlidan biri hazillashib dedi: «Sen ham biror narsa aytib bersang bo'lardi». Darvesh aytdi: «Mening boshqalar yanglig' fazlu kamolim yo'q, bir narsa o'qigan ham emasman, bir bayt o'qib beraman, shu bilan qanoatlanib qo'ya qolinglar». Majlis ahli bir og'izdan: «Xo'p, o'qigin!» dedilar. Darvesh o'qidi:

Men ochmanu ro'paramda dasta non, qaymoq kabi,
Xotin hammom eshigida o'tirgan bo'ydoq kabi.

Hamma kulib yubordi va uning hazilini maqbul topib, oldiga dasturxon yozdilar. Uy egasi darveshga dedi: «Azizim, sal sabr qilgil, xizmatkorlar senga qiyma kabob tayyorlab chiqadilar». Darvesh boshini ko'tarib kuldi-da, dedi:

Men o'tirgan dasturxonda qiyma bo'lmasa bo'lmas,
Och kishiga qoq non o'zi qiyma go'shtdan kam emas.

HIKOYAT

Bir murid o'z piriga dedi: «Nima qilsam ekan, xaloyiqdan juda ozurdaman, ular hadeb kelavergani sababli aziz vaqtim bekorga talaf bo'ladi, tashvishda o'tadi». Pir dedi: «Ularning kambag'allariga biror narsa qarz ber, boylaridan esa, biror narsa qarz so'ra, shunda ular uyingga sira kelmaydigan bo'ladilar».

Musulmon qo'shiniga gado sarkarda bo'lsa,
Tilanib qolmasin, deb kofir Chinga qochardi.

HIKOYAT

Bir faqih (huquqqhunos) otasiga dedi: «Voizlarning dabdabali va bezakli so'zlari menga sira ta'sir etmaydi, chunki ularning gapirgan gaplari qilgan ishlariga mos kelmaydi».

Tarkidunyo qilmoqni xalqqa o'rgatar,
O'zi-chi, yig'adi kumush, g'alla, zar.

Har olim aytganin o'zi qilmasa,
Ne ajab xalq uning so'zin ilmasa?!

Olim o'sha kishi – yomonlik qilmas,
O'z so'zin aksini qilg'uchi emas.

Tanparvarlik, to'yin hayot payidan bo'lgan olim
Yo'lboshchilik qila olmas, o'z-o'zidan bo'lar gum.

Otasi dedi: «Ey o'g'lim, shunday bir asossiz mulo-haza bilan nasihatgo'ylardan yuz o'girib, barcha olimlarni qoralash, aybsiz olim axtaraman, deya ilm o'rganishdan bebahra qolmoq oqillarga munosib ish emasdir. Bu ishing bir ko'rning holiga o'xshaydi. Ko'r bir kuni kechasi loyga botib solib: «Ey musulmonlar, menga chiroq tutsanglar-chi, axir», deganida, bir hazilkash ayol: «O'zing chiroqni ko'rmay-san-u chiroq yorug'ida nima ko'rarding!» deb xitob qilgan. Shunga o'xshash, voizlar (nasihatgo'ylar) majlisi ham choponfurush-lar do'koni kabidir. Naqd puling bo'lmasa choponfurushlik do'konidan mol ololmay-san, voizlar majlisida ixlos qilma-sang, ko'nglingda xotirjamlik paydo bo'lmaydi».

Olim aytganiga jon qulog'in tut mahkam,
O'z so'zi ishiga teng bo'lmagan chog'ida ham.
Maqtanchoq kishilarning gaplari erur bekor,
Uxlagan uxlaganni uyg'otganmi biror dam?

Devorga yozilgan bo'lsa ham o'git,
Unga amal qilgay esi bor odam,

Xonaqohdan madrasaga keldi yurakli kishi
Va tariqat ahli bilan ulfatchilikni uzdi.
Men so'radim: «Olim bilan xudojo'yning farqin ayt,
Nima uchun olimlarga tortimingni ko'rguzding?»
Dedi: «Obid to'fon qo'psa sholchasin axtaradi,
Olim esa suv g'arq qilgan kishini qutqaradi».

HIKOYAT

Bir necha chapani bezorilar bir darveshni bo'ralab so'kdilar, qattiq haqorat qildilar. Darvesh shikoyat qilib o'z piri oldiga borib, boshiga tushgan savdolarni gapirib berdi. Piri dedi: «Ey so'zim, darvesh xirqasi qanoat va chidam libosidir. Buni kiygan odam har bir zulmga sabr-toqat etmog'i kerak, aks holda darvesh libosini yechib tashlashga to'g'ri keladi».

Katta daryo bir tosh bilan loyqalanib qolmaydi,
Ranjiydigan bilimdonni jildiragan ariq, de.

HIKOYAT

Mast bir yigit yo'l chekkasida uzala tushib, olamdagi o'tgan-ketgandan bexabar yotardi. Bir xudojo'y o'sha yerdan o'tarkan, bu jirkanch manzaraga boqdi. Yigit mastlik uyqusidan bosh ko'tarib, shu oyatni o'qidi. «Mo'minlar

jirkanch narsalar yonidan o'tarkanlar karam yuzasidan
o'zlarini uni ko'rmaganga solishlari lozim».

Bir gunohkor uchratdingmi, shafqat qil, aybin yashir,
Gunohidan jirkansang ham, ko'rib-ko'rmay o'ta ber.
Gunohkordan yuz o'girib keta berma, hoy, yigit,
Unga aybin kechirganlar ko'zi bilan qaragil.
Men-ku, ushbu qiliq bilan bir nomardlik qilibman,
Sen-chi, menga juvonmardlik qilmoqlikka yaragil.

HIKOYAT

(Manzuma)

Bag'doddan bir ertak tinglangiz endi:
Bayrog'u Darparda so'z talashardi.
Jangovar yurishdan chang bosgan Bayroq
Pardaga do'q bilan aytar: «Menga boq,
Ikkimiz bir xoja dargohidamiz,
Senu men sultonning borgohidamiz;
Men bir dam yumushdan bo'shaganim yo'q,
Erta-kech safarda, bilmayman hordiq.
Sen esa bilmaysan qo'rg'on nimadi,
Changu shamol nima, yobon nimadi.
Men ildam, g'ayratim cho'ngdir albatta,
Xo'sh, sening izzating nimay-chun katta?
Doim to'lin oydek yuzlar bilan sen,
Sochi rayhon dilbar qizlar bilan sen.
Men esa, otboqar qo'lida sarson,
Safardan bo'shamay doim sargardon».
Parda der: «Boshimni tutaman quyi,
Sening mag'rur boshing osmon bo'yi,
Har kim kekkaygancha gardanin cho'zsa,
Ajabmas o'z-o'zi bo'ynini uzsa».

HIKOYAT

Bir donishmand bir pahlavonni ko'rdi, u darg'azab bo'lib, og'zidan oq ko'piklar sochmoqda edi. Donishmand odamlardan: «Bunga nima bo'ldi?» deb so'radi. «Falonchi haqorat qildi», deb javob berdilar. Donishmand dedi: «Bu razil odam ming botmon toshni ko'tarishga qodiru, nega bir og'iz gapni ko'tara olmaydi?»

Mushtim zo'r, deb lof urib, erkakman, deb kekkayma,
Sen kabi hebbimlarga na erkak, na xotinlik.
Birovlarning og'ziga musht tushirgan mard emas,
Qo'ldan kelsa, o'zgalar og'zin qilgil totimlik.

HIKOYAT

Bir mo'tabar odamdan ixvonussafo (beg'araz do'stlar) haqida so'radim. U shunday javob berdi: «Ular, eng kami-da, do'stlar xohishini o'z manfaatlaridan yuqori qo'yadilar. Donolar: «O'zi bilan o'zi ovora bo'lgan birodar – birodar ham, qarindosh ham emasdir», deganlar».

Yo'l yo'ldoshing qistab tursa, yo'ldoshim, deb chog'lama,
Ko'ngli senda bo'lmaganga sen ham ko'ngil bog'lama.

Qarindoshing bo'la qolsa diyonatsiz, beadab,
Sen ham undan qarindoshlik ipin uzsang, yaxshi gap.

Yodimda, muxoliflarimdan biri mening bu baytingga e'tiroz bildirib dediki: «Ollohi taolo o'z kalomida rahm-sizlikni man' etgan, qavm-qarindoshlarni sevishni buyurgan, sening aytganlaring esa bunga tamomila ziddir». Men unga dedim: «Noto'g'ri gapiryapsan, Qur'onda bunday deyilgan: «Agar ota-onang sa'y g'ayrat ko'rsatib, menga sherik bo'lishga undasalar ularga itoat etma».

Xudodan qaytgan mingta urug'dan
Bitta yot oshnoga bersang arzir tan.

HIKOYAT

Bir faqih (huquqshunos)ning nihoyatda xunuk bir qizi bor edi. U qiz bo'yga yetganida shuncha sepu boyligiga qaramasdan hech kimsa unga uylanishni istamadi.

Xunuk kelin egnida
Nafis libos ko'rksizdir.

Nihoyat, faqih qizini bir ko'rga erga berishga majbur bo'ldi. Deydilarki, o'sha mahalda Sarandib (Seylon)dan ko'r ko'zini ocha oladigan bir tabib keldi. Faqihdan: «Nega kuyovingning ko'zini davolatmaysan?» deb so'radilar.

Faqih javob berdi: «Ko'zi ochilgach, qizimni taloq qiladi deb qo'rqaman».

Badbashara xotinga ko'zi ko'r er yaxshidir.

HIKOYAT

Bir donishmanddan: «Saxovat yaxshimi yoki shijoat yaxshimi?» deb so'radilar. Donishmand javob berdi: «Saxovat bo'lgach shijoatning nima hojati bor?»

Qulon tutar Bahrom go'ning qudrati emas uncha,
Bir chigirtka oyog'ini sudragan qumursqacha.

UCHINCHI BOB

QANOATNING FAZILATI BAYONI

HIKOYAT

Bir mag'ribiy gadoy Halabdagi bazzozlik rastasida derdi: «Ey davlatmandlar! Basharti sizlarda insof-u, menda qanoat bo'lganda edi, olamda tilanchilik degan gap qolmasdi».

Davlatmand qil'gil, ey qanoat, meni,
Chunki yo'qdir sendan yaxshiroq ne'mat.
Luqmonning murodi – sabr burchagi,
Sabrsiz kishida bo'lmaydi hikmat.

HIKOYAT

Misrda ikki amirzoda bor edi. Ulardan biri ilm o'rganish bilan, ikkinchisi esa, mol-dunyo to'plash bilan shug'ullandi. Oqibatda, biri o'z asrining bemisl olimi, ikkinchisi esa, Misr podshohi bo'ldi. Shundan keyin davlatmand amirzoda olim amirzodaga tahqir nazari bilan boqib dedi: «Men saltanatga ega bo'ldimu, sen hamon xor-zor bo'lib yuribsan». Shunda olim amirzoda dedi: «Ey birodar, men parvardigorga ko'proq shukur aytmog'im kerak, zeroki, men payg'ambarlar merosiga ega bo'ldim, ya'ni ilm-fanni egal-ladim, sen bo'lsang, Fir'avn hamda Homonning merosiga ega bo'lding, ya'ni Misr mamlakatiga podshoh bo'lding».

Ezilgan bir chumoliman oyoq ostda jim,
Arimasman ya dastimdan nolimas hech kim.
Odamlarga ozor bermoq uchun yo'q kuchim,
Shukrim qanday izhor etay bu ne'mat uchun.

HIKOYAT

Eshitdimki, bir darvesh faqirlik o'tida kuyar, jandasidagi yamoq ustiga yamoq uyar va o'z ko'ngliga tasalli berish uchun ushbu baytni takrorlardi:

Biz rozimiz bo'lsa agar oddiy chakmon, qotgan non,
Bizga mehnat zahmatidan o'zga minnati yomon.

Bir odam unga dedi: «Nega bu yerda o'tiribsan, shu shaharda yashaydigan falonchi nihoyatda lutf-u karamli va saxovatlidir, u darveshlar xizmatiga bel bog'lagan va ularning dilini ovlashga o'zini chog'lagandir. Agar u sening shu holingdan xabar topsa, zo'r mamnuniyat bilan lufu ehson qiladi».

Darvesh dedi: «Jim bo'l, ehson so'rab birovga xor bo'lgandan ko'ra, muhtojlik, ochlikda o'lgan yaxshidir».

Kiyim so'rab badavlatga parcha qog'oz yozgandan
Parcha-parcha yamoq tikib, sabr qilgan yaxshiroq.
Qo'shning soyasida agar borar bo'lsang jannatga,
Xudo haqqi, do'zaxga teng, uqubati besanoq.

HIKOYAT

Ardasher Bobokon haqida shunday bir naql bor. Ardasher Bobokon bir arab hakimidan: «Bir kunda qancha ovqat yeyish kerak?» deb so'rabdi. Hakim javob beribdi: «Yuz diram og'irligicha yeyish kifoya!» «Bu ovqat qancha quvvat beradi?» deb so'rabdi Ardasher. Hakim javob beribdi: «Shu miqdor ovqat yesang, u seni oyoqda ko'taradi, ortiq yesang, sen u ovqatni ko'tarasan».

Yemak lozim yashamoq, so'ylamakka,
Sen o'ylaysan, hayot kerak yemakka.

HIKOYAT

Xurosonlik ikki darvesh birgalikda safar qilishardi. Ulardan biri zaif edi, chunki kun oralatib kechqurun iftor qilardi. Ikkinchisi baquvvat edi, chunki kunda uch mahal ovqatlanardi. Tasodifan ularni bir shaharda josuslikda aybdor qildilar, har ikkalalarini bir xonaga qamab, eshikni loy bilan suvab tashladilar. Oradan ikki hafta o'tgach, ularning gunohsiz ekanliklari ma'lum bo'lib, eshikni ochganlarida baquvvat odam o'lib, zaifi tirik qolganini ko'rdilar. Bu hol hammani hayratga soldi. Bir donishmand dedi: «Agar aksincha bo'lganida taajjublanishga arzirdi, zero, ulardan biri ko'p ovqat yeyishga odatlangan edi, ochlikka bardosh bera olmay o'ldi. Bunisi, ovqatni juda oz yeyishga odatlangan edi, nochor sabr etib, halokatdan xalos bo'ldi».

Odam oz yemoqni odat aylasa,
Boshga ochlik tushsa chiday biladi.
Farovonlik ichra ko'pga o'rgangan,
Tanglikda qolganda ochdan o'ladi.

HIKOYAT

Olimlardan biri o'z o'g'lini ko'p ovqat yemakdan tiyib: «Ko'p yemak tanga zarar», dedi. O'g'li unga aytdi: «Ey ota, odamni ochlik o'ldiradi. Eshitmaganmisiz, zariflar (as-kiyachilar): «Ochlik azobini chekkandan ko'ra to'qlikdan o'lgan yaxshiroq», deydilar.

Ko'p yema, og'zingdan chiqib ketmasin,
Och yurma, zaiflik jondan o'tmasin.
Ovqatdan tanaga keladi lazzat,
Ammo ortiqchasi keltirar zahmat.

Gulshakar zarardir ko'p yesang agar,
Me'yorida yesang, non ham gulshakar.
Me'da to'lib ketib, og'risa qorin,
Nafi bo'lmas dori-darmonlar barin.

HIKOYAT

Vosit shahrida so'fiylar bir baqqoldan bir necha dirham qarzdor bo'lib qolgan edilar. Baqqol har kuni pulini qistab, og'ziga kelgan so'zni qaytarmay ularni haqorat qilardi. So'fiylar uning malomatidan qattiq iztirob chekardilaru, lekin chidashdan bo'lak choralari yo'q edi. Ular orasidagi bir donishmand dedi: «Baqqolga dirham va'da qilgandan, nafsga taom va'da qilish osonroq».

Agar bo'lsa darvozabon jafosi,
U ne'matdan uzoq bo'lgan yaxshiroq.
Qassoblarning xunuk talablaridan
Go'shtga yetolmasdan o'lgan yaxshiroq.

HIKOYAT

Bir dilovar yigit tatarlar bilan bo'lgan jangda og'ir yara-dor bo'ldi. Bir odam unga: «Falon savdogarda shifobaxsh dori bor, so'ragin, balki berar», dedi. Deydilarki, o'sha savdogar o'zining baxilligi bilan mashhur edi.

Bo'lsa dasturxonida non o'rnida gar oftob,
Ro'shinolik ko'rmas erdi to qiyomat hech kishi.

Dilovar yigit dedi: «Dori so'rasam, yo berar, yo bermas, bergan taqdirda ham davo bo'lish-bo'lmasligi ma'lum emas. Xulosai kalom, undan dori so'rash – zahri qotil so'rash bilan barobardir».

Achchiq kovul olib yesang xushtabiat kishidan,
Shirinroqdir badfe'lining shakari, kishmishidan.

Hukamolar demishlar: «Agarda obro'ni olib, obi hayot
sotsalar, oqil odam uni olmaydi, chunki minnat bilan tirik
yurgandan izzat bilan o'lmoq a'lo».

Jirkanchdir xor bo'lib topilgan ovqat,
Qozon to'lar, ammo or bilan faqat.

HIKOYAT

Olimlardan birining bola-chaqasi ko'p edi-yu, topish-
tutishi oz edi. O'ziga muxlis bo'lgan bir mansabdorga ah-
volini so'zladi. Mansabdor uning shikoyatini eshitib, qosh-
qovog'ini soldi, olim odamning tamalanishi unga jirkanch
ko'rindi.

Baxtsizlikda qovoq uyib kirma do'sting yoniga,
Talx aylama do'stingni ham rohatu ishratini.
Biror hojat bo'lganda ham ochiq chehra, xandon kir,
Hojatingni chiqarguchin buzmay kayfiyatini.

Deydilarki, mansabdor olimning maoshini biroz oshir-
di-yu, lekin ixlosini ancha kamaytirdi. Olim bir necha kun-
dan keyin mansabdorning odatdagi do'stona muomalasidan
asar ko'rmay, dedi:

Nonim oshdi, obro' kamaydi, biroq,
Xorlikdan ko'ra yo'qchilik yaxshiroq.

HIKOYAT

Bir darvesh bir narsaga juda muhtoj bo'lib qoldi. Bir
odam unga: «Falon kishining mol-davlati nihoyatda ko'p.

Agar ehtiyojningdan xabar topsa, albatta senga yordam beradi», dedi. «Axir, men u odamni tanimayman-ku», dedi darvesh. «Men seni tanishtirib qo'yaman», deb darveshning qo'lidan yetaklab, boyning uyiga boshlab bordi. Darvesh labini cho'chchaytirib, kibr bilan kerilib o'tirgan odamni ko'rib, orqasiga qaytdi. Boshlab kelgan kishi dedi: «Bu nima qilganing?» Darvesh javob berdi: «Uning baxshishini kibr bilan o'tirishiga bag'ishladim».

Agar bo'lsa qovoq uygan, baddurush,
Kayfing buzar, hech aytma hojatingni.
Borib ayt istaging xushro' kishiga,
Toparsan chehrasidan rohatingni.

HIKOYAT

Hotami Toiydan: «O'zingdan ko'ra saxiyroq biror odamni hech ko'rganmisan, yoxud eshitganmisan?» deb so'radilar. Hotami Toiy javob berdi: «Ha, ko'rganman, bir kun arab amirlarini ziyofat qilish uchun qirq tuya so'ygandim. Ittifoqo bir zarurat bilan sahroga chiqishimga to'g'ri keldi. U yerda cho'p-chumak terib dastalayotgan o'tinchini ko'rdim. Men unga dedim: «Nechun Hotamning uyiga bormaysan, axir, hozir bir talay odam uning ziyofat dasturxoni atrofida». U, dedi:

O'z mehnatidan non yegan kishi,
Hotam minnatidan ozod yoz-qishi.

Hotam dedi: «Ana shu o'tinchini men o'zimdan ko'ra saxovatliroq deb bildim».

HIKOYAT

Basra gavharfurushlari orasida bir badaviy (sahroyi) arabni ko'rdim. U shunday hikoya qilardi: «Bir kuni sahroda adashib qoldim. Yeyishga hech qanday ovqatim yo'q edi. O'lishimga ko'zim yetdi. Shu mahal bir hamyon topib oldim: ichi to'la marvarid edi. Men uni qovurmoch deb o'ylab, juda quvonib ketdim. O'sha paytdagi sevinchim hali-hali esimdan chiqmaydi. Keyin hamyondagi narsa marvarid bo'lib chiqdi, shu qadar xafa bo'ldimki, u ayanchli ahvolimni bir umrga unutmayman».

Quruq, qum izg'igan cho'l-biyobonda,
Tashnaning og'ziga sadaf yoki dur,
Ochlikdan yiqilgan kimsa belida,
Sopolakmi yoki oltin, baribir.

HIKOYAT

Shunga o'xshash, bir keng sahroda bir musofir yo'lini yo'qotib qo'ydi, ozuqasi tugab, tinka-madori quridi. Beliga tugib olgan bir necha dirham pulidan bo'lak hech nimasi yo'q edi. U qanchalik jahdu jadal qilib axtarmasin, yo'l topolmadi, keyin ochlik va tashnalikdan qattiq azob chekib, halok bo'ldi. O'sha joydan o'tib borayotgan bir jamoa kelib ko'rsalarki, musofir dirhamlarni oldiga qo'yib, tuproqqa quyidagi so'zlarni yozib qoldiribdi:

«Hamyoni sof tilla to'la bo'lsa ham,
Och kishi sahroda qo'yolmas qadam.
Biyobonda qolgan och bechoraga,
Kumushdan yaxshidir qaynagan sholg'am».

HIKOYAT

Men hech mahal davr jabr-jafosi-yu falakning kajraftorligidan shikoyat qilmagan edim, lekin bir marta nolidim. O'shanda oyoq yalang qolgan edim va kafsh sotib olishga qodir emasdim. Qattiq o'ksinib, Kufa shahridagi jome' masjidiga kirganimda, oyoqsiz bir odamga ko'zim tushdi. Shunda shukur qilib, kafshsizligimga sabr etdim.

Qovrilgan qush qadri to'qlar oldida
Dasturxonda piyoz, kashnich, o'tdan kam.
Och oldida o'tar tovuq o'rniga
Quruq suvda qaynab pishgan bir sholg'am.

HIKOYAT

Bir savdogarni ko'rdim, yuz ellik tuya moli, qirqta qul va xizmatkori bor edi. Bir kuni kechasi Kesh orolida u meni o'z hujrasiga olib kirdi-da, kechasi bilan bo'lar-bo'lmas gaplarni gapirib chiqdi: «Falon omborim Turkistonda, falon molim Hindistonda, manavi, falon yerning vasiqasi va falon joydagi mollaringa falonchi kafil». Goh derdi: «Iskandariyaga bormoqchiman, u yerning havosi menga yoqib qolgan». Yana derdi: «Mag'rib dengizi juda notinch! Ey Sa'diy, oldimda yana bir safar bor, agar o'sha safarga ham eson-omon borib kelsam, qolgan umrimni bir go'shada o'tirib osoyishta o'tkazaman».

Men: «U qanday safar ekan?» deb so'radim. Savdogar javob berdi: «Erondan Xitoyga gugurt olib boraman, chunki u yerda gugurt qimmat emish. Xitoydan chinni kosalarni Runga eltaman. Rum ipak-shohilarini Hindistonga olib boraman, hind po'latlarini Halabga olib kelaman va Halab shishalarini Yamanga olib boraman. Yamanning oq

matolarini Eronga eltib sotaman. Shundan keyin savdogarlikni tark etib, bir do'konchada o'tiraman». Shu taxlitda u o'zining xom xayollarini gapiraverib, oxiri horib, gapirishga madori qolmadi.

Keyin menga dedi: «Sa'diy, endi sen ham ko'rganing yoki eshitganlaringdan biror narsa aytib ber!» Men dedim:

Eshitdingmi, uzoq G'o'rda bir savdogar,
O'layotib, otdan tushib, bir so'z demish:
«Ko'z och ekan, yo qanoat bilan to'yar,
Yoki mazor tuprog'isiz to'lmas emish».

HIKOYAT

Bir boy haqida eshitdim, Hotami Toiy saxiylikda qanday dong taratgan bo'lsa, bu boy ham baxillikda shunday nom chiqargan edi. U sirtini dunyo moli bilan bezagan, lekin qalbiga baxillik shu qadar mustahkam uya surgan ediki, na Abu Hurayraning mushugiga bir luqma go'sht berar va na «Ashobi kahf»ning itiga birorta suyak tashlardi. Uzun so'zning qisqasi, hech kimsa uning eshigini ochiq va dasturxonini yoziq holda ko'rmagan edi.

Kambag'aldan taomining isin ham tutar yiroq,
U non yegan dasturxondan qush topolmas bir uvoq.

Eshitdimki, o'sha kishi kunlardan bir kun Mag'rib dengizi orqali Misrga safarga chiqdi, muddaosi davlatini yanada ziyoda qilish edi... Qarshidan shamol esa boshladi.

Dil na qilsin past tabiat bo'lsa tan,
Har mahal esmas shamol xohish bilan.

Duoga qo'l ko'tarib, bekordan-bekorga dod-faryod qila boshladi...

Muhtoj banda iltijoda xudoga qo'lin ochar,
To'qligida qo'llarini qo'ltiqqa urib qochar.

Oltin-kumush bo'lsa, yedir barchaga,
O'zing ham rohat qil, yeb-ichib qolgin.

Sendan qolajakdir bu imoratlar,
G'ishtlar bo'lganda ham kumush yo oltin.

Deydilarki, Misrda qarindoshlari bor edi, undan qolgan mollar o'shalarni badavlat qildi, ular eski kiyimlarini uning o'limiga yirtib, mo'yna va harir matolardan tikilgan yangi kiyimlar kiydilar. O'sha hafta men boyning qarindoshlaridan biriga duch keldim, u tulpor otga mingan bo'lib, ortida qul yugurib borardi.

O'lgan agar tirilib kelsa,
Urug'lari bilan bo'lsa jam.
Og'ir edi meros qaytarmoq,
Qarindoshin o'limidan ham.

U bilan eskidan oshna bo'lganimiz uchun etagidan tutib, dedim:

Ye, ey xushbaxt, hech nima ayamasdan,
Badbaxt o'ldi yiqqanini yemasdan.

HIKOYAT

Bir semiz ablahni ko'rdim, egnida bashang libos, ostida tulpor ot, boshiga esa Misr shohisidan salla o'ragan edi. Birov menga dedi: «Sa'diy, bu befahm hayvonning egnidagi guldor shohi libosga nima deysan?»

Men shunday javob berdim: «Oltin suvi bilan yozilgan xunuk xatdir».

Yaxshi xulq ming yaxshi libosdin a'lo,
Odamga o'xshamas, bu hayvon aslo.
Magarkim, demasang to'n-u sallasin,
Sinab ko'r borlig'in: tan, qalb, kallasin,
Hech halol joyi yo'q qonidan o'zga.

HIKOYAT

Bir o'g'ri gadoga dedi: «Qora chaqa uchun har bir xasisga qo'l cho'zishga uyalmaysanmi?»

Bir qora chaqaga cho'zilsa agar qo'lim,
Bir yarim tangaga kesilgani yaxshi.

HIKOYAT

Deydilarki, bir polvon tolesizlikdan dodga kelib, faqirlikdan aftodahol bo'lib qolgan edi. U otasining huzurida shikoyatga og'iz ochib: «Safarga chiqmoqchiman, zora qo'limning quvvati bilan baxt etagidan tutish nasib bo'lar», dedi.

Agar ish ko'rsatmasa, bekordir fazlu hunar,
Ud olovga tushmasa, uyni qilmas muattar.

Otasi dedi: «Ey farzand, bu xom xayolni miyangdan chiqar, qanoat oyog'ini salomatlik etagi ostida tut, zero ki, donolar: «Davlatni sa'yi harakat bilangina emas, qiyinchilikka bardosh berish bilan ham qo'lga kiritsa bo'ladi», deganlar.

Kuch bila tuta bilmas davlat etagin kishi,
Ko'r qo'ysa qoshga o'sma, foydasizdir bu ishi.

Polvon na qila bilur, baxti agar bo'lsa yiroq,
Qudratli qo'ldan ko'ra, baxtning qo'li yaxshiroq.

O'g'il dedi: «Ey ota, safarning foydasi ko'pdir: bahri diling ochiladi, foyda topasan, ajoyibotlarni ko'rasan, g'aroyibotlarni eshitasan, shaharlarni tomosha qilasan, do'stlar bilan suhbatda bo'lasan, bilim orttirasan, mol-mulku davlatingni ko'paytirasan, do'stlaringni yaqindan tanib, taqdiri imtihon qilasan. Tariqat ahli bunday deyдилar:

Do'konu uyingdan chiqolmay bir on,
Hargiz, ey xom odam, bo'lmading inson.
Chiqib endi sen ham kezigil jahonni,
Bo'shab qolmasidan sendan bu jahon».

Otasi dedi: «Ey farzand, sen aytganingdek, safarning manfaati ko'p va lekin u besh toifa odam uchun maxsusdir. Birinchidan, badavlat, qulu cho'rilari, epchil xizmatkorlari bo'lgan savdogar uchun, chunki u har kuni boshqa bir shaharda, har kecha boshqa bir yerda tunab, har onda bir sayrgohda tomosha qilib, olamning ne'matlaridan bahramand bo'lib, rohat-farog'atda yashaydi.

Badavlat g'aribmas tog'u cho'lda ham,
Qayga borsa qurar yotog'u chodir.
O'z kulbasida ham g'aribu zabun
Orzuga yetmagan bechora faqir.

Ikkinchidan, fasohat, kamolot hamda shirinso'zligi bilan elni og'ziga qaratib, izzat-ikromga sazovor bo'ladigan olim uchun.

Erur oltin kabi dono vujudi,
Qayerga borsa topgay hurmat, izzat.

Qog'oz puldek erur boyvachcha nodon,
Qilishmas o'zga yurtida qadru qimmat.

Uchinchidan, oshiqlar ko'nglini o'ziga maftun etadigan sohibjamol dilbar uchun, chunki ulug'lar deganlar: «Bir chimdim husnu jamol bir dunyo mulku moldan yaxshiroqdir! Go'zallik dardmand ko'ngillarning marhami-yu, qulf eshiklarning kalitidir. Tabiiydirki, kishilar uning suhbatini orzui dillari deb biladilar va unga xizmat etmakni faxr hisoblaydilar».

Qahr birla quvilsa ham uyidan
Chiroylik qayga borsa hurmati bor.
Ko'rib qur'onda bir tovus patini,
Dedim: «Bu izzat ortiq senga bisyor».
Dedi: «Jim bo'lki, kim ersa chiroylik,
Qayon borsa, to'silmas yo'li zinhor».

To'rtinchidan, Dovud yanglig' xushovozligi bilan suvni oqishdan, qushlarni uchishdan to'xtatishga qodir bo'lgan ashulachilar uchun. O'zining shu fazilati bilan kishilar ko'nglini ovlaydi, farosat ahli unga har qanday xizmatni bajo keltirishga tayyor.

Sabuh ahli qulog'iga na xushdir
Mayin hamda hazin ovoz g'oyat.

Go'zal yuzdin xush ovoz yaxshiroqdir,
U nafs ozuqasi, bu dilga rohat.

Beshinchidan, qo'l kuchi bilan ro'zg'orini tebratuvchi, non tamaida obro'sini to'kmaydigan hunarmandlar uchun. Bular haqida donishmandlar shunday deganlar:

Agar kosib musofirlikka chiqsa,
Qiyinlik betini ko'rmaydi aslo.
Kechin och uxlamoqqa majbur o'lg'ay,
Gar o'z yurtinda taxtdan tushsa podsho.

Ey farzand, men bayon etib o'tgan bu sifatlar safar asnosida xotirjamlikning sababi va huzur-halovatda yashashning manbaidir. Bu sifatlardan bebahra odam xom xayol bilan safarga chiqsa, keyin hech kimsa uning domu daragini eshitmaydi».

Adovatli qarar kimga bu falak,
Ne istasa, shuning aksin ko'radi.
Kabutar benasib bo'lsa inidan,
Qazo uni tuzoq tomon suradi.

O'g'il dedi: «Ey ota, hukamolar so'ziga qarshi qanday borayki, ular demishlar: «Kishining rizqi ro'zi azaldan tayin etib qo'yilgan bo'lsa ham, ammo uni qozonmoq uchun odam baqadrihol sa'yi harakatda bo'lmog'i shartdir. Garchi falokat taqdirda yozilgan bo'lsa ham, lekin uning kelar eshigini bekitmoq chorasini axtarmoq zarur».

Rizq agar har kimga kelur begumon,
Aql der: «Qidirgil uni sen o'zing!»
Hech kishi ajalsiz o'lmaydi, ammo —
Kim ajdar og'ziga uradi o'zin?

Men shunday jussa va kuchga egamanki, quturgan filni ag'darishga va darg'azab sher bilan olishishga qodirman. Xullasi kalom, yaxshisi, safarga chiqay, chunki ortiq faqirlikda yashashga tobu toqatim qolmadi».

Odam agar ajrasa o'z uyi, diyoridan,
G'am yemagay ortiq ul, to'rt tarafinda joyi.

Bo'lsa badavlat kishi uyga ketar har oqshom,
Kambag'al qayda qo'nsa shunda uning saroyi.

Shunday dedi-yu, yigit otasidan oq fotiha oldi, vidola-
shib safarga chiqarkan, yo'l-yo'lakay o'z-o'ziga derdi:

Hunar ahli agar bebaxt bo'lsa,
Qayon borsa, kishi bilmaydi nomin.

U bir daryoning labiga yetdi. Daryo shu qadar shiddatli
ediki, katta-katta toshlarni bir-biriga qarsillatib urardi, bu
gulduragan ovoz bir farsang (yetti-sakkiz chaqirim) yerga
eshitilardi.

Qo'rqinch edi suv, hatto xavflidir suv qushiga,
Ozi ham yetar tegirmon toshining oqishiga.

Uning kemaga yuklarini joylab, daryodan o'tishga
tayyorlanayotgan bir necha odamga ko'zi tushdi. Nochor-u
noilojlikdan yigit sadaqa so'rab, qo'l ochishga majbur
bo'ldi. Lekin hech kimsa uning yolvorish-iltijolariga quloq
solmadi, yordam bermadi.

Pul bo'lmasa qilmag'il hech kinga zo'rlik,
Bo'lsa puling qolmag'ay zo'rlikka hojat.

Muruvvatsiz kemachi istehzo bilan kulib, yuz o'girib,
dedi:

«Bo'lmasa pul, kuch bilan o'tib bo'lmas daryodan,
O'n mard kuchidan ko'ra bir mard puli yaraydi».

Kemachining ta'na-yu malomatidan yigitning g'azabi
jo'shib, undan o'ch olgisi keldi. Lekin shu asnoda kema

yo'lga tushdi. Yigit qichqirib dedi: «Agar rozi bo'lsang, mana shu egnimdagi libosimni beray!» Kemachi tamakorlik qilib, kemasini qaytardi.

Aqlning ko'zi ham tama'dan bog'liq,
Tama'dan ilingay domga qush, baliq.

Yigit kemachining soqolu yoqasidan tutib, o'ziga tortdi-da, ayamasdan do'pposlashga boshladi. Kemachining sherigi yordam bergani keldi, lekin u ham kaltak yeb, qochishga majbur bo'ldi. Shundan so'ng maslahatlashib, yigitni tekinga olib ketishdan bo'lak chora topmadilar.

Zulm ko'rsang kiygil chidam etigin,
Yumshoqlik yopadi urish eshigin.
Yumshoq muomala, shirinso'z odam
Bir qil bilan tortib ketar filni ham.
Yumshoq bo'lgil, yumshoq ipakni hatto
O'tkir qilichlar ham kesolmas aslo.

Bo'lib o'tgan voqea uchun uzr so'rashib, kemachilar yigitning oyog'iga yiqildilar va boshu ko'zidan o'pib, kemaga mindirdilar-da, yo'lga ravona bo'ldilar. Yunon imoratlaridan qolgan bir ustunga rost keldilar, ustun suvdan chiqib turardi. Shunda kemachi dedi: «Kema teshilganga o'xshaydi, oralaringizda bir dovyurak polvon odam kemandan arqonidan ushlab turishi kerak, biz kemani tuzatib olamiz». O'zining mardligi bilan g'ururlangan yigit dushmanlar ko'nglidagi intiqomni unutdi va hukamolarning hikmatli so'zlarini eslamadi. Hukamolar: «Kimning ko'ngliga ozor bergan bo'lsang, undan keyin yuz marotaba uni xursand qilganingda ham avvalgi qilgan yomonliging intiqomidan amin bo'lma, chunki o'q jarohati bitadi-yu, lekin ko'ngil yarasi bitmaydi», deganlar.

Bektosh o'z o'rtog'iga dedi xo'p dono:
«G'animni ranjitibsan, bo'lma beparvo».
Beparvo bo'lmag'il, diling bo'lur tang,
Birov dilini sen tang qilgan bo'lsang.
Qal'a devoriga tosh otma bebosh,
Devordan ham ko'char ba'zan og'ir tosh.

Yigit arqonni bilagiga o'rab, ustunga chiqishi bilanoq, kemachi arqonni tortib olib kemani haydab ketdi. Sho'rlik yigit hayron bo'lib qolaverdi. Yigit shu taxlitda suv o'rtasida ustunga yopishganicha ikki kecha-yu ikki kunduz qolib ketdi, uchinchi kuni uyqu giribonidan tutib, suvga ag'dardi. Bir kecha-yu kunduzdan keyin suv uni qirg'oqqa chiqarib tashladi. Shunda uning joni bo'g'ziga kelib qolgan edi. Daraxtlarning bargi va ko'katlarning ildizini yeb, taniga biroz quvvat kirdi. Shundan so'ng biyobonga kirib ketdi. Uzoq vaqt ochlik va tashnalik azobini chekib, bir quduq boshiga yetdi. Quduq atrofini bir guruh odamlar o'rab olgan bo'lib, har biri bir qora pul berib suv ichmoqda edi. Yigitning bi-ron chaqa puli yo'q edi, u iltimos qildi, yalinib-yolvordi, lekin hech kimning rahmi kelmadi, shunda u suvni zo'r bilan olmoqchi bo'ldi — eplolmadi. Odamlar ustiga yopirili-shib, ayamadan urib, majruh qildilar.

Pashsha yopirilsa zo'r filni yengar,
Salobatli, polvon johilni yengar,
Chumoli birlashsa ittifoq bo'lib,
Arslon terisin olajak shilib.

Yigit nochor qolib bir karvon ortidan yo'lga tushdi. Kechasi bir manzilga yetib bordilarki, u yerda har lahzada qaroqchilarning hujum xavfi bor edi. U yerda vahimadan karvon ahlining vujudiga qaltiroq turib, xavfdan o'lar ho-latga yetdi. Yigit ularga dedi: «Qo'rqmanglar, men borman,

bir o'zim ellik qaroqchiga bas kelaman, boshqa yoshlar ham ko'maklashadilar!» U shunday degach karvon ahli dadillashdi, u bilan hamroh bo'lganlariga quvonib, uni yegulik va ichkilik bilan ta'min etdilar. Yigitning ishtahasi ochilib, sabru qanoati qo'lidan ketdi. Ular bergan ovqatni ochko'zlik bilan yeb, ustidan to'yib suv ichib nafsini qondirdi-da, uyquga ketdi. Karvonlar orasida ko'pni ko'rgan bir mo'ysafid bor edi, u dedi: «Ey do'stlar, men qaroqchilardan ko'ra ko'proq sizlarning ana shu poyloqchilaringizdan qo'rqaman. Shunday bir nasl bor: bir arab bir necha dirham pul to'plagan edi. U o'g'rilaridan qo'rqanidan kechasi uyida yolg'iz yota olmasdi, shuning uchun yuragimga dalda bo'lsin deb do'stlaridan birini uyiga aytib kelib yotadigan bo'ldi. Do'sti bir necha kun birga turgandan so'ng pullarning qayerda ekanidan xabar topdi va ularni o'g'irlab, shahardan qochdi. Ertasi kuni xaloyiq arabning ko'zida yosh va kissasini bo'sh ko'rib, so'radilar: «Ha, ahvol qalay? Pullaringni o'g'rilar o'g'irlab ketdilarmi?» Arab javobida dedi: «Yo'q, xudo nomiga qasamki, poyloqchi o'g'irlab ketdi!»

Bildimki, odati zahar sochmoqdir,
Ilondan bo'lmadim bir on xotirjam.
O'zni do'st ko'rsatgan dushman tishlasa,
Uning tish zahriga topilmas malham.

Kim biladi, balki bu yigit qaroqchilarning biridir, qulay fursat topib karvon to'g'risida sheriklariga xabar bermoqchidir. Endi maslahat shuki, u uyquda ekanida yo'lga tushaylik».

Karvondagi yoshlarga mo'ysafidning gapi ma'qul bo'ldi, ular polvondan vahimaga tushib, darhol yuklarini tang'ib, yo'lga chiqdilar. Yigit ertasiga oftob yoyilib ketganda uyg'ondi, karvondan nom-u nishon yo'q edi.

Sho'rlik qancha yugurib-yelib axtarsa ham yo'l topa olmadi, ochlik va tashnalikdan mukkasidan tushib yotdi-da, o'limga rozi bo'lib, o'z-o'ziga dedi:

«Musofirga dag'allik ko'rgazur tik,
O'zi hech ko'rmagan bo'lsa g'ariblik».

Yigit shu so'zlarni aytayotganda, ovning ketidan quvib, lashkaridan ajralgan bir shahzoda uning yoniga kelib qoldi. Shahzoda yigitga diqqat bilan bosib, sirtqi qiyofasini poki-za, ahvolini esa, parishon ko'rdi. Shahzoda yigitdan so'radi: «Qayerliksan va qanday qilib bu joylarga kelib qolding?»

Yigit o'z sarguzashtining ayrim qismini shahzodaga hikoya qilib berdi. Uning ahvoliga shahzodaning rahmi keldi. Unga kiyim-bosh va oziq-ovqat in'om qilib, bir e'timodli odamni yoniga qo'shib o'z shahriga qaytarib yubordi.

Otasi uni ko'rib nihoyatda xursand bo'ldi, omon-eson qaytgani uchun xudoga hamdu sanolar aytdi. Kechqurun yigit boshidan o'tgan voqealarni: kemachining zolimligi, quduq boshida kechirgan mashaqqatlari va sahroda karvon ahlining xiyonatini otasiga birma-bir hikoya qilib berdi. Otasi dedi: «Ey o'g'lim, ketayotganingda men senga faqir-larning shijoat qo'llari bog'langan, pahlavonlik bellari sindirilgan, demabmidim?»

Pulsiz ul sipohi ajab so'z demish,
Botmon kuchdan moshdek zar yaxshi emish.

O'g'li dedi: «Ey ota, har nima bo'lganida ham mehnat qilmasdan zar-zavar topmaysan, hayotingni xatar ostiga qo'ymaguncha dushman ustidan zafar topmaysan, urug' sochmasang, hosil o'rmaysan. Ko'rmayapsanmi, ozgina

zahmat chekkanim evaziga qanday farog'at topdim, jinday nishga bardosh berganim uchun qancha asal olib keldim».

Rizqingdan ortiqni yeb bo'lmasa ham,
Talabda bo'lmag'il dangasa, beg'am.
G'avvos nahang og'zin o'ylasa agar,
Qo'lga kiritolmas hech durru gavhar.

Tegirmonning ostki toshi harakatsiz bo'lgani sababli hamisha og'ir yuk ostidadir.

Sher nima ovlay olar toki inidan chiqmay,
Changaliga ne tushar yerda yotsa qarchig'ay.

Ov qilmoqni istasang o'z uyingdan chiqmayoq,
O'rgimchak oyog'idek nozik bo'lar qo'l-oyoq.

Otasi dedi: «Ey farzand, bu safar falak senga ko'mak etib, baxting kulib boqibdi. Davlatmand bir odam duch kelib, saxovat ko'rsatib, senga rahm-u shafqat etibdi. Bu juda ham kamdan-kam sodir bo'ladigan hodisadir. Bunday tasodiflarga umid bog'lab bo'lmaydi. Bundan buyon hushyor bo'l, bunaqangi xomtama bo'lma!»

Ilvosin keltirmas ovchi ham har kun,
Bir kun yo'lbars yirtib tashlashi mumkin.

HIKOYAT

Deydilarki, fors podshohlaridan birining qimmatba-ho qoshli uzugi bor ekan. Bir kuni podshoh o'ziga yaqin kishilardan bir nechasini olib Sheroz shahridan Musalloda sayr etgani chiqibdi-da, uzugini Azud gunbaziga o'rnatishni buyuribdi va kimki o'qini uzukning halqasidan o'tkazsa,

uzuk o'sha odamniki bo'ladi, deb shart qo'yibdi. Ittifoqo, podshoh saroyidagi to'rt yuz mergan kamonandozlarning o'qlari xato ketibdi. Tasodifan, rabotning tomida duch kelgan tomonga qarab kamon otib o'ynab yurgan bolaning o'qini shamol uchirib borib, uzukning halqasidan o'tkazibdi. Podshoh unga talay noz-u ne'mat, liboslar beribdi va uzukni ham hadya qilibdi. Bola shu ondayoq kamon va o'qlarini yoqib yuboribdi. Odamlar undan: «Bu nima qilganing?» deb so'rashibdi. «Dastlabki qozongan shuhratim o'zimda qolsin uchun shunday qildim», deb javob beribdi bola.

Gohida ravshan fikr donolardan ham
Chiqmasligi mumkin durustroq tadbir.
Gohida aqlsiz go'dak bir bola
Yanglishib, nishonga o'q urar mohir.

HIKOYAT

Eshitdimki, bir darvesh bir g'orda yashab, eshigini jahon xalqi yuziga bekitgan edi va uning himmati oldida podshohlar va davlatmandlar hech qanday hurmat va shavkatga ega emas edilar.

Tilanchilik eshigin ochsa har kishi,
To umri bitguncha bo'ladi muhtoj.
Ta'masizlar boshi hech egilmaydi,
Hirsingdan kechgilu boshingga qo'y toj.

O'sha tomon podshohlaridan biri xabar yubordiki, azizlarning marhamatidan umidvormiz, bugun bizda mehmon bo'lib, non-u namakni baham ko'rgaysiz. Shayx rizolik bildirdi, chunki taklifni qabul etmak sunnatdir. Ertasi kun podshoh darveshning g'origa borib, qasriga taklif etib, aziyat chektirgani uchun uzr so'radi. Darvesh podshohni

ko'rgach, o'rnidan turib, uni bag'riga bosdi, minnatdor-chilik bildirib madh etmakka boshladi.

Podshoh ketganidan keyin majlis ahlidan bir kishi darveshdan so'radi: «Bugungi podshohga ko'rsatgan iltifotingiz odatdan tashqari bo'ldi, ilgari hech bunday qilmas edingiz, buning sababi nima?» Darvesh javobida dedi: «Eshitmaganmisanki, donishmandlar demishlar:

Kimning dasturxonidan non yeyar esang,
Bo'lmas xizmatiga hozir turmasang.
Quloqlar umr bo'yi eshitmasa ham bo'lg'ay,
Na childirma ovozin, na changu, na tanbur, nay.
Ko'z tiyadi o'zini ko'rmasa bog'-bo'stonlar,
Dimog' chidar iskamay gul-u jambul, rayhonlar.
Bo'lmasa ham yostiqlar ichi to'la momiq par,
Tosh qo'yib bosh ostiga uyquga to'ysa bo'lar.
Bo'lmasa quchog'ingda yostiqdosh bir nozanin,
Tizzang quchib uyquda bilmaysan tun o'tganin.
Ammo bu hunari yo'q, yaramas qorin qurg'ur,
Sabr nima sezmaydi, chidam nima bilmaydir».

TO'RTINCHI BOB

SUKUT QILISHNING FOYDALARI BAYONI

HIKOYAT

Do'stlarimdan biriga dedim: «Gapirishdan o'zimni tiyishimning sababi shuki, ko'pincha gapning yaxshi va yomon tomonlari bo'ladi, dushmanlarning ko'zi esa, yomon-dan boshqa narsaga tushmaydi». Do'stim dedi: «Yaxshini payqamagan dushman — durust».

Yaxshilar yonidan o'tmas hech qachon,
Dushmani taqimay anga bir bo'hton.

Hunardin katta ayb yo'qdir adovat ko'ziga har dam,
O'zi gul bo'lsa ham dushman ko'zinda bir tikan Sa'diy.

Jahon ravshanligining chashmasidir oftobu nur
Vale ko'rshabparakning ko'zlari undan hamisha ko'r.

HIKOYAT

Bir savdogar ming dinor (tilla) zarar ko'rdi va o'g'liga dedi: «Bu haqda hech kimsaga lom-mim deb og'iz ochmagin». O'g'li dedi: «Ey ota, siz aytma der ekansiz, hech kimsaga aytmayman. Lekin xohish etar edimki, buni maxfiy tutishning sababi nima ekanini aytib bersangiz». Ota dedi: «Sababi shuki, musibat ikki hissa bo'lmasin: biri sarmoyaning ketishi, ikkinchisi esa, qo'ni-qo'shnilarning malomat etishi».

Dushmanga alaming so'zlama aslo,
Quvonib demasin «Alhamdulillah!»

HIKOYAT

Bir dono yigit ilm-fanda yagona bo'lib, tabiatan ko'p gapirishni yoqtirmagani uchun olimlar davrasida churq etib og'iz ochmas edi.

Bir kun otasi unga dedi: «O'g'lim, sen ham bilganlaringdan gapirsang-chi!» O'g'il javobida dedi: «Bilmaganlarimdan savol qilishsa, uyalib qolaman, deb qo'rqaman!»

Eshitmaganmisan, etik na'liga
Bir so'fiy bir necha mix urar ekan.
Bir sipohiy kelib yengidan sudrab
«Otimni taqalab berasan!» degan.
So'z demasang senda kimning ishi bor,
Dedingni, dalil ayt, isbotla takror.

HIKOYAT

Jolinus hakim bir johil odam bir donishmandning yoqasidan bo'g'ib turganini ko'rdi. U dedi: «Agar bu odam donishmand bo'lganida edi, uning ishi johil bilan bu darajaga yetmagan bo'lardi!»

Qilishmas ikki oqil jangu janjal,
Puchak boshni aqllik bossa har gal.
Jaholat birla nodon so'zlagay ham,
Aqllik lutf ila qilgay dilin rom.
Uzishmas ikki oqil qilni ham gar,
Biri sarkash, biri sulh izlasalar.
Turishsa ikki johil mojaroda,
Uzarlar bo'lsa zanjir ham aroda.
Bir oqilni bir ahmoq so'kdi, ul dam
Dedi oqil anga: «Ey yaxshi odam,
Sen aytgandan battarroqman, bilurman,
Mening aybimni mendek bilmagaysan».

HIKOYAT

Sahboni Voilni fasohatda tengi yo'q deb hisoblar edilar, chunki u bir majlisda bir yil davomida so'zlasa ham bir ishlatgan so'zini takrorlamasdi. Bir fikrni ikkinchi marta aytishga majbur bo'lgan taqdirda ham boshqa iboralar bilan ifoda etardi. Bu saroy a'yonlariga xos xususiyatlardan biridir.

So'zing garchi dilkash va shirin bo'lur,
Mukofoti tasdiq tahsin bo'lur.
Bir aytdingmi, aytma uni o'zga dam,
To'yib bir yedingmi, yetar, holva ham.

HIKOYAT

Eshitdimki, donishmandlardan biri der ekan: «Birov gapini tugatmasidan burun gapga aralashadigan kishidan ko'ra ortiqroq o'z nodonligini oshkor qiladigan odam bo'lmaydi».

Ey oqil, so'zning ham bosh-oyog'i bor,
O'zga so'zga so'zing qistirma, zinhor.
Aqlu hush egasi tadbirli inson
So'z boshlar suhbatdosh jim bo'lgan zamon.

HIKOYAT

Sulton Mahmudning qullaridan bir nechasi Hasan Maymandiydan: «Sulton bugun sen bilan qaysi masala haqida kengashdi?» deb so'radilar. Hasan Maymandiy dedi: «Bu masala sizlar uchun ham sir bo'lib qolmaydi!» Ular dedilarki: «Sulton senga aytadigan gaplarini biz kabilarga aytmaydi!» Hasan Maymandiy dedi: «Sirini boshqalarga ochmasligimga Sultonning imoni komil bo'lgani uchun menga aytadi, bas, shunday ekan, mendan nega so'raysizlar!»

Barcha bilganin demas farosat ahli har on,
Podshohlar siri deb, boshdan ayrilish oson.

HIKOYAT

Bir shoir o'g'rilar boshlig'i oldiga borib, unga madhiya o'qidi. O'g'rilar boshlig'i shoirning kiyim-boshini yechib olib, qishloqdan quvg'in qilishni buyurdi. Sho'rlik shoir izg'irin sovuqda yalang'och ketdi. Uni qishloq itlari taladi, u itlarni quvlash uchun tosh olmoqchi bo'ldi, yer muzlagan edi, toshni ko'chirolmadi. Shunda shoir dedi: «Bular qan-

day haromzoda odamlarki, itlarni yechib, toshlarni bog'lab qo'yibdilar!»

O'g'rilar boshlig'i darichadan qarab turgan edi, bu voqeani ko'rdi va shoirning gapini eshitib kuldi-da: «Ey dono, tila tilagingni!» dedi. Shoir shunday javob berdi: «Agar iltifot etmoqchi bo'lsang, o'z libosimni qaytarib ber».

Boshqalar xayriga umidvor banda,
Sendan umid yo'g'-u qilma sharmanda.

O'g'rilar sardori unga rahm qilib, yengil-boshini qaytardi, yana bir po'stin bilan bir necha dirham pul ham qo'shib berdi.

HIKOYAT

Bir munajjim uyiga kelib, xotining begona bir erkak bilan o'tirganini ko'rdi. Munajjim haligi odamni tahqirlashga, so'kishga boshladi, janjal-suron ko'tarildi. Bu voqeaning guvohi bo'lgan bir donishmand dedi:

«O'z uyingdagini bilolmay, zinhor,
Qaydan bilding falak avjida ne bor?»

HIKOYAT

Ovozi xunuk bir xatib o'zini juda xushovoz deb hisoblar va bo'lar-bo'lmasga ovozini baralla qo'yib qichqiraverar edi...

Qishloq ahli bu azobga chidar, lekin baland martabasidan cho'chib, uni xafa qilishga yuraklari dov bermasdi. Kunlardan bir kuni o'sha yurtida yashovchi, mazkur xatib-

ga pinhoni adovati bo'lgan boshqa bir xatib uni ko'rgani keldi. Uchrashgan vaqtda kelgan xatib dedi: «Seni tushimda ko'rdim, yaxshilikka yoyilsin!» «Nima ko'rding?» deb so'radi yoqimsiz ovozli xatib. «Tushimda ko'rsam, sening ovozing nihoyatda yoqimli emish, odamlar xonishingni eshitib huzur qilishayotganmish!» Xatib andak o'ylab tur-gach, dedi: «Sen juda yaxshi tush ko'ribsan, chunki mening nuqsonimni ko'rsatib berding, ovozim yoqimsiz ekani va xaloyiq mening baqirib qiroat qilishimdan azob chekkani ayon bo'ldi, tavba qildim, endi xutba o'qisam ham past ovozda o'qiyman».

Hangrar ersa Abulxatib Favoris,
Istaxrni buzar ovozi olis.

* * *

Do'stlar suhbatidan dilim siqildi,
Yomon fe'limni ham yaxshi deyurlar.

Aybimni hunaru kamol deb anglab,
Tikanimni gulu suman bilurlar.

Oh, qayda u, hayoni bilmagan yov,
Aybimi o'zimga fan qilurlar.

HIKOYAT

Bir odam Sanjar masjidida savob uchun muazzinlik qil-ar, lekin azonni shu qadar bemaza aytardiki, eshitganlar ko'ngli behuzur bo'lardi. Masjidning egasi odil, ochiqchehra bir amir bo'lib, qattiq so'z aytib, muazzinni xafa qilishni istamasdi. Amir muazzinga dedi: «Ey yigit, bu masjidning avvaldan azon aytib kelgan muazzinlari bor, men ular-ni hammasiga besh dinordan oylik belgilaganman, agar

sen boshqa yoqqa ketishga va'da bersang, senga o'n dinor to'lar edim!»

Ular shunday kelishishdi, muazzin jo'nab ketdi. Oradan sal vaqt o'tgandan keyin muazzinning yo'li amir tomoniga tushib, u bilan uchrashib dedi: «Ey hukmdor, o'n dinor evaziga meni masjiddan jo'natib, mening haqqimga insofsizlik qilibsang. Chunki mening hozirgi borgan masjiddimda boshqa joyga ketsang, yigirma dinor beramiz, deb va'da qilishyapti-yu, men rozi bo'lmayapman». Amir xaxolab kulib yubordi-da, dedi: «Zinhor rozi bo'lma, ular ellik dinor berishga ham rozi bo'lishadi».

Kishi tesha birla xarsang toshdan loy tarashlab ololmas,
Ammo sening qo'pol ovozing dilni tarashlaru bas.

HIKOYAT

Ovozi yoqimsiz bir odam shang'illab qur'on o'qirdi. Uning yonidan o'tib borayotgan bir sohibdil undan: «Sen oyiga qancha maosh olasan?» deb so'radi. «Hech nima», deb javob berdi qur'on o'qiyotgan odam. Sohibdil dedi: «Unday bo'lsa, nega o'zingni shunchalik qiynaysan?» «Xudo yo'lga o'qiyapman». Sohibdil dedi: «Xudo yo'lga o'qima!»

Shul yo'sunda o'qir esang qur'onni ham,
Musulmonlik ravnaqiga berging barham.

BESHINCHI BOB

ISHQ VA YOSHLIK BAYONI

HIKOYAT

Hasan Maymandiydan so'radilar: «Sulton Mahmudning har biri jahonning ziynati bo'la oladigan qanchadan-qancha sohibjamol qullari bo'lgani holda nima uchun u hammadan ko'proq Ayozni yaxshi ko'radi, vaholonki Ayoz unchalik husndor ham emas?» Hasan Maymandiy dedi: «Ko'ngilga marg'ub bo'lgan ko'zga ham mahbub bo'ladi».

Agar bo'lsa kimning muridi sulton,
Yomoni ham yaxshi bo'lur begumon.
Kimni podsho tutsa o'zidan yiroq,
Hatto xonadoni qiladi mazoq.

Inkor ko'zi-la qaragan kishiga
Yusufning yuzi ko'rinar xunuk.
Agar muhabbat-la qarasa devga,
Dev ko'rinar farishtadek tup-tuzuk.

HIKOYAT

Deydilarki, bir boyning chiroyli bir quli bo'lib, boy unga muhabbat va ishtiyoq nazari bilan qarar edi. Bir kun boy do'stlaridan biriga dedi: «Evoh, shunday husnu jamol va qaddi kamolga ega bo'lgan bu qulimning tili uzun bo'lmasa, ayni muddao bo'lardi!»

Do'sti dedi: «Ey birodar, agar muhabbat izhor etgan bo'lsang, ortiq undan xizmat umid qilma, zeroqi, oshiq-ma'shuqlik oraga kirgach, hokimlik va tobelik degan tushunchalar oradan ko'tariladi».

Pariruxsor quli birlan xo'jasi
O'yin-kulgi qilib, bo'lishsa xandon,
Ajabmas, xo'jadek buyursa quli,
Xo'jasi ko'tarsa nozin begumon.
G'ulom suv tashisin va quyolsin g'isht,
Nozanin bo'lmasin o'qtalguvchi musht.

HIKOYAT

Bir kun bir taqvodor kishini ko'rdim, u muhabbat o'tida o'rtanardi, na ko'nglida sabr-toqati va na so'z aytarga quvvati bor edi. U juda ko'p ta'na-malomat eshitar, aziyat chekardi-yu, lekin ishqibozlikni tark etmay, derdi:

«Chiqarmasman etaging hech qo'limdan,
Agar o'tkir tig' ursang chiqmas ohim.
Agar qochsam yana senga kelurman,
Mening yo'q sendin o'zga pusht-panohim».

Bir kun uni malomat qilib dedim: «Nozik aslingga nima bo'ldiki, hayvoniy nafsing undan ustun kelibdi?» U biroz o'ylab, dedi:

«Qayga kelmish ishq sultoni magar,
Qolmag'ay taqvo qulining quvvati.
Pok yashay olsin u bechora nechuk
Loyga botgan bo'lsa yuz-ko'z suvrati».

HIKOYAT

Yodimda, bir kecha sevikli dilbarim eshikdan kirib keldi. Men shunday jadallik bilan o'rnimdan irg'ib turdim-ki, beixtiyor yengim bilan shamni o'chirdim:

Ko'rinmoq bo'ldimu menga qaro tunni quvar chehra,
Shoshib qoldim, nechuk keldi menga bu baxt, saodat ham.

Yorim o'tirgach, itob qilib dedi: «Meni ko'rishing bilan chiroqni o'chirganingning ma'nosi nima?» Men dedim: «Bunda ikki ma'no bor: birinchidan, seni ko'rdimu quyosh chiqdi, deb o'yladim, ikkinchidan, shunday bir she'r xayolinga keldi:

Gar begona kelsa shaming yoniga,
Soya qilsa o'ldir unday odamni.
Labi shirin, shakarxanda yor kelsa,
Yenging bilan shu on o'chirgil shamni».

HIKOYAT

Bir odam uzoq vaqtdan beri ko'rmagan do'stiga dedi: «Qayoqlarda yuribsan, seni ko'rishga mushtoqman!» Do'sti javobida dedi: «Do'stning diydoriga mushtoq bo'lish — uning suhbatidan zerikishdan yaxshiroqdir».

Muncha kech kelibsan kayfim boisi
Qo'ldan tez chiqmagay etaging uchi.
Ma'shuq visoli bo'larkan yiroq,
Lozim diydoriga yaxshiroq to'ymoq.

Ma'shuqa hamrohlari bilan birga kelsa, u jaf o qilgani kelgandir, zeroki, visol rashk va ziddiyatdan xoli bo'lmaydi:

Ziyoratimga kelsang, agar o'rtog'ing bilan
Sulh istab kelsang ham janjal qo'zg'aysan.

Oz qoldikim, g'ashlik meni xarob etmadi,
Bir zungina o'ltirganda yor bilan ag'yor,

Kulib dedi, Sa'diy shamman anjuman aro,
Parvona gar kuyar ekan nima ishim bor?

HIKOYAT

Esimda bor, bir vaqtlarda bir do'stim bilan bamisoli bir danak ichidagi yalakat mag'izday yashar edik. Ittifoqo, oramizga hijron tushdi, do'stim boshqa bir yurtga ketadigan bo'lib qoldi. Oradan bir qancha vaqt o'tgandan keyin qaytib, mendan shikoyatlanib dedi: «Oradan shuncha vaqt o'tdi-yu, menga birorta ham xabarchi yubormading!» Men unga dedim: «Xabarchining ko'zi sening jamoling nuridan ravshanlashib, o'zim esa mahrum qolishimni ravo ko'rmadim!»

Qadim do'stim, kel sen menga o'z og'zingdan tavba berma,
O'tkir qilich kuchi bilan menga tavba berib bo'lmas,
Rashkim kelur biror kimsa jamolingga to'yib boqsa,
Yana aytay yuzlaringga boqqan bilan to'yib bo'lmas.

HIKOYAT

To'tini qarg'a bilan bir qafasga qamadilar. To'ti qarg'aning yoqimsiz basharasini ko'rishdan dodga kelib, o'z-o'ziga derdi: «Bu qanday jirkanch qiyofa, qanday badnamo bashara, naqadar yoqimsiz shakl-u shamoyil va naqadar beso'naqay jasad? Koshki edi ikkalamizning oramizda mag'rib bilan mashriqcha masofa bo'lsa-yu, sening tasqara basharangni ko'rib bunchalik azob chekmasam!»

Kim erta turiboq boqsa yuzingga,
Uning yorug' kuni bo'lur misli shom.
Senga rafiq lozim o'zingdek rasvo,
Ammo topolurmi sendekni ayyom?»

Qizig'i shundaki, qarg'a ham to'ti bilan birga yashashdan qattiq azoblanib, afsus-nadomatlar chekib, taqdiridan shikva-yu shikoyatlar qilib derdi: «Naqadar baxti qarolik bu, toleim past, falak bevafo ekan! Menga munosibi ulki, boshqa bir qarg'a bilan birga bog'ning devorida savlat to'kib yursam!

Rind bilan porso o'tirgan makon
Porsoga bo'lur misoli zindon.

Ne gunohim bor ekanki, taqdir meni jazolab, o'ziga bino qo'ygan shunday ahmoq va bema'ni, ablah va nojins bilan birga bandi-baloga giriftor qilib qo'ydi?

Bo'lsa devorda uning surati,
U devor yoniga hech kim kelmagay.
Agar uning joyi jannatda bo'lsa,
U jannatni hech kim orzu qilmagay».

Bu masalni shuning uchun keltirdimki, bilib qo'ygaysan: olim johildan qanday nafratlansa, johil olimdan ham yuz chandon ortiqroq nafrat qiladi.

Rindlar majlisida o'tirib zohid,
Bezovta bo'lardi siqilib obdon.
Bir rind dedi: «Afting burushtirma ko'p,
Sen ham biz uchun nordonsan, nordon.

Jam bo'lmish gul, lola to'lmish har taraf,
Orada g'o'daygan sen bir quruq shox.
Qordek cho'kibsan-u yaxdek qotibsan,
Sovuqdek noxushu shamoldek noxoh.

HIKOYAT

Bir do'stim bor edi. Biz u bilan ko'p yillar davomida hamsafar bo'lgandik, talay non-u namakni baham ko'rgandik, oramizda mustahkam, samimiy do'stlik vujudga kelgandi. Kunlardan bir kuni u arzimaydigan manfaatni ko'zlab, ko'nglimni qattiq o'ksitib qo'ydi, do'stligimizga putur yetdi. Biroq shunga qaramay dilimizdagi muhabbat iplari batamom uzilib ketmagan edi. Eshitdimki, bir kuni bir majlisda mening quyidagi:

Yaramga tuz sepilgay haddan ortiq,
Shirin kulgu bilan kirsang nigorim.
Saxiylar yengi tekkandek gadog'a,
Qo'linga zulfi tegsa shul madorim,—

degan ikki baytim o'qilganida, do'stlarimdan bir nechasi bu she'rning mahorat bilan yozilganiga guvohlik berishibdi va menga tahsin-ofarinlar aytishibdi, maqtaguvchilar orasida mazkur do'stim ham bor ekan, u meni ko'klarga ko'tarib maqtab, avvalgi do'stlik iplari uzilganiga pushaymonlar qilib, o'z xatosiga iqror bo'libdi. Uning do'stligimizni davom ettirishga tolib ekanini anglab, quyidagi baytlarni yubordim va oramizda yarash paydo bo'ldi:

Mehrsizlik bilan qo'yding jafoga,
Orada yo'qmidi hech ahd-u paymon.
Seni deb bir yo'la kechdim jahondin,
Sen ersang, yuz o'girding mendan, ey jon.
Agar qaytsang yarash birla yonimga,
Sevimliroq bo'lursan, ko'z nigoron.

HIKOYAT

Bir kishining go'zal yosh xotini o'ldi, munkillab qolgan qaynanasi mahr yuzasidan uning uyida yashab qoldi. U odam qaynanasining vaysashidan juda bezor bo'lgan edi, lekin mahrni topib berishga dasti qisqalik qilgani sababli, u bilan bir hovlida yashashdan bo'lak chorasi yo'q edi. Bir kun bir necha oshna-og'aynilari uni ko'rgani keldilar. Ulardan biri dedi: «Aziz yoringning firoqida ahvoling nechuk kechyapti?» U kishi javobida dedi: «Qaynanamning basharasini ko'rish mening uchun xotinimning diydorini ko'rmaslikdan ko'ra og'irroqdir».

Gullar to'kildi, tikoni qoldi,
Xazina ketdi, iloni qoldi.
Ko'zingni nayza uchida ko'rmoq
Yov diydoridan ming bor yaxshiroq.
Ko'rmaslik uchun bir yovni ko'zing,
Arzir ajrasang ming do'stdan o'zing.

HIKOYAT

Bir darvesh Hijozga ketayotgan karvonda bizga hamroh bo'ldi. Arab amirlaridan biri sen ham shuni sadaqa qilgin, deb uning qo'liga yuz dinor tutqizdi. Yo'lda Xufoje qarqchilari karvonga hujum qilib, bor bud-u shudimizni qoqmalab oldilar. Savdogarlar dod-faryod qilmoqqa, behudaga olamni boshlariga ko'tarmoqqa boshladilar.

Xoh faryod ayla-yu xohi iltijo,
Qaroqchi qaytarib bermagay aslo.

Pinagini buzmay, beparvo o'tirgan birdan-bir odam bor esa, u ham boyagi darvesh edi. Men dedim: «Qaroqchi-

lar sening dinorlaringni olib ketmadilarmi?» U dedi: «Ha, olib ketdilar, lekin men o'sha pullar borida ularga unchalik bog'lanib qolmagan edimki, qo'ldan ketganida qayg'urib yig'lasam».

Har narsaga bog'lama ko'ngil,
Ko'ngil uzmoq juda ham mushkil.

Men dedim: «Sening aytgan gaping mening ahvolimga mos keladi, chunki yoshligimda bir nozaninni sevardim, unga shu qadar oshiqi shaydo edimki, jamoli ko'zimning qiblasini, visoli esa umrimning sarmoyasi edi.

Farishta osmonda husningga teng kelmasa, hech bir
Odam farzandi yerda tenglasholmas senga suratda.

Aning suhbatlaridan so'ng kerakmas o'zga hech ulfat,
Aningdek kelmadi ham kelmagay dunyoga albatta.

Birdan u o'lim to'shagiga yotdi va borliq oyog'i ajal
loyiga botdi. Uyidan ko'tarilgan firoq tutuni ko'kka o'rladi,
judolik o'tlari bag'rimni o'rtadi. Bir necha kun qabri ustidan
jilmay, firoqi haqida jumladan shunday baytlar yozdim:

Oyog'iga sanchilgancha ajalning tikanagi,
Qilich bilan boshim uzsa bo'lmasmidi bu falak.
To ko'zlarim ko'rmasaydi sendan xoli dunyoni,
Boshga tuproq sohib keldim, qabringga men qonyurak.

Yotog'in gul-nasrin qilmasa ko'rkam,
Yotganda uyqusi kelmagan odam.
Chehrasi gulini so'ldirdi falak,
Mazori ustida o'sdi tikanak.

Dilbarimdan judo bo'lganimdan so'ng ont ichdimki,
endi qolgan umrimda havas to'shagini yig'ishtiray va sira
aysh-ishrat majlisiga qadam bosmay».

Dengiz foydasi yaxshi, to'lg'in solmasa dahshat,
Gul suhbatı xush edi sanchilmaganda tikon.
Visol bog'ida to'vus kabi qilardim xirom,
Bukun yor hijronida to'lg'andim misli ilon.

HIKOYAT

Arab podshohlaridan biriga «Layli va Majnun» qissasini hikoya qilib dedilarki, shunchalik yetuk fazlu kamol egasi bo'lishiga qaramay, sahroga chiqib ketgan va aql jilovini qo'ldan bergan. Podshoh Majnunni topib kelishni buyurdi. Majnunni topib, huzuriga keltirishgach, podshoh uni malomat qila boshladi: «Sharafli inson ruhida qanday nuqson ko'rdingki, hayvonlar xususiyatini qabul qilib, insonlar suhbatini tark etding?» Majnun dedi:

«Do'stlarim etdi malomat ishqida chandon meni,
Boqmayin bir bora unga, topgali menga najot.

Koshki do'stlar menga ayb qo'yganida,
Boqsalar bir bor yuzingga, dilsiton,
Kesgay edi senga bo'lib mahliyo,
Nok o'rniga qo'llarini begumon.

Sening husn-u jamoling mening da'voyi muhabbatimga guvohlik bergan bo'lardi...» Podshoh ko'nglida Laylining shunchalik sho'rishu g'avg'olarga sabab bo'lgan jamolini tomosha qilish ishtiyoqi tug'ildi. Podshoh Laylini keltirishga buyurdi. Barcha arab qabilalarini kezib, Laylini topib, podshohning qasriga olib keldilar. Podshoh Layliga

boqdi, ko'ziga qorachadan kelgan, oriqqina bir qiz ko'rindi, qaramidagi eng husnsiz kanizi ham Laylidan yuz chandon go'zalroq edi, shu sababdan Laylini nazariga ilmasi. Majnun bu holatni payqab, dedi: «Laylining husni jamolidan bahramand bo'lish naqadar huzur baxsh etishini payqamoq uchun unga Majnunning ko'zi bilan boqmoq kerak!»

Tansihatlar bilmas yara dardini,
Eshitmasin dardimizni begona.
Asal demoq birla og'iz chuchimas,
Ari nishin sinab ko'rmay bir bora.

Toki holing biznikicha bo'lmasa,
Ahvolimiz ko'rinadi afsona.
Tenglashtirma o'zga bilankim, uning
Qo'lida tuz, mening yaram so'zona.

OLTINCHI BOB

ZAIFLIK VA KEKSALIK BAYONIDA

HIKOYAT

Damashqning masjidi Jomeida bir necha donishmandlar bilan mubohasa qilur edim, bir yigit kirib: «Oralaringizda fors tilini biladigan odam bormi?» deb so'radi. Ko'pchilik menga ishora qildi. Men yigitga dedim: «Xo'sh, nima ishing bor?» Yigit dedi: «Bir yuzu ellik yoshga kirgan bir chol jon talvasasida yotibdi. U forschalab allanimalar deyapti, lekin bizlar tushunmayapmiz, agar lutfan mo'ysafidning huzuriga qadam ranjida qilsangiz, savob topardingiz, ehtimol, u vasiyat qilmoqchi».

Yostig'i tepasiga yetib borganimda bemor bu she'rni o'qir edi:

Dedim, olay yana bir necha bor dam,
Orzuga yetolmay bo'g'ildi nafas.
Umr dasturxoni ustida afsus,
Birpas o'ltirmasdan dedilarki, bas.

She'ring ma'nosini Shomliklarga tarjima qilib berdim.
Ular cholning shunchalar uzoq umr ko'rganiga, shunda
ham hayotning bevafofigidan afsuslanganiga hayron qoldi-
lar. Men choldan so'radim: «Shu holatingda qalaysan?» U
aytdi: «Nima desam ekan?»

Ko'ribmiding biror kimsa tishin sug'urgan chog'i,
Ne azobda chiqar ko'kka uning ohu fig'oni.

Ko'z oldingga keltir endi nima bo'lar ahvoli,
Agar aziz vujudidan chiqar esa pok joni.

Unga dedim: «O'lim fikrini xayolingdan chiqar. O'zingni
o'zing vahimaga solma, chunki Yunon faylasuflari: «Badan
qanchalik sog'lom bo'lsa ham, lekin sog'lomlikning doimiy
ekaniga ishonib bo'lmaydi, kasal naqadar og'ir bo'lmasin,
bu albatta halokat nishonasi bo'lavermaydi», deganlar.
Agar xohishing bo'lsa, tabib chaqiramiz, seni davolasin!»
Chol ko'zini ochib kuldi-da, dedi:

Hushyor tabib qo'lin qo'lga urishni –
Boshlar kasal kishi yo'qotgach hushni.

Bino negizidan boshlab vayrondir,
Egasin tashvishi naqshi ayvondir.

O'lim talvasada chol ingrar og'ir,
Sandal qirib dori hozirlar kampir.

Muvozanat ketib, buzilsa mizoj,
Topilmas dori-yu darnondan iloj.

HIKOYAT

Diyoribakrda bir cholning uyida mehmon bo'ldim. U juda badavlat odam bo'lib, chiroyli o'g'li bor edi. Bir kuni kechasi chol shunday hikoya qildi: «Umrimda shundan bo'lak farzand ko'rgan emasman. Shu yerdagi vodiya bir daraxt bor, u katta ziyoratgohdir, xaloyiq o'sha daraxt atrofiga borib, murod tilaydilar, hojatlari ravo bo'ladi. Men ham shu daraxt ostiga borib, uzun kechalar tangriga nolish qildim, nihoyat Ollohi taolo menga shu farzandni ato qildi!»

Shu mahal o'g'lon oshnolariga ohistagina: «Koshki edi o'sha daraxt qayerda ekanini bilsam, u yerga borib, otam o'lsin, deb duo qilgan bo'lardim!» deganini eshitib qoldim.

Ota, o'g'lim oqil, deb quvonardi, o'g'il esa, otam aljirab qolgan chol, deb malomat qilar va unga o'lim tilardi.

Yillar o'tib ketdi tepangdan g'ir-g'ir,
Otang mozoriga bordingmi bir dam?
Otang xotiriga nima ezgulik
Qildingki, o'g'lingdan kutasan sen ham?

HIKOYAT

Bir kun yoshlik g'ururi bilan kun bo'yi yelday yugurib, kechga tomon tinka-madorim qurib, bir tepa ostiga borib yiqildim. Karvonning ortidan sudralib kelayotgan, munkil-lab qolgan bir chol meni ko'rib, xitob qildi: «Nega yotibsan, bu yer yotadigan joy emas-ku?» Men dedim: «Oyog'imda mador qolmagan bo'lsa, qanday yuray?»

Chol dedi: «Eshitmaganmisanki, donishmandlar demishlar: «Yurib dam olmoq — yugurib sillasi qurib yiqilgandan yaxshiroqdir!»

Ey manzilga mushtoq yo'lchi, ko'p shoshmagil,
Chopqir otlar ko'pi yo'lda qolib ketdi.
Pandim eshit, sabr qilish bo'lsin ishing,
Oqsoq eshak manziliga borib yetdi.

HIKOYAT

Bizning davramizda epchil, tiyrak, quvnoq va shirin zamon bir yigit bor edi. U hech mahal qayg'urmas, labidan bir on ham kulgi arimasdi. Oradan ancha vaqt o'tib, bir-birimiz bilan uchrasha olmadik. Bir safar unga duch keldim. Uylanibdi, joylanibdi, bola-chaqali bo'libdi, shodligining guli so'libdi. Undan so'radim: «Xo'sh, ahvoling nechuk, qanday yashayapsan?» U dedi: «Bolali bo'lganimdan keyin o'zim bolalik qiliqlarini tashladim».

Sochlarimga oq tushibdir, qayda qoldi bolalik?
Zamon o'tdi, ko'p o'zgartdi, zamon — balo nolalik.

Qarigach tashlagil yoshlikni tamom,
O'yinqaroqlikni yoshga qil in'om.

Keksadan istama quvnoqlik havas,
Yoshlik o'tmish oqar suv — ortga qaytmas.
Ekinga yetarkan o'roq zamoni,
Sabzadek mavj urmas, tinar javloni.

Ketdi qo'limdan meni yoshlik hamon,
Oh urayin, qayda u dilkash zamon.
Sherdek edim, ketdi qo'lim quvvati,
Pishloq o'lib rizqima ov itsimon.

Kampir sochlarin bo'yar birma-bir,
Dedim: ey ko'p zamon yashagan kampir,
Nayrang bilan soching qilasan qora,
Ammo bukchaygan bel rost bo'lmas sira.

HIKOYAT

Bir kun bolalik nodonligi bilan onamga baqirdim. Onam qattiq xafa bo'lib, bir burchakka o'tirdi-da, yig'lab dedi: «Bolaligingni unutdingmiki, menga bunchalik qo'rslik qil-yapsan?»

Yo'lbars panja, filtan o'g'liga kampir,
Ne xush so'zlar aytib, tashladi savol:
«Esingda bo'lsaydi go'daklik chog'ing,
Bag'rimda yotganing murg'ak, bemajol.
Qilarmiding menga bul kuni jafo,
Sen sherdek yigitu, men kekxa, behol?»

YETTINCHI BOB

TARBIYANING TA'SIRI BAYONI

HIKOYAT

Bir vazirning takasaltang o'g'li bor edi. Vazir o'g'lini bir donishmand huzuriga eltib: «Shuni tarbiya qil, shoyad, aqli kirib, odam bo'lsa», dedi. Donishmand vazirzodani uzoq muddat tarbiya qildi, foydasi bo'lmadi. Bolaning otasiga bir odam orqali: «O'g'ling odam bo'lmadi, meni ham aqldan ozdirdi», deb xabar qildi.

Qobiliyat bo'lsa aslida,
Tarbiyat unga qiladi asar.

Qancha urinma bo'lmas sayqali,
Temir aslida bo'lmas javhar.
Shundaycha qolur Iso eshagi,
Makkaga borib kelsa ham agar.

HIKOYAT

Bir donishmand farzandlariga shunday pand-u nasihat qilardi: «Aziz o'g'lonlarim, hunar o'rganinglar, zero ki, moli dunyoga e'timod yo'q va oltin-kumush safarda xatarlidir. Qaroqchi o'g'irlab ketadi yoki egasi yeb-ichib tamomlaydi. Ammo hunar qaynar buloq, tuganmas davlatdir, agar hunarmand molidan mahrum bo'lsa, qayg'usi yo'qdir, chunki hunarning o'zi davlatdir. Hunarmand qayerga borsa, qadrlanadi va uyniing to'ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa, hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi».

O'zi buyurmoqqa o'rgangan kishi
Qiyin boshqalarga quloq solishi.
Kim agar o'sibdi nozu ne'matda,
Holi og'ir bo'lar qolsa kulfatda.

Bir mahal Shomda qo'zg'aldi fitna,
Har kim uydanda zada yugurishdi zir.
Qishloqlardan kelgan aqlli yoshlar,
Yangi podshohga bo'lishdi vazir.
Shaharlik kaltafahm vazirzodalar,
Gado bo'lib, qishloq ketishdi oxir.

Istar esang otangdan meros
Bog'la otang ilmiga ixlos.
Ne nafi bor otang boyligin,
Bir kun tugatarsan necha oyligin.

HIKOYAT

Bir olim shahzodaga ta'lim berar, lekin uni kaltaklab, qattiq azoblardi. Bir vaqt shahzoda toqat qila olmay shikoyat qilgani otasi huzuriga bordi va ko'ylagini ko'tarib, majruh badanini ko'rsatdi. Otasining yuragi achidi, muallimni chaqirib unga dedi:

«Mening o'g'limga bergan bu aziyatingni biror fuqaro farzandiga ravo ko'rmaysan, buning sababi nima?» Muallim dedi: «Buning sababi shuki, andisha bilan gapirmoq va maqbul harakat qilmoq lozimdir. Bu qoida barchaga barobar, xususan, podshohlarga aloqadordir, chunki ularning qilgan ishlari va gapirgan gaplari tillarda doston bo'lib ketadi, lekin avomning gapirgan gapu xatti-harakati bunday ahamiyatga molik emas.

Darvesh agar yuz noma'qul ish qilsa,
Biriga ham do'stlar qilmas e'tibor.
Ammo podshoh biror hazil so'z desa,
Iqlimdan iqlimga o'tadi takror.

Shuning uchun shahzodalarning ustozlari podshoh farzandlarining axloqini tarbiyalashda yanada ziyodroq sa'yi harakat ko'rsatmoqlari vojibdir».

Kimga yoshligidan berilmas odob,
Ulg'aygach bo'ladi baxtsiz, dili g'ash.
Ho'l novda egilar qay xilda egsang,
Quruqni to'g'rilar faqat o't-otash.

Ustodning tutgan tadbiri va oqilona javoblari podshohga ma'qul tushdi. Podshoh unga libos va boshqa in'omlar berdi hamda martabasini oshirdi.

HIKOYAT

Mag'rib diyorida qosh-qovog'i osilgan, tili achchiq, badfe'l, dilozor, gadoytabiat va fosiq bir muallimni uchratdim, uni ko'rgan mahalda musulmonlarning tab'i tirriq bo'lar, qur'on o'qiganini eshitganda kishilarning dillari siyoh bo'lardi. Barcha pokiza o'g'lonlar va qizlar uning jafosiga giriftor, na kulishga jur'at va na so'zlashga jasorat etardilar. Muallim goh birining nuqraday yuziga tarsaki tushirar, goh boshqasining billurday oyog'iga iskanja solardi. Xulosai kalom, bir kun eshitdimki, ota-onalar muallimning razilligini payqab, uni madrasadan urib haydabdilar. Shundan keyin maktabni sofdil, namozxon, sodda va muloyim tabiatli bir kishiga topshirdilar. Bu muallim zarurat bo'lmasa lom-mim demas va hech kimsaga ozor bermas edi. Bolalar yangi muallimning farishtaday muloyimligini ko'rgach, avvalgi muallimning qattiqqo'l va zolimligini unutdilar, devtabiat bo'lib ketdilar va ilm o'rganishni tark etdilar. Ular ko'p vaqtlarini o'yin-kulgi bilan o'tkazar va savod taxtalarini birlarining boshlariga urib sindirar edilar.

Agarda muallim bo'lsa beozor,
Bolalar sinfni qilishar bozor.

Oradan ikki hafta o'tgach boyagi masjidga bordim. Ko'rdimki, avvalgi muallimning ko'nglini ovlab keltirib, yana o'z o'rniga tayinlab qo'yibdilar. Bu holatdan ranjiddim, beixtiyor: «Nega yana o'sha iblisni bu farishtalarga muallim qilibdilar?» dedim. Ko'pni ko'rgan, zakkita'b bir mo'ysafid dedi:

«Yubordi o'g'lini maktabga podsho,
Qilib qo'ynig'a nuqra taxtacha jo.

Kumush ul taxtaga zardin bitib yod:
Ota mehridan afzal jabri ustod».

HIKOYAT

Bir shayxning o'g'liga amakilaridan hisobsiz molidunyo meros qoldi. U bu mablag'larni aysh-ishratga xarjlab, isrof qila boshladi. Qilmagan yaramas ishi, ichmagan ichkiligi qolmadi. Bir kun unga nasihat qilib dedim: «Ey o'g'lim, daromad — oqar suv, maishat esa tegirmondir, ya'ni katta xarjlash doimiy daromadi bor odamga yarashadi.

Kiriming bo'lmasa, chiqimni to'xtat,
Qayiqchilar kuylar shunday bir qo'shiq:
«Agar toqqa yomg'ir yog'ib turmasa,
Bir yilda Dajla ham bo'lar qup-quruq».

Aql-hushingni yig'ishtirib, aysh-ishratni bas qil, chunki puling tugagach, mushkul ahvolga tushib, pushaymon qilib yurasan!» Biroq aysh-ishrat, musiqadan kayflanib yurgan o'g'lon nasihatiga quloq solmadi va menga e'tiroz bildirib, dedi: «Ertagi g'am-tashvish qayg'usi uchun bugungi kayfsafoni barbod bermoq donishmandlar ra'yiga xilofdir.

Orzuga yetishgan baxtiyor nechun
Qaro kun g'amida chekadi alam?
Shodlik-la yeb-ichib, yasha, ey dilkash,
Ertangi kunni deb, bugun chekma g'am.

Buning ustiga men saxovat taxtida o'ltirib, lutfu ehson kamarini belimga bog'laganman, qo'liochiq odamligim ovozasi avom xalq tilida doston bo'lgan».

Kimni mashhur etmish saxiylik, karam,
Qulfga tushmasin dinoru diram.

Yaxshi nomi chiqqan bo'lsa ko'chaga,
Odamlardan eshik yopolmas hecham.

Nasihatimni qabul etmayotgani va issiq nafasim uning sovuq temirday xudbin qalbiga ta'sir etmayotganini ko'rib, nasihatgo'ylikni yig'ishtirib, donolarning: «Sen bilganingni gapir, agar aytganingga quloq solmasalar, o'zlari aybdordirlar», degan so'zlariga amal qildim.

Yaxshi kishilar so'zini so'zlagil,
Garchi senga solmasalar ham quloq.
Tinglaguchi qancha o'jar bo'lsa ham
Bandga tushar ikki qo'l-ikki oyoq.
So'ngra chapak chalar-u aytar o'zi:
«Tinglamay dono so'zin holim chatoq!»

Oradan sal vaqt o'tgach, ko'rsam, xuddi men tusmol qilganimday, og'ir ahvolga tushibdi. Kiyim-boshlari juldur-juldur, yamoq-yamoq holda tilanchilik qilib yuribdi. Uning ayanchli ahvolini ko'rib, yuragim achidi, lekin shu holatida uni ta'na-malomat qilib, yarasiga tuz sepishni ep ko'rmadim. Keyin o'z-o'zimga dedim:

«Past-nodon mastlikda o'ylamas aslo
Ne kechar ahvoli yo'qlik kunida.
Bahorda bargi mo'l daraxtlar nochor
Yalang'och qolar qish izg'irinida».

HIKOYAT

Bir podshoh o'g'lini bir murabbiyga topshirib, dedi: «Bu sening farzanding, o'z farzandlaringning biriday bilib tarbiyala». Murabbiy ta'zim bajo keltirib, bolani qabul qildi. Bir necha yil zo'r tirishqoqlik bilan o'qitdi, o'rgatdi, lekin shahzoda odam bo'lmadi, murabbiyning o'z farzandlari

esa, ilm-fan va fazlu odobda barkamol bo'lib yetishdilar. Podshoh murabbiyni koyib, dedi: «Sen ahdingni buzding, va'daga vafo qilmading!» Murabbiy dedi: «Podshohimning aziz xotiralaridan pinhon qolmag'aykim, tarbiyalari bir xil edi-yu, lekin tabiatlari har xil ekan!»

Tilla-kumush bari chiqsa ham toshdan,
Barcha toshda oltin bo'lmog'i gumon.
Suhayl nur sochadi har yoqqa birdan,
Bir yerda charmu bir yerda saxtiyon.

HIKOYAT

Ko'rdimki, bir badaviy (sahroyi arab) o'g'liga shunday derdi: «Ey o'g'lim, qiyomat kuni sendan: «Otang kim?» deb emas, «Qanday hunaring bor?» deb so'raydilar».

Ka'ba yopqichini o'pishar ekan,
Ipak qurt tufayli bo'lmadi ulug'.
Bir necha kun bo'ldi aziz egnida,
Shuning bilan bo'ldi o'zi ham qutlug'.

HIKOYAT

Donishmandlarning yozishlariga qaraganda, chayon barcha jonivorlardan boshqacha tug'ilar ekan, onasining ichak-chavoqlarini yeb, qornini teshib chiqarkan-u, sahroga qarab qocharkan. Inidagi po'stlar ona chayonning qoldiqlari ekan. Bir kuni bir valiy odamning huzurida shu xususda gapirdim. U zot dedi: «Mening ko'nglim shu gaplarning rostligiga guvohlik beradi, chunki boshqacha bo'lishi ham mumkin emas, bolalikda onalariga shunday muomalada bo'lganlari uchun katta bo'lganlarida ularni hamma «yaxshi ko'radi» va «hurmat qiladi».

O'g'liga otasi qildi vasiyat:
«Baxtiyor bolam, quy qulog'ingga pand —
O'z eliga vafo qilmagan kishi,
Na sevimli bo'lur va na donishmand».

MASAL

Chayondan so'radilar: «Nima uchun qishda iningdan chiqmaysan?» Chayon javob berdi: «Yozda chiqib nima obro' ko'rdimki, yana qishda chiqsam!»

HIKOYAT

Bir darveshning xotini homilador edi, oy-kuni yaqinlashib qolgandi. Darvesh umrida farzand ko'rmagan edi. «Basharti, Ollohi taolo menga bir o'g'il ato qilsa, egnimdagi xirqamdan boshqa barcha molimni faqirlarga in'om qilaman», dedi. Ittifoqo o'g'il ko'rdi va ahdi bo'yicha bor-u yo'g'ini faqirlarga berdi.

Bir necha yil Shom safarida yurib qaytgach, boya-gi darveshning mahallasiga borib, uning hol-ahvolini so'radim. Odamlar uning shahar zindonida yotganini aytdilar. Men zindonga tushishining sababini so'radim. Bir kishi dedi: «O'g'li ichib mast bo'lib, bir odamni o'ldirib qochdi. O'g'lining jinoyati uchun otaning bo'yniga zanjir, oyog'iga kishan soldilar». Men dedim: «Bu kulfatni uning o'zi xudodan tilab olgan edi!»

Hushyor kishi xotinin bo'yida bo'lib,
Yaramas bir bola tug'ilsa hamon —
Oqil nazdida u boladan ko'ra
Tug'ilgani yaxshi zaharli ilon.

HIKOYAT

Yosh bolaligimda bir katta yoshli odamdan balogʻatga yetish nishonasini soʻradim. U shunday javob berdi: «Kitoblarda uch belgisi bor deb yozadilar: birinchisi, oʻn besh yoshga kirish, ikkinchisi, ehtilom boʻlish, uchinchisi esa, oldida tuk paydo boʻlmoq. Ammo haqiqatda faqat birgina belgisi bor, u ham boʻlsa: oʻz nafs qaydida xizmat qilgandan koʻra koʻproq xudo yoʻlida xizmat qilishdir. Kimdakin shu sifatdan bebahra ekan, uni balogʻatga yetgan, deb boʻlmaydi».

Qatra odam suratiga kiradi butkul,
Qirq kun ona qornida topsa oromin.
Agar qirq yoshlikning boʻlmasa aqli,
Unga berib boʻlmas insonlik nomin.

Javonmardlik, karamdir odamiylik,
Dema odam agar bir surati bor.
Hunar lozim, naqshni chizsa boʻlgʻay
Devorlarga boʻyoqlar pushti, zangor.

Agar boʻlmas ekan fazl-u hunar hech
Bilib boʻlmas odammi, naqshi devor.
Bisot, mol qoʻlga kirgizmoq hunarmas,
Qoʻlingdan kelsa bir dil ovla, e yor.

HIKOYAT

Bir safar ziyoratga ketayotgan piyoda odamlar orasiga nizo tushdi. Shu safar asnosida kamina ham piyoda edim. Rostini aytsam, biz juda jiddiy mushtlashar, bir-birimizning yuz-koʻzimizga ayamay musht tushirar edik. Shunda kaja-vada ziyoratga ketayotgan bir kishining oʻz hamrohiga ayt-

gan gapini eshitdim: «Ajabo, shaxmat piyodasi xonalardan o'tib, boshdagi marraga yetsa, farzin yana avvalgidan yaxshi bo'ladi, bu hajga ketayotgan piyodalar esa sahrani kesib o'tgandan keyin, avvalgidan ko'ra beshbattarroq bo'ldilar!»

Zulm ila xalq terisin shilgan o'shal hojiga
Mening nomimdan borib ikki og'iz so'z degin:
«Sen hoji emas, balki hoji erur bu tuyang,
Chunki tikan ovqati, ko'tarar odam yukin».

HIKOYAT

Bir hindi neft yoqib otishni mashq qilardi. Bir dono uni ko'rib, dedi: «Uying yasalgandir qamishlar bosib, bu o'yin emasdir senga munosib».

So'z ayni savobligin bilmaguncha gapirma,
Unga soz javobligin bilmaguncha gapirma.

HIKOYAT

Bir kishining ko'zi og'rib qoldi, u baytor (mol doktori)-ning oldiga borib: «Ko'zimni davola», dedi. Baytor qoramollarning ko'ziga quyadigan doridan quydi. Bemorning ko'zi ko'r bo'lib qoldi. Ular janjallashib qozining oldiga bordilar. Qozi dedi: «Baytorda ayb yo'q. Agar bu bemor eshak bo'lmasaydi, baytorning oldiga bormasdi».

Ushbu hikoyatdan maqsadim shuki, har kimsa bilimsiz odamga katta ishni topshirsa, oxirida pushaymon bo'ladi va donolar nazdida tentak sanaladi.

Buyurmas aqllik kishi hech mahal
Tamizsiz kishiga muhimroq bir ish.
Bo'ya to'qigan ham to'quvchi, lekin
Qo'lidan kelarmi ipak ish to'qish.

HIKOYAT

Bir yili Balxdan Bomiya safariga chiqdim. Yo'llarda qaroqchilar ko'p bo'lib, juda xatarli edi. Bir yigit yo'l boshlovchi tariqasida bizga hamroh bo'ldi. U qilichboz, kamonandoz yigit shu qadar zo'ru zabardast ediki, o'n kishi bir bo'lib uning kamoni tortmasdi, eng zo'r pahlavonlar uning yelkasini yerga tegizishdan o'jiz edilar. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, u noz-ne'matlar orasida o'sgan, soya-parvar, umrida hech nimani ko'rmagan, safar mashaqqatini chekmagan, bahodirlarning jang-u jadal asnosida chalinadigan nog'oralari sadosini eshitmagan va suvoriylar qilichining chaqmoqday yaraqlashini ko'rmagan edi.

G'animlar qo'lida asir bo'lmagan,
Atrofida o'qlar yomg'ir bo'lmagan.

Ittifoqo, u yigit bilan ikkalamiz ketma-ket borardik. U kuchini namoyish qilish uchun ro'para kelgan qadimiy devorlarni urib ag'darar va azim tup daraxtlarni ildizi bilan qo'porib tashlab g'urur bilan derdi:

Fil qani, pahlavon qo'llarga boqsa,
Sher qani, bu mardon qo'llarga boqsa?

Biz shunday ketayotgan mahalimizda ikki hindi biz bilan jang qilish niyatida tosh ortidan boshlarini chiqardilar. Ulardan birining qo'lida so'yil va ikkinchisining qo'ltig'ida esa to'qmoq bor edi. Yigitga dedim: «Nimaga qarab turibsan?»

Mardligu kuchingni ko'rsatgil, dushman —
Ajral kelur o'zi oyog'i bilan.

Ko'rdim, kamon yigitning qo'lidan tushdi va a'zoyi badani qaltiray boshladi.

Qalqonteshar o'q ila qilni bo'lgan har kim ham
Jangchilar hamlasiga eta olmaydi chidam.

Molimiz, qurol-yarog'imiz va kiyim-kechagimizni qaroqchilarga topshirib, jonimizni xalos etishdan o'zga chora topmadik.

Qiyin ishga ko'pni ko'rgan odamni yubor,
Tashlay olsin quturgan sher bo'yniga arqon.
Tajribasiz yosh, bo'lsa ham qudratli, filtan
Qirg'in jangda qo'rquvidan chiqib ketar jon.
Jangda pishgan urush yo'lin biladi aniq,
Dono kishi qonunlarni bilgandek oson.

HIKOYAT

Bir boyvachchani ko'rdim, otasining qabri ustida o'tirib bir kambag'alning o'g'li bilan munozara qilib, derdi: «Otamning qabri toshdan, yozuvlari zarrin, ustiga marmartosh qo'yilgan va firuza bilan koshin qilingan. Sening otangning qabriga sira o'xshashlik joyi bormi? Otangning qabriga bir necha dona g'isht qo'yib, bir-ikki hovuch tuproq tashlangan, xolos». Kambag'alning o'g'li uning bu so'zlarini eshitib, dedi: «Sening otang bu og'ir toshlar ostida qimirlaguncha, mening dadam jannatga yetib borgan bo'ladi».

Yuki qanchalarki oz bo'lsa eshak
Yurishi yengilroq bo'ladi beshak.
Faqirlik yukini ko'targan odam
O'lim eshigiga boradi yengil.

Ne'matga g'arq bo'lib yashagan kishi —
O'limi barchadan og'ir bo'lur, bil.
Banddan ozod bo'lgan asir holidan
Bandga tushgan amir ahvoli mushkul.

HIKOYAT

Men bir donishmanddan: «Eng ashaddiy dushmaning —
ikki kifting orasida joy olgan nafsingdir», degan hadisning
ma'nisi nima?» deb so'radim. Donishmand shunday javob
berdi: «Ma'nosi shuki, har bir dushmanga ehson qilsang, u
senga do'st bo'ladi, illo nafs degan narsaga qancha iltifot
qilsang, adovatini shuncha oshiraveradi».

Maromida ovqat yegan farishta bo'lur,
Hayvon kabi yesa tushar og'ir tosh misol.
Kim istagin bajo qilsang amringga tobe,
Nafs aytganin qildingmi, bo'ysundirmoq mahol.

SAKKIZINCHI BOB

SUHBAT QOIDALARI BAYONI

Umr mol-mulk to'plash uchun emas, balki mol-mulk
osuda hayot kechirish uchundir!

Bir oqildan so'radilarki: «Kim baxtiyoru kim baxt-
siz?» Oqil dedi: «Baxtiyor — yeb-ichadi, ekadi; baxtsiz —
yig'ib-yig'ib o'lib ketadi».

Hech kimga hech ish qilmagan nokasni etma hech duo,
Mol yig'ish birla ovora bo'ldi-yu, ketdi yemay.

* * *

...Ikki toifa odam behuda ishlab, behuda harakat qilgan
bo'ladi: biri mol-mulk yig'ib, foydalanmagan va ikkinchisi
esa, ilm olib unga amal qilmagan odam.

Harchand o'qibsan, bilimdonsan,
Agar amal qilmading, nodonsan.
Ustiga kitob ortilgan eshak,
Na olim va na donodir beshak.

Bu miyasiz qaydan topadi xabar,
Ustida o'tinmi, yo kitob-daftar?

* * *

Ilmiga amal qilmagan olim mash'ala ko'targan ko'rga
o'xshaydi!

Kimki, befoyda umrin o'tkazdi,
Hech narsa olmasdan, oltin ketkazdi.

* * *

Uch narsa mangu bo'lmaydi: «Mol — savdosiz, ilm —
bahssiz va davlat — siyosatsiz».

Yomonlarga shafqat qilish — yaxshilarga zulmdir, zo-
limlar zulmini afv etish — faqir fuqaroni ezishdir.

Yaramasga rahm etib, erkalasang nogahon,
Mamlakating ichra u jinoyat qilur yomon.

* * *

Podshohlarning do'stligi va bolaning xushovozligiga
ishonib bo'lmaydi. Chunki podshohning do'stligi bir shub-
hada, bolaning xushovozi esa bir kechada o'zgaradi.

Ming oshiqli ma'shuqaga berma ko'ngil,
Diling bersang tagi bilan uzib bergil.

* * *

Har bir siringni do'stingga aytaverma. Ajab emaski, bir
vaqt kelib senga dushman bo'lib qolar, dushmaningga har

qanday yomonlikni ravo ko'raverma, ajabmas bir kun sen bilan do'stlashsa. Yashirmoqchi bo'lgan siringni eng yaqin do'stingga ham aytna, chunki har bir do'stingning do'sti va do'stining ham do'sti bordir.

Birovga sir aytib, saqla degandan,
Dil sirin hech kimga aytmagan ma'qul.
Ariq toshib ketsa, bog'lab bo'lmaydi,
Suvni eng boshidan qaytargan ma'qul.
Bekitiqchi so'zni aytib bo'lmaydi,
Har majlisda aytib, qaytib bo'lmaydi.

* * *

Zaif dushman itoat izhor etsa, buni zo'r dushmanga aylanib olish maqsadida qiladi. «Do'stlarning do'stligiga e'timod yo'q», deyдилar, bas, shunday ekan, dushmanning xushomad qilishining qanday e'tibori bor! Zaif dushmanni nazar-pisand qilmagan kishi ozroq olovni beparvolik bilan tashlab ketgan odamga o'xshaydi.

* * *

Ikki dushman orasida shunday so'zlaginki, basharti, ular do'stlashib ketgan taqdirlarida sharmanda bo'lib qolmagaysan.

Ikki kishi adovatin o't desak agar,
O'tin tashib turuvchidir badbaxt ig'vogar.
Qayta totuv bo'lishganda bu ikki ko'ngil,
U bo'ladi baxtiqaro, sharmanda, xijil.
Kim boshqalar orasiga tashlasa olov,
Aqlsizdir, faqat o'zi yonadi lov-lov.

Do'st-la so'zlashsang ham bo'lgil ehtiyot,
Dushman qulog'iga yetishmasin, boq.

Devor ichra har ne desang hushyor bo'l,
Devor orqasida bo'lmasin quloq.

Har kimki dushmanlari bilan yarashsa, do'stlariga ranj-
alamni ravo ko'rgan bo'ladi.

Agar dushman bilan birga o'tirsa, do'st emasdir u,
Uningdek do'stdin, ey oqil odam, tezroq qo'lingni yuv.

* * *

Bir ishni boshlashga kirishar ekansan, ozorsizroq tarafi-
ni tanla.

Xushxulq kishiga qattiq gapirma,
Sulh istab kelsa, jangga chaqirma.

* * *

Modomiki, ish pul bilan anjomiga yetar ekan, jonni
xavf ostida qoldirmoq aqldan emasdir. Arablar deydilar:
«Qilich — eng so'nggi hiyladir».

Qo'ldan kelgan hamma choradan keyin,
Qo'lga qilich olsang ravo bo'ladi.

* * *

Zaif dushmanga rahming kelmasin, chunki qurbi yetsa,
u senga rahm qilmaydi.

Yovni zaif ko'rganda g'ururlanma hech qachon,
Har danakning mag'zi bor, har libosda bir inson.

* * *

Kimki yovuz odamni o'ldirsa, xalqni uning balosidan,
uni esa xudoning jazosidan xalos etgan bo'ladi.

Rahmdillik odamga oliy xulq, ammo —
Dilozor yarasiga qo'ymagil malham.
Aylama rahm-shafqat ilon-chayonga,
Bundan ozor topar farzandi odam.

* * *

Dushman nasihatini qabul etmak xato bo'lsa-da, lekin
nasihatiga quloq solmoq ravodir, chunki uning aytganining
aksini qilsang, to'g'ri ish tutgan bo'lasan!

Dushmaning ko'rsatgan yo'liga yurma,
So'ng pushaymon bo'lib, tizzangga urma.
Senga o'qdek to'g'ri yo'l ko'rsatgan on,
Sen undan burilib, yurgil chap tomon.

* * *

Haddan ziyoda g'azab vahimaga soladi va o'rinsiz qilini-
gan mehribonlik izzatingga nuqson yetkazadi. Kishilar yuz
o'girib ketadigan darajada qattiq qo'l ham, oyoq osti qilib
yuboradigan darajada muloyim ham bo'lma!

Bo'lsin qattiqligu yumshoqlik boham,
Tabib ham kesaru, ham qo'yar malham.
Dono kishi qattiq bo'lmaydi doim,
Qadri ketar bo'lsa hamon muloyim.
Kibru dimog'dorlik qilmas ixtiyor,
Ammo o'zini ham hech aylamas xor.
Cho'pon der otasiga: «Ey xiradmand,
Degil ta'limima pirona bir pand».
Dedikim: «Xushfe'llik qilma chandon,
Bo'rilar bo'lmasinlar tez dandon».

* * *

Badfe'l odam shunday bir dushman qo'liga giriftorki,
qayerga bormasin uning changalidan xalos bo'la olmaydi.

Badfe'l odam balodan qochib, uchsa osmona,
Xalos bo'lmas, o'z fe'li changalida giryona.

* * *

Dushman safi parokanda bo'lsa xotirjam bo'l, ular bir-
lashsa, o'z safingda parishonlik yuz berishidan ehtiyot bo'!

Agar dushman aro bo'lsa nizo, jang,
Borib do'stlar bilan xotirjam o'ltir.
Magar ko'rdingki, yovlarning tili bir,
Kamon tort, qal'aga g'isht-tosh keltir.

* * *

Barcha hiylalari barbod bo'lgan dushman o'zini do'st
qilib ko'rsatishga chalishadi, do'st bo'lib olgach, shunday
ishlar qiladiki, buni hech qanday dushman ham qilolmaydi.

* * *

Ilonning boshini dushman qo'li bilan yanchishga hara-
kat qil, shunda ikki nafdan biriga ega bo'lasan. Agar dush-
man g'olib chiqsa, ilonni o'ldirgan bo'lasan, basharti, ilon
g'olib chiqsa, dushmaningdan qutulasan!

Ma'raka kun g'aflatda qolma zaif dushmandan,
Sher miyasin qoqadir, kim uzsa umid jondan.

* * *

Birovning ko'nglini ranjitadigan xabarni eshitgan
bo'lsang, sukut qil, toki boshqa odam aytsin!

Bulbulo, keltir bahor xabarin,
Boyqushga qo'ygil yomon so'z barin.

* * *

Xudbinga nasihat qiladigan odamning o'zi nasihatga muhtojdir!

* * *

Dushmanning hiylasiga aldanma va maddohning maqtovini bir pulga olma, chunki biri, makr tuzog'ini qo'ygan va ikkinchisi, tama' etagini ochgan bo'ladi.

So'yilgan hayvonning pochasidan puflasa shishganiday, ahmoqqa ham maqtov xush yoqib, semiradi.

Ishonmagil maddoh, so'zamollarga,
Zarracha naf uchun seni madh etar.

Bir kuni murodin hosil etmasang,
Ikki yuzdan ortiq ayb sanab ketar.

* * *

So'zlayotgan kishi so'zidagi nuqsonni boshqa bir kishi ko'rsatmagunicha so'zi xatodan xoli bo'lmaydi.

Maqtov nodonlardan, gumon o'zingdan
Bo'lur, g'ururlanma go'zal so'zingdan,

Juhud va musulmon qilardi janjal,
So'zlaridan kulгим qistadi chunon:
«Juhud bo'lay agar, ey xudovando,
Ahdim chin bo'lmasa», derdi musulmon.
Juhud der: «Tavrotga ichayin qasam,
Sendek muslim bo'lay, ahdim buzgan on».
Yer yuzidan aql o'chib ketsa ham,
Hech kim bilmas ekan o'zini nodon.

* * *

O'n odam bir dasturxon ustida taom yeydi, lekin ikki it bir o'limsa ustida chiqisha olmaydi. Ochko'z odam butun jahon moliga ham to'yamaydi, qanoatli odam esa bir non bilan ham to'qdir. Donishmandlar demishlar: «Mol-mulk to'plab boy bo'lgandan ko'ra, qanoatda boy bo'lgan yaxshidir».

Odamning tor ichagin bitta non to'ldirar, bas,
Butun olam ne'mati och ko'zni to'ydirolmas.

* * *

Kimki qudratli bo'lgan davrida yaxshilik qilmasa, boshiga ish tushganida mashaqqat ko'radi.

Mardumozordan badbaxtroq kim bor?
Musibatda qolsa kim bo'ladi yor?

* * *

Tez bitgan ishning baqosi bo'lmas.

Eshitdim, Mashriqda bir chinni kosa,
Qirq kunlik mehnatda ochilur naqshi.
Mardoshda yasashar kunda yuz dona,
Qiymatini o'zing bilasan yaxshi.

Tuxumdan chiqiboq izlaydi rizqin qushning bolasi,
Odamning bolasi tug'ilganida beaqlu tamiz.
Ul birdan aqlli ko'ringan bilan topmadi kamol,
Bu esa fazlda hamma narsani cho'ktiroidi tiz.
Har joydan topasan oyna sinig'in, shuning-chun beqadr,
La'lni-chi, qo'lga kiritmoq dushvor, shuning-chun aziz.

* * *

Har ish sabr bilan qilinadi, shoshilgan odam pushaymon bo'ladi.

Cho'lda o'z ko'zlarim bilan ko'rganman,
Yo'lda qolib ketar shoshqaloq odam.
Shamoldek samanlar chopib toladi,
Sorbon bir me'yorda tashlaydi qadam.

* * *

Nodon uchun sukut saqlashdan yaxshi narsa yo'q, agar
u shu maslahatni qulog'iga olganda edi, nodon bo'lmagan
bo'lardi.

Kamolu fazldan bebahra bo'lsang,
Og'zing ocha ko'rmay tilingni tiygil.
Odamning o'z tili qilur sharmanda,
Puch yong'oqning vazni kelgandek yengil.

Bir ahmoq eshakni so'zga o'rgatmoq
Bo'lib, sarf aylardi ko'p vaqt-u, ko'p kuch,
Bir donishmand dedi: «Ta'naga qolma,
Ey ahmoq, behuda urinishdan kech.
Yaxshisi, sen undan sukutni o'rgan,
Hayvon gapirishga o'rganarmi hech?»

Kimki, andishasiz so'zlasa javob,
So'zi e'tiborsiz, chekar iztirob.

Yo o'ylab so'zlagil inson misoli,
Yo jim turaver hayvon misoli.

* * *

Har kimiki, meni bilimdon ekan, deb o'ylasinlar degan
maqsadda o'zidan donoroq odam bilan bahslashsa, o'z
nodonligini namoyish qilgan bo'ladi.

So'zlar ersa sendan kattaroq biroz,
Yaxshiroq bilsang-da, qilma e'tiroz.

* * *

Yomon bilan yurgan yaxshilik ko'rmaydi.

Farishta o'ltirsa dev bilan agar,
O'rganar vahshatu nayrang, xiyonat.
Yomondan yaxshilik o'rganib bo'lmas,
Bo'ri po'stindo'zlik qilurmi odat?
Chodirda qomati ajib jonona,
Ochib boqsang unda kekxa bir ona.

* * *

Ilm olib amal qilmagan odam — yerni shudgorlab urug'
sochmagan dehqonga o'xshaydi.

* * *

Surati go'zal bo'lgan odamning axloqi ham go'zal
bo'lavermaydi. Ish suratda emas, ko'ngildadir.

Odamning ustiga qarab bir kunda,
Ilmu darajasin bilsa bo'ladi.
Va lekin dilidan bo'lma xotirjam,
Yillar o'tib bir kun oshkor qiladi.

* * *

Arslon bilan panjalashmoq va qilichni musht bilan rad
etishga urinmoq — oqillarning ishi emas.

Sherga aylamagil gushnalik janjal,
Qo'ling qo'ltiqqa ur, sher chiqqan mahal.

* * *

Zo'r odam bilan olishgan zaif kishi o'z halokati yo'lida
dushmanga ko'maklashgan bo'ladi.

Soyaparvar kuchni qaydan oladi,
Bahodirlar bilan urishmoq uchun.

Sust panja olishar nodonligidan,
Bukolmas u temir panjalar kuchin.

* * *

Sayoq itlarning ovchi itlarni ko'rishga ko'zi bo'lmagani singari, hunarsizlar ham iste'dodli odamlarni yomon ko'radilar. Sayoq itlar ovchi itlarni ko'rganlarida akillab, g'avg'o qo'poradilaru, lekin oldiga borishga yuraklari dov bermaydi, shunga o'xshash, razil odamlar ham yaxshilik qilishda biror kishi bilan bellasha olmaganlaridan keyin, g'iybat, bo'hton qilishga kirishadilar.

Qo'li qisqa hasadchi qilur g'iybat, qilu qol,
Chunki kelsa ro'baro', tili bo'lur gungu lol.

* * *

Oldidagi dushmanni o'ldirmagan kishi o'ziga dushmandir.

Qo'lda tosh bo'lsa-yu, tosh uzra ilon,
Jinoyat bo'ladi urmasang shu on.

Ba'zilar esa bu fikrning aksini aytadilar. Ular deydilar: «Asirlarni o'ldirishda sabr qilmoq durustroqdir, chunki ixtiyor qo'lingda, istasang o'ldirasan, istasang afv etasan, lekin o'ylamasdan, shoshilinch ravishda o'ldirib yuborsang, ehtimolki, bir ezgu ish xarob bo'lgan bo'lar-u, uni qaytarishning iloji bo'lmas, pushaymon qilishga to'g'ri kelar.

Tirik jonin olish oson bo'lar hal,
O'lik tirilmaydi qayta hech mahal.
O'qchida sabr o'lsa, aqldan nishon,
Kamonga qaytmaydi uchgan o'q hech on.

* * *

Johil bilan bahslashgan olim izzat umid qilmay qo'ya qolsin. Basharti, johil bahslashuvda olimdan ustun chiqsa, ajablanarlik yeri yo'qdir, chunki hamisha tosh gavharni sindiradi.

Zog' bilan bir bo'lsa bulbul qafasi,
Ne ajab ichiga tushsa nafasi?

Oqilga past kishi ko'rguzsa jafu,
Ko'p alam chekmasin bo'lib dilsiyu.
Arzon tosh sindirsa zar kosani gar,
Tosh narxi oshmaydi, pastga tushmas zar.

* * *

Dononing ahmoqlar davrasida sukut etishga majbur bo'lishi ajablanarli emasdir, chunki hamisha nog'ora ovozi tanbur ovozini eshittirmay qo'yadi va sassiq sarimsoq hidi anbar isini bosib ketadi.

Dononi sharmanda qildim-ku, deya,
G'ururga berilmish maqtanchoq nodon.
Bilmaski, nog'ora ovozi doim
«Hijoz» kuyin bosib ketadi oson.

* * *

Gavhar loyga tushsa ham avvalgidek qimmatbaho, chang osmonga ko'tarilganida ham qadrsizdir.

* * *

Attor maqtagan narsa mushk emas, balki xush bo'y tarqatadigan narsa mushkdir. Dono attorning do'koniga o'xshaydi. Sukut qilib o'z bilimini namoyish qiladi, johil esa nog'ora kabi, gumburlaydi-yu, lekin ichi bo'shdir.

* * *

Bir umrga ega bo'linadigan do'stni bir lahzada xafa qilish yaramaydi.

Toshdan kichik la'l bo'lurga lozim necha yil,
Toshga urib bir nafasda sindirma chil-chil.

* * *

Oz-oz yig'ilib ko'p bo'lur, toma-toma ko'l bo'lur, ya'ni zaif odamlar mayda toshlarni yig'ib saqlaydilar va fursat keldi deguncha zolimning boshini majaqlaydilar.

Qatra-qatra ustig'a jam bo'lsa, u bo'lgay nahr,
Nahr ustig'a nahr kelsa bo'lur dengiz axir.

Oz-ozdan yig'ilib bo'ladi bisyor,
Dona-dona g'alla to'ldirur anbor.

* * *

Olim avomning sahvu xatosi yonidan muloyimlik bilan o'tib ketmasligi lozim, chunki bu har ikki taraf uchun zararlidir: olimning izzatiga putur yetadi, avomning jaholati chuqurlashib ketadi.

Past odamga muomalang bo'lsa bo'sh,
Manmanligi ortib, uchar aqlu hush.

* * *

Shaytonga mansub bo'lgan gunoh kim tomonidan sodir bo'lsa-da, nomaqbuldir! Chunki ilm shaytonga qarshi bir quroldir va qurol sohibi bo'lgan odam dushmanga asir tushsa, sharmandalik yanada beshbattar ortgan bo'ladi.

Bo'lsa johil mahrumu kalta aql,
Yaxshiroqdir beamal olimdan ul.

Toydi yo'ldan, chunki u ko'zsiz so'qir,
Bul yiqilmish choh aro ko'zlarda nur.

* * *

Kimningki tirikligida nonini yemagan bo'lsalar,
o'lganidan so'ng nomini tilga olmaydilar.

* * *

Uzumning lazzatini bog'bon emas, balki faqir beva xotin biladi.

* * *

Yusuf payg'ambar Misrda qahatchilik bo'lgan yili ochlarni unutmash uchun to'ygunicha ovqat yemagandi.

Kimki, ne'mat ichra aylaydi umr,
Unday odam ochlar holin ne bilur?
Ojiz ahvolin tushungay shul odam,
Gar o'zi ham bo'lsa hayron dam-badam.

Chopqir ot ustida o'ltirgan kishi, hushyor boq,
Xas-tikan ortgan eshak botqoqqa botmishdir shu choq.
Kirma qashshoq qo'shning uyiga olov-otash uchun,
Mo'ridan chiqqan qaro dud ohi zoridin tutun.

* * *

Qahatchilik yilida qiynalib qolgan faqirning yarasiga malham va qo'lga biroz pul bera oladigan bo'lsanggina undan «holing qalay?» deb so'ragin.

Ko'rib botqoqqa botgan jonivorni,
Yurakdan rahm etu boshig'a borma.
Agar borsangu ahvolini so'rsang,
Beling bog'lab, dumin tort, dam chiqorma.

* * *

Ibodati qiluvchi avom — yo'l yurgan piyodaga va sust-kash olim esa yo'lida uyquga ketgan otliqqa o'xshaydi.

* * *

Afv so'rovchi gunohkor g'ururlanib ketgan taqvodordan yaxshiroqdir.

Ulamo, eshonlar bo'lsa dilozor,
Xushxulq askar undan yaxshidir yuz bor.

* * *

Bir odamdan: «Ilmiga amal qilmagan olim nimaga o'xshaydi?» deb so'radilar. U javobida: «Bolsiz asalariga o'xshaydi!» dedi.

* * *

Bemuruvvat, xunuk ariga aytg'il:
«Asal bermasang ham nishingni sanchma».

* * *

Sulton in'om qilgan libos izzatli bo'lsa-da, lekin o'zingning nimdosh kiyiming undan ko'ra izzatliroqdir. Ulug'larning dasturxonini laziz bo'lsa-da, lekin kishining o'z to'rvasidagi noni undan ko'ra lazizroqdir.

O'zing topib yegan sirkayu piyoz
Oqsoqolning nonu barrasidan soz.

* * *

Tusmol bilan dori ichmoq va karvonsiz notanish yo'lga chiqmoq — oqillar ra'yiga xilof ishdir.

* * *

Imom G'azzoliydan: «Ilmda bunday yuksak darajaga qanday yetishding?» deb so'radilar. U: «Bilmagan narsamni so'rab o'rganishdan uyalmadim», dedi.

Tabibga ko'rsatmay kasal tomirin,
Tuzalmoq xayoli xomdir, hushyor bo'l.
Bilmaganing so'ra, so'rash nomusi
Bilki bilimdonlik va hurmatga yo'l.

* * *

Har kimki yomonlar bilan oshnachilik qilsa, agar ularning yomonliklari unga ta'sir etmasa-da, yomonlar singari shubha ostida qoladi, namoz o'qigani vayronaga kirsas, ichkilik ichishda aybdor qilinadi.

Nodon qatoriga qo'shasan o'zing,
Agar bo'lsang nodon ulfatga hamdam.
Donodan bir pandu nasihat so'rdim,
Dediki: «Nodonga qo'shilma hecham.
Agar dono bo'lsang, ahmoq bo'lasan,
Yo'qsa nodonlig'ing ortar yana ham».

* * *

Tuyaning yuvoshligi hammaga ma'lum va mashhurdir. U shu qadar yuvoshki, agar bir bola tizginidan tutib yuz farsang yo'l yursa ham itoatdan chiqmaydi. Lekin tahlikali daraga ro'para kelib, bola nodonlik bilan o'sha tomonga yurmoqchi bo'lsa, uning qo'lidan tizginini shartta yulqib oladi-yu, ortiq unga itoat etmay qo'yadi, chunki qattiq qo'llik qilish lozim bo'lgan mahalda ko'ngilchanlik qilish durust emasdir. Shunday bir maqol bor: «Itifot bilan dushman do'st bo'lmaydi, balki ta'masi yanada ortadi».

Lutf etgan kishining xoki poyi bo'l,
Dag'allik qilsa soch ko'ziga tuproq.
Dag'al kishilarga yumshoq gapirma,
Zang archolmas egov bo'lganda yumshoq.

* * *

Kimki o'z bilimdonligini ko'rsatmoq uchun boshqa odamning so'zini kessa, o'zining o'ta nodon ekanini namoyish qilgan bo'ladi.

Aqllik bo'lsa gar javob beradi,
Faqat undan savol so'ralgan zamon.
Garchi haq bo'lsa ham sergapning so'zi,
Gaplarin yolg'onga jo'yishar oson.

* * *

Libosim ostida bir yaram bor edi. Har kuni ustozim: «Yarang qalay?» deb so'rardi, lekin hech mahal «Yarang qayerda?» deb so'ramasdi. Shunda ustozim ataylab shunday savol berishdan o'zini olib qochayotganini angladim, chunki odob qoidasida kishi vujudidagi hamma a'zoning nomini ham tilga olinavermaydi. Donishmandlar deydilar: «Mulohaza qilmay savol bergan odam tahqirli javob oladi».

Gaping chinligini yaxshi bilmasdan,
Og'zing ochib aslo so'zga urma dam.
Yolg'on seni banddan qilsa ham xalos,
Rost gapirgil, agar bandda qolsang ham.

* * *

Yolg'on gapirmoq ham xanjar zarbi kabidir: jarohat tuzalsa-da, izi qoladi. Yusufning akalari yolg'onchilikda shuhrat topganlaridan keyin, ularning rost so'zlariga ham ishonch qolmadi...

Kimga odat bo'lsa rost gapirishlik,
Barcha ishonadi qilsa ham xato.
Yolg'onchilik bilan nomi chiqsa-chi?
Hech kim ishonmas rost gapiga hatto.

Koinotning eng buyugi zohiran inson va mavjudotlar orasida eng xor va pasti itdir. Lekin barcha donishmandlar bir og'izdan: «Qadr bilmas odamdan vafodor it yaxshidir», deydilar.

Keyin ursang hamki tosh bilan yuz bor,
It unutmaz bergan ovqating aslo.
Pastlarni bir umr erkalasangu
Sal qattiq gapirsang, boshlar mojaro.

* * *

Nafs ovarasi bo'lgan odamda hunar bo'lmaydi, hunar-siz odam rahbar bo'lishga yaramaydi.

Rahm qilma ho'kiz bo'lsa sertomoq,
Yotog'on bo'ladi ko'p yegan yutoq.
Magarki, ho'kizdek go'shtdorlik kerak,
Inson yukin tortmas misoli eshak.

* * *

Baxtiyor kishilar o'z ezgu ishlari ibrat tariqasida nasllar og'zida zikr etilganiga qadar o'zlaridan avval o'tganlarning yaxshi ishlaridan ibrat oladilar. O'g'rilar esa to'qo'llarini kesmagunlaricha o'g'irlik qilishdan qo'l tortmaydilar.

Qush tushmas pastdagi dona ustiga,
Tuzoq uzra ko'rsa o'zga bir qushni.
Boshqalarga ibrat bo'lmayin desang,
O'zing ibrat olib yuritgil ishni.

* * *

Oqibati voy bo'ladigan shoh bo'lishdan kelajagi porloq
gado bo'lgan yaxshi.

Shodlik oxirida g'am bo'lsa inoq,
Keti shodlik anduh undan yaxshiroq.

* * *

Osmondan yerga ne'mat yog'adi, yerdan osmonga
g'ubor ko'tariladi. Idishda nima bo'lsa, shu sizib chiqadi.

Mening fe'lim agar bo'lsa yaramas,
Sen o'z fe'ling qo'ldan chiqarmasang bas.

* * *

Oltin kondan qazib olinadi-yu, lekin baxildan joni bilan
qo'shib olinadi.

Xasislar na yemay, na ichmay deyar:
«Yeb-ichmakdan orzu yaxshi dunyoda!»
Bir kun dushmanlarin orzusi bilan
O'lib ketar, boylik qolar ziyoda.

* * *

O'zidan zaiflarga shafqat qilmagan odam o'zidan kuch-
lining zulmiga duchor bo'ladi!

Kuch-quvvatga ega har qanday bilak,
Ojiz qo'lin shartta uzmas qilichdak.

Solmagil zaiflar diliga alam,
Zo'rronning jabriga yo'liqma sen ham.

* * *

Olamda birinchi marta barmog'iga uzuk taqqan odam Jamshiddir. Undan so'radilar: «Nega hamma zeb-u ziynatni chap qo'lingga berding, vaholonki, fazilat o'ng tarafdadir». Jamshid javob berdi: «O'ng qo'ling — o'ng qo'l ekanining o'zi buyuk ziynatdir».

Faridun farmon etmish xitoy naqqoshlarig'a,
Tiking deb chodiringma ipak ila bir shior:
«Hushyor esang yomonga yaxshilik qil doimo,
Faqat yaxshi kishilar ulug'vor-u baxtiyor!»

* * *

Podshoh — zolimlar zulmini daf etish uchundir, mirshab kallakesarlar uchun, qozi esa o'g'rilarining kengashchisidir. Shuning uchun haq ishga rizo bo'lgan ikki da'vogar qozining huzuriga bormaydi.

Yaxshi bilsang berish kerak narsani,
Jahl qilmay bergil lutf ila xurram.
Kim xohishi bilan xiroj bermasa,
Kuch bilan olishar mirshab haqin ham.

* * *

Hammaning tishi nordon narsa yeyishdan qamashadi, ammo qozilarning tishlari shirin narsa yeyishdan qamashadi.

Qozi besh bodiring yesa gar pora,
Yuz poliz hukmiga topadi chora.

* * *

Ikki toifa odam bu dunyodan hasrat bilan o'tadi: biri, yig'ib-yig'ib yemagan, ikkinchisi, ilm olib, ilmiga amal qilmagan!

Fozil agar bo'lsa baxillik ishi,
Ertayu kech ta'na qilur har kishi.
Yuz gunohi bo'lsa karam sohibin,
Aybi yopilgaydir shu ehsonidin.

* * *

Ollohi taoloning madadkorligi bilan «Guliston» kitobi bitdi. Jumladan, aksar mualliflarda bo'lgan odatga xilof o'laroq bu kitobni bezash uchun o'zimdian avval o'tgan shoirlarning she'rlaridan qarz olib qo'shmadim.


O'z to'ningga solsang agar yuz yamoq,
O'zga to'nin so'ragandan yaxshiroq.

Sa'diy so'zlarining aksariyati quvonchbaxsh va hazil-omuzdir, shu sababdan kaltabin odamlar tillarini bir qarich qilib, shu kitobni o'qiyman, deb behuda miyani og'ritmoq va sham' dudini yutmoq oqil kishilarga munosib emasdir, deb ta'na-malomat qiladilar. Lekin ahli donishlarga ayon-dirki (bu so'zlar ham o'shalarga qarata aytilgandir), shifobaxsh nasihat injulari nozik iboralar ipagiga tizilmish va achchiq maslahat dorilari shirin hazil-mutoyibalar boli bilan qorishtirilmish, tokim insonning horg'inliqqa moyil tab'i uni qabul aylamoqdan mahrum qolmagay.

Joyida nasihat qildik har ishda,
Bir qancha umrimiz o'tdi bu ishda.
Birov qulog'iga yoqmasa tamom,
Xabarchidan xabar xullasi kalom.

Bu kitobga nazar tashlagan odam,
Rahmat tila menga, kechir o'zing ham.
Nimani foydali topsang tanlab ol,
So'ngra kotibni ham duo qil bir dam.





BO'STON

Forschadan

Chustiy tarjimasi

KITOBNING YOZILISH SABABI

Kezib qancha vaqt yurdim olamaro,
Umr o'tdi har turli odamaro.
Necha bahra topdim jahonni kezib,
Yurib qancha xirmondan oldim nasib.
Bu Sheroz elidek kishi ko'rmadim,
Bu pokiza yurtimga rahmat dedim.
Bu pok o'lkaning xalqi mehri bilan,
Dilimni uzib Shom ham Rumdan,
Ilindim u bo'stonlar ichra kezib,
Quruq bormayin do'stlar oldiga deb.
Misrdan keluvchida qandi bo'lur,
Sevikli kishisiga sovg'a qilur.
Qo'limda agar bo'lmasa qand ham,
So'zim bor, shakardan emas ta'mi kam.
Bu ul qand emas, kim, so'rib el yegay.
Kishi qog'oz ichra o'rab bormagay.
Bino qildim iqbol qasrini man,
O'n eshik ochib tarbiyat bobidan.
Biri fikru tadbir, adolat uchun,
Xudo yo'lida elga shafqat uchun.
Ochiq, elga ehsondan ikkinchi bob,
Saxi, qilsa, deb, shukru topsa savob.
Uchinchisi chin ishq chin zavq erur.
U xil ishq emas o'zni bog'lar bazo'r.
Beshinchi rizo, xulq to'rtinchisi,
Qanoatli mard zikri – oltinchisi.
Erur tarbiyat bobi – yettinchi bob,
Berur sakkizi tinchlikdan javob.
Erur to'qqizinchisi tavba, savob,

O'ninchi munojotu¹ – oxirgi bob.
Edi yozganimda saodatli yil,
Har ikki hayit o'rtasi erdi, bil.
Sana olti yuz elligu besh aniq,
Bu mashhur xazinamga dur to'ldi liq.

* * *

Eshit, e hunarmand – dono kishi
Emas ayb izlash hunarmand ishi.
To'ning xohi shohi va yo beqasam,
Tushar paxta gar narxi kam bo'lsa ham.
So'zimda agar topmasang tozalik,
Karam ayla, aybimni yop shohidek.
Bu fazlim uchun yo'q dilimda g'urur,
Tilak birla ilgim uzalgan erur.
Biror bayt qabul bo'lsa gar mingtadan,
Tiling ta'nadan tort mardlik bilan.
Bilurmanki, she'rim erur forsaro
Xo'tonda Xo'tan mushkidek kam baho.
Uzoqdan sadoyim bo'lib naysimon,
Edi ayblarim parda ichra nihon.
Olib keldi Sa'diy gulistonga gul
Ba yo Hind sori murch keltirdi ul,
Uning xurmodek go'shti yumshoq, shirin,
Chiqar donagi yorganingda ichin.
Xushomad menga hech yoqmas edi,
Dilim shoh madhiga boqmas edi.
Bag'ishlab sohibdilga, yozdim atay,
Tushungan kishi toki bunday degay:
«Zafar topdi Sa'diy bu maydonaro,

¹ Zamon taqozosi tufayli o'ninchi bob tarjima qilinmagan. (H.H.)

Ki Sa'd o'g'li Bo'bakr edi podshoh¹.
Biror g'am bilan dard chekib tolmasi,
Biror dard kelib noiloj qolmasi.
Ayo, Sa'diy, maqtovg'a berma davom,
Sadoqatni xizmatda ko'rsat mudom.
Yo'lovchi shahu yo'lni bilguchi sen
Agar uqsa chin so'zni qilguvchi sen.
Qizil Arslonga demak ne kerak –
Oyog'ingni ostida to'qqiz falak.
Demakim falak boshiga qo'y oyoq,
Yuzing yerga surgil desang yaxshiroq».

BIRINCHI BOB

MAMLAKATNI IDORA QILISH TADBIRI, ODILLIK HAMDA TO'G'RI FIKRLASH HAQIDA

Jahondan ketar paytda No'shiravon
Bu so'zlarni Hurmuzga etmish bayon:
«Hamisha g'ariblar dilin ovlagil,
Sen o'z rohating ko'zlagan bo'lmagin.
Agar rohatingni qilarsan havas,
Qo'l ostingdagilar sira tinchimas.
Aqllikka ma'qul emas hech qachon
Yesa qo'yni bo'ri, yotib qo'ychivon.
Chiqor hojatin hamma muhtojni,
Shular qo'ydi shoh boshiga tojni.
Daraxt bo'lsa shoh, xalq ildiz erur,
Bil, o'g'lim, tomir-la daraxt ulg'ayur.
Eling qalbin og'ritma, berma zarar,

¹ *Abu Bakr ibn Sa'd* – fors va ozarbayjon otabeklaridan.
1231-y.da taxtga o'tirgan. 1260 y.da. vafot etgan.

Qurur ildizing ranjisa el agar.
Agar istasang yaxshi yo'l, pok bo'l,
Umid ila xavf yo'lidir pok yo'l.
Agar bo'lsa har kimda tadbiru did,
Bo'lur unda albatta xavfu umid.
Bu fe'l ikkisin shohda topsang agar,
Panohida mumkin yashash bexatar.
Zarar bermagay elga, qilmas ziyon,
Zulmda kelur yurtga ofat debon.
Agar bo'lmasa bu iki xislati,
U yurt ichra yo'q kimsaning rohati.
Ketish chorasi bo'lmagay, sabr qil,
Agar tashvishing bo'lmasi turmagil.
U yurtda topolmaysan obodlik,
Agar elda yo'q shohidan shodlik.
Tushida ko'rar yurt obodligin,
Xarob aylagach yurtu elning dilin.
Yomonlik, xaroblik zulmdan kelur,
Ulug'lar buning ma'nisin xo'b bilur.
Sitam birla qatl etmoq elni ziyon,
Shular mamlakatda mador, soyabon.
Ko'mak ayla dehqonga foydang uchun,
Agar mardikor to'ysa ish soz u kun.
Emas mardlik – bersang unga zarar,
Senga yaxshilik qilgan ersa agar».

* * *

Eshitdimki Sheruyaga ushbu xil,
O'lim vaqti Xisrav dedi: «Yaxshi bil.
Nechuk ishni qilmoqqa etsang niyat,
Mudom el ishin yaxshilashga qarat.
Adolatli tadbirdan qochmagil,
Eling sendan, o'g'lim, uzolmaydi dil.

Sitamgardan ellar hamisha qochar,
Yomonliklarin elga yaqqol ochar.
O'zin tiklayolmaydi, vayron bo'lur,
Agar elga har kim yomonlik qilur.
Agar bo'lsa o'tkir tig'ing qanchalik,
Emas tul xotinning dilin ohidek.
Chiroq piligiday yonsa tul xotin,
Ko'rarsan o't olgay shaharni butun.
Jahon rohatida kim unga yetar,
Agar adl-u insof-la shohlik etar.
Jahondan o'tarkan yetib navbati,
Uni el degaylar xudo rahmati.
Yomon ham o'tar, yaxshi ham, yaxshi bil,
Seni yaxshi nom birla yod etsin el.
Senga do'st bo'lolmas agar qon yalab
Xazinangni to'ldirsa elni talab.
Agar bo'lsa boshliqdan elga azob,
Yig'ish maqsadi molu mulk behisob.
Yomonlik qiluvchi sitamgar o'tar,
Uni doimo xalq la'nat etar.
Sila yaxshi boshini, bermas ziyon,
Yomonga tarahhum – o'zingga yomon.
Sira siylamay, qir sitamgar izin,
Uning toza yulmoq kerak ildizin.
Zulm etguvchilarga berma omon,
Shilib po'stini aylagil benishon.
Sen avval kes ul bo'rilar kallasin,
Ular yormay el qo'ylarin hammasin.
Qadam qo'ymas ul joyga hushyorlar,
Yomon deb eshitsa u joyni agar.
Musofirni hurmatla, yaxshi qarab.
Diyorida so'zlar seni yaxshilab.
Ulug'lar musofirni sevsa agar,

Ulug' nomlariga bu olam to'lar.
Agar qaysi yerda g'arib xo'rlanur,
U xil mamlakat tezda vayron bo'lur.
G'arib do'sti bo'l hamda sayyohsevar,
Tashir yaxshi nomingni sayyohlar.
Musofir-la mehmonga sen yor bo'l,
Biroq bo'lmasin makri, hushyor bo'l.
Tanish bo'lmagandan hazar yaxshidir,
Ki do'stlik niqobida yov ham bo'lur.
Oshir qadrini bo'lsa kim qarddon,
Firib bermagay qarddon hech qachon.
Uzoq xizmat etsa oshir qimmatin,
Unutma hamisha uzoq xizmatin.
Qarilik yetib qolsa ishda agar,
Muruvvat qilib holiga sol nazar,
Eshitdimki Shopurga Xisrov sitam,
Qilib ermishu sabr qilmish u ham.
Tushib notavonlikka holi nuqul,
Dedi bu hikoyatni Xisrovga ul:
Adolatli shoh! Qolmasam garchi man
Jahonda qolursan fazilat bilan.
Yigitlikni sarf ayladim sen uchun,
Qarilikda holimni qilma zabun.
G'arib boshida bo'lsa fitna qator,
Uni qiynama, balki haydab yubor.
Sen unga azob bermasang ham bo'lur,
Yomon fe'li unga jazosin berur.
Xazinachi qilsa xiyonat agar,
Buyurgil nazoratchiga, tekshirar.
Agar til biriktirsalar har ikkov,
Barobar bo'shat ikkisin beayov.
Har ikkini bir joyda qo'ymoq xato,
Birikmoq bilan boshlagay yuz balo.

Kirib shoh saroyiga qildi salom,
Dedi baxtlisan, senga davlat g'ulom!
Unga shoh: «Qayerdan kelursan, dedi,
Na bor senda ayt, na bilursan, dedi.
Ne ko'rding, azizim, bu yurtim aro,
Yomon, yaxshisin, sen degil beibo».
U dediki: e shoh, bo'lib poydor,
Madadkor xudo bo'lsinu baxt – yor.
Qayu joydakim bunda men yurmadim,
Biror qayg'uli, g'amli dil ko'rmadim.
Sira ko'rmadim mastu devonani,
Faqat ko'z xarob ko'rdi mayxonani,
Bu xil yaxshi pokiza xulq, shahga bas,
Ko'ngil ranjitishga u rozi emas.
Debon har so'zida u sochdi zar.
Uning so'zlarin shoh maqbul bilib,
Yonidan o'rin berdi hurmat qilib.
Tashakkur etib, qildi ehson anga,
Dedi naslu yurtingni bildir manga.
Degach sarguzashtini boshdan-oyoq,
Yana hurmatu qadri oshdi shu choq.
O'zicha shoh o'ylar edikim shu dam,
Vazirlik ishini sen olgil shu choq.
Qilardi o'zi-la, o'zi maslahat,
Vazirlik shu odamga loyiq faqat.
Ba lekin bu mansabga asta-sekin –
Ko'tarmoq kerak, toki el kulmasin.
Kerakdir sinash avval aqlin, ishin.
Ulug'lash kerak qadrin undan keyin.
Solur g'am yugin dilga ko'p vaqtlar,
Firib ko'rsatib notanish hiylagar,
Kamondan nishonga o'q otmay turib,
Juda yaxshi mo'ljalga olgil ko'rib.

Uzoq vaqt o'tmay bilishlik qiyin,
Kishi aqlini-yu, uning kimligin.
Sinab ko'rdi shah oni har bobdan,
Ishondiki, xo'b yaxshi odam ekan.
Farosatli-yu, notiqu, pokdil,
Yomon-yaxshini bilguvchi-yu asil.
Fikrda ulug'lardan a'lo bilib,
Tayin etdi o'ng qo'l vaziri qilib.
Hamesha qilib himmatu ma'rifat,
Uning hukmi oldin yurardi faqat.
Butun mamlakat yurdi fikri bilan,
Sitam ko'rmadi hech kishi dastidan.
G'arazgo'y so'ziga o'rin qolmadi,
Tili bog'lanib hech so'z aytolmadi.
Yorug' qalbidan nurlar oldi u yurt,
Burungi vazir bag'riga tushdi qurt.

O'zining aqlu donishi bilan vazirlik mansabiga erisha olgan bu vazirga avvalgi vazir baxillik qilib, podshoh huzuridagi muvaffaqiyatlarini ko'ra olmasdan, unga dushmanlik qila boshladi. Lekin yangi vazirning ishidan biror nuqson topolmagach, nochor unga tuhmat qilib, qilinmagan gunohlarni unga to'nkay boshladi. Podshohga uning ustidan chaqimchilik qildi.

«Ibosiz yasharlar jahongashtalar,
Emas mulku davlatga loyiq ular.
Bu fikri buzuqlar yaroqsiz erur,
Ki shoh qasriga ta'nalar yetkurur.
Unutsam edim shoh tuzin men o'zim,
Xiyonatni ko'rsam yumardim ko'zim.
Gumon birla so'zlashni ep bilmadim,
Aniqlanmaguncha bayon qilmadim.

Qulimdan biri ko'rgan ermish uni,
Qucharmish ulardin birin qay kuni.
Dedim chin so'zu, shahdadur ixtiyor
O'zing imtihon qil, asos menda bor».
Uning sha'nini bulg'adi bu yomon,
Yomon, yaxshilik ko'rmasin hech qachon.
Kichik bir xato ko'rsa dushman agar,
Chaqib shohga, qattiq g'azablantirar.
Bir uchqun bilan mumkin o'tlar yoqish,
So'ng eski daraxtlarni ham yondirish.
Tutoqtirdi shahni bu so'z onchunon,
Toshib ketdi, qaynab, qozondek shu on.
G'azab, o'ldirishga cho'zardi qo'lin,
Vale sabru bardosh to'sardi yo'lin.
Emas mardlik o'z odamin qatl etish,
Kerak ushbu xil vaqtda o'zni tutish.
Kerak ermas erdi qilish tarbiyat,
Agar qatl etarkan uni oqibat.
Uning fazlini bilmaganda eding,
Saroyingda yurmoqqa qo'ygaymiding.
Uning aybini bilmaguncha ayon,
Chaquv birla zulm etmagil hech qachon.

Podshoh shaxsan o'zi yangi vazirni kuzatib borib, uning harakatlarini ko'z ostiga oladi. Yangi vazir keksa bo'lishiga qaramay, yosh yigitlar birla hamsuhbat va ulfat bo'lishini ko'rgan podshoh shubhalana boshlaydi.

Keyin yaxshi bir fikru tadbir bilan,
Dedi, e azizim, xijolatdaman.
Seni men deb erdim xo'b oqil kishi,
Deb erdim seni ziyraku hushyor,

Valekin dilingda bor ekan g'ubor.
Bu joy senga loyiq emas, endi bas,
Xato mendan o'tmish, bu sendan emas.
Razilni o'zim aylagach tarbiyat,
Xiyonatni ko'rdim o'zim oqibat.
Jahongashta mard ko'zin ochdi shu on
Dedi, e adolatli shohi jahon,
Dilim pok erur, menda yo'qdir xato,
Emasman razil, toki etsam ibo.
Dilimda yo'q erdi bu yanglig' gumon,
Na etdim, na qildimki ko'rsam ziyon.
Shahanshoh dedi har nakim men dedim,
G'animlar so'zin senga aytgan edim.
Shu xil so'z dedi menga eski vazir,
Uning ustida har na bilsang gapir.
Tabassum qilib barmog'in tishladi,
Taajjub emas u nadebdir, dedi.
Hasadchi o'z o'rni ko'rgach meni,
Yomonlab meni, aldash istar seni.
Shah etgach, tubanroq uning mansabin,
Sezib erdim ul kunda dushmanligin.
Birovga agar shoh mansab berur,
U bilmaydi, kim unga dushman erur.
U do'st bo'lmagay hech qachon menga chin,
Mening izzatimda ko'rar xorligin.
Bu haqda deyin rost so'z mo'tabar,
Qulingga qulog'ingni tutsang agar:
Misol tariqasida hikoyat
Unutdimki qaysi kitobda ekan,
Yo'luqmish birov tushda shayton bilan.
Qadi sarvu shamshod ekan, chehra hur,
Yuzida quyosh nurlari tovlanur.
Yaqin bordi-yu, dedi shaytonmisan,

Farishta bu xilda go'zal bo'lmagan.
Shu xil to'lgan oydek yuzing, surating,
Jahonda nega eng yomon shuhrating?
Oyog' ostida surating ne uchun,
Chizilmish bahaybat, yomonu zabun?
Bu so'zni eshitgach u baxti qaro,
Kelib achchig'i chekdi ohu navo.
Dedi: «Shaklim ermas, u yanglig' xunuk,
Qalam dushman ilgidadir ey buyuk.
Bihishtdanki yuldim men ildizlarin
Chizar suratim misli devi lain.
Bu yanglig' go'zalman va lekin hamon,
Mening suratimni chizarlar yomon».
Vazir hurmatini to'kdi martabam,
Kerak makridan cheklanish menga ham.
Shahim qahridan menda xavf yo'q erur,
Gunohsiz kishi so'zga botir bo'lur.
Nazoratchidan qo'rqadir dam-badam,
Tarozusining toshi gar bo'lsa kam.
Xatim beg'alat, to'g'ri yurgach qalam,
Xatom izlagandan nedir menga g'am.
Buni shoh eshitti-yu burdi yuzin,
Qo'lin silkidi rad etib bul so'zin.
Dedi: qancha ishlatsa ham o'z so'zin,
Sira oqlayolmas gunohkor o'zin.
Agar dushmanning so'zi yolg'on ekan,
Buni o'z ko'zim birla ko'rdim-ku man!
Go'zallar juda ko'p bu dargoh aro,
Shularga boqar ko'zlaring doimo.
Shu dam kuldi-yu mardi notiq, dedi:
Tan olmoq haqiqatni loyiq dedi.
Va lekin erur bunda bir sir nihon,
Oshib davlating, elga bo'l hukmron.

Ko'rarsan-bilarsanki, har kambag'al
Boqar boyga hasrat bilan har mahal.
O'tib ketdi-ku yoshligim davlati,
O'tib ketdi afsus umr lazzati.
Ularga boqish birla sabrim ketar,
Chiroyu bezak boylaridir shular.
Yuzim toza guldek muattar edi,
Tanim xuddi oq gulga o'xshar edi.
Bu holatda qanday bo'lardi kafan,
Soqol oq ipu, egri duk bo'lsa tan.
Sochim jingalak qop-qaro kecha rang,
Kiyim erdi nozikligimdan tajang.
Dur og'zimda ikki chizim bor edi,
U xuddi kumush g'ishtli devor edi.
Qara menga so'zlar chog'imda axir,
Yiqildi u qo'rg'on tushib birma-bir.
Ularga nechun boqmayin zorlanib,
Bekor o'tgan umrimni esga olib.
Aziz yoshligim ketdi, kelmas xabar,
Bukun ham tugab oxiriga yetar.
Bu xil tizgach ul mard so'z gavharin,
Dedi shah bu xil so'zni topmoq qiyin.
O'z arboblari qarang shul nafas,
Dedikim bo'lak so'zni dil xohlamas.
Bu haqda aql birla ish qilmasam,
Quruq tuhmat ila qilardim sitam.
Shoshib har kishi ki qilich ushlagay,
Pushaymon bila o'z qo'lin tishlagay.
G'arazlik kishi so'zini so'z dema,
Ishonib anga so'ngra afsus yema.
Oshib yaxshiga mansabu molu pul,
G'arazgo' uchun ham jazo bo'ldi mo'l.
U dono vazir, topdi shuhrat va shon,

Qilib yaxshiliklarni elga ayon.
Qilib adlu ehsonu davron surib,
O'tib ketdi xo'b yaxshi nom qoldirib.
Bilimdonu qudratli shoh hech nafas,
G'animlarning ig'vosidan g'am yemas.
Jaholatlining sabri yo'q, fikri xom,
Shahanshohlik toji unga harom.
Aqlli kishi sabr etar har nafas,
Jaholatga yengilgan – oqil emas.
Demasman: mudom ayla jang ixtiyor!
G'azab kelsa aqlingni tut barqaror.

* * *

Erur lashkaring ko'p, o'zing pahlavon,
Hujum qilma dushmanga-yu, to'kma qon.
G'anim qo'rg'on ichra kirib berkinur,
Gunohsiz elu yurt vayron bo'lur.

* * *

Nazar tashla zindonga, qil e'tibor,
Ki zindon aro qancha beayb bor.
Azob tortsa ellik yilu olsa nom,
Esiz, bir xato-la yo'qolsa tamom.
Aziz nomi qolgan yetuk yaxshilar,
Kishi moliga bermadilar zarar.
Agar och qolib bersa ham mard jon,
Yetimlar haqin yemagay hech qachon.

HIKOYAT

Eshitdim, adolatli bir shoh to'ni,
Ekan bo'zu, doyim kiyarkan uni.

Birov debdi: «E baxtli shoh, tiktirib,
Kiyim toza shohona to'n keltirib».
Dedi: «Shu kiyim ham kifoyat erur,
Agar bundan ortar, u ziynat erur.
Boshimga kelur necha turli havas,
Balekin xazina o'zimdandimas.
Xazina butunlay qo'shinlar uchun,
Emas u bezak ham o'yinlar uchun».

* * *

Qo'shin shohidan shod bo'lmas agar,
Qo'riqlovchidan mamlakat bo'sh qolar.
Agar olsa yov dehqonning eshagin,
Nechun shoh solig' olgay undan tag'in.
Eshakni yov olsa, shahi olsa boj,
Topolmaydi ravnaq u xil taxtu toj.
Daraxtdir elu, o'stirib saqlagil,
U bergay senga mevalar xilma-xil.
Yulib olmagil ildizu mevasin,
Bu ishdan pushaymon bo'lursan keyin.
Chumolidan olsa tovuq, donini,
Muruvvatdan ermas – olur jonini.
Ul odam ko'rar rohat o'z baxtidan,
Qo'l ostidagin ezmasa zulm ilan.
Eling notavonlikka tushgandayoq,
Ular ohidan qo'rqqaning yaxshiroq.
Shirin so'z bilan qo'lga kirgay diyor,
Urush qilma, qon to'kma, e baxtiyor.
Qasam mardlik haqqi, butkul jahon,
Sira arzimastomsa yer uzra qon.

* * *

Eshittimki, Doro chiqib ov uchun,
Uzoqlashdi o'z lashkaridan shu kun.

Yugurgancha keldi yetib yilqibon,
Gumon qildi Doro o'zicha shu on:
Bu dushman urushmoqqa keldi, netay?
Uzoqdan bir o'q birla nobud etay.
Shu dam to'g'rilab unga tortdi kamon,
Dedi bir nafasda qilay benishon.
U dediki: «E shohi olampanoh,
Zamonangga ko'z tegmasin, qil nigoh,
Man – o'z yilqiching, bunda qancha zamon
Ko'p yilqilaringni boqarman hamon.
Tushib o'rniga shah dili, ushbu dam,
Kulib dedi, e soddadil, aqli kam:
Malaklar ko'mak berdi senga bu on,
Kamon tortgan erdim, otardim shu on
Kulib yilqichi dedi: bo'lgay yomon,
Nasihatni tutsam shahimdan nihon.
Bu donolik ermas – bilib yetmasa,
Ko'rib do'stu dushmanni farq etmasa.
Ulug'lar uchun eng muhim shart erur:
Kichik kimligin bilmog'i zarur.
Meni doimo bunda ko'rgan eding,
Qalay deb bu yaylovni so'rgan eding.
Bukun mehr ilan keldim oldingga men,
Taniy olmading yuz gumon birla sen.
Kerak bo'lganida menga qaysi ot,
Taniyman uni mingta ot ichra bot.
O'z yilqilarimni taniyman shu xil,
O'z yilqingni sen ham, shaho, mencha bil!
U marddan nasihatni Doro uqub,
Uni yaxshi ko'rdi, dedi, yaxshi, xo'b.
Xijolat chekib der edi podsho,
Buni dilda saqlash kerak doimo.
Qolur taxti xavf ostida dam-badam,

Agar shoh yilqichidan bilsa kam.
Jafokashni dodin eshitg'ung qachon?
Havoda yurursan hamono-hamon.
Ko'zing ochgilu g'aflating tarkin et,
Mudom mazlum ahlini dodin eshit.
Zulm ko'rsa davringda zolimdan el,
O'sha zulm sendan erur, yaxshi bil.
Yo'lovchini yo'lda qachon it qopar»,
Qutrtirmasa itni dehqon agar.
Sen, e Sa'diy, so'z botiri, pur hunar,
Qalam tig'i ilgingda topgay zafar.
Degil qancha bilsang-u, haq so'z degil,
Yema pora, nayrangdan bog'la til.
So'zingda ta'ma bo'lsa bema'nidir,
Ta'madan kechib, qancha bilsang gapir.
Iroqda eshitti birovi bir kuni
Dedi bir g'arib toq tagida buni:
Bir ostonadan sen ham ummidvor,
Eshigingga kelganni sen etma xor.
Agar istamassan diling ranjishin,
Dili ranjiganlarning ovla dilin.
G'ariblarga orttirsav javru jafu,
Bo'lur taxtu ham tojidan shah judo.

HIKOYAT

Ulug'lararo bir ulug' ahli fan,
Dedi qissa Abdulaziz¹ o'g'lidan.
Uzugin ko'zi bor ekan bebaho,
Xaridor kuchi yetmagan mutlaqo.
Yorutgaydi tunni ajoyib bu dur,

¹ *Abdulaziz* – arablarning umaviy xalifalaridan biri. U adolati, kamtarinligi bilan nom chiqargan (fors-tojikcha. «Muntahabi kulliyoti Sa'diy»). 174-bet).

Quyoshdek sochardi jahon ichra nur.
Kelib elga ochlik yili nogahon,
Qadi yangi oydek egildi shu on.
Elin ko'rdikim, ochu darmoni yo'q,
Muruvvatdan ermas o'zi bo'lsa to'q.
Kishi ko'rsa xalq komi ichra zahar,
Tamog'idan o'tmaydi sharbat-shakar.
Buyurdi, uzuk ko'zini sottilar,
Yetim, tulga rahmi kelib shul qadar.
U bir hafta bo'ylab ulashdi pulin,
Dilin ovladi ochu qashshoq elin.
Biroq unga derdi malomatchilar:
Topolmaysan endi bu yanglig' guhar.
Eshittim, der erdi u dono kishi,
Yuziga tomib sham'dek ko'z yoshi,
Yarashmaydi ziynatlanish shoh uchun,
Agar bo'lsa el holi ochu zabun.
Qo'limda bu ko'zsiz uzuk bezarar,
Zarar – el dili g'amda bo'lsa agar.
O'zidan burun har kim el rohatin,
Agar ko'zlasa, unga ming ofarin.
Kishilar g'amini yegan mardlar,
Bo'lib qayg'uli, rohatidan kechar.
Agar yotsa shoh taxtida behuzur,
Ishonamanki, el uxlab orom olur.
Agar uxlamas shoh butun tun aro,
El uxlaydi orom olib doimo.
Juda yoqdi menga u besh baytkim,
Yig'in ichra kuylardilar tingladim:
Hayotimda zo'r rohat erdi, u tun
Go'zal yor yonimda bo'lgan uchun.
Yotar erdi, ko'rdim, shirin uyquda,
Dedim: sarv hechdir qading oldida.

Shirin uyqudan ko'zni och gul kabi.
Kulib boqqilu sayra bulbul kabi.
Ko'z och, uxlama, e, jahon fitnasi,
Ketur boda, sun, e zamon fitnasi!
Dedi: fitna uyg'onmasa yaxshiroq,
Meni fitna deding-ku, o'zing shu choq.

HIKOYAT

Shahanshahlar axborida bor ekan,
Minib taxt uza Tukla¹ sardor ekan.
Zulm ko'rmadi davrida hech kishi,
Bo'lakka sabaq erdi tutgan ishi.
Bir oqilga der erdi bir marta u,
Hayotim butun behuda o'tdi-ku,
Dil istar ibodatni xilvat aro,
Tilakka yetay, bo'lmay umrim ado.
Qolur mansabu taxtu mulku chaman,
Olib ketmadi go'rga hech qaysi tan.
Eshitdi buni oqili pokdil,
Chiqib jahli, aytdiki, e Tukla, bil,
Ibodati o'zi xalqqa xizmat qilish,
Na tasbehda, na joynamozda bu ish,
Umr bo'yi taxt uzra sen shoh bo'l,
Dili poku xushxulqu ogoh bo'l.
Sadoqat, irodat bilan bog'la bel,
Yomon lofu qofdan mudom saqla til.

Ulug'lar dilikim, musaffo edi,
Shu xislat ularda muhayyo edi.
Sira o'lmasam deb kim ayta olur,

¹*Tukla* – XI asrning ikkinchi yarmida hukm surgan Sheroz otabeklaridan biri.

U kimdirki dunyoda o'lmay qolur.
Agar har kishidan qolur mulku mol,
O'zidan keyin bo'lg'usi poymol.
Agar har kishi elga ehson etar,
Elidin mudom unga rahmat yetar.
Ulug' bo'lsa-yu, qolmasa yaxshi nom,
Nishonsiz o'lib ketdi u, vassalom!
San ehson daraxtin ko'kartsang agar,
Terarsan uning shoxidan mevalar.
O'rib g'allani, yerni qo'yma quruq,
Bo'shashmay turib tezda sepgil urug'.

HIKOYAT

Bir oqil Shom atrofida doimo,
Yashar erdi xilvat tutib g'or aro,
Qorong'uda sohibqanoat edi,
Uning davlati sabru toqat edi.
Xudodo'st ekan nomi-yu pokdil,
Farishtasifat odam erkan asl.
Edi eshigida ulug'lar boshi,
Eshiklarga bosh urmadi ul kishi.
U dono yashab turgan iqlim aro,
Edi bir sitam qilg'uvchi podsho.
Ko'ziga ko'rinsa g'arib-notavon,
Ezardi uni qaqshatib beomon.
O'zi johilu, zolimu, badburush,
Ko'ngilga solur g'am, uni bir ko'rush.
Qochib jabridan ko'pchilik doimo,
Yomon nomi tarqaldi olam aro.
Qolib erdi yolg'iz, tul ojiz kishi,
Haqorat bilan charx yigirmoq ishi.
Qayerda zulm haddan oshgan ekan,

Biror lab ochilmaydi kulku bilan.
Kelardi uning g'origa gohi shoh,
Xudodo'st sira qilmas erdi nigoh.
Dedi unga shoh: «E, aziz baxtiyor,
O'girma yuzing mendanu qilma or.
Qilurman senga do'stlik tunu kun,
Erursan mening dushmanim ne uchun?
Agar bo'lmagan chog'da ham shavkatim,
Kam o'lmasdi darveshdan hurmatim.
Demasman birovdan ulug' bil meni,
Degayman kishilarcha bilgil meni.
Eshitti bu so'zni, shahga dedi: «Tut quloq,
Sen – elning azobi, o'zingga qara,
Men el ranjishin xohlamasman sira.
Erursan aziz do'stlarim dushmani,
Nechuk til bilan do'st, degayman sani?
Qo'lim o'pma do'stona, ketgil, yo'qol,
Borib do'stlarim ilgin o'p, ko'nglin ol.
Taajjubdaman zolim uyqusidan
Ki el dod etarkan, u uxlar ekan.
Kichiklarni qaqshatma, e podsho,
Jahon o'zgarib turgusi doimo.
G'ariblarga berma azobu alam,
Seni mahv etar topsa paytin u ham.
Chumoli agar birlashib ish qilur.
Uning zarbidan sher ham yengilur.
Dedim zulm ilan elni qaqshatmagil,
O'zing qiynalursan, buni yaxshi bil.
Zulm birla yiqquncha oltin, axir,
Xazinangni bo'sh qolgani yaxshidir.
Kishilarni sen aylama poymol,
Oyog' osti bo'lg'ung, yetushsa zavol.
Chida zo'r zulmiga, e notavon,

Bo'lay desang undan ko'ra pahlavon.
G'animlarni himmat-la yengmoq zarur,
Ki himmat qo'li barchadan zo'r erur.
G'ariblarni shod ayla, kuldir chunon,
Yomonlarni tishini ushatgil har on.
Dovul bongidan xoja-ku, uyg'onur,
Biroq soqchi ahvolini ne bilur.
Matoin g'amini yegan karvon,
Toliqqan eshakka achinmas hamon.
Ko'rarmanki, ojiz emassan bugun,
G'aribni ko'rib qo'llamaysan nechun?
Bu haqda hidoyat qilay ushbu dam,
Bo'shanglik bo'lur tortinib aytmasam».

HIKOYAT

Damashq ichra keldi qahatlik yili,
Unutdi mehrni kishilar dili.
Baxil bo'ldi osmon chunon yer uchun,
Daraxtu ekin qaqshadi bus-butun.
Qadimiy buloqlar qolib qup-quruq,
Yetim ko'z yoshidan bo'lak tomchi yo'q.
Faqat bevalar ohi birlan chiqar,
Har uy tuynugidan tutun chiqsa gar.
Daraxtlar g'arib bir gadodek shu hol,
Bahodirlar ahvoli tang, bemajol.
Na bog'u na sahroda ko'klam u yil
Chigirtka ekin yeb, chigirtkani el.
Shu on keldi yonimga bir eski do'st,
Faqat unda qolmish suyak birla po'st.
Taajjubda qoldim, baquvvat edi,
Juda mo'tabar ham badavlat edi.
Dedim unga: «E yori pokiza dil,

Boshingga na ish tushganini degil». G'azab birla dedi, ki: «E oshno, O'zing xo'b bilursan, savoling xato. Ko'rarsan mashaqqatli fursat bu dam, Nihoyatga yetdi musibat bu dam. Na yomg'ir yog'ar yerga ko'kdan bu on, Na yerdan ko'kka ohu fig'on». Dedim: «Senga yo'q xavf, bul so'zni uq: Zahar kor etar, qayda taryok yo'q. Bu ochlik bo'laklarni gar mahv etar, Badavlatsan, o'rdakni to'fon netar?» Qarab ranjidi mendan olim shu on, Degaysanki nodonga donosimon. Dedi chetda ham bo'lsa mardonalar, Turolmas qarab, cho'ksa do'stlar agar. Yuzim yo'qchilikdan emas za'faron, Yalang'ochu ochlarga o'rtandi jon. Aqlli kishi xohlamas hech qachon, Elin ham o'zin jismiga bir ziyon. Shukurkim tanim sog'u quvvatliman, Dilim titragay o'zgalar dardidan. Majolsiz kasal yonida bo'lsa gar, Kishi soppa-sog' bo'lsa ham g'am bosar. Ko'ringanda ochu g'arib notavon, Zahar bo'lgay og'zimda har luqma non. Agar bandu zindonda do'sti yotar, Kishi qayda gulzor sayrin etar?

HIKOYAT

Tutab turgan el qalbi yondi bugun,
Kuyib ketdi Bag'dod yarmi shu tun.

Birov shukr etib derdi yong'in aro.
Do'konim zarar ko'rmamish mutlaqo.
Dedi bir kishi e xasis – aqlsiz,
Faqat o'z g'amingni yeding, betamiz!
Seningcha do'koning omon qolsa bas,
Shahar kuysa, senga pisand ham emas.
Baxildan bo'lak kim o'zin to'yg'azar,
Kishilar yomon holda, ochdir agar?
Ko'rarkim g'ariblar yutar qon mudom,
Shu insofmi boylar yesa gar taom?
Kasal boqqan odamni sen dema sog',
U ham qayg'u birlan kasaldir shu choq.
Borur garchi manzilga do'stlar yetib,
Yotolmas keyin qolguvchilarni deb.
Saodat uyida kishi bo'lsa gar,
Unga Sa'diyning bitta so'zi yetar.
Agar san eshitsang go'zal bir suxan,
Gul uzmayсан aslo gar eksang tikan.

* * *

Eshitdingmi Eron shahanshohlari
Qilibdir sitam elga qaysi biri,
Na u shohlik qoldi, na shavkati,
Na dehqonga zulmi-yu, na davlati.
Sitam aylasang shohligingdir tamom,
Gadolik qilursan keyin vassalom.
Shirin uyqu shohlarga bo'lgay xato,
Agar etsa kuchsizga kuchlik jafo.
Bekordan bekorga eling ezmagil,
Erur shoh cho'ponu, qo'y – oddiy el.
Gar undan jafo ko'rsa el har qachon,
O'zi bo'ridir, dod uning dastidan.
Yomon niyati birla ketdi yomon,
O'zin xalqiga zulm etib beamon.

Eshitmay desang oxir el qarg'ishin,
Mudom yaxshilik ayla, ol olqishin.

HIKOYAT

Eshitdimki, mag'ribda bir shahraro
Bor erkan tug'ushgan ini ham ag'o.
Bahodir, dilovar mujassam ekan,
Qilichbozu dono, go'zal ham ekan.
Ota ko'rdi, haybatlidir har ikov,
Urushda talabchan, juda beayov.
O'zin mulkini ikki taqsim qilib,
U har o'g'liga berdi yarmin, bilib.
Urush etmasin deb ular, xuddi yov,
Qilich tortmasin bir-biriga ikov.
Ko'rib ota shundan keyin oz hayot,
Ko'zin yumdi-yu topdi birdan vafot.
Topib mamlakat ikki shohga qaror,
Ham oltin, sanoqsiz qo'shin, ham diyor.
Yurib har kim o'z aqli birla u choq,
U yo'ldanki o'z fikricha yaxshiroq.
Biri adl ila nom chiqarsam dedi,
Biri zulm etib pul g'amini yedi.
Biri qalbin elga qilib mehribon,
G'ariblarni siylab, berib oshu non,
Qo'shinin yasantirdi, qurdi bino,
G'aribxonalar soldi yurtlar aro.
Biri toju taxtin bezashlik uchun
Soliq soldi dehqonga har tunu kun.
Na yolg'iz g'ariblarga dushman edi,
O'ziga o'zin dushman etgan edi.
Mudom yig'di zar, bermadi, yemadi,
Aql oldida yaxshi ish qilmadi.
Uning tolei qaytdi-yu, keldi yov,

Bosib toru mor ayladi beayov.
Yemirdi falak qahr etib ildizin,
Yov otin dumi quvdi unda chivin.
U aldovchiga kim qilur yaxshilik,
Qochib ketdi el, ki solgan soliq.
Kutar yaxshilik kimdan ul bevafo,
Uning ketidan qarg'ar el doimo.
Ulug'lar demishlarki o'stir, yegil,
Yomon sindirib shox yeyolmaydi bil.
Yomon jinsidan qolmadi yaxshi nom,
Yomonlar yomonlik-la bo'lg'ay tamom.

* * *

Kesardi birov shoxu shoxda o'zi,
Tushib qoldi bog'bonning unga ko'zi.
«Dedikim bu odam yomon ish qilur,
Yomonlik na menga, o'ziga erur».
Nasihat berur foyda, uqqanga, bil,
G'ariblarni zo'rlik qilib ezmagil.
Ketib qolsa qo'ldan agar taxt-u toj,
Yoqangdan olur ko'p yalang'ochu och.
Qo'ling tort, g'ariblarga musht urmagil,
Seni yengsalar o'zni sharmanda bil.
Uyatdir bu ish er yigitlar uchun,
Zabunlarni ilgida bo'lmoq zabun.
Ulug' pok dil, baxtiyor mardlar
Aql ishlatib taxtu toj oldilar.

* * *

Bu haq so'zni san Sa'diydan tinglagil,
Ulug'larga ergash, xato yurmagil.
Dema taxtu toj har o'rindan baland,
G'ariblik maqomi bil undan baland.

Yegay kambag'al kunda bir non g'amin,
Biroq, shoh yegay mulku davron g'amin.
Gado topsa bir non agar shomda,
O'zini o'zi shah degay Shomda.
G'amu shodlikkim boshingga yetar,
O'lim chog'ida ikkisi ham ketar.
Ne bo'ldi, agar bo'lsa boshida toj,
Ne bo'ldi agar egga bo'ynini boj?
Uning boshi gar ko'kka yetgan esa,
Buning jismi zindonda yotgan esa.
Hujum qilsa har ikkisiga ajal,
Tanib bo'lmagay ikkisin ul mahal.
Shahanshahligu mulku davlat balo,
Gado shah erur, ismi bo'lmish gado.

* * *

Eshitgan edim ko'chada bir kuni,
Bir oqilga der erdi kimsa buni:
«Edim shohu, hukmim edi xo'b zo'r,
Boshimda edi toju, kibru g'urur,
Qilib baxtu tole madad yaxshiroq,
Qo'l ostingga zo'r birla tushdi Iroq.
Dilim hirsu Kirmonga tushgan edi,
Ta'ma qurtlari bu boshimni yedi».

* * *

Qulog'ingni tut, g'aflatingni qochur,
Eshitgil, o'liklar nasihat qilur.
Yomonlikka yurmaydi yaxshi kishi,
O'tar yaxshilik birla doim ishi.
Yomon yo'lga borgay yomon har qachon,
Ko'pincha o'lur yo'lda misli chayon.
Birov foydasin ko'zlamaydi agar,

Qaro tosh bilan teng erur ul bashar.
Xato so'zladim man ayo yaxshi yor,
Qaro toshu temirda ham foyda bor.
Ul odam uyat birla o'lsa tuzuk,
Gar undan qaro tosh bo'lsa tuzuk.
Va har kimsa yirtqichdan a'lo bo'lur,
Yomon kimsadan yirtqich afzal erur.
Aqlli kishini chin inson degil,
Agar qonxo'r erkanmi – hayvon degil.
Gar inson esa, uxlasa doimo,
Ne farqi bo'lur vahshiydan el aro?
Agar yaxshilik tuxmini ekmadi,
Murod xirmanidan unga tegmadi.
Eshitgan emasman bu yoshga kirib,
– Yomonning jazosi bo'lur yaxshi, – deb.

* * *

Bir askarboshi chohga bo'ldi asir,
Uning haybatidan qochar erdi sher.
U zolim edi, qildi el ham itob,
Amaldan tushib, bo'ldi holi xarob.
Sira uxlamay nola aylar edi,
Boshiga otib tosh, bir odam dedi:
Kishi dodiga yetgan erdingmu san,
Nadeb ko'z tutarsan madad kimsadan?
Zulmning urug'in ekarding butun,
Ne xil hosil olding, o'zing boq bu kun.
Yarang uzra kim endi malham qo'yar,
Senga qilmagach tullar ohi asar.
Qozarding mudom yo'limiz uzra choh,
U chohga yiqilding o'zing, tortgil oh.
Qozar ikki turli kishi choh, bil,
Biri elda badnom, biri pokdil.

Birin maqsadi xalqni serob etish,
Birin maqsadi xalqni chohga tiqish.
Yomonlik qilib, yaxshilik kutmagil,
Tikanzor uzum bermagay, yaxshi bil.
Dilimga sira kelmagay bu gumon,
Ekib arpa, bug'doy o'rarsan debon.
Agar bo'lsa achchig'danak har nihol,
Shirin bo'lmog'i tarbiyat-la, mahol.
Hech unmaydi tolgul guli xurmoda,
Na eksang olursan shuni dunyoda.

* * *

Dedi kimsa o'z o'g'liga bir zamon
(Unutma sen oqil so'zin hech qachon):
«Bil, o'g'lim, go'daklarga qilma sitam,
O'zingdan ulug' jabr etar senga ham.
Sen, e beaql bo'ri, hech bilmading,
Meni sher yorar deb xayol qilmading».
Edim yoshligimda ajab zo'ravon,
Kichiklarni ranjitgan erdim chunon.
Yedim bir zabardast mushtin, chunon,
Kichikka musht urmasman undan buyon.

* * *

Biqib yotma g'aflatda, oliymaqom,
Ulug'larni ko'ziga uyqu harom.
Mudom el g'amin yeki, ojiz ular,
Zamon hodisotidan ayla hazar.
O'gut beg'araz bo'lsa-yu beriyo,
Bo'lur achchig', ammo marazga davo.

HIKOYAT

Hikoyat qilur kimsa bir shohdan,
Qotib duk kabi rishta¹ dardi bilan,
Yiqildi chunon, ojiz o'ldi jasad,
O'z odamlariga qilardi hasad.
Yer o'pdi nadimiyu dedi shu on:
Jahon boricha shoh bo'lsin omon,
Bu shahr ichra bor bitta qutlug' nafas,
Bu xil pokdil kam erur, ko'p emas.
Chaqirtirki, dam solsa senga agar,
Falak avjidan yerga rahmat yog'ar.
Buyurdi, yugurdilar odamlari,
Muborak qadam chol uyiga bori.
Borib aytdilar, keldi ul notavon,
Tani ko'rkam, ustida eski chapon.
U dam shah dedi, qil duo, menga boq,
Bu dard igna sanchmoqda boshdan oyoq.
Bu so'zni eshitganda ul qaddi xam,
Chiqib jahli shohga baqirdi shu dam.
Dedi: «Foyda bermaydi senga duo,
Chekar xalq zindonda sendan jafo.
Seni xalq uchun yo'q sira shafqating,
Qachon senga rohat berur davlating?
Seni qarg'ish urgan, mudom qarg'ar el,
Duom birla darding tuzalmaydi, bil».

HIKOYAT

Qizil Arslon qal'asi tog'dek –
Baland erdi, mahkam ediyu yirik.
Yo'q unda sira xavfu muhtojlik,

¹ *Rishta* – yuqumli kasallikdir. Ilgari Buxoroda bo'lar edi.

Yo'li tor, buralgan kelin sochidek.
Bu qal'a ajoyib go'zal bog' aro
Zumurrad tabaqda tuxumdek bino.
Eshitti aziz bir kishi mo'l yurib,
Shoh oldiga keldi uzoq yo'l yurib.
Juda ko'pni ko'rgan, haqiqatchi ham,
Hunarmand, jahongashta qutlug'qadam.
Buyuk, ishga mohir so'z ustasi shul,
Bilimdon, shirin nutqi hikmatli ul.
Dedi unga shoh: kezding olam aro,
Bu xil puxta ko'rdingmu hargiz bino?
Kulib dedi: bu qal'a ko'rkam erur,
Ba lekin deyolmamki mahkam erur.
U shohlarki sendan burun o'tdilar,
Biroz aysh etib qoldirib ketdilar.
Otang davrini, mulkini eslagil,
G'urur bandidan dilni ozod qil.
O'lim tiqdi bir go'rga, bermay omon,
Puchak pulcha ham qo'ymay undan nishon.
Ajam mulkida bir qalandarsimon,
Der erkan: «Ayo shoh No'shiravon,
Otangga vafo qilganida bu baxt,
Qachon senga tekkay edi toju taxt.
Sen oltinni Qoruncha¹ yig'sang bitar,
Qolur xayring-u, o'zgasin yer yutar».

* * *

Qilib bir hakim Kayqubodni duo,
Dedi: o'lma shoho, yasha doimo.
Buyuk bir kishi to'xtatib shul nafas,

¹ *Qorun* – afsonaviy xasis bir podsho. Xasisligi sababli uni yer yutgan.

Dedi: oqil odam, mahol so'z demas.
Faridunu Zahhoku Jam davridan,
Bilursan bu shohlar aro kimni san?
Birov qoldimi, taxti ko'rmay zavol?
Yarashmas so'zing, chunki amri mahol.
Sira o'lmas orzusi, ayt, kimda bor?
Sira o'lmagan bormu, ber e'tibor.
Bu so'zlovchi hushyoru dono edi,
«Demas ma'nisiz so'zni dono, dedi».
Demasdim, jahon boricha o'lmagil,
Yetaklar edim yaxshilikka dadil.
Jahon hukmi bir kimsada bo'lsa gar,
Ulug' dabdaba, askaru molu zar,
Hamisha uning ayshidir barqaror.
Agar notavonlarga zo'rlik qilur,
Tiriklikdayoq u jazosin ko'rur.
Agar etsa Fir'avncha betark gunoh,
Faqat go'rga kirguncha bo'lgusi shoh.

HIKOYAT

Sitamgar kishi G'o'r¹da zo'rlik qilib,
Birovning eshagini oldi kelib.
Yuk og'ir, uning ustiga beqarov,
Xarob bo'ldilar birdaniga ikov.
Zamon nahsu nomardga davlat berur,
G'ariblarga qayg'u-mashaqqat berur.
Sitamgar, adovatli shoh bir kuni
Chiqib bordi ovga, eshitdim uni.
Chopib ketdi ov ketidan ot solib,
Qo'shından uzoqlashdi tunda qolib.
Adashdi, yo'qotdi yo'lin podsho,

¹ G o ' r – Afg'onistonda bir o'lka nomi.

Kirib bordi tun ichra qishloq aro.
Shu qishloqda turg'uvchi bir puxta chol,
Xo'p odamshunos erdi go'yoki Zol.
Der erdi o'z o'g'liga, e Shoddil,
Shaharga eshakni olib bormagil.
«U – nomardni, yaxshi bo'lgay edi,
Na taxt uzra, tobutda ko'rsam», – dedi.
U – nafs oldida bir belbog'li qul,
Uning zulmidan el fig'onda nuqul.
Bu yurtida kishi ko'rmas obodlik,
Sira ko'rmadi. Ko'rmagay shodlik.
Agar o'lsa, ul shumi ko'ngli qaro,
Yog'ar anga la'nat jahannam aro.
Dedi o'g'li: yo'l og'iru ham uzoq,
Yayov bormoq og'ir erur, sol quloq.
Biror yaxshi yo'l topgil, o'yla o'zing,
Baland mendan aqlingu, o'tkir ko'zing.
Otasi dedikim: men aytganni qil,
Qo'lingga olib katta tosh, e o'g'il,
Gunohsiz eshakni shu tosh birla ur,
Bu tosh zarbidan eshak oqsoqlanur.
Sitamgar mabodo nazar solmagay,
Bu eshak cho'loq-ku debon olmagay.
O'g'il ota so'zin eshitgan hamon
Qabul etdi, qildi na desa shu on.
Chunon urdi eshakni qobil o'g'il,
Bu zarb ila qattig' mayib bo'ldi ul.
Ota o'g'liga aytdi, endi yo'l ol,
Eshak yurganicha, yurib, bora qol.
O'g'il ergashib ketdi karvon bilan,
Haqorat qilardi bor imkon bilan.
Ota ko'kka boqdi oshib hasrati,
Xudoyo, dedi, yaxshilar hurmati,

Meni saqlagil, ber ajaldan amon,
Falak aylaguncha uni benishon.
Uni ko'rmasam o'lganin ko'z bilan,
Mudom tik turarman go'rim ichra man.
Tug'ilsa tuzukdir xotindan ilon,
Tug'ilguncha devi laindek yomon.
It a'lo erur mardumozordan,
Kishilarni qiynovchi makkordan.
Butunlikcha dushmanga o'tmay yaroq,
Qo'lingda uni singani yaxshiroq.
Buni tinglagach, shah otin bog'ladi,
To'qum ostida, uyquni chog'ladi.
Sanab yulduzu tun bo'yi uxlamay,
Surib turli-turli xayol bir talay,
Eshitti xo'rozlar qichqirganini,
Unutdi butun tun azob chekkanini.
Tong otguncha askarlar ot chopdilar,
Faqat tongda otin izin topdilar.
Shahu otini ko'rdilar shul zamon,
Qo'shinlar yayov chopdilar shoh tomon.
Qo'yib yerga bosh, qildilar hurmatin,
Urrib mavj daryoga o'xshab qo'shin.
Dedi, eski bir muxlisi shul zamon,
Edi kunda qul, tunda darvozabon:
Qalay kutdilar sizni qishloqda el?
Butun tunda qoldi xavotirda dil.
Biror so'z ham aytmadi shoh hech,
Qaro baxtidan ne kechirdi u kech.
Yaqinroq kelib boshini qildi xam,
Qulog'iga aytdi pichirlab shu dam:
Tovuq go'shti qayda? Qasam jon uchun,
Eshak qissasi bo'ldi haddan uzun.
Amir, beglar o'ltirdilar shul zamon,

Qilib bazm, ichib bo'ldilar shodmon.
Biroq kayf oshib, shoh g'azabga to'lib,
Esiga shu dam tungi dehqon kelib,
Buyurdi, topib bog'lashib keldilar,
Urib, qaqshatib ko'p jaf o'ldilar.
Sug'urdi u badbaxt o'tkir qilich,
Qochar yo'lni dehqon bilolmasdi hech.
Bu oxirgi umrimmi deb o'yladi,
Na kelsa tiliga uni so'yladi.
Qalam boshiga kelsa o'tkir pichoq
Tili bo'lgay o'tkir, yana yaxshiroq.
Qutulmasligini bilib yovidan,
O'qin borin otdi dadillik bilan.
Umidsiz ko'tardi boshin, aytdi chol –
Ki bo'riga qishloqda yotmoq mahol,
Buni hamma aytur, ayo shoh, inon,
Yemirsin sening davlatingni zamon.
Bu nomehribonlikki, davringda bor,
Sitamgarligingdan el ovora, xor.
Nechun bir o'zimga qilursan sitam,
Men oldinda, xalq birga qo'ydi qadam.
Diling og'rigan bo'lsa mendan axir,
Qo'lingdan kelsa bu xalqni qir.
So'zim tegsa qattiq, biroz yumshagil,
Tubin yul yomonlikni, insof qil.
Zulmdan kechishdir ilojing sani,
Emas o'ldirish bitta bechorani.
Sitam aylasang, bo'lma ummidvor,
To'lur yaxshi nomim bilan deb diyor.
So'zimdan agar og'rigan bo'lsa dil,
Dil og'riguvchi ishni sen qilmagil.
Sitamgar o'zi mahv o'lib ham ketar,
Biroq la'nat unga hamesha yetar.

Eshitsang bu yaxshi nasihat erur,
Eshitmas esang, so'ng pushaymon berur.
Kelur qanday uyqu ko'zingga, qara!
Yotolmaydi zulmingdan ellar sira.
Yugurdaklaring maqtagay har nafas,
U maqtovg'a sen hech loyiq emas.
Na foyda, ular desa ming ofarin,
Bu yoqda seni qarg'asa tul xotin...
Qilich boshda, so'zlar edi shul qadar,
Qilib jonni taqdir o'qiga sipar,
Ketib mastligi, shohga keldi aql,
Qulog'iga ovoz keldi, bu xil:
U cholga azob berma, qutqar, chiqor,
Buni so'yganing birla ming muncha bor.
Biroz to'xtadi, boshini xam qilib,
Gunohin shu on kechdi rahmi kelib.
Yechib o'z qo'li birla bandin keyin –
Quchoqlab, sevib o'pdi peshonasin.
Bu so'z bo'ldi olam aro doston,
Bo'lur yaxshilar, yaxshilar-la ravon.
Eshit dushmaningdan xatongni butun,
Ko'ringay go'zal har ishing do'st uchun.
Emas maqtagan – do'st, aldamchidir,
Malomatchilar senga yordamchidir.
Shirin bo'lsa ham qand, kasalga zarar,
Davo bo'lgay achchiq, taxir dorilar.
Shirin so'zli ulfatlaringdan ko'ra
Xunuk yuzli tanbih beruvchi sara.
Na hojat bu yaxshi nasihat, agar –
Sen oqil esang, bir ishorat yetar.

HIKOYAT

Yetib saltanat davri Ma'munga¹ ham,
Kanizak sotib oldi zebo sanam.
Yuzi oyu aqli raso, gulbadan,
Ajab sho'xu o'ynoqiyu xushsuxan,
Solar erdi ushshoq qoniga chang,
Qilur edi o'z panjasin lolarang.
Firibgar qoshi o'smalangan chunon,
Quyosh uzra go'yoki tiri kamon.²
Magar bir tun ul huri nozikbadan,
Yaqinlashmadi hech Ma'mun bilan.
G'azab o'tidan toshdi Ma'mun ta'bi,
Dedi: boshini olsam olma kabi.
Dedi: qil boshimni tanimdan judo,
Va lekin yaqinlashmagil mutlaqo.
Dedi: – Ranjishingga ne bo'ldi sabab?
Senga yoqmadi qaysi ish, qaysi gap?

Dedi o'ldiru yengil et kulfatim,
Yo'q og'zing hidiga mening toqatim.
Zulm tig'i o'ldirsa bir yo'la, bas,
Bu og'zing hidi o'ldirur har nafas.
Bu so'zni eshitgach ulug' podshoh,
Dili ranjidi. Qattiq etdi nigoh.
Agarchi dili og'ridi shu mahal,
Davolab yo'qotdi hidini tugal...
Pari chehrani yoru hammad qilib,
Dedi do'st ekan, aytdi aybim bilib.
Yo'ling ustida choh qozilsa agar,
Jaholat-la, aybingni dersan hunar.

¹ *Ma'mun* – islom xalifalaridan yettinchisi.

² *Tiri kamon* – kamalak.

Dema qand ham bo'lg'usi deb davo
Davo bo'lgay gar unga suqmuniyo¹
Der edi tabib, to'g'ri so'z ochig'in:
Davo bo'lgay ich. Dorining achchig'in.
Shifo sharbatin istasang har qachon,
Ol achchig' o'git sharbatin Sa'diydan.
O'git, ma'rifat elagidan o'tib,
Tuzilmish, shirin so'z bilan qo'shilib.

HIKOYAT

Eshitdimki, bechora bir zotdan,
Ulug' shohning ko'ngli ranjib ekan.
Demish balki shohiga haqqoniy gap,
O'jarlik o'tib shoh qilmish g'azab.
Saroydan yubormish u zindon aro,
Hamisha qilur shoh jabru jafo.
Pichirlab dedi do'stlaridan biri:
Bu xil so'z edi maslahatdan nari.
Unga dedi: haq so'z ibodat erur,
Qamoq men uchun qisqa fursat erur.
Chaqimchi bu sir so'zni bilgan hamon,
Borib shoh qulog'iga aytdi shu on.
Kulib dedi, behudadir – gumon,
U zindon aro o'lgusi beamon.
G'aribga borib aytdi bir qul buni,
U dediki shohga borib ayt shuni:
Agar qo'llasa ham dilim shod emas,
Agar boshim olganda, dil g'am emas.
Agar undadir molu mulku qo'shun,
Azobu alam garchi menda bu kun,

¹*Suqmuniyo* – bir daraxtning shirasi, juda achchiq, davo uchun ishlatiladi.

O'lim eshigiga yetishsak agar,
Har ikkovni go'r bab-barobar etar.
Elin qilmadi senchalik poymol,
Burun hech kim yig'madi sencha mol,
Shu xil bo'lki olam desin ofarin,
Yomon demasin o'lganingdan keyin.
Yomonlik bilan umr o'tkazmagil,
Senga toki yog'dirmasin la'nat, el.
Ajal har qachonki boshingga kelur,
Ishongilki yer osti joying bo'lur.
G'azablendi shohu buyurdi shu on,
«Sug'ur, deb, tilin unga bermay omon».
Dedi ul haqiqatchi – dono – asil,
Bu hukming meni qo'rqitolmaydi, bil.
Bo'lib xoru ko'rsam jafoyu sitam,
Agar oqibat yaxshi bo'lsa ne g'am.

HIKOYAT

Juda kambag'al erdi bir pahlavon,
Yemoqqa topolmasdi bir parcha non.
Azob tortar erdi qorin dardidan,
Kun o'tmas edi pahlavonlik bilan.
Zamonning yomon holatindan mudom,
Tanida alam, g'am, dili xuddi shom.
Qilardi falak dastidan dodlar,
G'azab birla aylardi faryodlar,
Dili o'ksinib, el hayotin ko'rib,
Yutardi zahar u sekin oh urib.
Ishi kelmay o'ngiga, yig'lar edi,
Uning hammadan holi badtar edi.
Kishilar yegay derdi go'shtu asal,
Menga qayda non, tarra yo'q loaqal.

Bu yaxshi emas boqqil insof-la sen,
Mushuk kiydi po'stin, yalang'och men.
Qani, bu zamon o'zgarilsa edi,
Qo'linga pulu mol kelsa edi.
To'satdan oyoq ostidan, na bo'lur,
Topilsa javohir ko'milgan chuqur.
Badavlat yashardim, zamonlar mudom,
Qutulgay edim g'am yukidan tamom.

* * *

Gar ish aqlu tadbir bilan hal bo'lur,
Yarash yov bilan, jangdan afzal erur.
Yengish yovni zo'r birla bo'lsa qiyin,
Kerak, zar-la yopmoq urush eshigin.
Agar xavf esa senga yov zarbidan,
Tilin bog'lagil lutfu ehson bilan.
Zarar o'rnida yovga soch siymu zar,
Yov o'tkir tishin lutf o'tmas etar.
Bo'lur chalsa tadbir nag'orasini,
Qilur hiyla zo'rlarning chorasini.
Chunon aylagil dushmaning hurmatin,
Keyin po'stinin shil, topib fursatin.
Asir bo'ldi Rustam, qilib hiyla kor,
Qutuldi asirlikdan Isfandiyor.
Xushomadchining makridan qil hazar,
Bo'lur sel, yig'ilsa agar tomchilar.
Qoshing kerma mag'rurlanib,urma dam,
Yengib do'st, agar yov yengilsa ham.
Agar do'stdan dushmaning ko'p erur,
Achingay hama do'st, yov shodlanur.
Hujum etma dushman zo'r ersa agar,
Qilichning damin ushlama, qo'l kesar!
Zafar bo'lsa gar sen tomoningda ham,

Emas odamiyat – kichikka sitam.
Agarchi esang qanchalik pahlavon,
Urushdan yarash yaxshidir har qachon.
Kuching yetmasa gar muroso bilan,
Ravodir ko'tarsang qilich unda san.
Bo'yin tovlama, yov yarash istagach,
Uning-chun urush eshigi yopilur,
Sening qudrating ham yana zo'r bo'lur.
Urushni burun boshlagan choqda yov,
Gunohkor o'zi, qir uni beayov.
Qilarkan adovat, urush beibo,
Adovatchiga mehribonlik xato.
Agar mehribon bo'lsang-u, rahmdil,
Uning kibri ortib borar, yaxshi bil.
Minib mard yigitlar-la uchqur bedov,
Qirib tashla tortsin jazosini yov.
Murosa qilarkan agar ishni hal,
G'azab qilma. O'ldirma. Bo'lma dag'al.
Agar yolvorib kelsa yov har qachon,
Dilingdan olib tashla kekni shu on.
Omon ber, desa ber omonlik, shu choq,
Biroq makridan ehtiyot yaxshiroq.
Bo'yin tovlama keksa tadbiridan,
Qarilarda bor tajriba, fikru fan.
Temir qal'ani og'darur sa'y etib,
Qari fikru, yoshlar qilich ishlatib.
Filu sherni yengsa ham yoshlar,
Qari tulki dostonidan bexabar.
Qochish yo'lini onгла maydon aro,
Zafar kimda, ma'lum emas mutlaqo.
Qocharkan agar lashkaring qayrilib.
O'lib ketmagil to'dadan ayrilib,
Agar chetda bo'lsang qochib qol omon –

Aroda esang o'zni tut yovsimon.
Agar yovdan ortiq esang qancha ham,
Tunab qolma yov yurtida hech dam.
Hujum qilsa ellik kishi tunda gar,
Qorong'uda besh yuz kishini qirar.
Ko'z och, tunda gar yo'lni to'smoqchisan,
Hujum qilmasin balki pistirmadan.
Agar yovgacha qolsa bir kunli yo'l,
Tikib chodir, ul joyda hushyor bo'l.
Hujum qilsa sendan burun yema g'am,
Boshin yanch Afrosiyob¹ bo'lsa ham.
Ular birdan ot qo'ysa bil, ul zamon,
Ketibdir kuchu quvvati begumon.
Toliqmish, u lashkarni qir bemalol.
Qilibdir o'zini o'zi poymol.
Qochib ketsa yov, bir o'zing quvmagil,
Uzoqlashma do'stdan, buni yaxshi bil.
Agar bossa maydonni changu to'zon,
Qurol birla qurshab olur nogahon.
Uzoq ketmasin o'lja izlab qo'shin,
Bo'lur xavfli ushbu ish shoh uchun.
Agar pahlavon, ko'rsatur jur'atin,
Oshirmoq kerak qadru ham qiymatin.
Qilur jon fido shohiga har mahal,
Kelib qolsa har qancha jangu jadal.
Hamesha bahodirlaring shod qil,

Faqat jang vaqtida deb bilmagil.
Omonlikda askarni qil shodmon,
Urush bo'lsa ishga yarar begumon.
Eling saqlagaysan-ku askar bilan,
Bu askarni tut shafqatu zar bilan.

¹*Afrosiyob* – Turondagi mashhur shohlardan.

Topar dushmanin yengibon shoh zafar,
Uning lashkari to'qu xursand agar.
Agar bo'lmasa intizomu vafo,
Urushda qachon aylagay jon fido.
Sipohiyki o'z xunabhosin yegay,

Emas mard, agar jangda ish bermagay.
Berilmas ekan zar qo'shinga agar,
Qilich ushlaymay, jangni tashlab ketar.
Urush chog'ida mardlik etmas ayon
Agar bo'lsa bechorau notavon.

* * *

Yov ustiga mardona erni yubor,
Bilib sher jangiga sherni yubor.
Qarilarni ra'yicha ish tut mudom,
Qari bo'ri ovchan erur, vassalom.
Qilichboz yigitlardan qo'rqma aslo,
Qari makridan qil ibo doimo.
Jahongashta er, mardu oqil bo'lur,
Ko'p issiq-sovuqlarni ko'rgan erur.
Sira baxtli yoshlar g'urur etmagay,
Qarilar so'zidan uzoq ketmagay.
Gar obod bo'lsin desang yurtu el,
Ulug' ishni har kimga topshirmagil.
Urush ko'rgan er bo'lmasa rahbari,
Qo'shinni yuborma sira ilgari.
Kichiklarga topshirmagil katta ish,
Ezolmaydi sandonni¹ musht yoki tish.
Qo'mondonligu xalqparvar bo'lish
O'yinchog'u yengil emas, og'ir ish.
Desangkim, xarob bo'lmasin bu jahon,

¹ *Sandon* – temirchilar kundasi.

Sinovsizga topshirma ish hech qachon.
Chopar ovchi it sherga payti bilan,
Urush ko'rmagan sher qochar tulkidan.
O'g'il erkalikda o'sarkan agar,
Urush kelsa boshiga, qo'rqar, pisar.
Urushmoq, qilich urmoq, ov ovlamoq,
Bahodir qilib o'stirur yaxshiroq.
Yigit o'ssa hammomu ishrat aro,
Urush chog'ida qo'rqadir mutlaqo.
Agar ikki turli kishi ot minar,
Ikovini bir yosh bola ag'darar:
Qochar bittasi yovni ko'rgan zamon,
Yov qochganlari o'ldirar shu on.
Biri zanchalish, beyurak, bedahan,
Xunasa tuzukdir bu xil jangchidan.
Urushga agar jangchi orqa berur,
O'zin ham, jasurlarni ham o'ldirur.

* * *

Ikki kimsani saqla, shohi jahon!
Biri oqilu ul biri pahlavon.
Topar katta shohlarni yengib zafar,
Bu ikkini o'stirsa har shah agar.
Kishi gar tutolmas qilich yo qalam,
O'lib ketganida yemang unga g'am.
Emas mardlik – yov bosar chog'ida
Qilib bazm yotsang nishot bog'ida.
O'yin, kulgiga band esa shohlar,
Bu ishrat-la davlat qo'lidan ketar.

* * *

Demasman g'anim jangidan vahm qil,
Omonlikda ham sen ibo aylagil.
Ko'pincha yoving kunduzi do'stlashar,
Banogoh tun chog'i bosib kelar.
Libosin yechib jangchi chodirda kech,
Biqib yotmasin, u zaiflarcha hech.
Kerak jangga tayyorlanish yoshirun,
Bosib kelgusi balki yov kechqurun.
Bo'lur ehtiyot mardning ish bilgani,
Qorovul – qo'shinning temir qo'rg'oni.

* * *

Turish beg'am ikki zaif yov aro –
Emas mardlik, ushbu ishdir xato.
Agar til biriktirsalar har ikov,
Bo'lurlar jasoratli bir katta yov.
Birin makru nayrang-la ovora qil,
Birin yanchibon, mayli yuz pora qil.
Agar senga dushman o'jarlik qilur,
Firib tig'i-la boshin olsang bo'lur.
Nizo' tushsa yov lashkariga, dam ol,
Qilichingni artu g'ilofiga sol.
Yoving dushmani birla do'stlik zarur,
O'shanda jahon unga zindon bo'lur.
G'ajir bo'rilar bir-birini agar,
Shu fursat aro qo'ylar orom olar.
Agar ikki yov ichra tushsa nifoq,
Yasha do'st bilan xurramu ittifoq.
Qilich qo'lda-yu, jangda bo'lganda ham,
Unutma yarash yo'lini hech dam.
Bilimli, hunarmand bahodir eli,
Qilur zohiran jang, yarashda dili.

Dilin yoshirin ovlasang, mardlar
Oyog'ing uza balki boshin qo'yar.
Asir tushsa lashkarboshi jang aro,
Shoshilma uning qatliga mutlaqo.
Uning qo'liga ham tushib, ehtimol.
Biror pahlavoning bo'lur poymol.
Bu bechora bag'rini etganda chok,
U ham pahlavoningni etgay halok.
Zamon band etar deb u hech qo'rqmagay,
U qo'rqmay asirlarga zulm aylagay.
Boshidan kechirgan kishi xo'b bilur,
U ham bandi bo'lganga shafqat qilur.
Biror bek bo'yinsunsa senga agar,
Uni qo'llasang, boshqasi ham sunar.
Dilin ovlasang o'n kishini agar,
Bo'lur yuz hujumdan ko'ra mo'tabar.

* * *

Agar yov qarindoshi do'stlik qilur,
Uning makridan ehtiyot erur zarur
O'ch olmoqchi sendan, dilida alam,
Qarindoshining mehri-la dam-badam.
Shirinso'z g'arazgo'ydan etgil hazar,
Bo'lur, ehtimol, ul asalda zahar.
Agar har kishi do'stni dushman bilur,
U o'z yovidan oqibat yengilur.

* * *

O'z shohiga sipoh qarshi chiqsa agar,
Bunday sipohni olma, mumkin qadar.
O'zin boshlig'in qadrini bilmagan,
Seni ham omon qo'ymagay makridan.
Inonma, qasam birla ahd etsa ham,

Nazoratchi qo'y, yoshirin dam-badam.
Uzoq tashla arqonni, u yangidir,
Bo'shatma, qochar, topmagaysan axir.

* * *

Urush birla olsang biror mamlakat,
U yurtni asirlarga topshir faqat.
Agar bandi ichmoqchi bo'lganda qon,
Sitamgarni qonin so'rar beamon.
Bir iqlimni gar yovdan olsang kelib,
Yashat xalqin, undan farovon qilib.
Urush boshlasa yov agar qaytadan,
Urib yanchar el birlashib sen bilan.
Shahar xalqiga jabr etarsan agar,
Yovingga eshik yopma, bekor ketar.
Shahar xalqi ham senga bo'lgach g'anim,
Dema tashqarida erur dushmanim.

* * *

Yomon yov uchun jangda tadbir qil,
Yashir, niyatingni yarash aylagil.
Kishilarga bildirmagil niyating,
Ko'pincha bo'lur gaptoshar ulfating.
Urushganda Iskandar ul sharq bilan,
Eshik qo'ydi chodirga bil g'arbdan.
Berib chapdan ovoza, o'ngdan kelib,
Bosib oldi Zobulni¹ Bahman² kelib
Siringni bilib qolsa sendan bo'lak,
U fikru, u yo'ldan kechishlik kerak.
Jahonni musaxxar qilurman desang,
Xaloyiqqa shafqat qilu qilma jang.
Agar lutfu shafqat-la ish bo'lsa hal,

¹ *Zobuliston* – Afg'onistondagi bir viloyat.

² *Bahman* – qadim Eron shohlaridan.

Yomonlik kerak bo'lmagay hech mahal.
Agar xohlamassan diling og'rishin,
Dili og'riganlarni soz et ishin.
Kuching dushmaningdan agar kam erur,
G'ariblar duosini olmoq zarur.
Nechunkim ular ohidir mo'tabar,
Bahodirlaringdan ko'ra ish berar.

IKKINCHI BOB

EHSON HAQIDA

Erish ma'noga, bo'lsa aqling agar,
Nechunkim ma'no qolar, surat ketar.
O'lik tinch yotar go'rida muttasil,
Agar tinch yotib uxlasa undan el.
Tiriklikda g'am ye, sen o'lgan kunoq,
O'g'il, qizda meros bo'lur ishtiyoq.

Bugun boylig'ing elga bergil, yesin,
Seniki emas o'lganingdan keyin.
Diling ranjishin xohlamassan agar,
Olibtur dili parchalardan xabar.
O'zing soch xazinangni elga shu choq,
Kalidi qo'lingdan tushar ertayoq.
Mening tirnog'imdan bo'lak hech qachon,
Kim orqamni qashlar, bo'lib mehribon?
Uyingdan g'arib ketmasin benasib,
Mabodo bo'larsan o'zing ham g'arib.
Yetuklarki muhtoj g'amini yegay,
Mabodoki muhtoj bo'lsam degay.
Yalang'ochu ochlar dilin shod qil.
O'zing och qolish kunlaring yod qil.

Tilanmasliging shukrin et doimo,
Quruq qo'yma eshikka kelsa gado...

* * *

Yetimlar boshiga mudom soya sol,
Arit gardu changin, tikan kirsol.
Yetim tursa oldingda ma'yusdil,
O'z o'g'lingni hatto o'pib suymagil.
Yetim yig'lasa, kim yupatgay uni?
Xafa bo'lsa, kim erkalatar uni?
Arit rahm etib oqsa ko'z yoshini,
Yuzin changin artu sila ko'z yoshini.
Agar unda yo'qdir qarindosh-tanish,
O'zing parvarish qil, o'zing parvarish.
U damki boshimda otam bor edi,
Boshim uzra tojim, na g'am bor edi.
Yuzimga biror pashsha qo'nsa agar,
Qo'nu qo'shnu ham ranjigay erdilar.
Gar endi asir etsa dushman meni,
Madad qilgali menga bir do'st qani?
Go'daklar g'ami menga butkul ayon,
Boshimdan kechirdim go'daklik zamon.
G'ururlanma xayr aylasang bir nima,
Bo'laklar gado, men ulug'man dema.
Qo'lingdan agar kelsa ishla mudom,
Ki mehnatchini el qilur ehtirom.

HIKOYAT

Dedi bir aqllikka bir hiylakor:
Chuqur loyga botdim, ketibdir mador.
Bir ablahdan olgan edim o'n diram,
Yurak ichradir necha botmon bu g'am.
Tunim doimo qayg'u birla o'tar,

U soyam kabi kunduzi ergashar.
Ko'ngil ranjitir har gapi zamon,
Yurakni teshar so'zi xanjarsimon.
Xudo unga bermadi go'yo ko'mak,
Butun umrida o'n diramdan bo'lak.
Kun o'tkazmayin doimo har sahar,
Kelib beibo eshigimni qoqar.
Surarman xayol qaysi himmatli er
Degayki: «Mana, olu qarzingga ber».
Bu so'zni eshitgach, u nuroniy chol,
Berib ikki tillo dedi, ola qol.
U yolg'onchi, pulni qo'liga olib,
Badar ketdi zardek yuzi ochilib.
Birov cholga dediki bilgil uni,
Kishi yig'lamaydi u o'lgan kuni.
Egarlab minar sherni ham ul gado,
Abuzaydni ham mot etar mutlaqo.
U dam obid achchig'lanib dedi: bas!
Bu ishning siri senga ma'lum emas.
Agar to'g'ri bo'lsa uni yoqladim,
Elu yurt aro hurmatin saqladim.
Agar so'zi yolg'on, hiyla erur,
O'zing o'yla, oxir pushaymon bo'lur.
Men o'z hurmatim saqladim zar bilan,
U yolg'onchiyu hiylagar makridan.
Qil ehson yomon birla yaxshiga ham,
Ham ehson bo'lur, ham bo'lur daf'i g'am.
Agar aqlu xush bo'lsa fikrin yurit,
Eshit Sa'diy so'zin, qulog'ingda tut.
Ko'pincha shu haqda so'zi barkamol,
Emas ko'zu qosh ta'rifi yoki xol.

HIKOYAT

Birov qoldirib yuz ming oltin sabil,
Vafot etdiyu qoldi yaxshi o'g'il.
Baxillar kabi saqlamay pulni ul,
Saxiylar kabi qildi ehson nuqul.
Uzulmas edi eshigidan gado,
Saroyida mehmon to'la doimo.
U shod etmagan balki dil qolmadi,
U pulga otadek qulf solmadi.
Dedi bir malomatchi, e soddadil,
Puling hammasini tamom etmagil,
Kerak xirmon etmoq uchun yozu qish,
Emas mardlik lahzada o't qo'yish.
Zaru nozi ne'mat emas poydor,
Eshitmabmudingkim bu xil qissa bor:

MASAL

Qiziga dedi yaxshi dehqon ayol,
To'kinlikda ochlikni qilgil xayol.
Idishlarni suv birla to'lg'az tamom,
Ariqdan oqib turmagay suv mudom.
Butun davlating do'st uchun sochmagil,
Zarar berguvchi yovdan andesha qil.
Quruq qo'l qilolmaydi mushkulni hal,
Uzun qo'l o'yar dev ko'zin har mahal.
Boru yo'qni sarf etganingdan keyin,
Topilmas kerak vaqtida bir tiyin.
Gadolar-ku to'ymaydi xayring bilan,
O'zing och qolursanmi deb qo'rqaman.

HIKOYAT

Baland erdi bir mardning himmati,
Va lekin yetushmas edi davlati.
Nechun davlati borda yo'q himmati,
Nechun himmati borda yo'q davlati?!
Daromaddan ehsoni ko'proq edi,
Shuning-chun uning cho'ntagi qoq edi,
Unga xat yozib dedi bir kambag'al,
Eshit, e saodatli, baxti go'zal,
Bir oz zar berib hojatim qil ravo,
Zamonlar yoturman bu zindon aro,
Ko'zi ilmas erdi jahon narsasin,
Ba lekin yo'q erdi qo'lida tiyin.
Uning yovlari oldiga, pokdil,
Borib aydi: ey yaxshilar, men kafil,
Qo'lingizni torting u bechoradan,
Kafilman agar qochsa bu oradan.
Kirib so'ngra zindonga, tur, qoch dedi,
Oyoq bo'lsa senda, yugur, qoch dedi.
Qafasni ochilgan ko'rib qush misol,
Chiqib ketdi hech to'xtamasdan shu hol.
Shamoldek uchib sayr etardi chunon,
Yetolmasdi gardiga el hech qachon.
Uning o'rniga ushladilar buni,
Dedilarki «zar ber va yo top uni.
Uchib ketsa qush, qayta kelmaydi u,
U qochdiyu zindon aro qoldi bu.
Eshittim qamoqda edi oyu yil,
Na yig'lardi, na shikva aylardi, bil.
Yotar erdi kulfat chekib ko'p zamon.
O'tib qoldi bir pokdil shu tomon.
Dedi o'ylamasmanki sen o'g'risan,

Yotursan nega bunda gar to'g'risan?
Dedi: ey muboraknafas, mehribon,
Birov molini yemadim hech qachon.
Yotardi shu zindonda bir notavon,
Chiqordim, uning o'rmin etdim makon.
Bu mardonalikdan emas-ku, axir,
Men ozod yurib, o'zga bo'lsa asir».
Vafot etdi oxir olib yaxshi nom,
Uni o'ldi dema, tirikdir mudom.
Tirikdil o'lik yotsa tuproqda ham,
O'likdil tirikdan ko'ra muhtaram.
Agar yaxshi o'lsa dili o'lmagay,
Yomon o'lsa ham hech zarar bo'lmagay.

* * *

Uzoqni ko'ruvchi kishi mutlaqo,
Hayotida kek saqlamas dil aro.
Ko'rar ul kishi xirmonidan zarar.
Boshqochini qahr ila quvlar agar.
Agar o'lsa bir zolimi nobakor,
Shu choqda ezilgan bo'lur baxtiyor.
G'ariblar dilin ezmagil jabr etib,
Mabodo bo'lursan o'zing ham g'arib.

HIKOYAT

Buyuk mardlardan birining ishin
Agar mard bo'lsang, eshit, so'zlayin.
Do'kondan olib Shibliy¹ bir xalta don,
Ko'targancha qishloqqa yetdi shu on.
Chumolini ko'rdiki sarson bo'lib,
Yurar doni ichra parishon bo'lib.

¹ *Shibliy* – Shayx Shibliy, tasavvuf allomasi.

Butun tunda uyquasi kelmas edi,
Olib keldi o'z joyiga so'ng dedi:
Muruvvatdan ermas chumolini, man –
Ayirsam, judo qilsam o'z joyidan.
Ezilgan kishilar dilin shod qil,
O'shanda diling shod bo'lur muttasil.
Eshit pok Firdavsiydan sen buni,
(Xudo yorlaqab rahmat etsin uni).
Chumolini ranjitma aslo dilin,
U ham jonlidir, hammaga jon shirin.
Bosib ezma ojizni, e pahlavon,
O'zing ham bo'lursan biroq notavon.
Yomon holga tushganni shod et dilin,
Unutma yomon kun kelib qolmasin.
Qara sham' parvonaga o't qo'yib,
O'zi ham el oldida bitdi kuyib.
Birov balki sendan ko'ra notavon,
Birov balki sendan ko'ra pahlavon,
Kerak, ey o'g'il, vahshi oviga zo'r,
Ko'ngil ovlamoqlikka ehson zarur.
Qilib yaxshilik, bog'la yo bo'ynidan,
Kesilmas bu zanjir sira tig' bilan.
Yomonga yomonlik qilur do'sti ham,
Ekib arpa kim qildi bug'doy g'aram.
Solursan agar do'stga ranju alam,
U kelmaydi. Boqmaydi rangingga ham.
Agar yovga kim shafqatin ko'rsatar,
U ham oxiri balki do'sti bo'lar.

HIKOYAT

Kelardi yo'l ustida bir navqiron,
Unga ergashar erdi bir qo'y ravon.

Dedim: bo'ynidan bog'lamishsan buni,
Pishiq chilvir ergashtiribdir uni.
Olib boshbog'in bo'ynidan ul zamon,
Yugurdi o'zi har taraf-har tomon.
Chopar erdi qo'y qolmay undan uzoq,
Qo'lidan yegan erdi dumbul boshoq.
Kelishdi ular o'ynashib qancha dam,
Yigit dedi: «E puxta – dono xo'jam,
Yetaklovchi chilvir emas, e janob,
Buning bo'ynida shafqatimdir tanob.
Ko'rib vahshi fil filbon ehsonini,
Itolat qilib oldi farmonini.
Yomonlarga ham mehribon bo'l mudom,
Tuzing oqlagay, itga bersang taom».

HIKOYAT

Ko'rib qoldi shal tulkini bir kishi.
Dedikim qiziqdir xudoning ishi.
Bu ahvolda qanday tiriklik qilur,
Ne ushlab yegay qo'l, oyoqsiz erur.
U odam turar erdi hayrat bilan,
Chiqib qoldi bir sher shag'ol ushlagan.
To'yib yedi-yu qolganin tashladi,
U sarqitni tulki yeya boshladi.
To'yib sherdek, qolganin xayr qil,
Yema tulkidek sarqit, e soddadil.
Kishi sher kabi bo'lsa ham pahlavon,
Agar tulkilik qilsa, itdan yomon.
Halol topgilu yoru do'st-la yegil,
Birovlarning hech sarqitin kutmagil.
Halol ishla, mardlarcha ayshingni sur,
O'zi ishlamay yesa nomard erur.

Qarilarni sen qo'lla, e navqiron,
Yotib olma sen, qo'lla deb har qachon.
Aqlli kishida bo'lur himmati,
Xasislarda yo'q aqliyu fikrati.

HIKOYAT

Eshitdimki, bir mardi pokizadil,
Yurardi Rum atrofida muttasil.
Jahongashtalar-la edim hamsafar,
Ziyorat qilurmiz uni, dedilar.
O'pib yuz-qo'lin har kishini u dam,
Qilib hurmat o'tqizdi – o'ltirdi ham.
Badavlat ekan, bor ekan unda baxt,
Ba lekin o'zi mevasiz bir daraxt.
Yuzi issig'u so'zda xo'b mehribon,
Ba lekin o'chog' muzda, suvda qozon.
U uyg'oq butun tunda toat bilan,
Biz uyg'oq, qorin och qanoat bilan.
Tong otgach eshik ochdi bel bog'labon,
O'shal kechagidek shirin, mehribon.
Bor erdi shirin bir yigit sho'xchan,
Musofir shu manzilda u biz bilan.
Dedi bo'sa harfin tuzat, so'ngra ber,
Gado bo'sadan to'shani¹ yaxshi der.
Qilib ehtirom kavshim artish nadur,
Berib menga non, mayli, kavsh ila ur,
Topar mardlar ehson bilan ko'p zafar,
Emaslar ular sen kabi bexabar.
Ko'ribman mo'g'ul posbonin shu xil:
Butun tunda uyg'oq o'zi murdadil.

¹Bo'sa harfini arabcha yozishda biroz isloh bilan to'sha o'qish mumkin,
to'sha – yo'l ozuqasi, yemak.

Karomat saxiylik-la mardlik erur,
Quruq so'z ichi bo'sh nag'ora bo'lur.

HIKOYAT

Eshitdimki Hotamda bir tim-qaro
Oti bor ekan uchquru bebaho.
Momaguldirakdek ekan kishnashi,
Chaqindan o'zar unga mingan kishi.
Chopar tog'u sahroga u ter sochib,
Bulut derding o'tganda og'zin ochib.
U seldek borar cho'lda borgan sayin,
Qolur chang kabi yel ham undan keyin.
Shaharlarda Hotamni el maqtashar,
Uning madhi sultoni Rumga yetar.
Saxiylikda hech tengi yo'q derdilar,
Uchar otini maqtashar erdilar.
Oti, kema daryoda, cho'l ichra sel,
U uchganda shunqor ucholmas dadil.
Dedi shunda dono vaziriga shoh
Uyatdir, adovat qilish begunoh,
Tilay zotli tulporini bir safar,
Muruvvat-la topshirsa Hotam agar,

Bilurman saxidir, agar rad qilur –
Dovul bongidek shuhrati puch erur.
Ilmli bir oqilni Tayga¹ shu on,
Qo'shib o'n kishi birla qildi ravon,
Bulut yosh to'kardi yer o'lgansimon,
Shamol qaytadan keltirar erdi jon.
Yurib yetdi Hotam uyiga alar,
Degil suvga yetdi yurib tashnalar.

¹ Tay – qabila ismi.

So'yib otu qandu shakar to'kdi u,
Yetaklab to'la nuqra zar to'kdi u.
Tunab ul kecha ertasi ertalab,
Ular etdilar otni undan talab.
Parishonlik o'rtardi Hotam dilin,
U hasrat tishi birla tishlab qo'lin,
Der erdi: ayo oqili zufunun,
Burunroq menga aytmading ne uchun.
Men ul uchqur otimni so'ygan edim,
Pishirgan edim, sizga qo'ygan edim.
Kecha o'ldi-ku shuncha bo'ron-shamol,
Borish qo'raga bo'ldi amri mahol.
Qo'limda yo'q erdi shu otdan bo'lak,
Shuni noiloj kecha etdim gazak.
Menimcha, muruvvat emasdi shu on,
Qarab tursamu yotsa och mehmon.
Saxiylik-la dunyoda qolsin otim,
Agar ketsa ham mayli bunday otim.
Jo'natdi berib molu zar shul nafas,
Tabiiy erur xulqu, kasbiy emas.
Yetib Rumga Tay mardidan xush xabar,
Dedi shah: «Yasha, ofarin, top zafar».
Shu birlan tugal dema Hotam ishin,
Eshit yaxshiroq qissasin aytayin.

HIKOYAT

Hotam to'g'risida ikkinchi hikoyat
Unutdim, eshitgan edim kimsadan.
Yaman shahrida qaysidir shoh bor ekan.
Jahon shohlaridan ekan g'olib ul,
Saxiylik maqomida olamshumul.
Desang, bo'gay ehson buluti uni,

Socharkan u yomg'ircha zar har kuni.
Birov tilga olganda Hotam otin,
Uning rashki aylantirardi boshin.
Der erdiki «na taxtu na toji bor,
Nechun unda bor bunchalik e'tibor».
Eshitdimki shohona bazm etdi soz,
Yig'ib xalqni ayladi sarfarozi.
Birov ochsa so'z Hotam ehsonidan,
Biri ofarin derdi shah birovga shu on,
Olib kel uning boshini beomon.
Zamonamda Hotam tirik bor ekan
Tanilmayman elda saxiylik bilan.
Jo'nab ketdi jallod bani tay¹ tomon,
U Hotamni o'ldirgali beomon.
Yo'liqdi yo'l ustida bir navqiron,
Edi himmati chehrasidan ayon.
Shirin so'zli, dono yegit daf'atan
Olib ketdi mehmonni taklif ilan.
Uni qildi xo'b izzatu ehtirom,
G'arazlik dilin lutf etib qildi rom.
Oyog'u qo'lin o'pdi ertan turib,
Besh-o'n kun, dedi, ketma, o'yna yurib.
U mehmon dedi hech mumkin emas,
Kutar bir muhim ish meni har nafas.
Dedi Hotam: «Aytgil ishingni, bilay,
Bo'lib hamdaming senga yordam qilay».
Dedi kel qulog'ingni tutgil, eshit,
Bilurmanki sir soqlagay mard yigit.
Taniysanmi Hotam degan bor ekan,
Bu yurt ichra donoyu hushyor ekan.
Yaman shohiga boshi darkor emish,
Bilolmamki qanday gunoh aylamish?

¹ *Bani tay* – tay qabilasi.

Makonin agar ko'rsatarsan bu kun,
Sening do'stliging shul bo'lur men uchun.
Kulib u yigit aytdi Hotam o'zim,
Mana kes boshim, chin erur bu so'zim.
Agar tong otib qolsa bo'lgay yomon,
Murodga yetolmay ko'rarsan ziyon.
Boshin tutdi Hotam saxiylik bilan,
Yigit joni qiynaldi bu qissadan.
O'zin yerga tashlab ming o'rgildi u,
O'pib qo'l-oyog'ini termildi u.
Otib yerga shamshirini shul zamon,
Qo'lin ko'ksiga qo'ydi aylab fig'on.
Dedi: xohlasam senga zarra zarar,
Bo'lay mardlar oldida bir mushtipar.
Quchoqlab o'pib ikkala ko'zidan,
Yamanga jo'nab ketdi tezlik bilan.
Yuziga boqib angladi podsho,
Ki hech ish qilolmabdi u mutlaqo.
Dedi nega boshin kesib kelmading?
Nega qonjig'angga osib kelmading?
Hujum ayladimi biror nomdor,
Kuching yetmadimu, na sir bunda bor?
O'pib yerni mard dovyurak ushbu dam,
Duo qildi shohni, tutib boshini xam.
Dedi men uni ko'rdim – odam ekan,
Butun yaxshilik birla Hotam ekan.
Ko'rib himmatu aqlin etdim pisand,
Ekan mardlikda u mendan baland.
Egildim uning himmatu lutfidan,
Boshim kesdi ehson qilichi bilan.
Bayon etdi u hamma ko'rganlarin,
Dedi shah Tay avlodiga ofarin.

HIKOYAT

Birov eshagi loyga botgan edi,
Bu ishdan dili qonga botgan edi.
Yog'ar erdi yomg'ir, edi cho'l sovuq,
Butun yer yuzida qarong'u quyuq.
Tong otguncha ahvoli og'ir edi,
So'kundi, tiliga ne kelsa, dedi.
So'kar erdi shohu gadolarni ham,
Butun dushmanu oshnolarni ham.
Kelib qoldi shu lahzada podsho,
Biroq sezmadu u kishi mutlaqo.
Eshitgach uning ko'p haqoratlarin,
Biror so'z deyish shahga bo'ldi qiyin.
Uyaldu boqdi sipohlar tomon,
Dedi: nega so'kkay meni ko'p yomon?
Biri aydi: «E, shoh boshin kes shu dam,
Bu dard o'tmasin to bo'laklarga ham».
Nazar soldi shoh unga ushbu mahal,
Eshak loyda, kulfatdadir kambag'al.
Shu damda g'aribning gunohin o'tib,
Unutdi haqoratni jahlin yutib.
Zaru otu to'n berdi ushbu mahal,
Qasos vaqtida mehr qanday go'zal.
Biroq dedi, e beaql sodda chol,
Tirik qolmog'ing erdi amri mahol.
Dedi shikva menga muvofiq edi,
Shu qilgan ishi shahga loyiq edi.
Yomonlikka oson yomonlik qilish,
Yomonlik uchun yaxshilik og'ir ish.

HIKOYAT

Birov sarf etishga botinmas edi,
Puli ko'pu hech ko'zi qiymas edi.
Yemas erdi och yursa ham tunu kun,
Na bergay edi xayru ehson uchun.
O'zi – zar asiri kecha-kunduzi,
Kishan solgan oltinga ham shul o'zi.
Bilib oldi o'z o'g'li poylab sekin,
U nokas ko'p oltinlarin ko'mganin.
Eshitdim zar o'rniga tosh berkitib,
Sovurmish butun zarni barbod etib.
Saxiy mardda u zar tura olmadi,
Sal o'tmay qo'lida sira qolmadi.
O'zini bo'g'ardi ota dod etib,
O'g'il bazm etardi dilin shod etib.
Ota uxlamay, tunda yig'lar edi,
O'g'il ertalab kuldi, unga dedi:
Ota! Zarni yig'mangu eng deydilar,
Zaru toshni ko'mganda teng deydilar,
Qazib konlar oltin olurlar, nechun:
Maishat uchun, xayru ehson uchun,
Xasis ilgida bo'lsa oltin, agar,
Hali ham u – tosh bag'ri ichra yotar,
O'g'il-qiz bilan yemasang zar turib,
Sira nolima qarg'acha oh urib.
Baxil boyda har qancha ham bo'lsa zar,
Ilondek bu ganj uzra bosib yotar.
Zar ustida titrar baxil,
Shuning-chun turar oltini qancha yil.
Ajal toshi-la yanchadirlar uni,
Zarin taqsim etgaylar o'lgan kuni.
Chumoliga o'xshab tashib, ye bukun,

Seni go'rd a qurtlar yemasdan burun.
Nasihat erur Sa'diyning so'zlari,
Amal aylasang foyda bergay bari.
Buni bilmaganlar pushaymon bo'lur,
Eshitganni rizqi farovon bo'lur.

HIKOYAT

Qilib bitta darvishga ehson yigit,
Chiqargan edi hojatini, eshit.
Qilib qo'ydimi, bilmadim, bir gunoh,
Buyurdi osing deb uni podshoh.
Sipohlar to'la xalq yig'ilgan butun,
Ko'cha-ko'yda, tom da tomosha uchun.
Bu g'avg'oda ko'rdi u keksa g'arib,
Yigit tutqinu, o'lim unga nasib.
Dili kuydi u mard yigitga shu dam,
Dilin ovlagan erdi qay kun u ham.
Chunon yig'ladi yaxshi shoh o'ldi, deb,
Ketib yaxshi, olam yetim bo'ldi, deb.
Urardi o'zin dodu faryod etib,
Shoshib qoldi jallod buni eshitib.
Sipohlar qilib ohu voyu fig'on,
Yuzu ko'zlarini yulib shu zamon,
Yayov shoh saroyigacha chopdilar,
Biroq shohni taxtda tirik topdilar.
Yigit qochdi, ammo g'aribni shu on
Tutib bordilar bog'lashib shoh tomon.
Dedi unga shah do'g'u haybat bilan,
Meni o'lmog'im xohlading nega san?
Kirib so'zga botir g'arib shu zamon,
Dedi: eyki hukmingdadir bu jahon.
Tiriks an-ku, shah o'ldi degan bilan,
Ba lekin omon qoldi bir jonu tan.

Bu so'zni eshitmoq-la shah bo'ldi shod,
Unga lutfu ehsonni qildi ziyod.
Yigit bir tomonga qochardi shu dam,
Yiqilgan, surilgancha tashlab qadam.
Birov aytdiki bu o'lim hukmidan,
Qutulding-u, qolding na hikmat bilan?
Qulog'iga dedi, ayo mehribon –
Men ehson-la topdim o'limdan omon.
Birov yerga sochgay urug', bil shuni,
Berar unga hosillar ochlik kuni.

* * *

Dedik yaxshidir xayru lutfu karam,
Ba lekin qilaberma har kimga ham.
Sitamgarni qil mol-u jondan judo,
Yomon qush qanotini yul beibo.
Zararli tikanni yul, e baxtiyor,
Daraxt ekki, bo'lsin shirin mevador.
Ulug' tut shu odamnikim har qachon,
U bo'lsin kichiklarga xo'b mehrubon.
Sitamgarga shafqat qilursan agar,
Shu ham el uchun zulmu – bergay zarar.
Jahon kuydiruvchi, kuyib ketsa, boq,
Jahon kuyganidan ko'ra yaxshiroq.
Agar o'g'riga kimki shafqat etar,
O'zi o'g'ri bo'lgay, o'zi yo'l to'sar.
Sitam qilguvchilarni yelga sovur,
Sitamgarga qilmoq sitam – adl erur.

HIKOYAT

Eshitdim: birovning uyiga kirib,
Ari in solibdi xaloqit berib.

Ota der qizigaki «Bolta keltir,
Arining uyin buzmog'indir zarur».
Dedi xotini: buzmagil mutlaqo,
Bu miskinni qilma vatandan judo.
Chiqib ketdi er shunda buzmay uni,
Xotinni ari chaqdi xo'b, bir kuni.
U nodon xotin chiqdi faryod urib,
Shu dam dedi eri bu holin ko'rib:
Ne faryod etarsan? G'amin yeb eding,
Bu miskin uyin buzmagil, deb eding.
Yomonlarga kim aylasa yaxshilik,
Oshib borgay unda yomonroq qiliq.
Agar har kishi mardumozor erur,
Uning boshini kesmog'ingdir zarur.
Biling, nayshakardan azizroq emish,
Urush paytida nayza bo'lgan qamish.
Bu hikmatli so'zni deb erdi birov:
«Og'ir yukni bos, bo'lsa oting asov».
Mushuk saqlama, chunki kaptarni yer,
Agar saqlasang bo'ri, Yusufni ber.
Emas har kishi mol-u izzatga bob,
Birovga qil ehson, birovga azob.
Agar bo'lmasa qaysi uyda tayanch,
Balandlatma, bo'l ehtiyot, yo'q ishonch.
Yo'lin bog'lagil, suv agar kam ekan,
Ko'paysa o'tolmas kishi fil bilan.
Bo'ri tushsa qalqonga o'ldir shu on,
Gar o'ldirmasang qo'yga bermas omon.
Yog'och izlama o'ldiray deb ilon,
Toshing qo'ldami? Boshini yanch shu on.
Sitamgar qo'lida yurarkan qalam,
Qo'lini qilich birla qilg'il qalam.
Olur baxtiyor Sa'diy pandin mudom,
Shudir aqlu hikmat, shudir intizom.

UCHINCHI BOB

ISHQ HAQIDA

O'zingdek bir odamning ishq i butun
Olib sabru oroming aylar zabun.
Gar uyg'oq esang husnidir fitnagar,
Xayoli seni uyquda band etar.
Qo'yarsan oyog'iga boshing chunon,
Ko'rinmas ko'zingga bu jonu jahon.
Pisand bo'lmagach unga ming sidqu zar,
Ko'z oldingda tuprog'u zar tenglashar.
Bo'lolmaysan o'zga bilan hamnafas,
U bor joyda sig'maydi bir o'zga kas.
El oldida rasvolig'ingdan na g'am,
Na sabr etkali toqating boru dam.
Agar jon tilar, jon tutarsan shu on,
Agar tig' solur, bosh egarsan shu on.

HIKOYAT

Eshitdimki, bir yallachi yallasin,
Eshitdi-yu raqs etdi bir nozanin.
Jigarso'xtalar qurshab erdi shu on,
Tegib etagi shamga, kuydi chunon.
Ki u qahr qildi, dili ranjidi,
Birov do'stlaridan ne g'amdir, dedi.
Bu o'tda faqat senda kuydi etak,
Kuyib bitdi-ku menda jonu yurak.

HIKOYAT

Shirin so'zli bir nozanin bor edi,
Samarqandda-yu, kimsa xushtor edi.

Jamoli quyoshdan ko'ra barkamol,
Qiyo boqishi sufilikka zavol.
U yurganda ko'zlar o'pardi izin,
Qilardi unga sadqa do'stlar o'zin.
U do'sti tikildi baland ishtiyoq,
Kelib jahli, dilbar dedi: tut quloq,
Payimdan yurarsan hamisha mening,
Tuzog'ingdagi qush emasman sening.
Agar ko'rsam ikkinchi marta shu xil,
Kesay xuddi dushmancha boshingni, bil.
Birov debdi endi yo'ling ol, yo'qol,
O'zingni osonroq biror yo'lga sol.
Demaki dilim maqsadiga yetar,
Mabodoki bu yo'lda joning ketar.
Malomat eshitti chin oshiq shu on,
Dilu jonidan chiqdi achchiq fig'on.
Dedi: mayli ajralsa jondan tanim,
Uning tig'i-la yaxshidir o'lganim.
Sharafdir menga do'stu dushman ko'rib,
Desa: yori o'ldirdi shamsher urib.
Uzoqlashga yo'l bermagay niyatim,
Agar to'ksa ham zulm etib hurmatim.
Deding menga, e bexabar! Tavba qil,
Bu so'zdan o'zing top asar, tavba qil!
Kechirgil meni, har nakim u qilur,
Gar o'ldirsa ham yaxshi qilgan bo'lur.
Agar har kecha o't qo'yib kuydirar,
Hididan manga har sahar jon kirar.
Bu jangdan sira qaytma, qil mardlik,
Uning ishqida o'lsa Sa'diy, tirik.

HIKOYAT

Bir oqil kishiga kelinchak kelib,
Mehrsiz eridan shikoyat qilib,
Dediki: kulib boqmagay bu yigit,
O'tar turmush achchig', sen arzim eshit.
Bu elda yashar qancha yoshu qari,
Parishon emas bizchalik dillari.
Turarlar bo'lib er-xotin mehribon,
Degaysanki bir tan aro ikki jon.
Arodan o'tib ketdi necha zamon,
Kulib boqmas erim menga hech qachon.
Bu so'zni eshitdi o'shal puxta chol,
Edi so'zga usto, tetik, barkamol.
Shirin so'z bilan berdi unga javob:
Sevikli esa er, chidab chek azob,
Kechish bunday erdan pushaymon berur,
Topolmaysan, dilda armon bo'lur.
Judo bo'lma, chunki, u bo'lsa judo,
Hayoting bitar, bo'lgay umring ado.
Aql qancha zo'r bo'lsa-yu nomdor,
Uni ishq zo'ri qilur tor-mor.
Junun xush qulog'ini tovlar ekan,
O'ziga kelolmas aql qaytadan.

HIKOYAT

Temirdan yasab panja bir navqiron,
Uni sherga urmoqchi erdi shu on.
Biroq panjasi birla bir urdi sher,
Qo'lidan tushib panjasi, o'pdi yer.
Birov dedi: e zanchalish, beyurak,
Temir panjani sherga otmoq kerak.

Eshitdim der erdi boqib yerga:
Bu xil panja kor etmagay sherga.
Gar oqilning aqliga ishq chang solur,
Temir panja-yu sherga monand erur.
Aqldan sen ishq oldida ochma til,
U chavgonu, bu – to‘p erur, yaxshi bil.

HIKOYAT

Amakivachchalar er-xotin bo‘ldilar,
Quyosh yuzli har ikki oliy guhar.
Xotin erini xuddi jondek sevar,
Biroq xotinidan u nafrat etar.
Yigitga dedilar qarilar shu choq,
To‘la mahrini, sevmasang qil taloq.
Dedi u kulib, mayli yuz qo‘y beray,
Shu birlan qutulsam ziyon bermagay.
Kelinchak yuzin yuldi yig‘lab chunon,
Judolikka yo‘q toqatim deb shu on.
Na yuz qo‘yki, yuz mingini bersa ham.
Chidolmasman aslo uni ko‘rmasam.

HIKOYAT

Dedi kimsa Majnunga: e nuktadon,
Nega kelmagaysan sira Hay¹ tomon?
Magar Layli ishqin unutdingmu san?
Bo‘lak yor yo‘lini kutdingmu san?
Eshitdi-yu bechora qon yig‘ladi,
Azizim, tiling tort bu so‘zdan dedi.
Dilim parcha-parcha tamoman yara,
Jarohatga tuz sepma, do‘stim, sira.

¹Hay – Layli qabilasining nomi.

Uzoq yurgali toqatim yo'q erur,
Ba lekin uzoq yo'l bo'larkan zarur.
Dedi: e vafodoru pokiza dil,
So'zing bo'lsa Layliga aytay, degil.
Dedi: nomim eltmoqqa qilma havas,
Bu nomim u bor joyga loyiq emas.

* * *

Arab nolasiga tuya raqs etar,
Ko'rarsanmi zavqi dilin uyg'otar.
Tuyada shu xil zavq bo'lgach, demak,
Gar odamda zavq bo'lmasa, u – eshak.

HIKOYAT

Go'zal bir yigit nay chalardi mudom,
Qilar erdi ta'siri dillarni rom.
Solib unga shovqin ota doimo
Der erdiki: yoqmas menga bu sado.
Biroq tingladi yaxshilab bir kuni,
Uni behush etdi shu nayning uni.
Yuzin ter bosib derdi: qildi asar,
Dilu jonga o't yoqdi nay bu safar.

* * *

Ko'zimdan tamom uyqu qochgan edi,
Eshitdimki parvona shamga dedi:
Men oshiqmanu menga kuymoq ravo,
Kuyib yig'lagaysan nechun doimo?
Dedikim, shuning-chun kuyib yig'lagum.
«Azaldan judolik meni etdi mum.
Go'zal Shirinimdan bo'libman judo,
Dilim o'tda, Farhoddek, doimo».

Shu so'zlarni deb yig'lar erdi tag'in,
Sarig' yuz uza yog'dirardi yog'in.
Qo'y, e muddaiy¹, ishq ishingmas sani,
Dilingda chidam, sabru toqat qani?
Qocharsan kichik shu'ladan ham mudom,
Turarman kuyib bo'lganimcha tamom.
Kuyar-ku faqat bir qanoting sening,
Butunlay kuyar bosh-oyog'im mening.
Faqat boqma nurimga majlis aro,
Kuyib yig'lashimga qara doimo.
Hanuz tundan o'tmay deyarli zamon,
O'chirdi kelib bir go'zal nogahon.
Boshida tutun birla ketdi shu xil,
Eshit ishq axiri shudir, e o'g'il!
Bilish istasang ishq yo'lini agar,
Yonishdan, kuyishdan o'lim qutqazar.
Gar oshiq esang darddan qochmagil,
Bu Sa'diycha qo'l yuv g'arazdan, o'g'il.
Yaqin borma to'lqinli daryoga hech,
Borarsan agar, jondan albatta kech.

TO'RTINCHI BOB

KAMTARLIK HAQIDA

Bulutdan tomib tomchi suv nogahon,
Xijil bo'ldi daryoni ko'rgan zamon.
Dedi: «Daryo bor joyda kimman o'zim,
U bor joyda o'zlikni ilmas ko'zim».

O'zin kamsitib bo'ldi kamtar faqat,
Shuning-chun sadaf ayladi tarbiyat.

¹ *Muddaiy* – pastkash.

Oshirdi chunon qiymatini zamon,
Uning nomini marvarid der jahon.

Azizlikni topdi, bo'lib xoksor,
Bo'lib kamtarin, topdi ko'p e'tibor.

* * *

Bo'lay desang izzatda boqma yomon
Boshqalarga, nokas kishilarsimon.
Agar bo'lsa har kimda to'g'ri xayol
Demas kibr birlan toparman kamol.
Bo'lak yaxshi nom istama. Shul yetar,
Seni yaxshi odam desa el agar.
Agar tenging senga kibr etar,
Bilursanki nazdingda qadri ketar.
Agar senda ham bo'lsa kibru havo,
Ko'ringaysan elga shu xil badnamo.
Aqli, ulug'lar jahonda sira
G'ariblarga kulmas, qilib masxara.
Ko'pincha ulug'lar tushib qoldilar,
Zaiflar ularning o'rnin oldilar.
Faraz ayladim: yo'qdir aybing saning,
Sen ayb etmagil, bo'lsa aybim mening.
Agar mard esang hech maqtanmagil,
Zafar topmadi maqtanib kimsa. Bil.
Piyoz – po'st erur, boshqa hech narsa o'q,
U o'ylar o'zin pistadek mag'zi to'q.
So'z oqil elidan qolur yodgor,
Buni Sa'diydan esda tut zinhor.

HIKOYAT

G'arib, eski to'n mulla bir onida,
Qatorda edi, qozi ayvonida.

Unga qozi tez-tez qarardi shu dam,
Birov «tur bu joydan» deb imlardi ham.
Der erdi bu joy senga loyiq emas,
Tuban tush, ketu, xohi tur, bo'ldi, bas!
Emas har kishi to'rga loyiq mudom,
Topar har kishi fazlicha ehtirom.
Bo'lak bir nasihatchi hojat emas,
Yetar, ushbu sharmandalik o'zi bas.
Tuban tursa, kim saqlab o'z izzatin
Yo'qotmas, u pastga tushib hurmatin!
Ulug'lar maqomin olurman dema,
Kuching bo'lmasa shercha, sherman dema.
Tutun chiqdi o'tdek g'arib boshidan,
Baland o'rnidan turdi, tushdi tuban.
Shu majlisda boshlandi bahs-u jadal,
Biri «u», biri «bu» dedi galma-gal.
Shu dam avj olib fitnau mojaru,
Biri «to'g'ri» derdi, birisi «xato».
Der erding xo'rozlarcha aylab yurush,
Qilar erdilar qo'lu tumshuq urush.
Jaholat birin mast aylar edi,
Biri qahr ilan yerni mushtlar edi.
Kelib qoldilar bir tugun birla duch,
Yechishga topilmasdi hech kimda kuch.
Quyidan turib shul dam eski chopon,
Xurush etdi o'rmondagi shersimon.
Dedi: puxta hujjat kerak bir talay,
Kekirtak cho'zishlik dalil bo'lmagay.
Dedi: bilganim men ham aytsam bo'lar,
Dedilar: degil yaxshi bilsang agar.
U izzat bilan cho'kka tushdi shu hol,
Til ochgan hamon etdi tillarni lol.
Tili nay qalamdek yurib, maqsadin

Uzuk naqshidek chizdi dillarga chin.
U baxsh etdi suratga jon, ma'nidan
Yo'q etdi u da'volarin shu bilan.
Dedilar ular senga ming ofarin,
Baland aqlu fikringga ming ofarin,
So'z otini maydonda chopdi chunon,
Ki qoldi qozi loyda eshaksimon.
O'rindan turib salla-to'ndan kechib,
Yubordi, unga, hurmat aylab, yechib.
Ming afsuski, qadringni men bilmadim,
Sening kelganing shukrini qilmadim.
Achintirdi bu xilda holing meni,
Tubanda g'ariblarcha ko'rmoq seni.
Mulozim kelib hurmat ila yaqin,
Uzatdi unga qozining sallasin.
Qabul etmadiyu qo'lin siltadi,
Meni bandi qilma g'ururga dedi.
Meni ham deganda o'zidan baland,
Ko'zimga ko'ring'usi el nopisand.
Ne farqi bo'lur suvga, bo'lsa zulol,
Erur bosh uchun aqlu ma'no hilol.
Ne hojat menga salla birla g'urur.
Kishi qiymati katta boshda emas,
Ko'tarmoq uchun oshqovoq arzimas.
Soqol, salla birlan g'ururlanmagil,
Soqolni ko'kat, sallani paxta bil.
Faqat surati odam ersa agar,
Jim o'ltirsa suratcha yaxshi bo'lar.
Oshir martabang ilmu fazling bilan,
Zuhaldek¹ yuqorida bo'lma tuban.
Ming o'ssa qamish bo'lmagay lazzati,

¹*Zuhal* – Nahs deb sanalgan yulduzning nomi.

Shirinlik – shakarnay xususiyati.
Shu aqlu shu himmat-la odam demam,
Agar yuz qul orqangdan ergashsa ham.
Eshak mo'nchoq aytardi bir yaxshi gap,
Uni xomtama' loydan olgach o'rab:
Meni kimsa bir pulga ham olmagay,
O'rab, chirmab, o'ltirmagil jinniday.
Ko'kat qiymati oshmagay hech dam,
Agar lolalar ichra o'sganda ham.
Kishi pul bilan bo'lmagay muhtaram,
Eshakdir – eshak, gar ipak kiysa ham.
U dono shu xil puxta so'zlar bilan
G'uborin yuvib tashladi qalbidan.
Dili ranjiganlar dag'al so'zlagay,
Yovi qo'lga tushganda bo'shshmagay.
Qo'lingdan kelur vaqtda yov boshin ez,
Diling ravshan et, o'tmayin ushbu kez.
Chunon qozining bo'ldi holi xarob,
Qiyomatmi, dedi, bu qanday azob.
Iki barmog'in tishladi shul zamon,
Qarab qoldi ko'zi bo'lib farqadon.
O'shal dam yigit, burdi himmat yuzin,
Chiqib ketdi, hech topmadilar izin.
Ulug'lar aro tushdi shovqin-suron:
Bu xil mardu dono qayerlik debon.
So'rab kezdi taftishchi, taftish qilib,
Sifatlab shul odamni kim ko'rdi deb.
Bir odam dedi: bul ajoyib sifat
Bu shahr ichra Sa'diyda bordir faqat.
Dedi ofarin unga, ming ofarin,
Shirin, achchig' o'rniida, qanday shirin.

* * *

Shirin so'zli shilgay g'anim po'stini,
Dag'al so'zli dushman qilur do'stini.
Yuzin kimki sandon kabi aylamas,
Boshi bolg'adan hech zarba yemas.
Zafar topsa bo'lgay shirin so'z bilan,
Azobda yurar kim dag'also'z ekan.
Shirin so'zni o'rgan mudom Sa'diydan,
Dag'al so'zli odam o'tar g'am bilan.

HIKOYAT

Sotardi asal bir shirin so'zli yor,
Ko'ngillarni o'rta b u shirin nigor.
Shirinlar shakarnaycha bel bog'labon,
Xaridor bo'lib hamma pashshasimon.
Agar qo'lida bo'lsa hatto zahar,
Qo'lidan asaldek olib yerdilar.
Nazar tashladi badqovoq bir dag'al,
Hasad qildi savdosiga shul mahal.
U ham kezdi erta turib darbadar,
Boshida asal, chehrasida zahar.
Baqirdi «asal ketdi» deb dam-badam,
Biroq boliga qo'nmadi pashsha ham.
Qilolmay biror pulcha savdo shu kun,
O'tirdi kelib g'am chekib, kechqurun.
Hayit kunda mahbuslar qoshidek,
Burushdi yuzi, g'amli o'tirdi teg.
Kulib xotin erga dedi ushbu dam,
Achig'dir, achig' so'zlining boli ham.
Shu xil kimsa nonin yemaklik harom,
Yuzi surpadek gar tirishsa mudom.

O'zingga yomonlikni ko'rma ravo,
Dag'al so'zli badbaxt bo'lur doimo.
Agar yo'q ekan senda molu puling,
Bu Sa'diycha ham yo'qmi shirin tiling.

HIKOYAT

Uzib oldi it bitta dehqon putin,
Tishi zahri etdi jarohat etin.
Uning dardidan uxlamay zor edi,
Uyida kichik bir qizi bor edi.
U qiz do'q urib otasin qildi tang,
Dedi: senda tish yo'qmidi tishlasang?
Yig'isin qo'yib, bo'ldi bechora jim,
Boqib kuldi-yu, dedi: ona qizim!
Bor erdi kuchu quvvatim menda ham,
Va lekin tishim hayf uni tishlasam.
Agar kelsa ham boshim uzra qilich,
Tishim it oyog'iga bormaydi hech.

HIKOYAT

Malik Solih Shom shohlaridan edi,
Quli birla tong chog'i chiqqan edi.
Kezar erdi har bir tomon sayr etib,
Arabdek yuzin yarmisin berkitib.
G'aribparvar erdi-yu odamshunos,
Bu axloq solih maliklarga xos.
Ko'rib qoldi, masjidga nogah kirib,
Yotardi pareshondil ikki g'arib.
Biriga biri der edi, e jigar,
Qiyomatda tinglansa dodim agar,
G'ururi baland shohlarga qara:

Qilur bazmu ishrat dam olmay sira.
Ular gar bihisht ichra bo'lgay ekan,
Ko'tarmayman aslo boshim go'rdan.
Bihisht bizniki, tong-la bizning makon,
Shuning-chun bugun g'amdamiz beomon.
Bulardan qachon yaxshilik ko'rdi dil?
Qiyomatda ham qiynalurmi shu xil,
Kirib qolsa Solih bihisht bog'iga,
Uray kafsh birlan uning jog'iga.
Eshitdi bu so'zlarni Solih shu choq,
Dedi turmog'im maslahatdan uzoq.
Borib kutdi toki quyosh chiqsa deb,
Shirin uyqudan xalq uyg'onsa deb.
Buyurdi olib keldilar shul zamon,
Bahaybat turb, qildi hurmat ayon.
Karam yomg'irin yog'dirib beshumor,
Yuvib tashladi dillaridan g'ubor.
O'tib ketdi bir qancha ranju alam,
Ular bo'ldi hamdam ulug'larga ham.
Yolong'ochu och erdilar ko'p zamon,
Ular egnida endi shoyi chapon.
Biri shohga dedi, ayo mehribon!
Sening hukming ostida butkul jahon.
Ulug' bo'lgusi shahga yoqqon kishi,
Yoqibdir bu qullarning qaysi ishi?
Chamandek ochildi shahanshah labi,
G'ariblarga dedi kulib gul kabi:
Emasmanki davlat g'ururi bilan,
O'girsam yuzim xoru bechoradan.
Adovatni sen ham uloqtir, yo'qot,
Bihisht ichra do'st bo'lginu bo'lma, yot!
Yarash eshigin senga ochdim bukun,
Bihisht eshigin yopma menga u kun.

Shu yo'l birla yur izlasang baxt agar,
Gadolarni qo'llash qilur mo'tabar.
Irodang yo'q ersa, saodat qani?
Qilur xizimating yovga g'olib sani.
Iching bo'lsa qandilcha suvga tulug',
Bera olmagaysan chirog'dek yorug'.

HIKOYAT

Birov bilgan erdi nujumdan¹ biroz,
Shu birla qilurdi o'zi faxru noz.
Kelib topdi Gushyorni², yurgach uzoq,
G'urur boshiga sig'magan u sayoq.
Yuziga hakim boqmas erdi sira.
Sabaq o'rgatish yoqmas erdi sira.
U qaytar edi, bahrasiz qoq-quruq,
Dedi unga ko'p bilguvchi ul ulug':
Bilursan o'zingni juda seraql,
To'liq xumga ne ham sig'ar, yaxshi bil!
G'urur birla to'lgan boshing bo'sh ketar,
G'ururdan bo'shat, so'ngra ma'ni sig'ar.
Yo'qotsang g'ururingni Sa'diysifat.
Yig'ilgay dilingga bilim-ma'rifat.

HIKOYAT

Eshitdimki Luqmon qaropo'st ekan,
Emaskan u tanparvaru gulbadan.
Qulim deb birov ushlab oldi uni,
Imorat uchun boyga sotdi uni.
Azob chekdi-yu toldi bir yilgacha,

¹*Nujum* – astronomiya ilmi.

²*Gushyor* – fors mamlakatidagi bir astronom.

Uning-chun saroy soldi bir yilgacha.
Kelib qoldi qochgan quli nogahon,
Xijolat chekib qoldi xoja shu on.
Uzr aytdi Luqmonga ta'zim qilib,
Uzr foydasiz, dedi, Luqmon kulib.
Jafongdan dilim yil bo'yi chekdi g'am,
Osonliqcha chiqmas dilimdan bu dam.
Kechirsam bo'lur, e azizim, shu on,
U foydang menga bermadi hech ziyon,
Uying shunchalik etding obod san,
Oshib bordi menda bilim, ilmu fan.
Mening bir qulim bor ayo baxtiyor,
Buyurgayman unga og'ir ish qator.
Dilin endi ranjitmagayman uni,
Esimga kelur loy ishi har kuni.
Ulug'lar jafosini ko'rmay kishi,
Kichiklar azob cheksa ham yo'q ishi.
Amirlar so'zi senga malol,
Qo'l ostingdagilarga bo'lma qo'pol.

* * *

Biroz aytsa aybing xafa bo'lmagil,
Agar tuhmat esa, «bora qol», degil.
Desa mushkni sassiq bir ablah agar,
Xavotirlanib yurma yolg'on chiqar.
Chunon yaxshilik birla qo'ygil qadam,
Yomonlashga so'z topmasin muttaham.
Og'ir botsa dushman so'zi onгла-bil,
Ne aybingni aytsa, shuni qilmagil.
Shu odam bo'lur menga chin do'stu yor,
Ki aybim yuzimga desa oshkor.
El oldida bo'lg'ung aziz, mo'tabar,
O'zingni desang hammadan kam agar.

Mazorimdan o'tsang ayo pokdil,
Azizlar haqi bizni ham yod qil.
Agar Sa'diy tuproq bo'libdir, na g'am,
Edi xoksor ul tiriklikda ham.
Tanin tutdi tuproqqa, bo'lgach tamom,
Agarchi jahon kezdi eldek mudom.
Uzoq o'tmayin jismi tuproq bo'lur,
Shamol gardin olamda aylantirur.
Maoniy gulistonida oyu yil,
Qachon sayradi qaysi bulbul shu xil?
Shu xil bulbul o'lsa, ajablan nuqul,
Agar unmasa ustuxonida – gul.

BESHINCHI BOB

ROZILIK HAQIDA

Balog'at charog'in yoqib bir kecha,
Qilib fikr, so'zlar edim bir necha.
Eshitdi so'zim o'zbilarmon kishi,
Faqat ofarin aytnoq erdi ishi.
G'arizlik so'zin ham u qo'shdi shu on,
Kelur dard kuchayganda nochor fig'on.
«Mening ham, – dedi, – aqlu fikrim raso,
Va lekin ibodat uchun mutlaqo.
Emasdir amud, gurziyu nayzadan,
Bo'laklar bu so'zni tamom aylagan».
U birlan talashmoqchi ermas edim,
Talashganda so'z unga bermas edim.
Tilim xanjarin ishga solsam agar,
Qilur o'zbilarmonni zeru zabar
Shu maydonaro jang etarmiz yurib,
G'anim boshini toshga qo'ysin ko'rib.

HIKOYAT

Safoxon¹ da bir do'stim bor edi,
Bahodir edi, sho'xu hushyor edi.
Qo'lu xanjari doimo qon edi,
Uni ko'rsa yov bag'ri so'zon edi.
Sira ko'rmaganman kamonsiz uni,
O'qidan chiqar erdi o't har kuni.
Bahodir, zabardast, edi pahlavon,
Uning vahmidan sherlar bag'ri qon.
Agar qasd ila o'q otar qaysi choq,
Teshar ikki yovni bir o'q birlanoq.
Siparlarni teshgan o'qidek dadil,
Tesholmas tikan g'uncha bargini, bil.
G'anim boshiga ursa musht har qachon,
Taniga botar boshi birdan shu on.
Bo'g'ib tashlar erdi palang gardanin,
Ezardi urib sher boshu tanin.
Otar erdi ko'kka, agar bo'lsa tog',
Belidan raso ushlab olsa shu choq.
Sovutpo'shga tig' solsa u har qachon,
Uni timtalab otga bosgan shu on.
Shu xil mardligu odamiyat bilan,
Kishi dunyoda kimsani ko'rmagan.
Ayirmasdi hargiz meni yonidan,

Sevar qildim-u ketdim u yurtidan.
Nasibam u erdan uzilgan ekan
Iroqdan o'tib Shomda etdim sukun²,
Havosi yoqib qoldi turmoq uchun.

¹ *Safoxon* – Isfahon, Erondagi bir shahar nomi.

² *Sukun (sokin)* – yashovchi, yashamoq.

1110 Necha yil turib qoldim alqissa man,
G'amu, rohatu, xavfu ummid ilan.
U yerdan nasibam tugab nogahon,
Batan mehri tortdi o'ziga tomon.
Kezib yo'lda bir necha sahroyu cho'l,
Yana Isfahonga tushib qoldi yo'l.
Xayol qurshadi bir kecha nogahon,
Xayolimga tushdi O'shal pahlavon.

Tuz eslatdi menga yigitning o'zin,
Nechunkim yeb erdim u mardning tuzin.
Kezib Isfahon ichra yurdim u kun,
Talabgor edim oni ko'rmoq uchun.
Falak gardishidan qaribdir yigit,
Qadi xam, yuzi sarg'aribdir yigit.
Sochi qoru oppoq baland tog' – boshi,
Yuziga oqar keksalik ko'z yoshi.
Falak unga g'olib kelibdir chunon,
Egilmish – bukulmish qolib notavon.
Zamona boshidan g'ururin olib,
Boshi ko'ksiga tushmish ojiz qolib.
Dedim: sherni ham yenggan, e pahlavon.
So'libsan nega keksa tulkisimon?
Kulib dedi: u pahlavonlik tamom
Tugaldi mo'g'ul jangida, vassalom.
Qator nayzadan yer qamishzor edi,
Yolovlar olovdek namudor edi.
Tutundek bu maydonni bosdim butun,
Zafar topmadim toleim yo'q uchun.
O'shal manki dushmanga nayza solib,
Qo'ldan olardim uzukni yulib.
Biroq bermadi manga baxtim madad,
Uzukdek o'rab oldi yov beadam.

Qochish bo'ldi menga g'animat shu on,
Ajal qurshovida turishlik yomon.
Madad bermagach toleim yulduzi,
Ne qilgaydi zo'ru yaroqning o'zi.
Zafarning kalidi senda yo'q ekan,
Ochilmaydi baxt eshigi zo'r bilan.
Filu sherdan zo'r edi to'damiz,
Temir kiydik otlargacha hammamiz,
O'shal damda ko'rdik kelur ko'p sipoh,
Sovut kiydik-u ham po'latdan kuloh.
Surib ot bulut yanglig' ikki tomon,
Qilich-o'q yog'ar erdi yomg'irsimon.
O'zin urdi bir-birga ikki qo'shin,
Degaysan: falak yerga urdi o'zin.
Jaladek yog'ib turdi o'q har tomon,
O'lim seli mavj urdi to'fonsimon.
Bahodir elin etgali qaydu band,
Bo'lib ajdaho og'zochardi kamand.
Yer erdi g'ubor bosgan osmon kabi,
Qilich – nayza erdi uning kavkabi¹.
Bu maydonda dushman bilan to'qnashib,
Siparga siparni urib, do'qlashib,
Teshib siynalarni o'qu nayzamiz,
Ko'mak bermadi baxt, qochdik esiz.
Na foyda berur mardlar g'ayrati,
Ko'mak bermasa tolei, davlati.
Biror kimsa bizning qo'shindan u kun
Omon chiqmadi, qonga botdi butun.
Uzum boshidek hammamiz g'uj edik,
Chochildik to'kilgan uzum donadek.

¹ *Kavkab* – yulduz.

HIKOYAT

Dedi kalxat: «E, quzg'un, eshit so'zim:

Uzoqni ko'rishlikda tanho o'zim.

Dedi: unga quzg'un qani bir bilay,

Bu cho'llarga boq-chi nelar uchragay?

Eshittimki, bir necha tosh yo'lgacha,

Qarab chiqdi kalxat tog'u cho'lgacha,

Dedi, e birodar, ishonsang agar,

Shu cho'l ichra bir dona bug'doy yotar.

Tugab bitdi quzg'ununda sabru qaror.

Quyi boqdi ikkisi beixtiyor.

Tushib donani bosdi kalxat shu choq,

O'roldi oyog'iga birdan tuzoq.

U bilmaski donni yemasdan burun,

Solur bo'yniga dunyo qattiq tugun.

Dema har sadaf qornidan dur chiqar,

Ba yo o'q nishonga tegar har safar.

Dedi quzg'un esiz bu o'tkir ko'zing,

Yemay dona, tushding tuzoqqa o'zing.

* * *

Dedim: «Mardlik lofin urma burun,

Suyuq bo'lma lof urganingdan so'g'un.

O'ziga qarab ish qilur mardlar,

Uyalmas kishi, lof urmas agar.

Omonat kiyimni yechib olsalar,

Yana ustida eski to'ni qolar.

Yog'ochdan oyoq qilma zangvoz sifat,

Seni navcha derlar go'daklar faqat.

Mising garchi tilloga o'xshash erur,

Sotarsan, xaridor agar bo'lsa ko'r.

Chaqang ustiga berma oltin suvin,
Uning qadri dono uchun bir tiyin.
Esa qalbaki o'tga solgay ular,
Bu oltinmi, mismi bilolgay ular.
Qaroqchi erur yaxshiroq, e jiyan,
O'zin pok ko'rsatgan iflosdan.
Riyo sirtiga bermagil e'tibor,
Bu suv ostida balchig'u loyqa bor.
Nihoning yomondir agar, e falon,
Ne foyda yashirmoqdan, o'zing yomon.
Ko'ringay kiyim avrasi har qachon,
Shuning-chun u yaxshi-yu astar yomon.
Kerak bo'lsa senga agar yaxshi nom.
Yasatma tashing, dilni pok et mudom».
Yetar senga Sa'diy so'zi, e o'g'il,
Agar ota pandicha qilsang qabul.
Eshitmas esang so'zimizni bugun,
Ishingdan pushaymon bo'lursan so'g'un.
Bu yanglig' nasihatchi noyob erur,
Bu bog' mevasidan yemoqlik zarur.

OLTINCHI BOB

QANOAT HAQIDA

Ko'p ovora kezgan xasisga degil,
Ki davlat qanoatdadir, yaxshi bil!
Kel, e beqaror, sabr qil tog'day,
Tegirmon toshidan giyoh unmagay.
Gar oqil erursan, semirtma taning,
Taningni semirtsang, o'ldirganing.
Aqlli kishilar hunar orttirar,
Qoringa qul ersa hunarsiz qolar.

Kishi bilsa insoniyat xislating,
 Urar avval og'ziga u nafs iting.
 Yemak, uxlamak vahshiy hayvon ishi,
 Shu odatni qo'llar aqlsiz kishi.
 Bo'lur baxtiyor, kimki xilvataro,
 Bilimdan olur hissasini doimo.
 Birov nuru zulmatni bilmas ekan,
 U farq etmagay hurni devdan.
 Quduqdan shuning-chun yiqilding o'zing,
 Oyoq ostini ko'rmagandi ko'zing.
 Sen odam esang ko'p yema hirs ilan,
 U qorning-la, odammisan, xummisan.
 Buni bilmagay nafsiga bandalar,
 Qorin to'lsa, hikmatdan ul bo'sh qolar.
 Qorin birla ko'z to'ymagay hech qachon,
 Bo'lur yaxshiroq qolsa bo'sh oshqozon.
 Buni bilmagaysanmi, sheri jayon,
 Tuzoqqa tushar nafs uchun nogahon.
 Palangdan-ku ko'p vahshiylar yengilur,
 Yemoq hirs-la o'zni bandga solur.
 Yesang sichqon kabi birov nonini,
 Tusharsan axir, o'yla qopqonini.

HIKOYAT

Menga berdi hoji suyakshona¹ sin,
 Ki hojilar axloqiga ofarin.
 Eshittim meni it demish bir kuni,
 Dili ranjib ermishmi mendan uni.
 Taroqni otib men dedim, ol suyak,
 Yarashmaydi aslo meni it demak.
 O'zimning achchig' sirkam oldida – men

¹ *Suyakshona* – suyakdan yasalgan taroq.

Shirin demagum halvogar halvosin.
Qanoat qil, e nafs, ko'zingga to –
Barobar ko'rinsin gado birla shoh.
Olib borma shahga tama'li so'zing,
Tama'ni yo'qotgin-da shaxsan o'zing.
Yomon bo'lsa nafsing, yomon hirs ila,
Qorinni qilib do'nbira non tila.

HIKOYAT

Tama'gir kishi tongda aylab xirom,
Borib Xeva xoniga bermish salom.
Egilmish – bukmish xushomad qilib,
Yuzin yerga surtmish itoat bilib.
Dedi o'g'li unga: aziz otajon,
Nedir bu, tushunmasman, etgil bayon,
O'zing der eding – qibla bizga Hijoz,
Qilursan nechun bu tamonga namoz?
Qanoat bilan ko'kka yetgay boshing,
Tama' birla ko'krakka tushgay boshing.
Bir arpaga sotma sharaf gavharin,
Tama' to'kkusi hurmatingning barin.
Tama'ga bo'yinsunmasa har kishi,
U qul ermas, ozod o'tar turmushi.
Tama' jamiyatdan chiqorgay seni,
Uni haydagil, u chiqormay seni.

HIKOYAT

Bir oqil bo'lib erdi bezgak kasal,
Birov dedi olgil falondan asal.
Dedi: «Bir xasis minnatidan axir,
O'lim achchig'i men uchun yaxshidir».

Birov gar boqar xo'mrayib kibr ilan,
Hech oqil yemas bol uning qo'lidan.
Diling istagin izlama hammasin,
Semirsa taning jon bo'lur ozg'in.
Kishini buzuq nafs etar xoru zor,
Gar oqil esang sen uni ayla xor.
Ne «ye» desa nafsing, yesang hammasin,
Umr o'tkazish senga bo'lgay qiyin.
Qorin tandirin qizdirish dam-badam,
Berur topmagan kun azob-u alam.
To'kin vaqtda yesang ovqatni kam,
Chidarsan kamoblikda ochlikka ham.
Qorinning yukini toshur ko'p yegan,
Toshur g'am yukin gar topolmas ekan.
Ko'pincha qorin bandasidir xijil,
Qorin tor qil, bo'lmasin tor dil.

HIKOYAT

Ne keltirganim Basradin aytayin,
Shirin so'zki bu xurmodin ham shirin.
Necha tan edik biz qalandarsimon,
O'tardik, yurib xurmozordan ravon.
Aroda birov qorni anbor edi,
Juda ko'p yemakla o'zi xor edi.
Daraxt ustiga chiqdi, nafs yomon,
Yiqildiylu til tortmay o'ldi shu on.
– Kim o'ldirdi, – deb oqsoqol urdi do'q,
Dedim urma do'q, bizda hech ayb yo'q.
Qorin tortdi shoxdan tutib etagin,
Qorin katta bo'lgach, ko'tarmoq qiyin.
Chigirtka boshidan-oyog'i qorin,
Qorinsiz chumoli toshar putlarin.
Kel endi, diling pok tut, toza yur,

Faqat go'rda tuproq-la qorin to'yur.
Na xil bo'lsa, och qolganingda, taom,
Uni ishtaho birla yersan tamom.
Qo'yar boshni bolishga oqil shu choq
Asir aylasa uyqu boshdan-oyoq.
Agar bilmasang so'zlama uncha ko'p,
Yalang joy agar bo'lmasa, tepma to'p.
Iloj bo'lsa dam urma, qo'yma qadam,
Sen andozadan tashqari yoki kam.

HIKOYAT

Birovning edi non xurushi piyoz,
Emasdi bo'laklarcha ovqoti soz.
Dedi bir aqlsiz kishi: «E g'arib,
Ketir bir nasiba shilonga borib.
Uyalma sira, qo'rqma hech kimsadan,
Quruq qolg'usi tortinishlik bilan».
Borib yeng shimardi, talashdi shilon,
To'nin yirtidilar, ilgi sindi shu on.
Eshitdimki yig'lab der erdi esiz,
O'ziga o'zi qilgani chorasiz.
Tama' bandasi g'amga botib ketar,
Menga endi nonu piyozim yetar.
Yesam arpa nonini mehnat bilan,
Shirindir birovlarning oq nonidan.
Qorin bandasi uxlamas tun bo'yi,
Birov jaz-juzida qulog'i, o'yi.

HIKOYAT

Mushugi bor erdi qari bevaning,
Xarob erdi, och erdi qorni aning.

Oshib tushdi shoh tomidan bir safar,
Uni shoh soqchilari otdilar.
Tanidan oqib qon, qochar erdi u,
O'lim vahmi birlan shuni derdi u:
Qutulsam qorovul qo'lidan agar,
Menga tul uyi birla sichqon yetar.
Bol izlab yeguncha ari nashtarin,
Qanoat bilan shinni yesang, shirin.

* * *

Eshittimki, o'tgan zamonlar aro
Zar etmish qaro toshni bir avliyo.
Bu so'z ma'qul ermas dema, qil nazar,
Qanoatchi oldida teng toshu zar.
Go'daklarcha dil pok tutsang agar,
Bo'lur teng ko'z oldingda tuprog'u zar.
Yetur shahni sevgan gadoga xabar:
Gadodan gadoroq erur shohlar.
To'yar, tushsa bir pul gado ilgiga,
Faridun¹ to'lmas, Ajam mulkiga.
Mudom mulku davlatni saqlash balo,
Gadoning o'zi shohu nomi gado.
Dili g'amli shohdan jahonda axir,

Dilida g'ami yo'q gado yaxshidir.
Olur dehqon orom ayoli bilan,
Ki shoh uxlamas o'z xayoli bilan.
Jahon shohimi yo yamoqchi erur,
Faqat uxlagan chog'ida kun ko'rur.
Xudoga shukur, sen emas zo'ravon,
Kishilarga yetkazmagaysan ziyon.

¹ *Faridun* – Afsonaviy Eron shohlaridan.

Uzumni beravermagay toklar,
Gahi meva bergay, gahi barg to'kar.
Agar qolsa zindon aro poklar,
Bulutdan chiquvchi quyoshdek chiqar.
Hasadchi borib qolsa zindon sari,
O'char suvga tushgan olov singari.
Falak aylanib hech qaror topmadi,
Jahon kezdi Sa'diy, baror topmadi.
Diling kuymasin noumidlik bilan,
Yorug' kun tug'ilgay qaro kechadan.

YETTINCHI BOB

TARBIYAT HAQIDA

Bu bob – tarbiyat: xulqu vijdon so'zi,
Na otu, na jangu na maydon so'zi.
G'anim – nafsingu doimo birgasan,
Nechun jang etarsan bo'laklar bilan?
Haromdan tiyib nafsni mardlar,
Topishdi Tahamtancha fathu zafar.
Go'dakdek urib o'z-o'zingni tuzat,
Ur ib el boshin yanchmog'ing uyat.
O'zingga kuching yetmagach, e asov,
Kishi g'am yemas sen kabi bo'lsa yov.
Taningdir – yomon-yaxshili bir shahar,
O'zing shohu aqling vazir – mo'tabar.
Erur yaxshilar – rozilik, to'g'rilik,
Yomonlar – takabburligu o'g'rilik.
Yomonlarga shoh bo'lsa gar mehribon,
Qachon oqil ahli yashar tinch-omon?
Senga shahvatu hirsu kin har qachon
Tomir ichra qondek, taning ichra jon.
Bu dushmanlaring topsalar tarbiyat,

Ular senga g'olib kelurlar faqat.
Sira g'ing etolmaydi kibru havo,
Aql musht o'rib, bersa tez-tez jazo.
Bu to'g'rida ko'p so'zga hojat emas,
Tushungan kishilarga bir harf bas.
Yetuk durshunoslar sadaf singari,
Ocharlar og'iz kelsa so'z gavhari.
So'zi birla ovora sergap bari,
Nasihat eshitmaydi kar singari.
Agar so'zlasang betinim, zo'r berib,
Qolursan birov so'zidan benasib.
Durust-nodurust so'zga sabr aylagan
Erur yaxshi hozirjavob laqmadan.
So'z inson kamolotidir, yaxshi bil,
Bilib so'zlagil, hurmating to'kmagil.
Yaqin bo'lma sergap kishilar bilan,
Aql ishlatib ozu soz so'zla san.
Yuz o'q ottingu hammasi ham xato,
Bir o'q birla ur, bo'lsa aqling raso.
Kishi yo'qda ham demas ul so'zni mard,
Agar fosh bo'lganda keltirsa dard.
Birov g'iybatin qilmagil zinhor,
Devordan nari ham eshitguvchi bor.
Diling – shahru, sir – bandi bu shahraro,
Shaharni ochiq ko'rmasin mutlaqo.
Tilidan yonar sham' majlis aro,
Shuning-chun tilin yig'di aqli raso.

HIKOYAT

Takash¹ bir quliga ochib o'z sirin,
Dedi ayta ko'rma birovga tag'in.
Qulidan biri ochdi sirni magar,

¹ *Takash* – Xorazm shohi. Nomi Alouddin.

Dedi shah: ayo johil ifloslar.
Yil o'tdi-yu, tilga ketirdi dilim,
Faqat bir kun ichra eshitdi elim.
Takash berdi jallodga farmon shu on,
Dedi: kes bular boshini beamon.
Bulardan biri shohga berdi dalil,
O'zingda gunoh, bizni o'ldirmagil.
Buloqni bo'g'ib qo'ymading avvalo,
Bu sel bo'ldi, bog'lash qiyin mutlaqo.
Diling sirrin aytma, kishidan yashir,
U albatta har kimga aytar, axir.

Xazinachiga topshir oltinlaring,
Va lekin yashir dil uyida siring.
Agar aytnasang, so'z senga muhtalo,
Gar aytsang, u bo'lgay boshingga balo.
Bo'shatganda Rustam otin bir go'dak,
Uni tutgali yuzta Rustam kerak.
Bu xil so'zni aytmaki bo'lganda fosh,
Baloga yo'liqsa shu so'z birla bosh.
Dedi bir xotin eriga yaxshi gap:
«Bilib so'zla gar bilmasang ochma lab».
O'zingga botar so'zni sen so'zlama,
Ekib bug'doy, arpa o'rish ko'zlama.
Haqorat qilib olmagaysan duo,
Na eksang o'rarsan shuni doimo.
Ajab totlidir Barahmanning¹ so'zi:
«O'zin hurmatin saqlar odam o'zi».

¹ *Barahman* – butparastlar rahbari.

HIKOYAT

Misr ichra xush xulq, eski chopon
Bir odam, gapirmasdi necha zamon.
Chor atrofidan aylanib yaxshilar,
Uning xuddi parvonasi erdilar.
Xayol aylabon dedi: bir kechqurun,
Ekanman tilim ostida yoshirun.
Zamonlar shu holatda yursam agar,
Kim olgay mening donishimdan xabar?
U soʻz soʻzlagach, el dedi birma-bir:
«Agar boʻlsa nodon Misrda shudir».
Hama tarqalib boʻldi holi yomon,
Yozib ketdi masjidga ketgan zamon.
Boqib koʻzguga koʻrsam erdim oʻzim,
Niqobimni yirtmasdi tuzsiz soʻzim.
Xunuk yuzdan oldim shuning-chun niqob,
Oʻzimni der erdim goʻzal oftob.
Jim oʻltirmogʻing savlating, e ogʻo,
Siring yopugʻidir boʻlaklar aro.
Oʻzing hurmating saqla oqil esang,
Ochib qoʻyma dil sirrini shoshilib,
Kerak chogʻda aytarsan oʻzing bilib.
Mabodo siring boʻlsa fosh el aro.
Yopish qayta mumkin emas mutlaqo.
Gapirmaydi hayvon, gapirgay bashar,
Shaloq soʻzli inson hoʻkizdan battar.
Kishilikda ham aqlu ham soʻz zarur,
Aqlsiz toʻtidek soʻz oʻrganma gʻoʻr.
Kishi vahshdan soʻz bilan farq etar,
Xato soʻzlasang sen hoʻkizdan battar.

HIKOYAT

Yomon so'zladi jangda bir pahlavon,
Yoqosin bo'g'ib yirtidilar shu zamon.
Yebon bo'yniga musht, u yig'lar edi,
Jahon ko'rgan oqil shu choqda dedi:
Yoparding gar og'zingni g'unchasimon,
Yoqang parchalanmasdi guldek shu on.
Kishi so'zlasa o'ylamay beasos,
So'zi xuddi tanbur – lofdir xalos.
Alangaki boshdan-oyoq til erur,
Biroz suv bilan o'chirilsa bo'lur.
Hunarmand kishi men hunarmand demas,
Uni ta'rif aylar hunar har nafas.
Agar senda mushk yo'q, jim o'ltir axir,
Agar bo'lsa, hidning o'zi aytadir.
Ne darkor qasam birla «g'arb oltini»
Demaklik, mahak¹ yaxshi aytar uni.
So'zim kamligini ko'rib har nafas,
Degay soddalar, Sa'diy ulfat emas.
Rizoman agar po'stinim yirtsalar,
Sira toqatim yo'qki ko'p aytsalar.

HIKOYAT

Bo'libdir Azud² o'g'li qattiq kasal,
Ota toqati toq edi ul mahal.
Dedi bir aziz so'zlayin, tinglagil,
Qafasdan u qushlarni ozod qil.
Qafaslarni sindirdi bir-bir shu on,

¹ *Mahak* – oltinni o'ziga tortadigan qora tosh.

² *Azud* – Azudiddavla, qadimiy Roy podsholaridan.

Qochar bandi zindon ochilgan hamon.
Ulardan biri erdi xo‘b xushnavo,
Qafasda uni asradi bog‘ aro.
Kelib ko‘rdi o‘g‘li sahar chog‘ida,
Qolibdir shu bulbul faqat bog‘ida.
Boqib shunda bulbulga dedi kulib:
Tilingdan tutilding-ku, bandi bo‘lib.
Gapirmas esang yo‘q birovning ishi,
Dalilin keltirgay gapirgan kishi.
Gapirmas edi Sa‘diy necha zamon,
Shuning chun malomatdan erdi amon.
Yomon so‘zga solma quloq hech qachon,
Ko‘zing yum, yalong‘ochni ko‘rgan hamon.

HIKOYAT

Kirib sho‘xlar bazmiga bir lain,
Urrib yordi sozanda childirmasin.
Saqolidan oni tutib oldilar,
Betin xuddi chirmandadek yordilar.
Yotolmas edi tarsaki zarbidan,
Piri ertasi dedi ta‘lim bilan:
Desang yormasin betni childirmadek,
Mudom chang kabi yerga boshingni eg.
O‘zini tutar yaxshi dono kishi,
Birovning ishi birla bo‘lmas ishi.
Boshingda qulog‘u ko‘zingdir butun.
Og‘iz so‘z uchun, dil esa hush uchun.
Ko‘zing oldiga kelsa pastu baland,
Bu past, bu balanddir, demoq nopisand.

HIKOYAT

Dedi menga bir keksai mo'tabar,
(Aziz keksalar so'zi dilga yoqar)
«Ko'zim ko'rdi Hind ichra tun rangini,
Adir ustida qop-qora zangini.
Quchog'ida bir qiz oy kabi,
O'shal qiz labida u devning labi.
Chunon bag'riga bosgan erdi butun,
Degaysanki qoplab edi kunni tun.
Mening g'ayratim qo'zg'adi shu zamon,
G'azab o'ti yondirdi dilni yomon,
Dedim sen xudobexabarga o'lim,
Kesak, toshu kaltakka cho'zdim qo'lim,
Quvib devni majbur etib do'q bilan,
Shu dam tundan ajratdim ul kunni man.
Bulut ketdi go'yoki bog' ustidan,
Tuxum chiqdi go'yoki zog' ostidan.
Turib qochdi dev katta qo'rqinch bilan,
Parivash osildi manga daf'atan.
Dedi, e gado, hiylakor, jandapo'sh,
Buzuq niyatu betamiz dinfuro'sh,
Men oshiq edim unga bir qancha yil,
Qachonlarda bergan edim unga dil.
Mening og'zim oshga yetib erdi ham,
Oshimni to'kib mahrum etding shu dam.
Qilib dodu faryodu ohu fig'on,
Der erdi: qani mehru shafqat shu on.
Aqlli biror mard yigit yo'qmikan,
Qasosimni olsa bu shum keksadan.
Uyalmaydi bu keksalik chog'da ham,
Uzatdi qo'lin ko'kragimga shu dam.
Osildi etakka shu xil so'z bilan,

Uyaldim, qolib zo'r xijolatda man.
Yechib tunni samsiq piyozisimon,
Bosib vahmi katta-kichikning shu on,
Yalang'och qochardim u qizdan uzoq,
Edi mendan unga to'nim yaxshiroq.
O'tib necha muddat, kelib urdi do'q,
Taniysanmi dedi, men aytdimki yo'q.
Qo'lingda u kun tavba qilgan edim,
Bu xil foydasiz ishni qilmam dedim.
Bu xil ishga duch kelmasin hech kishi,
O'zi birla bo'lmoqdir oqil ishi.
O'shal voqeadan ochildi ko'zim,
Birovning ishidan uzoqman o'zim.
Agar bo'lsa boshingda aqlu bilim,
Bu Sa'diy kabi so'zlagil, yo'qsa jim».

HIKOYAT

Hazilmi dedim, kimsa so'zlar edi,
O'g'irlikni g'iybatdan a'lo dedi.
Dedim unga: e fikri xom, beaql,
Ishonmaydi bu qissaga aqlu dil.
O'g'irlikda ne fazl ko'rgan eding.
O'g'irlikni g'iybatdan afzal deding.
Dedi: chunki o'g'ri jasorat qilur,
U mardlik kuchi-la qorin to'yg'azur.
Ne orttirdi g'iybatchi g'iybat qilib,
Faqat qoldi o'zi xijolat bo'lib.

* * *

Vazifa yer erdim Nizomiyadan¹.
O'tardi kunim darsu takror bilan.

¹ *Nizomiya* – Bag'dodda bir madrasa ismi.

Mudarrisga bir kun ayoniy dedim:
Hasad qildi menga faloniy dedim.
Qachonkim so'zim ma'ni dodin berur,
Negadir uning qorni tars yorilur.
Mudarris so'zimni eshitgan edi,
Kelib achchig'i ancha afsus yedi.
Dedikim: seningcha hasad-ku xunuk,
Degil senga kim aytdi – g'iybat tuzuk?

* * *

Kishilarni har kimki derkan yomon,
Seni ham u yaxshi demas hech qachon.
Yomonlaydi har joyda orqangdan u,
Birovlarni ham u yomonlardi-ku!

* * *

Demishlarki, uch shaxsga g'iybat ravo,
Oshib ketsa, to'rtinchisiga xato.
Biri podshohu jafokor erur,
El undan hammavaqt bezor erur.
Uning zulmin aytmoq halol dam-badam,
Bilib ehtiyot bo'lgusi xalq ham.
Ikkinchi – hayosiz, yashirma uni,
O'zin pardasin yirtadi har kuni.
Havuzga tushishdan uni to'smagil,
Quduqqa yiqilgay axir, yaxshi bil.
Uchinchi – tarozuda aldoqchidir,
Yomon fe'lidan qancha bilsang gapir.

HIKOYAT

Eshitdimki, bir o'g'ri cho'ldan kelib
Seyistonga¹ kirdi sayohat qilib.
O'ziga kerakli yemak-ichmakini,
Sotib oldi baqqoldan u qanchasin.
Taroza baqqol o'g'irlab edi,
Solib shovqin ul o'g'ri shunday dedi:

Agar tunda yo'lni to'sar o'g'rilar,
Seyistonlik kunduzdayoq yo'l to'sar.
Yomon fe'l uchun tunda ham qo'rqaman,
Bu kunduz kuni qo'rqmagay kimsadan.

* * *

Kishilarki dushman so'zin keltirur,
Ular dushmaningdan yomonroq erur.
Kishi eltsa do'stiga dushman so'zin,
Qilibdir u dushmanga chin do'st o'zin.
Turib yuzma-yuz so'z deymaydi yov,
Meni so'z bilan qo'rqitmaydi yov,
Yov aytolmagan so'zni menga ayon,
Degaysan, shuning-chun sen undan yomon.
Chaqimchi, yana eski kek qo'zg'atar.
U zindon aro gar kishanda yotur,
Chaqib yurganidan shu ham yaxshidir.
Urush ikki tan o'rtasida olov,
Chaqimchi o'tin toshiguvchi, moxov.

* * *

Erur hammadan ham chaqimchi yomon,
Uningdek razil ko'rmadim hech qachon.

¹ *Seyiston* – Afg'onistondagi bir viloyat nomi.

Buzuq fikru nodonligi birlan ul,
Buzar ikki do'st o'rtasini nuqul.
Bular do'stlashurlar bo'lib jonu dil,
Uyatga qolur o'rtada ul razil.
Iki tan aro kimki o'tlar yoqar,
Aqldan emas bu, o'zi ham yonar.
Bu Sa'diycha xilvatda kim zavq olur,
Tilin ikki olamdan ul tortadur.
Degil foydali so'zni bilgan qadar,
Qabul etmasa ham uni kimsalar.
Pushaymon bilan ohu voy aylagay,
Nega tinglamapman debon yig'lagay.

* * *

Xotin bo'lsa gar poku aqli raso,
Erin shoh etar, garchi bo'lsa gado.
Ko'ngilga muvofiq esa yor agar,
Zafar sozini chalki, topding zafar.
Agar g'amgusor ersa yor tun bo'yi,
U g'amni dema g'am, esang kun bo'yi.
Agar bo'lsa yoring inoqu go'zal,
Murodingga yetding – muroding o'shal.
U bo'lsa shirinso'zliyu pokdil,
Uni yo xunuk, yo go'zal demagil.
Dili pok xotin agarchi xunuk,
Yomon xulqli xushnamodan tuzuk.
Eri sirka bersa, u halvo degay,
Na halvo yebon erga achchig'lagay.
Dil, oromidir yaxshi bo'lsa xotin,
Yomon bo'lsa undan xudo saqlasin.
Esa to'ti bir zog' bilan hamqafas,
Qafasdan qochish istagay har nafas.
Boshingni olib ketgil overavor,

Va yo bo'yning eg unga bechoravor.
Kavush tor esa kiymagan yaxshidir;
Urush bo'lsa uy, turmagan yaxshidir.
Yomon xotini bo'lsa uyda agar,
Hayitdek bo'lur ul kishiga safar.
Ul uy ichra yop shodlik eshigin,
Urush birla shovqin chiqarsa xotin.
Xotin bo'lsa nodonu ham kir yurak,
Xotinmas, boshingga balodan darak.
Xotinning yomoni og'ir bir azob,
Xotin yaxshisi yoru olijanob.
Agar bo'lsa xotinga er muftalo,
Malomat qilib yurmagil, Sa'diyo.
O'zing ham jafosini xo'b tortasan,
Quchog'ingga bir yo'l agar tortasan.

HIKOYAT

Birov xotini birla nosoz edi,
Kelib kekxa donoga nolib dedi:
Yukim ko'p og'ir dushmanim dastidan,
Chunonki tegirmon toshin ostiman.
U dono dedikim, kerakdir chidam,
Chidam bersa er bo'lmagay bo'yni xam.
Tegirmon toshisan-ku kirganda tun,
Tong otganda bo'lmaysan osti nechun?
Uzib gulni bo'lgan esang shodmon,
Tikan dardini tortasan begumon.
Yesang bir daraxt mevasin muttasil,
Tikan sanchilib qolsa dod demagil.
Ko'cha sevgisi uyni barbod etar,
Uyingni xotin mehri obod etar.
Yumuq g'uncha bo'l, gul kabi kulmagil,

Senga ergashib qolgay, etsang hazil.
Ko'ngil bog'lama gulga bekor erur,
Unga har sahar boshqa bulbul kelur.
U har bazm aro bo'lsa yongan chirog',
Uning bo'lma parvonasi, qoch yiroq.
Sen oldanma hur deb uni hech qachon.
Yuzi hurga o'xshar dili devsimon.
Ayog'ini o'psang-da, solmas nazar,
Pisand aylamas tuprog' o'lsang agar.
Sevib qolsang el nurididalarin,
Nisor et zaru aqlu hushing barin.
Desang bo'lmasin nuridiydam razil.
Ularga yomon ko'z bilan boqmagil.

* * *

O'tay yaxshi nom birla desang agar,
Sen o'g'lingga o'rgatgil ilmu hunar.
Agar bo'lmasa aqlu fikri uning
Nishon qolmagay sendan o'lgan kuning.
Ota-onasi erkalatsa nuqul,
Juda ko'p qiyinlikni ko'rgay o'g'il.
Aql o'rgatu to'g'rilik, poklik,
Sevib erkalatma, qil idroklik.
Kichiklikda ta'limni majburi qil,
Uni qo'rqitu ham shirin so'zlagil.
Havaskor uchun balli-balli demoq,
Bo'lur domlaning do'qidan yaxshiroq.
Agar senda Qoruncha¹ ham bo'lsa zar,
O'z o'g'lingni qoldirmagil behunar.
Suyanma bu davlatgakim senda bor,
Ketar balki u bo'lmayin barqaror.
Bo'shab qolgay oltin, kumush hamyoni,

¹ *Qorun* – afsonaviy boy.

Bo'shalmas hunarmandning karmoni.
Na bilg'ung falak gardishi aylanur,
G'ariblikka solganda sarson qilur?
Qo'lida hunar bo'lsa, bo'lmas gado,
Tilanmas u hajot bilan el aro.
Murod topdi Sa'diy qayerni kezib,
Na daryo kezib topdi, na kon qazib.
Ulug'larga bosh egdi yoshlikdan ul,
Uni haq ulug'likka etdi qabul.
Kishikim itoat-la xizmat etar,
Sal o'tmay unga el itoat etar.
Bo'lur el ichida u shogird xarob,
Agar chekmas ustoz qo'lida azob.
Ko'mak bergil o'g'lingga, u tolmasin,
Kishilar qo'liga qarab qolmasin.
Har odamki farzand g'amin yemagay,
Birovlarning ilgida xor aylagay.
Yomon ustaga berma shogird etib,
Buzar u buzuq fe'lini o'rgatib.
O'g'il bo'lsa ulfat sayoqlar bilan,
Umid uzsini u ota bu o'g'lidan
O'g'il bo'lsa nodonu ablah, sayoq,
Otadan burun o'lgani yaxshiroq.

HIKOYAT

Birov ko'rdi bir surat o'bdon – go'zal,
Uning ketdi aqlu hushi shul mahal.
Ketib holidan bosdi ter onchunon,
Edi xuddi gul uzra shabnamsimon.
Kelib qoldi ot uzra Buqrot¹ hakim,
Dedi, bunga ne bo'ldi, bechora kim?
Birov dedikim bu kishi xo'p asil,
Xatoga qadam qo'ymagan pok dil.
Xaloyiq ichida siqilgan uchun
Yurar tog'u sahro aro tunu kun.
Dilin aylamish sayd bir dilrabo,
Oyog'i botibdir shu bolchiq aro.
Qulog'iga eldan yetar ta'na, gap,
Bu yig'lab degay ta'nachilarga, xap –
Sen ayb etmagil yig'lasam doimo,
Sababsiz emas nolishim mutlaqo.
Mening ko'nglim olgan u surat emas,
Shu suratni chizgan olur har nafas.
Bu so'zni eshitdi u mardona chol,
Yetuk fikrli olimu barkamol,
Dedi, «garchi bu yaxshi ovozadir»,
Dema hammaning fikri ham tozadir.
Go'zal usta chizmish ekan xo'p go'zal,
Beribdir dilin unga ko'rgan mahal,

Nega yangi go'dakka dil bermadi,
Kichik-katta san'atda farq bormidi?
Haqiqat ko'zin oldida doimo,
Tuya birla tengdir go'zal dilrabo,

¹*Buqrot* – qadim Yunon olimlaridan. Bizning eramizdan 460 yil
burun tug'ilib 80 yoki 100 yil umr ko'rgan Gippokrat.

Kitobimdagi hamma xatlar niqob,
Tutibdir bu xatdan go'zallar hijob.

Qaro harflar ostida bir ma'ni bor,
Bulut ichra oyu niqob ichra yor.
Bu Sa'diy hayotiga sig'mas malol,
Turar parda orqasida ko'p jamol.
Mening so'zlarim majlis aro erur,
Bir o'tdir sochar, nuru ham kuydirur.
Ne g'am gar g'animler kuyar har mahal,
Ular fors o'tida isitma kasal.

* * *

Jahondan kechib g'orda joy topsa ham,
Butun el yuziga eshik yopsa ham,
Qutulmas kishi ayb izlovchidan,
Tuzukmi, buzuqmi yoshingan bilan.
Bo'lur kuch bilan to'ssa daryo yo'lin,
To'sish mumkin ermas chaqimchi tilin.
Va yo tulkilik, xoh sherlik bilan,
Qutulmaysan aslo ular dastidan.
Agar kirsa xilvat aro har kishi,
Uning bo'lmasa kimsa birlan ishi,
Malomat qilurlarki aylab riyo,
Qochar xalqdan dev kabi doimo.
Agar bo'lsa xushsuhbatu pokdil,
Demaslar bu pokiza yoki asil.
Qiyin kunga qolsa biror kambag'al,
Degaylar: bu badbaxt erur har mahal.
Kuyib yig'lasa bir g'aribu gado,
Degaylar: bu qashshoq, bu baxti qaro.
Kelib qolsa bir boy va yo podshoh,
Degaylar: buni bizga berdi xudo.

Bu manmanligu kibr tokay bo'lur,
Bu shodlikni orqosidan g'am kelur.
Biror kambag'alga kelarkan agar,
Sharaf omadu, baxtu tole, zafar.
Adovatli tish qayrashurlar hadeb,
Ki dunyo boqar pastu nomardga deb.
Ishing o'ng keliboq yurishsa agar,
Haris yoki dunyoparast deydilar.
Qo'l urmas esang ishga himmat qilib,
Tekinxo'r deyishgay malomat qilib,
Bu ezma degaylar gapirsang seni,
Bu surat degaylar jim ersang seni.
Demaslar: chidamlini bu mard ekan,
Degaylar boshin egdi qo'rquv bilan.
Agar bo'lsa boshida mardonalik,
Qocharlar, debon bu ne devonalik.
Agar kam esa ta'na etib deydilar:
«Bo'laklar uning molini yeydilar».
Agar ul topib yesa yaxshi taom,
Qorin bandasi bo'ldi: derlar mudom.
Qilib balki ortiqcha ziynatdan or,
Kiyib yursa oddiy libos moldor,
O'zidan ayar pulni, badbaxt debon.
Qilurlar unga tilni xanjarsimon,
Uyini agar rang-barang naqsh etar,
Taniga agar toza shohi kiyar,
G'arazgo'lari ta'n etib har kuni,
Yasangay xotinlarcha, derlar uni.
Safar qilmasa gar dili pok er,
Safar qilguvchi oni nomard der,
Degaykim xotin oldidan chiqmagay,
O'zin aqlini to hanuz yig'magay,

Jahongashtaning ham shilib terisin,
Degaylar u sarsonu badbaxt lain,
Uning bo'lsa baxtdan nasibi agar,
U bo'lmas edi darbadar deydilar.
Xotinsiz yigitni g'ajib birtalay,
Degaylar gunohiga yer titragay.
Xotin olsa derlarki nafsi uchun,
Eshakdek botib qoldi loyga bu kun.
G'ajirlar ko'rimsizni ham har nafas,
Go'zallarni qanday ular chaynamas.
Agar chiqsa jahling biror on seni,
Degaylar: bu johil, parishon seni.
Birov birla qilsang murosa agar,
Buning g'ayrati asli yo'q deydilar.
Degaylar: saxiyga nasihat qilib,
Puling qolmagay, sarf qilgil bilib.
Qanoat bila yursa, qo'ysa qadam,
Malomatda qolgay u bechora ham,
Degaylar: u nokas otadek o'lar,
Ketar qayg'u tortib, bu dunyo qolar.
Kishidan kishi hech qutulmas ekan,
Asir o'z ilojin topar sabrdan.

HIKOYAT

Bir oqil hunarmand yigit bor edi,
Juda notiqu, mardu hushyor edi.
Xudojo'yu pokizadil, xushqiliq,
Qaro mo'ylabi – husni xatdan silliq.
Lug'atdon, bilimdonu ilmi yetuk,
Deyolmasdi «shin» harfin ammo tuzuk.
Bir oqil kishiga dedim bir kuni,
Tishi yo'qmi oldin qatorda uni?

Mening bu so'zimdanda qizardi shu on,
Dedi: bu kabi so'zni aytmog yomon.
Ko'zingni yumib birtalay fazlidan,
Ko'rib birgina aybini aytasan.

* * *

Yetuk aqlu fikr egasi – nuktadon,
Toyib qolsa o'z yo'lidan nogahon,
Kichik bir gunoh birla berma jazo,
Ulug'lar degaylarki, xuzmosafo¹.

Tikan gul bila birga, e pokdil,
Tikan bog'lama, balki gul bog'lagil.
Agar izlashing ayb erur, e yetuk,
Ko'rarsanmi tovu oyog'i nechuk?
Diling toza tut, bosmasin gardu chang,
Ne ko'rsatgay, oynani bossa zang?
Birov aybini pesh qilib yurmagil,
U ham pesh qilur senga aybingni, bil.
Gunohkorni muncha urarsan, gapir,
Qara, o'z gunohing oz ermas axir.
Yomonlikni sevmasa esang, qilmagil,
Keyin qo'shniga yaxshi yurgil degil.
Yomonmanmi, yo yaxshimi – o'z ishim,
Seni bosmagay hech qachon tashvishim.
Yomon ko'z bilan kir yuraklar hamon
Boqar Sa'diy she'riga dushmansimon.
Go'zal ma'nilarga nazar solmagay,
Biroz topsa aybin hujum aylagay.
U mag'rurda illat shudirkim, faqat,
Haqiqat ko'zin undan o'ydi hasad.

¹ *Xuzmosafo* – har narsaki, sof, beg'ubor bo'lsa qabul qil. Har narsaki, g'uborlik, zang bosgan bo'lsa, unga qarama.

Hama ko'zu qosh ham go'zal demagil,
Po'chog'in chaqib pista mag'zin yegil.

SAKKIZINCHI BOB

SHUKR VA OMONLIK HAQIDA

Na til bor ediyu na go'dak eding,
Ona qornida keldi rizqing, yeding.
Kesilgach sening kindiging, e shirin,
Qo'ling tutdi mahkam ona ko'kragin.
O'shal ikki ko'krakki senga yoqar,
Seni qondirishga bulog'dek oqar.
Quhog'i yoqimli bihisht onaning,
Sut oqqan ariq unda jonkuyar qomati,
Bola – mevadir, umrning lazzati.
Dema dilda bo'lmaydi ko'kraktomir,
Qara oq sutiga, yurak qonidir.

HIKOYAT

Ona so'ziga kirmadi bir yigit,
Bu kuygan ona qalbini sen eshit.
Olib keldi beshikni dilda alam,
Emizdim, kichiklikda yig'latmadim,
Seni deb butun tunlar uyg'oq edim.
Imirg'a eding, tebratardim sani,
Yuzingdan quvolmas eding pashshani.
Seni pashsha yengar edi ul zamon,
Bu kun sen zabardast, yetuk pahlavon.
Go'r ichra kelur sanga qayta u hol,
Taning qurt yegay, senda qolmas majol.
Bu kun ko'rga o'xsharsanu, o'rgilay,

Yo'lida chuqur bo'lsa ko'r bilmagay.
Shukur aylagilkim ko'zingdir ochiq,
Shukur etmasang ikki ko'zing yumiq.
Agar tosh bilan yovni yancholmasang,
Bolam, loaqal do'st bilan qilma jang.
Tuz oqlovchi oqil ne ish aylagay?
Shukur mixida rizqin boylagay.

HIKOYAT

Yiqitdi cho'chib oti shahzodani,
Taniga botib ketdi bo'yni ani.
Tanu bo'yni bir bo'ldi fildek shu dam,
Tan aylanmay, aylanmagay kalla ham.
Tabiblar turar erdi hayratda jim,
Faqat shunda yunonlik dono hakim.
Tomirlarni ishqab, boshin tikladi,
Yo'q ersa u go'rga tiqilgay edi.
Eshitti unutmish uning xizmatin,
Gapirmas emish hech uning qiymatin.
Shah oldiga keldi yana bir mahal,
U pastkash nazar solmadi loaqal.
Uyaldi u donoyu egdi boshin,
Eshitdim o'zicha der erdi sekin:
«Burab bo'ynin ul kun iloj qilmasam,
Bu kun yuz o'girmasdi mendan bu ham».
Qulidan yubordi u bir doruni.
Solib o'tga hidlash kerak deb uni.
Shoh oldiga yetkazdi qul ham shu on,
Uni aytganin qildi shoh shul zamon.
U dam shohni chuchkurtdi hidli tutun,
Taniga yana botdi boshu bo'yin.
Hakimga uzr aytgali ul kuni,

Ko'p axtardilar topmadilar uni.
Kishi yaxshi kun qadrini bilmagay,
Yomon kun agar boshiga kelmagay.
Sovuq yilda qishlash g'aribga og'ir,
Badavlat kishi qayda sezgay axir.
Agar yo'lda chaqqonsanu dovyurak,
Shukr qil, yurolmasga bergil ko'mak.
Qarilarga yoshlar ko'mak aylasin,
G'ariblarni davlatlilar qo'llasin.
Suv qadrini sen kemachidan ko'ra
Quruq cho'ldagi tashnalardan so'ra,
Kishi dard chekib to kasal bo'lmagay,
Tanisog'lik qadrini bilmagay.
Qorong'u kecha ko'p uzaygan bilan
Na bilsin uyida qotib uxlagan.
Isitma azobida o'tkarsa tun,
Shu odam bilur kim tun ermish uzun.
Xo'ja endi turdi, chalingach dovul,
Na bilgayki qanday tun o'tkazdi qul.

HIKOYAT

Ko'rib qoldi Tug'rul¹ chiqib bir tuni,
Saroy soqchisi – posbon hinduni.
Sovuq, izg'irinda tani qaltirar,
Uning ustiga qoru yomg'ir yog'ar.
Achindi dili, bo'ldi u mehribon,
Dedi po'stinimni yuborgum shu on.
Kutib tur, yo'lakka tomon ko'z solib,
Qulim keltirur senga po'stin olib.
Shamol turdi qattiq shu damda chunon,
Qochib ketdi Tug'rul saroyi tomon.

¹ *Tug'rul* – saljuqiylar podshohlaridan biri.

Saroyda kanizi bor erdi, go'zal,
Sevar erdi, ko'rdi uni shul mahal.
Chiroyi uni maftun etdi chunon,
Esidan chiqib qoldi u posbon.
Qorovul eshitgandi po'stin so'zin,
Biroq ko'rmadi po'stinning o'zin.
Bas ermasmidi u sovuq shiddati,
Falakdan yetishdi kutish kulfati.
Yotar, shohni ko'rgilki g'aflat olib,
Qorovul der erdi nag'ora cholib:
Tuning sengadir ayshu ishrat uchun,
Na bilding, naholda o'tar bizni tun.
Yemas cho'lda qolgan g'amin korvon,
O'zi manzilida quribdir qazon.
Qoyiqchi, kutib tur, ko'p etma shitob,
U bechoralar botdi – holi xarob.
Shashilmangiz, ildam yigitlar, qarang,
Qatorda qarilar kelurlar arang.
Tagingda sening tulporing bor, uchar,
Yayov holi ne kechdi, sen – bexabar.
Ular kim yotar taxtida bohuzur.
Qachon qorni ochlarning holin bilur.

HIKOYAT

Bir odamni mirshab qo'lin bog'ladi,
Bu holat dilin tun bo'yi dog'ladi.
Yetushdi qulog'iga mungli sado,
Qilur kimsa yo'qlikda nola-navo,
Qo'li bog'li o'g'ri eshitgach buni,
Dedi, nola tokay, bor ol uyquni.
Xudoga shukr qilgil, e kambag'al,
Qo'ling bog'lamabdir-ku mirshab dag'al.

Fig'on etma bechoralikdan sira,
O'zingdan ham ojiz kishi bor, qara.

HIKOYAT

Bilar erdi bir mulla xo'p pok o'zin,
Ko'rib yo'lda badmastni, yumdi ko'zin.
O'tib kibr ila, boqmadi loaqal,
Yigit turdi, unga dedi shul mahal:
Shukr qil, hamesha bu ne'matga san,
Bo'lib qolma mahrum g'ururing bilan.
Birov bandi bo'lsa sira kulmagil,
O'zing ham mabodo asir bo'lmagil.
Buni kim bilur, ertaga sen ichib –
Ko'chada yotursanmi mendek uchib.
Senga toqu masjid bo'libdir makon,
Birov butparast bo'lsa, dema yomon.

HIKOYAT

Go'zal but qadim butlaridan ajib,
Buni Sumanot¹ ichra ko'rdim kirib.
Chizilmish uning surati onchunon,
Chizilmas – chizolmas kishi hech qachon.
Kelur har tarafdin to'lib karvon,
U jonsiz jamolini ko'rsak debon
Bu butdan Xitoyu Chigil shohlari,
Vafojo' edi Sa'diy yanglig' bari.
Shirin so'zlilar har tarafdin kelur,
U tilsizning oldida nola qilur.
Toliqtirdi fikrimni bu mojaro,
Ki jonsizni jonli nechun der xudo.

¹ *Sumanot* – Hindistonning Gujarot viloyatidagi butxona.

Bir otashparast men bilan bor edi.
 Shirin so'zu, hamhujrayu yor edi,
 Muloyim so'z ila dedim: menga ayt,
 Taajjubda qoldim bu joyda shu payt.
 Nechun ushbu haykalni derlar xudo,
 Zalolat chahiga bo'lib muftalo?
 Yurolmas oyog'i, qo'li ushlolmas,
 Yiqitsang turolmas, ololmas nafas.
 Ko'zini ko'rarsanki bir qahrabo,
 Vafo ko'zlamoq, ko'zi toshdan xato.
 So'zimdan u do'st menga dushman bo'lib,
 Yonar erdi o'tdek g'azabga to'lib.
 Yig'ib keldi mug'larniyu¹ pirlarin,
 Edi men uchun katta xavfli yig'in.
 Hujum etdi bir qancha pozandxon,
 Suyakni talashib bo'lib itsimon.
 Ular nazdida egri yo'l to'g'ridek,
 Ko'rinmish bu haq to'g'ri yo'l egridek.
 Kishi garchi xo'b poku oqil erur,
 U ablahlar oldida johil erur.
 Ilojim yo'q erdi, qolib notavon,
 Murosa kerak bo'ldi menga shu on.
 Agar senga johil adovat qilur,
 Unga taslim o'lmoq muvofiq kelur.
 Ularning ulug'rog'ini maqtadim,
 Sen Asastovu Zandxonga rahbar dedim.
 Buning naqshi yoqqan juda menga ham,
 Chiroyli, go'zal bo'ylidir bu sanam.
 Badiiy erur surati begumon,
 Biroq menga mazmuni ermas ayon.
 Yo'lovchimanu tezda qilgum safar,

¹ *Mug'* – zardushtiylar, «Zand» – mazdoparastlarning kitobi.

Erurman yomon-yaxshidan bexabar,
Bilurman, bu shaxmatda farzin o'zing,
Bu yurt shohigadir nasihat so'zing.
Yo'qotgay yo'lin taqlid etgan kishi,
Bilib yurgan odamning o'ngdir ishi.
Bu suratni mazmunidan ber darak,
Tushungach beray unga men ham yurak.
Brahman¹ bo'lib shodu xurram shu on,
Ishondi, dedi: e aziz nuktadon,
Savoling haqiqat, so'zing mo'tabar,
Dalil istagan – maqsadiga yetar.
Shaharlar kezib, sen kabi, beadam,
Necha butni ko'rdimki jonsiz jasad.
Va lekin bu har tong qilib bahramand
Adolat qo'lini ko'targay baland.
Tuna bu kecha xohlasang, e aziz,
Bu sirni ko'rarsan o'zing shubhasiz,
Qolib u bilan tun bo'yi muntazir,
Quduq ichra Bejan² kabi men asir.
Qiyomat kunidek uzun bo'ldi tun,
Yuvuqsiz namoz o'qishardi butun.
Gunoh qilgan erkanmi man muhtalo,
Dilimda azobu tilimda duo.
Chalindi nag'ora – o'qing deb namoz,
Brahman o'lur deb chaqirdi xo'roz.
Qaro to'nli tunning imomi shu choq
Qinidan sug'urdi qilich yarqiroq.
Tushib tong cho'g'i so'xtaga ushbu dam,
Jahonni o't oldi bo'lib subhidam.
Degaysan bu holatda beixtiyor:

¹ *Brahman* – budda mazhabidagi ruhoni.

² *Bejan* – «Shohnoma» qahramoni.

«Kirib keldimi Zangborga¹ totor».
Yuvuqsiz mo'g'ullar, yo'lin bilmagan.
Chiqib keldi atrof har ko'chadan.
Yig'ildi u butxonaga barcha er,
Tariq siqqudek qolmadi unda yer.
Men uyqusizu qayg'u-g'am birla band,
U but nogahon qo'l ko'tardi baland.
Ular nola-faryod ko'tardi chunon,
Toshib ketdi go'yoki daryo shu on.
Ketib hamma butxona avloq edi,
Brahman kulib boqdi menga, dedi:
«Mana endi hech qolmadi maxfiy sir.
Xatosiz haqiqatning o'zi shudir».
U johilni bildimki qaysar ekan,
Mahol fikrini dilga mahkamlagan.
Haqiqatni aytolmadim shul zamon,
Kerak haqni botildan etmoq nihon.
Zabardast kishi yovga bo'lsa asir,
O'zin saqlamas ersa, dema daler.
Qilib hiyla shul dam chunon yig'ladim,
Pushaymonman aytgan so'zinga dedim.
Yig'imni ko'rib mayl etib qoldilar,
Tegirmon toshi suv bilan aylanar.
Chopib keldilar hamma hurmat qilib,
Qo'lim tutdilar hamma izzat qilib.
Suyak taxti ustidagi but tomon
Borib ayladim arzu uzrim bayon.
U but ilgin o'pdim qilib ehtirom,
Butu butparastlarga la'nat mudom.
Bo'lib necha kun butparastlarcha man,
Ular nazdida go'yo brahman.

¹ *Zangbor* – Qadimiy Habashistonning markazi.

Ishonchli kishi bo'ldim asta-sekin.
Bo'lib shodu xurram men undan keyin.
Solib tanba bir kecha butxonaga,
Chiyondek yugurdim man ul xonaga,
Borib taxtni sinchikladim onchunon,
Ko'zim tushdi bir pardaga nogahon.
Birov parda ortida turgan ekan,
Qo'liga bir ipning uchin ushlagan.
Tamoman ayon bo'ldi menga bu sir,
Dovud¹ ilgida mum bo'ldi temir.
Mug' ipning uchin asta tortgan hamon,
Ko'targay ekan but qo'lin shul zamon.
Brahman uyaldi yuzimdan shu dam,
Uyalgay ochilganda sir hamma ham.
U qochdi-yu, quvdim yetib unga man,
Yiqitdim quduq ichra boshi bilan.
Bilurman tirik qolsa, bo'lsa xalos,
Brahman chiqib mandan olgay qasos.
Mani o'ldirib aylagay toru mor,
Sirim bo'lmasin elga deb oshkor.
Buzuqvoshni tep qo'lga tushgan hamon,
Jazosini bermoq kerak beomon.
Agarda tirik qoldirarsan uni,
Seni begumon o'ldirar bir kuni.
Agar senga qullarcha xizmat qilur,
Topib vaqtin albatta boshing olur.
Yomon ketidan tushmagil avvalo,
Tushibsanmi, mahv et uni mutlaqo.
Boshin tosh bilan yanchidim shul nafas,
Bu haqda o'lik hech qachon so'zlamas.
Tushundimki, g'avg'o zo'raygay shu choq,

¹ Dovud payg'ambar. Uning qo'lida temir mumdek muloyim bo'lar ekan.

Uni qoldirib tunda qochdim uzoq.
Qamishzor aro o't qo'yarsan agar,
Juda ehtiyot bo'l, chiqar sherlar.
G'anim bo'lsa sendan ko'ra ustaroq,
O'q otma unga, yo otib, qoch yiroq.

Sen o'ldirma af'iy¹ ilon bolasin,
Gar o'ldirsang ul uyda bo'lma keyin.
Arilar inin qo'zg'asang, qoch shu on,
Yaqinroqda turma, u bergay ziyon.
Bu, Sa'diy so'zi ichra eng yaxshiroq,
Devor ostini kavlasang, qoch yiroq!
O'shandan keyin Hindga qildim safar,
U yerdan Yamanga, Hijozga qadar.
Yutardim zahar bir necha oyu kun,
Shirin bo'ldi komim faqat ushbu kun.
Buning shukri bo'lmas ado hech dam,
Boshim xizmatida oyoq bo'lsa ham.
U bandlar yechildi-yu, topdim najot,
Mening-chun o'git bo'ldi to men hayot.

TO'QQIZINCHI BOB

TAVBA HAQIDA

Yetib qoldi yetmishga umring bu kun,
Sen uyquda, umrni sovurding butun.
Gar ellik diramdan kamdir besh diram
Diling tinragay besh qo'li birla g'am.
Bekor o'tdi ellik yil umring qani,
G'animat bu besh kun senga qolgani.
Tili bo'lsa erdi o'likda agar,

¹ Af'iy – zaharli.

Der erdi qilib dodu faryodlar:
Umr o'tdi bizlarda g'aflat bilan,
Qo'lingdan bu fursatni boy berma san.

HIKOYAT

Yigitlik ajab shodlik payt ekan,
Kechin bazm qurdik yigitlar bilan.
Qilib yalla, yuzlar ochiq gul kabi,
Edik hammamiz sho'x bulbul kabi.
Nariroqda bir chol o'tirgan edi,
Sochi keksalikdan oqargan edi.
Yumilgan edi og'zi funduq¹ kabi,
Emas biz kabi pista yanglig' labi.
Borib bir yigit dedi: e otajon,
Nechun g'am chekib o'tiribsan bu on?
Boshingni ko'tar qayg'u-g'amdan biroz,
Yigitlar bilan o'tirib dilni yoz.
Ko'tardi boshini shu on puxta chol,
Javobiga boq, ma'nilik, barkamol:
«Chamanda agar tong nasimi esar,
Nihollarni xo'p yashnatar, o'stirar.
Ko'kat chog'ida yashnagay har boshog',
U, sarg'aysa, singay egilgandayoq,
Bahorda ko'kargay daraxt ulg'ayib,
To'kar bargini kuzda u sarg'ayib.
Yarashmaydi yoshlar-la men o'ynasam,
Yuzim keksalik tongidir o'ylasam.
Bugun sizgadir bazmning navbati,
O'tib ketdi bizdan huzur fursati.
Qarilik g'ubori boshimda, shu bas,
Yoigitlarcha yurmoqni qilmam havas.

¹ *Funduq* – toshyong'oq.

Sochim zog'ini qor bosib bu kun,
Uyat, bog'da bulbul bo'lish, men uchun.
Qilur jilva tovuş go'zallik bilan,
Ne kelgay bu parrexta shunqordan.
Hayot g'allasini o'rish bizniki,
Hayot ichra yayrab o'sish sizniki.
Gulistonimiz bo'ldi so'lg'in nuqul,
Kim undan terolgay edi endi gul.
Asoga suyandim, bolam, men bu kun,
Hayotga ishonmoq xato men uchun.
Bo'libdir qizil gul yuzim za'faron,
Quyosh sarg'ayarkan botar shu zamon.
Oyoq birla yurmoq yigitlar ishi,
Asoga suyanguvsi keksa kishi.
Go'dak men yigit desa ham ayb emas,
Qariga uyat yoshlik etsa havas.
Yigitda oqarguncha sochu soqol,
Gunohin olib go'rga yetgusi chol».

HIKOYAT

Tabib oldiga keldi bir xasta chol,
O'larman debon yig'ladi bemajol.
Tabibga dedi: tomirim ushlagil,
Oyoqda mador yo'q, ilojin degil.
Bu og'ir jasad shunga o'xshaydikim,
Degaysanki loyga botibdir tanim.
Tabib dedi: «Olamdan etgil safar,
Oyog'ing qiyomatda loydan chiqar.
Yigitlik qarilikda kelmas sira,
Oqib ketsa suv qayta kelmas sira.
Shoshilgan esang ham yigitlikda san,
Qarilikda ish qil, esu hush bilan.

Hayot davri oshganda qirqdan nari,
Urinmaki girdobga cho'kdi bari.
Havasni boshingdan chiqorgil tamom,
Havas payti o'tdi, tamom, vassalom.
Qaro shomim oqliqqa qo'ygach qadam,
Qocha boshladi shodligim dam-badam.
Nechuk sabza birla ochilsin dimoq?
Unar sabza qabrimda ertagayoq.
G'urur birla sayru tomosha qilib,
Bosib qanchalar qabrin o'tdik yelib.
Keyin kelguvchi naslimiz ham shu xil,
O'tarlar bosib qabrimiz muttasil.
Yuz afsus, o'tib ketdi yoshlik zamon,
Umr o'tdi behudaga, ming fig'on!
Ming afsuski, shunday ajoyib hayot,
Yashindek o'tib ketdi tez, besabot.
Dedi usta shogirdiga yaxshi so'z,
Umr o'tdi bir ish qilolmay hanuz.
Ming afsus, aziz umr o'tdi shu xil,
Bu qolgan nafas ham o'tar, xuddi yel.
Saodat uyida kishi bor agar,
Bu Sa'diy so'zin bitta harfi yetar.

* * *

Kuching bor-u maydon agar bo'lsa keng,
Bu maydonda hunar qil mardlarga teng.
Falak oldi davrimnikim, har kuni,
Edi laylatul qadring bir tuni.
U, kunlar g'animat ekan, bilmadim,
Bilindi-yu, ammo yo'qotgan edim.
Ot ustidasan, bor, ishing bo'lmasin,
Yuk ostida kekxa eshak naylasin.
Piyola sinib unga tushsa qadoq,

Uning narxi tushgay o'shal ondayoq,
Tushib yerga sindi qo'lingdan saning,
Qadoqdan bo'lak yo'q iloji aning.
Kim aytib edi, daryoga tashlagil,
O'zing tashlading, o'z ilojingni qil.
O'zolmas esang ham yugur poygada,
Umid uzma, chop garchi sen orqada.

HIKOYAT

Edim Fayd¹ cho'lida karvon bilan,
Oyog'imga bo'lgandi uyqu kishan.
Tuyachi, meni qahr ilan tur debon,
Tuya bo'ydasi birla urdi shu on.
Dedi jon kerak bo'lsa, tur, menga boq,
Sen uyg'anmading chalsa ham qo'ng'iroq.
Shirin uyqu sendek kelur menga ham,
Va lekin uzoq cho'lga qo'ydik qadam.
Bu shovqinda uyg'onmas ersang, gapir,
Qachon manzilingga yetarsan, axir?
Dovulni eshitdingmi, bilkim shu on,
Yetib qoldi manzilga ilk karvon.
Kishi yo'lda yotsa, ketib hamsafar,
Bu turguncha qolmas ulardan asar.
Yigitlik yuzini bosibdir ajin,
Oqardi soching uyqudan, tur, achin.
Hayotdan umid uzdim ul kundayoq,
Soqolim qarosiga tushganda oq,
Umiding agar ersa xirmon qilish,
Ekinni qil o'z vaqtida parvarish.
Belingdan-ku suv oshdi, ko'zingni och,
Agar boshdan oshsa topilmas iloj.

¹ *Fayd* – Makka yo'lidagi cho'l.

Malomat bilan qilma umringni hayf,
Shu fursat g'animatdir, «Alvaqtu – sayf»¹.

* * *

O'tirgan eding boshqalar o'rninga,
Birov ham o'tirgay sening o'rningga.
Kecha o'tdiyu erta ma'lum emas,
Hisob et shu kunni – g'animat nafas.

HIKOYAT

Vafot etdi Jamshedning bir xotini,
Ipakka o'rab qo'ydi qurtdak uni.
Mazoriga keldi o'tib qancha kun,
Uning motami birla yig'lash uchun.
Ko'rarkim chiribdir u shohi kafan,
O'zicha dedi – oxiri shul ekan,
Buni qurtdan olgan edim zo'rlab,
Lahad qurtlari qayta olmish yalab.
Bu bog' sarvi qancha baland bo'lsa ham,
Boshini ajal yeli etguvsi xam.
Topar voya o'ttiz yil ichra nihol,
Yemirgusi bir zumda qattiq shamol.
Jigarni kabob etdi bu ikki bayt,
Rubobchi o'qirdi esimda u payt:
Ming afsuski bizsiz kelur ko'p bahor,
Ochilgay kulib, yashnagay lolazor.
Kelur fasllar qancha yillar, esiz,
U vaqtlarda biz g'ishtu tuproq biz.

¹Bu arabcha maqolning ma'nosi: Umr – o'tkir qilich. Ya'ni, umr o'tkir qilich kabi tez o'tadi, demakdir.

HIKOYAT

Topib oldi bir tillo g'isht bir kishi,
Hamisha xudojo'ylik erdi ishi.
To'sib aqlini qildi tillo garang,
Bu savdo bilan qalbini bosdi zang.
Butun tun bo'yi o'zicha der edi,
Tuganmas umr bo'yicha, der edi.
Yalinmoq, tilanmoq bilan qomatim
Birovga egilmas, ketib hurmatim.
Solay osti marmar ajoyib bino,
To'sin, vassa, shamshodu ud-hokazo.
Solay bir go'zal hujra do'stlarga xos,
Ochay bog'dan eshik, yozay soz palos.
Zerikdim bu yirtiq-yamoq dastidan,
O'choq taftida yondi-ku jonu tan.
Pishirsin taomlarni oshpaz kelib,
Qilay parvarish jonni, rohat qilib,
Juda qiynadi jonni qattiq namat,
Yotay parqu shohida endi faqat.
Ketib aqli bo'ldi o'zi telbatob,
Boshin mag'zi hirs panjasida xarob.
Chiqib ketdi sahroga mag'rurlanib,
Na turdi, na o'ltirdi u aylanib.
Birov go'r o'yib loy qilardi shu kun,
Bu go'r loyidan g'isht quymoq uchun.
Chuqur o'yga botdi o'shal damda chol,
Dedi nafsiga ko'rgilu ibrat ol.
U g'ishtga diling berding, e bexabar,
Seni loy qilib bir kuni g'isht quyar.
Tama' og'zi ochiq erur doimo,
Yumilmaydi bir luqmadan mutlaqo.
Kech, e himmati past, bu g'isht bilan.

To'solg'ungmi daryoni bir g'isht bilan.
Pulu mol yig'ishni qilursan xayol,
Etib umr sarmoyasin poymol.
G'urur sangi aqling ko'zini to'sar,
Kibr o'ti umr xirmoniga tushar.
G'urur surmasidan pok etgil ko'zing,
Yotib go'r aro surma bo'lgung o'zing.

HIKOYAT

Urishgandi ikki yigit xuddi yov,
Takabburda sherdek edi har ikkov.
Qochardi ular bir-biridan chunon,
Ular ko'ziga tor edi keng jahon.
Ajral keltirib bittasiga zavol,
Olib ketdi ayshin etib poymol,
Bo'lib boshqasi shod, u o'lgan uchun,
Mazoriga bordi o'tib necha kun.
Go'rin ustini ko'rdikim loyshuvoq,
Edi joyi avvalda zarrin ravoq.
Yurib keldi boshiga xursand chunon,
Der erdi kulib o'zicha shodmon.
Bu qanday sevinchli u odam uchun,
O'lib dushmani, yori hamdam bu kun.
O'lib dushmani, u qolib bir nafas –
Keyin o'lsa, yig'lash kerak ham emas.
Dilida adovat to'la kuch bilan,
Ochib go'rni ko'rdi, chiribdir kafan.
Boshida toj o'rnida tuproq yotar,
Ko'zida nur o'rnida tuproq yotar.
Lahad, xuddi zindon, u bandasimon
Yer erdi qumursqa tanin beomon.
Falak aylamish oy yuzini hilol,

Tanin qiltiriqdek qilib bemajol.
U kuchli qo'lin, kaftu barmoqlarin –
O'lim ajratibdir bo'g'indan, bo'g'in.
Juda rahmi keldi, dedi ohu voy,
Ko'zin yoshidan qildi ul go'rni loy.
Pushaymon bo'lib qilmishidan shu on,
O'zi toshga yozdirdi shunday debon:
Birov margidan bo'lmagil shodmon,
Seni ham tirik qo'ymagay bu jahon.
Bu bosh oxiri bo'lgusidir fano,
Degaysan ko'zi yo'q edi mutlaqo.
Chopardim baland tepani bir zamon,
Qulog'imga yetdi bu oh-u fig'on:
Hushing birla teshangni ohista ur,
Yuzu, ko'zu, boshu quloq shundadir.
U kun shoh edim, mulkim erdi jahon,
Qaro yerga tengman, qara, bu zamon.

HIKOYAT

Mening bir kecha qasdim erdi safar,
Turib katta karvon-la yurdim sahar.
Shamol turdi, qo'rqinchli o'ynar qyun,
Qorong'u edi ko'zga olam butun.
Yo'l ustida bir qiz ota ko'zidan,
Changin artar erdi ro'moli bilan.
Dedi otasi, e qizim, jonginam,
Meni xo'p sevarsan-da, chaqqonginam!
Bu ko'zlarga tuproq to'lur onchunon,
Uni tozalab bo'lmagay hech qachon.
G'arib qabrimizda shamollar esar,
Bu tuprog'imiz har tomon tarqatar.

Seni nafsing ul surguchi otsimon,
Olib borgusi tez surib go'r tomon.
Uzangidan olsa oyog'ing ajal,
Jilovini tortish mahol ul mahal.

TANBEH

Jahon bir nafas, saqlagil har nafas,
Yetuk oldida bir jahondir nafas.
Jahon shohi Iskandari hukmron,
O'tarda o'zi, qoldirarda jahon,
Bir olam beray bir nafas-chun dedi,
Bu maqsad sira mumkin ermas edi.
O'rib ekanin ketdi har qaysi jon,
Faqat qoldi nom, yaxshidir, xoh yomon.
Bu bo'ston hamesha shu xil gul berur,
Mudom o'ltirib do'stlar gul terur.

HIKOYAT

Otam davri yodimdadir doimo,
Uni yorlaqab, rahmat etsin xudo.
Olib berdi ul, yosh edim, men uchun
Bir oltin uzuk, lavhu daftar u kun.
Birov bitta xurmo berib nogahon,
Uzukni olib qo'ydi mendan shu on.
Bola bilmagaykim uzuk na erur,
Berib bitta qand har kishi ham olur.
Go'daklarcha sen ham umr qiymatin,
Bilolmay olarding, desa qand shirin.

HIKOYAT

Boqardi birov bo‘rining bolasin,
Biroq ulg‘ayib yordi o‘z xojasin.
Yotib jon berish holatida edi,
Shirin so‘zli bir kimsa shunday dedi:
Shu xil siylasang dushmaningni agar,
Bilib qo‘yki, payt topsa qorning yorar.

HIKOYAT

Birov shohni ranjitdi, birdan uni –
Dedi dushmaniga sen o‘ldir buni.
Qolib dushmanin ilgida u asir,
O‘zicha der erdi: netarman axir.
O‘zimdan agar do‘stni ranjitmasam,
Ko‘rardimmi, men, dushmanimdan sitam.
Gar oqil esang, do‘stdan kechmagil,
O‘shanda g‘anim ko‘z ocholmaydi, bil.
Agar do‘stini har kishi ranjitar,
Uning dushmani balki po‘stin shilar.
Agar sen esang do‘st bilan jonu tan,
G‘anim yemrilur shoxu ildizi bilan.

HIKOYAT

Bir ablah o‘zi el haqin yer edi,
U har damda shayton lain der edi.
Ko‘rib yo‘lda shayton unga dedikim:
Seningdek razil dunyoda ko‘rmadim,
Axir, dilda-ku ikkimiz do‘st biz,
Nega tig‘ ko‘tarding menga, betamiz?!

HIKOYAT

Unutmasman aslo u yoshlikda men,
Hayitga borib erdim otam bilan.
Alanglab tomosha bilan men shu on,
Otamdan adashdim, boqib har tomon.
Biroq vahmu dahshatda qildim tovush,
Qulog'imni cho'zdi otam, kirdi hush.
Dedi: necha marta dedim-ku, axir
Bo'shatma qo'lingni etakdan taqir.
Bola yakka hech qolmasa yaxshidir,
Ko'rmagan yo'lni topish mushkul erur.
Yugurmoq kerak yaxshilar ortidan,
Topar bu saodatni chin istagan.
Razillar bilan bo'lmagil hamtovoq,
Yo'q ersa to'kilgusi obro' biroq.
Boshqoq ter yurib Sa'diydek tinmayin,
Yig'arsan butun ma'rifat xirmanin.

HIKOYAT

Birov g'amladi g'alla yoz fasliyoq,
Dilin qish g'amidan bo'shatdi shu choq.
Tamom g'allaga qo'ydi o't bir kecha,
U ablah yomon mast edi o'lguncha.
Qo'lida sira g'allasi yo'q uchun,
Boshqoq tergali chiqdi ikkinchi kun.
Uni ko'rdilar ko'chada darbadar,
Birov derdi: o'z o'g'liga, e jigar,
Qaro kunga qolmay desang ushbu xil,
Bo'lib jinni, g'allangga o't qo'ymagil.
Yomon o'tsa umring agar, e osov,
Qo'yibsan o'zing xirmoningga olov.

O'zin xirmanin kuydirib avvalo,
Boshqoq axtarish, jinnilik mutlaqo.
Dili titragay dehqon o'ylanib,
Niholim mening meva bermasmi deb.
Urug' sochmayin xirmon olmoq mahol,
Tama'lik kishilar bo'lur xomxayol.
Nihol ekkan odam yegay mevasin,
Urug' sochgan odam terar donasin.



Adabiy-badiiy nashr

ADABIYOT XRESTOMATIYASI

Sa'diy

**GULISTON
BO'STON**

8-jild

G'oya muallifi va loyiha rahbari *Laziz Tangriyev*

Muharrir *Sanjar Tursunov*

Badiiy muharrir *Sh.Mirfayozov*

Texnik muharrir *D. Jalilov*

Musahhih *F.Ortiqova*

Kompyuterda sahifalovchi *U.Valijonova*

Nashriyot litsenziya raqami AI № 290 04.11.2016 y.

2018-yil 31-yanvarda bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$. Times New Roman garniturası.

Ofset bosma. 14,91 shartli bosma toboq. 13,95 nashr tobog'i.

Adadi 3000 nusxa. 78 raqamli buyrtma.

Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

Telefonlar: (371) 241-25-24, 241-48-62, 241-83-29

Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz

info@gglit.uz

15910c

Sa'diy.

Guliston. Bo'ston: J-8: /Sa'diy. Toshkent: G'afur G'ulom nomida-
gi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 288 b. Maktab adabiyoti xres-
tomatiya

Benazir shoir va mutafakkir Sa'diy badiiy ijodda o'z maktabini
yarata olgan adibdir. Ushbu kitobga allomaning she'riy, nasriy hikoya va
masallardan tashkil topgan «Guliston», «Bo'ston» asarlari kiritilgan.